



Rus adabiyoti darsligi

G.N. Trovopolskiy



OO BIM
QORAQULOQ

Rus adabiyoti durdonalari

GAVRIIL NIKOLAYEVICH TROYEPOLSKIY



OO BIM QORAQULOQ

(Qissa va hikoyalar)



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»

2021

Rus tilidan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi


Muhabbat YO'LDOSHEVA tarjimasi

Rus adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri, dramaturg va ssenariynavis G.N. Troyepolskiy yer yuzidagi hayotni ishtiyoq bilan himoya qiladi, insonning tabiat oldidagi ulkan mas'uliyati haqida kuyinib hikoya qiladi.

Kutilmaganda muammoga duch kelgan egasiga sodiq it – Bim haqidagi ushbu hikoya siz aziz kitobxonlarni befarq qoldirmaydi. Bim, tug'ilishidanoq oq rangga ega bo'lib, yolg'iz pensioner Ivan Ivanovich bilan yashaydi. To'satdan, uning yuragidagi og'riq o'z kuchini ko'rsatib, uni Moskvaga olib ketishadi va itni qo'shniga ishonib topshirishadi, lekin u uy egasini qidirib kvartiradan chiqib ketadi.

Nazoratsiz sayohat qilib, Bim ko'p odamlar bilan uchrashadi – yaxshi va yomon, keksa va yosh, ularning hammasi itning ko'zlari bilan, uni idrok qilish prizmasi bilan tasvirlangan. Bimga achinish va yordam berishga urinishdan tortib, shafqatsizlikka qadar har xil yo'llar bilan muomala qilinadi. Turli sabablarga ko'ra, hech kim uni doimiy ravishda boshpana qila olmaydi. Ko'p sinovlardan o'tib, xo'jayinining qaytishini deyarli kutganidan so'ng, Bim hovlida itning borligidan qutulmoqchi bo'lgan ayvondagi qo'shnisi tomonidan xiyonat va tuhmat qurboni bo'ladi.







*Aleksandr Trifonovich Tvardovskiyga
bag'ishlanadi.*

Birinchi bob

BIR XONADA IKKOVOLON

U o'zini u yoqdan bu yoqqa tashlab, lapanglab yurdi-yurdi-da, to'satdan umidsizlik to'la mungli tovushda angillay boshladi. U onasini qidirardi. Shunda egasi uni tizzasiga o'tqazib, sutli so'rg'ichni og'ziga suqdi.

Endigina bir oylik bo'lgan, hali hayotda hech narsani tushunmaydigan, boz ustiga onasidan ayrilgan kuchukchaning boshqa nimayam iloji bor edi, deysiz? Shu tufayli ham u mungli konsertlar qo'yishga urinar, lekin birozdan so'ng sutli idishni quchoqlagancha egasining qo'lida uxlab qolardi.

Oradan to'rt kun o'tgach, mittivoy inson qo'lining taftiga ancha o'rganib qoldi. Kuchukchalar erkalashga javob qaytarishni tez o'rganishadi.

U hali o'zining nomini bilmasdi. Oradan bir hafta o'tgach esa u o'zining Bim ekanligidan xabar topdi.

Ikki oylik bo'lganida u hayratga solguvchi narsalarni: kuchukchaning bo'yi yetmaydigan yozuv stolini, devorga osib qo'yilgan miltiqni, ov xaltasini va uzun sochli odam yuzini ko'rdi. Bularning bariga tezgina o'rganib qoldi. Devordagi odamning qimirlamasligiga ajablanmasa ham bo'ladi: qimirlamayaptimi, bu o'zining ishi. To'g'ri, keyinchalik u devordagi hoshiya ichidan xuddi derazadan boqayotgandek qarab turuvchi odam yuzi nimani bildirarkin degan xayolda unga goh-goh qarab qo'yardi.

Ikkinchi devor qiziqroq edi. U boshdan oyoq turli-tuman uzunchoq, chorqirra bo'laklardan iborat bo'lib, egasi ulardan birortasi-

ni sug'urib olishi va yana joyiga qo'yishi mumkin edi. Bim to'rt oyga to'lganidan so'ng orqa oyoqlarida tursa, bo'yi o'sha chorqirra bo'laklarga yetadigan bo'ldi-yu, darrov ulardan birini sug'urib olib, nimaligini ko'rishga urindi. Lekin u shitirlab, Bimning tishlarida bir varaqni qoldirganicha yerga tushib ketdi. Tishiga ilingan varaqni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlash Bimga judayam qiziq tuyuldi.

– Bu yana nimasi? – o'shqirdi egasi. – Mumkin emas! – u Bimning burnini kitobga ishqaladi. – Bim, mumkin emas! Mumkin emas!

Bunaqangi o'rgatishdan so'ng hatto inson ham o'qish niyatidan qaytishi mumkin edi-yu, lekin Bim bunday qilmadi. U boshini goh bir, goh ikkinchi tomonga egganicha diqqat bilan kitoblarga tikildi. Aftidan, shu onda «Agar bunisiga tegish mumkin bo'lmasa, boshqasini olsam bo'ladi» degan qarorga keldi, shekilli. U kitobning tikilgan joyidan ohista tishladi-da, divanning tagiga sudrab olib kirib ketdi. Bu yerda kitob muqovasining bir burchagini, keyin ikkinchisini chaynab ko'rdi. Ikkinchi kitobning boshiga shu ko'yni solayotganida esa egasining tanbehi esidan chiqib, uni xonaning o'rtasiga sudrab olib bordi. Keyin kitobning atrofida sakragancha panjalari bilan tilkalay boshladi.

Ana shu vaqtda u ilk bor «og'riydi» va «mumkin emas» degan so'zlar nimaligini sinab ko'rdi. Egasi stol yonidan turib, qat'iy ovozda buyurdi:

– Mumkin emas! – u kuchukchanning qulog'idan cho'zg'iladi. – Hoy, qovoqkalla, «Taqvodorlar va dahriylar uchun Injil»ni rasvo qilibsan-ku! – U yana kuchukchanning qulog'idan cho'zg'iladi. – Mumkin emas! Kitoblarga tegish mumkin emas!

Bim angillagancha yerga dumalab, to'rttala panjasini tepaga ko'tarib oldi. Kuchukcha yerda chalqancha yotganicha egasiga mo'ltirar va nimalar bo'layotganini sirayam tushunmas edi.

– Mumkin emas! Mumkin emas! – ataylab qayta-qayta uqtirardi egasi uning burnini kitobga ishqalab, lekin endi jazolamasdi. Keyin kuchukchani qo'liga ko'tarib, asta siladi va yana o'sha so'zni qaytardi. – Mumkin emas, mittivoy, kitoblarga tegmagin.

Egasi joyiga o'tirdi. Bimni tizzasiga o'tqazdi.

Shu tariqa, Bim jajjiligidayoq egasidan «Taqvodorlar va dahriylar uchun Injil»da berilgan pand-nasihatlardan birini tinglashga muvaffaq bo'ldi. Kuchukcha egasining qo'lini yaladi va uning yuziga diqqat bilan tikildi.

U egasi o'zi bilan gaplashishini yaxshi ko'rar, biroq hozircha faqat «Bim» va «Mumkin emas» degan ikkitagina so'zni tushurardi, xolos. Shunga qaramay, uning oppoq sochlari peshonasiga sochilib tushishini, mehribon lablari qimirlashini kuzatish, ayniqsa, iliq, yoqimli qo'llari yelkasini silashi judayam xush yoqardi. Illo, Bim egasining kayfiyati yaxshi yoki g'amgin ekanligini, maqtayotgani yoki koyiyotganini, chaqirayotgani yoki haydayotganini aniq-ravshan bila olardi.

Egasi ba'zan ma'yus tortib qolardi. Shunda u o'z-o'zi bilan so'zlashar va Bimga ham gapirib qolardi:

– Tentakvoy, shu tariqa yashayapmiz-da... Bolakay, nega unga qarayverasan? – u devordagi suratga ishora qilardi. – Eh, og'ayni, u olamdan o'tgan. U endi yo'q. Yo'q... – egasi Bimni silar va ishonch bilan derdi. – Eh, tentakkinam Bimka, hech narsani tushunmaysand!

Biroq u qisman haq edi. Chunki Bim hozir egasi u bilan birga o'ynamasligini tushunar, bundan tashqari «tentakvoy» va «bolakay» degan so'zlar o'ziga tegishli ekanligini ham bilardi. Shuning uchun ham kattakon do'sti shu so'zlarni aytib chaqirganida, Bim g'izillaganicha egasi tomon oshiqardi. Shu yoshdanoq ovoz ohanglarini ajratib olyaptimi, demak u aqlli it bo'lib ulg'ayishi aniq edi.

Biroq itlarning o'z turdoshlari orasida tutgan o'rnini faqatgina aqli belgilaydimi? Afsuski, yo'q. Bimning aqliy qobiliyatidan boshqa sifatlari istalganidek emasdi.

To'g'i, u uzundan uzun shajaraga ega bo'lgan zotli setterlardan dunyoga kelgandi. Ulardan har birining ajdodlari o'zining shaxsiy varaqasiga, shahodatnomasiga ega edi. Egasi shu hujjatlar bo'yicha Bimning nafaqat katta bobosi va katta buvisini, agar istasa, ularning ham katta bobo-buvilarini aniqlashi mumkin edi. Bularning bari yaxshi, albatta. Biroq Bim qanchalik fazilatlariga ega bo'lmasin, kattagina nuqsonga ega ediki, bu keyinchalik butun taqdiriga ta'sir

o'tkazgandi. Gap shundaki, garchi u shotland setteri (setter-gordon) zotiga mansub bo'lsa-da, biroq mo'ynasining rangi noodatiy edi. Mezonlarga ko'ra, setter-gordon zotli ovchi itlar mo'ynasining tusi nafaqat qora, balki sal zangorisimon yaltiraydigan – qarg'a qanotli rangida, chekkalari aniq belgilangan yorqin, qizg'ish-mallarang xollari bo'lishi kerak, hatto oq qashqa ham nuqson hisoblanadi.

Bimning esa badani oppoq bo'lib, sarg'ish xollar va arang ko'zga tashlanadigan mallarang nuqralar bilan qoplangan, faqat bitta qulog'i va bir oyog'i haqiqatan ham qarg'a qanotidek qora tusda bo'lib, ikkinchi qulog'i sarg'ish-mallarang tusli edi. Bu aql bovar qilmaydigan g'aroyib kuchukchaning asl zoti toza setter-gordon bo'lsa-da, biroq tusi mutlaqo boshqacha edi. Qaysidir bir uzoq ajdodi Bimda o'zini namoyish etgan, ota-onasi – gordonlar, u esa albinos¹ edi.

Umuman olganda, turli rangli quloqlari va aqlli jigarrang ko'zlari ostidagi xollari bilan Bimning tumshug'i yanada chiroyliroq, ko'zga yaqqolroq tashlanuvchi, aytish mumkinki, hatto boshqa itlarnikiga nisbatan aqlli roq yoki falsafiyroq, o'ychanroq ko'rinardi. Bularning barini esa tumshuq emas, balki itning yuzi desa ham bo'ladi, albat-ta. Biroq kinologiya² qonunlariga ko'ra, muayyan holatdagi oq tus nasl buzilishining alomati hisoblanadi. Boshqa har taraflama olgan-da juda chiroyli it bo'lsa-da, biroq mo'ynasining mezonlariga ko'ra uning nasli shubhali, hatto aynigan hisoblanardi. Bimning kulfati ana shundan iborat edi.

Turgan gapki, Bim o'zining tug'ilgandagi nuqsonidan bexabar edi, zero tabiat hatto kuchukchalarga ham ota-onasini tanlash im-koniyatini ato etmagan. Hozircha u shunchaki yashar va hayotidan mamnun edi.

Lekin egasi ko'p tashvishlanar edi: Bimga ovchi itlar orasidagi mavqeyini belgilaydigan nasl shahodatnomasini berisharmikan yoki u bir umr e'tibordan chetda qolib ketaveradimi? Bu faqat olti oyga to'lganida ma'lum bo'ladi, chunki kuchukchalar shu yoshida zotli it deb ataluvchi mezonga yaqinlashadi (bu qonun ham kinologiyada belgilangan).

¹ *Albinos* – organizmda o'z zotiga xos me'yoriy rang beruvchi pigment yetishmasligi.

² *Kinologiya* – itlarni o'rganuvchi fan.

Bimning onasini boqadigan odam allaqachon oq kuchukchani yaroqsizga chiqargan va uni suvga cho'ktirib yuborishga qaror qilgandi, biroq shunaqangi yoqimtoy kuchukchaga rahm qilgan bir g'alati odam topilib qoldi. O'sha g'alati odam Bimning hozirgi egasi edi. Unga kuchukchaning ko'zlari yoqib qolgandi. «Ko'zi aqlli ekan», dedi u. Buni qarang-a! Endi esa kuchukchaga zoti haqidagi shahodatnomani berishadimi yoki yo'qmi degan savol ko'ndalang turibdi.

Ayni vaqtda egasi Bimdagi bunaqangi me'yordan chetlashuv qanday paydo bo'lganini aniqlashga urinardi. U haqiqatni aniqlash va vaqti kelganida Bimning aybdor emasligini isbotlash ilinjida ov va itshunoslikka oid barcha kitoblarni titkilab chiqdi. Shuning uchun ham u turli kitoblardan Bimning haqiqatan ham setterlar zotiga mansubligini isbotlaydigan nimaiki topsa, barini qalin daftarga yozib borardi. Bim endi uning do'stiga aylangandi, zero do'stlarni doimo qutqarish kerak. Aks holda Bim ko'rgazmalarda g'olib bo'lib, ko'ksida oltin medallarini shiqirlatib yurolmaydi. Ovda tillaga teng it bo'lsa ham, zotlilar orasidan chiqarib yuboriladi.

Bu yorug' dunyo qanchalar adolatsiz-a!

Ovchi xotiralari

So'nggi oylarda Bim sezdirmaygina mening hayotimga kirdi va undan mustahkam o'rin egalladi. U nimasi bilan mehrimni qozondi? Mehribonligi, cheksiz ishonuvchanligi va iltifotliligi bilan, axir bu tuyg'ular benazirdir. Agar bular orasiga keyinchalik xushomadgo'ylik aralashsa, hammasini – mehribonlikni ham, ishonuvchanlikni ham, iltifotlilikni ham soxtalikka aylantiradi. Xushomadgo'ylik – mudhish sifat. Xudo ko'rsatmasin! Biroq Bim hozircha jajji va yoqimtoy kuchukcha, xolos. Uning qanday bo'lishi menga, ya'ni egasiga bog'liq.

Qiziq, men ham ba'zan o'zimda ilgari mavjud bo'lmagan holatlarni sezyapman. Masalan, it tasvirlangan suratni ko'rsam, eng avvalo uning tusiga va zotiga e'tibor qarataman. Unga shahodatnoma berishadimi yoki yo'qmi deb xavotirlanayotganim o'zidan darak beryapti.

Bir necha kun muqaddam muzeydagi badiiy ko'rgazmada bo'ldim va darhol XVI asrda yashagan musavvir Yakopo Bassanoning «Muso alayhissalom xarsangtoshdan suv chiqardi» nomli suratiga e'tibor qaratdim. Suratda eng oldingi o'rinda tasvirlangan it iskovuchlar zotiga mansub ekanligi aniq, biroq tusi g'alati edi: badani oq, qop-qora tumshug'ini oq chiziq kesib o'tgan, burni qora, chap yelkasida qora dog'i bor, dumg'azasi ham qora. Holdan toygan, suyaklari sanalib qolgan it insonlarning tovog'idagi uzoq kutilgan suvni yutoqib ichmoqda.

Ikkinchi itning ham quloqlari qora, juni uzun edi. Tashnalikdan sillasi qurigan bu it sabr-toqat bilan o'zining navbati kelishini kutmoqda.

Uning yonida – quyon va xo'roz, chap tomonida ikkita qo'zichoq tasvirlangan.

Musavvir nima demoqchi bo'lgan?

Axir shundan bir daqiqa muqaddam ularning bari tushkunlikka tushishgan, zarracha ham umidlari qolmagan edi. Ular o'zlarini qullikdan qutqargan Moiseyga qarab: «Oh, qani endi Misr zaminidagi go'sht pishayotgan o'choqning yonida o'tirgan, to'yib non yeya oladigan xo'jayinlarimizning qo'lidan ajal topganimizda edi! Lekin sen bizni manavi cho'l-biyobonlarga olib kelib, barimizni ochlikdan o'ldirmoqchisan», – deyishgan edi.

Qullik ruhi insonlarga qanchalik chuqur singib ketganini ko'rgan Muso alayhissalom katta qayg'uga botdi: to'yib non yeyish va o'choqdagi go'sht ular uchun ozodlikdan-da azizroq edi. Mana, u xarsangtoshdan suv chiqarishga muvaffaq bo'ldi. O'sha pallada uning ortidan ergashganlar farovonlikka erishgani Bassanoning suratidan ham sezilib turardi.

Ehtimol, musavvir insonlarning kulfatdagi qo'rqqoligi uchun ta'na, sodiqlik, umid va fidoyilikning ramzi sifatida itlarni asosiy o'ringa chiqargandir? Hamma narsa bo'lishi mumkin. Bunga ancha vaqt bo'lgan.

Yakopo Bassanoning surati to'rt yuz yil muqaddam chizilgan. Nahotki Bimning oq va qora dog'lari o'sha davrlardan beri kelayotgan bo'lsa? Bunday bo'lishi mumkin emas. Ammo tabiat tabiatligini qiladi.

Biroq bu Bimning tanasi va quloqlarining rangiga qo'yilgan ayblovni bir chetga olib qo'yish uchun yetarli emas. Axir misollar qanchalik qadimiy bo'lsa, uni atavizm va noto'liqlikda ayblash shunchalik osonlashadi.

Yo'q, boshqa biron narsa izlab topish kerak. Kinologlarning bi-rontasi Bassanoning suratini eslab qolganida ham, juda bo'lmaganda «Bimning qora quloqlari qanday ahamiyatga ega?» deyish mumkin.

Bim yashagan davrga yaqinroq misollarni qidirib ko'ramiz.

Ovchi itlar mezonlaridan ko'chirma: «*Setter-gordon zoti Shotlandiyada yaratilgan... Bu it zoti XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida paydo bo'lgan... Zamonaviy shotland setterlari o'zining kuchi va yirik gavda tuzilishini saqlab qolish bilan birga tezroq harakatlanadilar ham. Beozor, yumshoq fe'lli, itoatkor va yuvosh bu itlar erta va osongina ishlashni o'rganadilar, ulardan botqoqliklarda ham, o'rmonlarda ham muvaffaqiyatli foydalanish mumkin... Bu it zotiga boshini yag'rinidan pasaytirmagan holda baland tutib, xotirjamlik bilan adl turish xosdir...*»

«Ovchilar taqvimi» va «Rossiya baliqlari» kabi ajoyib kitoblarning muallifi bo'lgan L.P. Sabaneyevning ikki tomlik «Itlar» nomli kitobidan:

«Agar ko'plab asrlar davomida setterlar asosida uyda tarbiyalangan ov itlarining qadimiy zotini nazarda tutadigan bo'lsak, unda setterlar eng madaniyatli va eng ziyoli it zoti ekanligidan aslo ajablanmaymiz».

Shunday! Turgan gapki, Bim eng ziyoli itlar zotiga mansub. Bu ma'lumot asqotib qolishi mumkin.

L.P. Sabaneyevning o'sha kitobidan:

«1847-yilda Perlend buyuk knyaz Mixail Pavlovichga sovg'a qilish uchun Angliyadan ikkita o'ta noyob zotli, chiroyli ajoyib setterlarni olib keldi... Bu itlar bebaho bo'lib, 2000 rubl tura-digan otga almashtirilgan edi...» Qara-ya! Sovg'a qilish uchun olib kelib, yigirmata krepostnoy dehqonning narxini shilib olib-di. Ammo bunga itlar aybdormidi? Bunga Bimning nima daxli bor? Bu yaramaydi.

O'z davrida tabiatsevar, ovchi va itchilik mutaxassisi sifatida tanilgan S.V. Penskiyning L.P. Sabaneyevga yozgan maktubidan:

«Qrim urushi vaqtida men «Krechinskiy to'ylari»ning muallifi Soxovo-Kobilinda judayam yaxshi qizil setterni va Ryazanda yashovchi rassom Pyotr Sokolovda sarg'ish-ola tusli setterni ko'rganman».

Mana, bu maqsadga yaqinroq. Qiziq, o'sha paytda hatto qariya ham setter boqqan ekan. Rassomning setteri esa sarg'ish-ola tusli bo'lgan.

Bim, sening zoting o'shalarga borib taqalmasmikan? Qaniydi! Lekin unda nega... Qulog'i qora? Tushunib bo'lmaydi.

O'sha maktubdan:

«Shuningdek, moskvalik saroy shifokori Bers ham qizil setterlar zotini yetishtiradi. U o'zining qizil setterlaridan birini marhum imperator Aleksandr Nikolayevichning qora setteri bilan chatishtiradi. Bundan qanday kuchukchalar dunyoga kelgani va ular qayoqqa ketgani noma'lum. Bilganim shuki, ulardan bittasini graf Lev Nikolayevich Tolstoy o'zining qishlog'ida katta qilgan edi».

Shoshma! Gap shu yerda emasmikin? Oyog'ing va qulog'ingning qoraligi Lev Nikolayevich Tolstoyning itidan o'tgan bo'lsa, unda sen hatto shaxsiy varaqasiz ham baxtli kuchukchasan, Bim. Dunyodagi barcha kuchukchalar orasida eng baxtlisisan. Buyuk adib itlarni yaxshi ko'rardi.

Yana o'sha maktubdan:

«Imperatorning qora setterini men Ilyinskda, hukmdor Moskvadagi ovchilik jamiyatining boshqaruv a'zolari taklif etilgan ziyofatdan keyin ko'rganman. U judayam yirik gavdali va o'ta chiroyli uy iti bo'lib, boshini adl tutar, biroq unda setterlik nuqs kam, boz ustiga oyoqlari judayam uzun va bir oyog'i mutlaqo oppoq edi. Aytishlaricha, ushbu setterni marhum imperatorga qandaydir polyak pani sovg'a qilgan ekan, bundan tashqari, o'sha itning nasldor emasligi haqida mishmishlar ham yurardi».

Demak, polyak pani imperatorga firib beribdi-da? Bo'lishi mumkin. Itlar borasida ham shunaqasi bo'lishi mumkin.

Eh, imperatorning qoyilmaqom qora iti-ya! Lekin bu yerda yana Bersning «g'ayrioddiy sezish qlobiliyati va ajoyib zakovatga ega» sariq setterining qoni ham oqmoqda. Bim, demak sening oyog'ing imperatorning qora itidan meros bo'lsa ham, o'zing aslida buyuk adib itining avlodi bo'lib chiqishing ham mumkin... Yo'q, Bim, bunaqasi ketmaydi, imperator iti haqida tumshug'ingniyam ochma. U bu yerda mutlaqo yo'q! Faqat u yetmay turuvdi.

Bimni himoya qilish borasida bahsli vaziyat chiqib qolsa nima qilish kerak? Turgan gapki, Suxovo-Kobelin ham vaqti bo'yicha, ham tusi bo'yicha to'g'ri kelmaydi. Faqat Lev Nikolayevich Tolstoy qoladi: a) vaqti bo'yicha hammadan ko'ra yaqinroq; b) uning otasi qora, onasi esa qizil setter bo'lgan. Hammasi to'g'ri kelyapti. Biroq qora rangli otasi imperatorning iti bo'lgan, hamma gap shunda.

Qaysi tomondan qaralsa ham, Bimning uzoq qarindoshlari haqida og'iz ochmaslik kerak bo'ladi. Turgan gapki, kinologlar faqatgina o'z qoidalariga ko'ra Bimning ota-onasining shajarasiga oid xulosa chiqarishadi. Shajarasida oq ranglilar bo'lmagan, demak, gap tamom. Tolstoyning ularga daxli yo'q. Albatta, ular haq. Chunki bu ketishda har bir itning kelib chiqishini adibning itigacha olib bo'rib taqash mumkin, qarabsanki o'zi ham L.N. Tolstoyning yaqini bo'lib qoladi. Darhaqiqat, qara, Tolstoylar qancha-ya! Ular shunaqangi ko'payib ketishganki, boshing aylanib ketadi!

Qanchalik alam qilmasin, lekin mening aqlim Bimning zotli itlar orasidan quvilishi haqidagi fikrga ko'nikib bo'ldi. Ish chatoq. Faqat bitta narsa qoldi: Bim – ziyoli itlar zotidan. Biroq buni hali isbotlash lozim (bu borada ham o'ziga xos mezonlar bor).

* * *

– Ish chatoq, Bim, chatoq, – xo'rsindi egasi, keyin qalamni daf-targa qistirib, bir chetga qo'ydi.

O'zining laqabini eshitgani hamon Bim qaddini rosladi, joyida o'tirganicha xuddi sariq-mallarang qulog'i bilan tinglayotgandek boshini qora qulog'i tomonga egdi. Bu judayam ajoyib ko'rinardi. Kuchukchaning shu turishi xuddi «Mehribon do'stim, sen yaxshi

odamsan. Qulog'im senda. Nima demoqchisan?» deyayotgandek ko'rinardi. Bimning bunday savolidan egasi darrov yayrab ketdi.

– Barakalla, Bim! Garchi sening shajarang bo'lmasa ham, birga yashayveramiz. Sen aqlli itsan. Yaxshi itlarni hamma yaxshi ko'radi, – dedi u. Keyin Bimni tizzasiga olib, mo'ynasini silarkan, gapida davom etdi. – Yaxshi. Baribir hammasi yaxshi, bolakay.

Bimga qulay va issiq edi. U yaxshi degani mehr, minnatdorlik va do'stlik ekanini bir umrga eslab qoldi.

Shu tariqa Bim uyquga ketdi. Unga egasi kimligining nima ahamiyati bor? Muhimi yaxshi va mehribon inson bo'lsa, kifoya.

– Eh, seni qara-yu, qoraquloq, imperatorning oyog'i, – sekingina dedi egasi va Bimni unga atalgan to'shakcha ustiga olib borib yotqizdi.

Egasi qoramtir-binafsharang tunni tomosha qilib, deraza yonida uzoq turdi. Keyin ayol suratiga qarab, so'z qotdi:

– Ko'rdingmi, sal yengil tortdim. Men endi yolg'iz emasman, – u yolg'iz ekanligida ayolning suratiga yoki o'ziga, endi esa Bimga ham ovoz chiqarib gapirishga o'rganib qolganini payqamagandi. – Mana, endi yolg'iz emasman, – qaytardi u suratga qarab.

Bim esa uxlardi.

Shu tariqa ikkovlon bitta xonada yashay boshlashdi. Bim baquvvat bo'lib o'sardi. Tez orada u egasining ismi «Ivan Ivanich» ekanligini bilib oldi. Aqlli, farosatli kuchukcha. Sekin-asta u uyda-gi narsalarga va odamlarga tegish mumkin emasligini, ularga faqat qarash uchungina ruxsat berilganini tushunib oldi. Umuman hech narsaga tegish mumkin emas. Agar egasi ruxsat bermasa yoki buyurmasa, albatta.

Shu tariqa, «mumkin emas» degan so'z Bimning hayotidagi asosiy qonunga aylanib qoldi. Ivan Ivanovichning ko'zlari, gapirish ohangi, imo-ishoralari, aniq buyruqlari va erkalovchi so'zlari Bimning itlik hayotidagi dasturilamal bo'ldi. Bundan tashqari, mustaqil holda biror ishni qilish haqidagi qaror egasining xohish-istaklariga zid kelmasligi lozim edi. Zero, Bim asta-sekin do'stining ba'zi niyatlarini oldindan bilib ola boshladi. Mana, masalan, u deraza oldida turibdi va uzoq-uzoqlarga tikilganicha nimalarnidir o'ylayapti.

Shunday vaqtda Bim egasining yonida o'tiradi va ko'zlarini u qarayotgan tomonga tikib, o'ylay boshlaydi.

Inson o'zining iti nimalarni o'ylayotganini bila olmaydi. Ko'rinishidan itning «Hozir mehribon do'stim stol yoniga o'tiradi. Albatta o'tiradi. Biroz u burchakdan bunisiga yuradi-da, keyin stol yoniga o'tiradi va oq qog'oz ustida tayoqchani yurg'iza boshlaydi, u esa asta qitirlaganicha nimalarnidir shivirlaydi. Bu ish uzoq cho'ziladi, shuning uchun ham uning yonida o'tira qolay» deb o'ylayotgani bilinadi. Keyin u tumshug'ini egasining issiq kafti tomon cho'zadi. U esa:

– Mayli, Bimka, bo'lmasa ishlaylik-chi! – deydi va haqiqatan ham ishlashga o'tiradi.

Bim esa egasining oyoqlari yoniga g'ujanak bo'lib yotib oladi. Agar u «Joyingga bor!» deb buyursa, burchakdagi joyiga ketadi va sabr-toqat bilan kuta boshlaydi. Egasining nigohini, so'zlarini, ishorasini kutadi. To'g'ri, biroz vaqtdan keyin o'rnidan turishi, sal nariroqqa borib, dumaloq suyakni g'ajishi mumkin. Suyakni-ku, g'ajiy olmaydi-ya, biroq unda tishlarini charxlashi mumkin.

Ivan Ivanich qo'llari bilan yuzini yopib, tirsaklarini stolga suya-ganida esa Bim uning yoniga boradi va rang-barang quloqli boshini egasining tizzasiga qo'yadi. Indamay kutib turadi. U boshini sila-shini biladi. Do'stiga nimadir bo'lganini sezadi.

Biroq ikkovlari dunyodagi hamma narsani unutadigan o'tloqda bunday bo'lmadi. Bu yerda yugurish, shataloq otish, kapalaklarni quvish, o'tlar ustida dumalash mumkin, hammasiga izn berilgan. Biroq Bim sakkiz oylik bo'lganidan keyin bu yerda hammasini egasining buyrug'iga qarab bajaradigan bo'ldi: «Bor-bor!» – o'ynash mumkin, «Orqaga!» – judayam tushunarli, «Yot!» – mutlaqo aniq, «Ap!» – sakraysan, «Qidir!» – pishloq bo'laklarini qidirasan, «Yonimga!» – yoniga kelasan, faqat chap tomonidan yurasan, «Oldimga kel!» – g'izillab borish kerak, chunki qand beradi. Bim bir yoshga kirgunicha juda ko'p so'zlarni o'rgandi. Do'stlar – inson va it bir-birini tobora ko'proq tushunishar, yaxshi ko'rishar va teng yashashardi.

Ammo bir kuni sodir bo'lgan hodisadan keyin Bimning hayoti o'zgardi va u bir necha kun ichida ulg'ayib qoldi. Bunga esa Bim

kutilmaganda egasining o'ta katta, hayratda qoldirguvchi kamchiligini kashf qilgani sabab bo'ldi.

Bu shunday sodir bo'ldi. Bim maysazorda u yoqdan bu yoqqa zir yugurib, sohib tashlangan pishloq bo'laklarini izlardi. To'satdan tuproq, daryo, turli o't-o'lanlar va gullar isi orasiga g'ayrioddiy va hayajonga soluvchi havo oqimi yorib kirdi: qandaydir qushning hidi anqib turar, biroq u Bim yaxshi taniydigan chumchuqlar, quvnoq chittaklar, chaqqon jibljibonlar va boshqa quvlab yetish va yeyish mumkin bo'lmagan (sinab ko'rilgan) mayda qushchalarnikiga aslo o'xshamasdi. Bu qandaydir notanish hid bo'lib, Bimning yuragiga g'uluv solardi. U to'xtab, Ivan Ivanichga o'girilib qaradi. Egasi esa hech nimani sezmay, boshqa tomonga qayrilib ketdi. Bim hayratda qoldi: do'sti qushni sezmayapti. Iye, egasi nogiron ekan-da! Shunda Bim o'zi qaror qabul qildi: u Ivan Ivanichga qaramay, havoni hidlaganicha ohistalik bilan birma-bir qadam bosib, noma'lum hid manbayiga yaqinlasha boshladi. U tobora sekinroq odimlar, o't-o'lanlarga oyog'i ilashib qolmasligi yoki shitirlatib yubormaslik uchun ehtiyotkorlik bilan asta odimlay boshladi. Mana, nihoyat, hid shunaqangi zo'raydiki, olg'a yurishning iloji bo'lmay qoldi. Bim oldingi o'ng panjasini yerga ham qo'ymay, turgan joyida qotib qoldi. U xuddi mohir haykaltarosh yaratgan it haykaliga o'xshardi. Bu uning ilk bor o'ljani payqab, qotib turishi edi! Ilk ovning gashti butun vujudini qamrab olgandi.

Yo'q, shu orada egasi yaqin keldi va hayajondan sal qaltirayotgan Bimni silay boshladi:

– Yaxshi, yaxshi, bolakay. Yaxshi, – u itning bo'yinbog'idan ushladi. – Olg'a... Olg'a...

Bim esa olg'a yurolmas, kuchi qolmagandi.

– Olg'a... Olg'a... – uni oldinga tortdi Ivan Ivanich.

Bim asta oldinga yura boshladi. Mana, noma'lum narsaga yetishiga ozgina qoldi. Shunda to'satdan buyruq yangradi:

– Olg'a!

Bim olg'a otildi. O'tlar orasidan parillab bedana uchib chiqdi. Bim uning ortidan olg'a intildi va... Kuchi boricha, shaxt bilan quvib ketdi.



– Orqa-ga! – qichqirdi egasi.

Biroq Bim hech narsani eshitmas, go‘yo quloqlari mutlaqo yo‘qdek edi.

– Orqaga! – qichqirdi egasi, keyin hushtak chaldi. – Orqa-ga! – yana hushtak churilladi.

Bim to bedanani ko‘zdan yo‘qotguniga qadar yugurdi, keyin esa mamnun va quvnoq holda ortiga qaytdi. Biroq bu nimani bildirarkin? Egasi qovoq uyganicha unga jahl bilan tikilar, sirayam erkalatmasdi. Endi do‘sti hid sezmasligi aniq-ravshan bo‘ldi! Bechora do‘sti... Bim ehtiyotkorlik bilan egasining qo‘lini yalarkan, bu bilan o‘ziga eng yaqin bo‘lgan jonzotning norasoligiga rahmi kelayotganini ifodaladi.

– Tentakvoy, sen butunlay boshqa narsani o‘ylayapsan, – dedi egasi, keyin uning ovozi sal quvnoqlashdi. – Qani, Bim, bo‘lmasa rostakamiga boshlaymiz! – u itining bo‘yinbog‘ini yechib oldida, boshqa, judayam noqulayini taqdi va unga uzun kamarni ulab qo‘ydi. – Qidir!

Endi Bim bedananing hidini qidira boshladi, biroq boshqa topa olmadi. Ivan Ivanich esa uni qush borib qo‘ngan tomonga yo‘naltirdi. Qushni quvib yetolmay sharmanda bo‘lgan paytida bedana qayerga borib qo‘nganini do‘sti ko‘rganidan Bim bexabar edi, albatta (u hidni sezmasa-da, lekin ko‘zlari bilan ko‘rgandi).

Mana, yana o‘sha hid! Bim bo‘yinbog‘ni ham unutib, yugurish doirasini toraytirdi, bo‘yinbog‘ni tortib, boshini ko‘tardi va yana tortdi... Yana qotib qoldi! Botayotgan quyosh nurlari ostida uning turishi shunaqangi go‘zal ediki, buni tushunish hammaga ham nasib etavermaydi. Ivan Ivanich hayajondan titraganicha, kamarning uchini qo‘liga mahkam o‘rab ushladi va past tovushda buyurdi:

– Olg‘a... Olg‘a...

Bim olg‘a yurdi. Yana to‘xtadi.

– Olg‘a!!!

Bim xuddi birinchi safardagi kabi oldinga otildi. Bedana endi qanotlarini qattiq shapillatib o‘tlar orasidan otilib chiqdi. Bim yana aqlsizlarcha qushning ortidan quvmoqchi edi, lekin... Kamarning keskin ortga tortilishi uni ortga qaytishga majbur qildi.

– Orqaga!!! – deb qichqirdi egasi. – Mumkin emas!!!

Bim ortiga ag‘darilib, yiqilib tushdi. U nega bunday bo‘lganini tushunmadi. Keyin yana kamarni bedana tomon tortdi.

– Yot!

Bim yotdi.

Navbatdagi bedana bilan ham shu hol takrorlandi. Lekin endi Bim kamar tortilmasidan avval buni his etar, buyruqqa binoan yotardi-yu, biroq hayajon va ishtiyoq, ayni vaqtda tushkunlik va alamdan titrar, uning hissiyotlari burnining uchidan tortib dumigacha butun tanasida aks etib turardi. Bu judayam og‘riqli edi! Nafaqat qattiq va noqulay kamar, balki bo‘yinbog‘ning ichki tarafidagi nishlar ham joniga ozor berardi!

– Ana shunday, Bimka. Hechqisi yo‘q, shunday qilish lozim, – derdi Ivan Ivanich Bimni erkalatib, silarkan.


Shu kundan boshlab haqiqiy ov itining hayoti boshlandi. O‘sha kuni Bim qush qayerdaligini faqatgina o‘zi aniqlay olishini, egasining burni qo‘qqayib tursa-da, mutlaqo ish bermasligini tushunib yetdi. Bimning haqiqiy xizmati boshlandi, uning asosida faqatgina uchta – «Mumkin emas», «Orqaga» va «Yaxshi» degan so‘zlarga bor edi, xolos.

Keyin esa – eh! – keyin miltiq paydo bo‘ldi! O‘q otildi. Parillab uchib ketayotgan bedana xuddi toshdek yerga quladi.

Ma’lum bo‘lishicha, uni quvib yetish emas, faqatgina topish, qanotini panjasi bilan bosish va kutib yotishgina kerak ekan, qolgan ishni do‘stining o‘zi qilarkan. Bu teng o‘ynaladigan o‘yin: egasi hid bilmaydi, itning miltig‘i yo‘q.

Shu tariqa, qadrdon do‘stlik va sadoqat baxtga aylandi, chunki ularning ikkovi ham boshqasidan u bera olishi mumkin bo‘lganidan oshiqcha narsa talab qilmasligini tushunishardi. Do‘stlikning mag‘zi ham aynan shunda edi.

Bim ikki yoshga to‘lganida, ishonuvchan va sofdil ajoyib ov itiga aylandi. U ovga va uyga daxldor bo‘lgan yuzga yaqin so‘zni bilardi: Ivan Ivanich «Olib ber» desa darrov bajarib, shippagani ni keltir» desa – g‘izillatib keltirar, «Tovoqchani olib kel» desa – olib kelar, «Stulga!» degan buyruqni eshitgan zafoti suzga chiqib



o'tirardi. Bular nima bo'libdi? U egasining nigohidanoq fikrini tushunardi. Agar Ivan Ivanich biror kimsaga do'stona nigoh tashlasa u o'sha ondayoq Bimning qadrdoniga aylanar, yomon boqqudek bo'lsa Bim darhol uning g'animiga aylanar, hatto o'sha kimsaning ovozi erkatalish ohangini sezsa ham qattiq irillardi. Biroq Bim hech qachon, hatto dumini bosib olishganida ham hech kimni tishlamagandi. Agar tunda gulxan yoniga begona kimsa yaqinlashsa, vovullab ogohlantirar, biroq aslo tishlab olmasdi. U shunaqangi ziyoli it edi.

Bimning ziyoliligiga kelsak, u hamma narsani o'zi o'rganar, hatto eshikni ochishlari uchun uni asta tirnash kerakligiga ham aqli yetardi. Ba'zan Ivan Ivanichning tobi qochib qolar, shunda iti bilan sayr qilishga madori yetmay, uning yolg'iz o'zini chiqarib yuborardi.

Bim ozgina u yoq-bu yoqqa yugurgan bo'lardi-yu, darrov uyga qaytardi. Orqa oyoqlarida turganicha eshikni asta tirnar, g'inshir va eshik ochilardi. Egasi dahlizda oyoqlarini sudrab, shapillab yurar, itini kirgizib, erkatalardi-da, yana o'rniga yotib olardi.

Ivan Ivanich keksaligi tufayli tobi qochib qolganida shunday bo'lardi (lekin uning borgan sari ko'proq mazasi qochar, buni Bim ham payqardi, albatta). Bim eshikni asta timdalasa, uni albatta ochishlarini yaxshi bilardi. Biroq eshik ichkariga kirish uchun o'rnatiladi va o'tinsang, seni albatta ichkariga kiritishadi. Faqat Bim o'ta sodda va ishonuvchanligi tufayli qancha timdalasa ham ochilmaydigan eshiklar bo'lishi mumkinligini bilmas va bila olmasdi ham.

Kelgusida nimalar bo'lishi noma'lum-ku, biroq shunisi aniqki, ajoyib hid bilish qobiliyatiga ega bo'lgan Bimdek it ham shajarasi haqidagi shahodatnomadan quruq qoldi. Ivan Ivanich uni ikki marta ko'rgazmaga olib bordi, lekin uni baholamasdan maydondan chiqarib yuborishdi. Demak, bechoraning taqdiriga e'tibordan chetda qolish bitilgan ekan-da!

Shunga qaramay, Bimning zoti past emas, balki haqiqiy ajoyib it ekanligi aniq edi. U sakkiz oyligidanoq parranda ovlash bo'yicha ishlay boshladi. Yana qanaqa ishladi, deng-a! Uni oldinda yaxshi kelajak kutayotganiga ishongisi kelardi egasining...

BAHORGI O'RMON

Ikkinchi mavsumda, ya'ni Bim ikki yoshdan oshganida, Ivan Ivanich uni o'rmon bilan tanishtirdi. Bu it uchun ham, uning egasi uchun ham juda qiziqarli bo'ldi.

O'tloq va dalalarda hamma narsa tushunarli bo'ladi: yon-atrof, o'tlar, bug'doylar, egasi doimo ko'rinib turadi, xohlagancha yugurib hid olishing, qidirishing, topishing, qimirlamay buyruqni kutib turishing mumkin. Ajoyib! O'rmonda esa bari boshqacha edi.

Erta bahor edi.

Ular ilk bor o'rmonga kelishganida, quyosh bota boshlagan, garchi daraxtlar hali barg chiqarmagan bo'lsa-da, ularning orasi qorong'ilashib qolgan edi. Pastdagi hamma narsa qoramtir tusga kirgandi: daraxt tanalari, o'tgan yilgi barglar – qoramtir-jigarrang, o't-o'lanlarning quruq navdalari – jigarrang-kulrang tusda, hatto kuzda yoqutdek tovlanib turuvchi na'matak mevalari ham xuddi qahva donalariga o'xshab qolgandi.

Yalang'och shox-shabbalar yengil shabadada salgina qimir-lab, bir-birlariga asta tegib qo'yishar va xuddi «Tirikmisan?» deb so'rayotgandek bo'lishardi. Daraxtlar asta silkinishar va hatto bargsiz holda ham tirikdek ko'rinishardi. Hamma narsa – daraxtlar ham, oyoq ostidagi xazonlar ham shitirlovchi-sirli va o'tkir hidli edi, baridan o'rmon zaminining bahoriy isi anqir, Ivan Ivanich esa ehtiyotkorlik bilan ohista odimlardi. Uning boshmoqlari shitirlar, qadam izlari esa daladagiga nisbatan o'tkirroq hid taratardi. Har bir daraxt ortidan notanish, sirli nimadir poylab turardi. Shu tufayli Bim Ivan Ivanichdan yigirma qadamdan ortiq uzoqlashmasdi. Oldinga yuguradi – o'ngga, chapga aylanadi va yana ortiga qaytadi va xuddi «Biz nega bu yerga keldik?» deb so'rayotgandek egasining yuziga tikiladi.

– Negaligini tushunmayapsanmi? – uning savolini angelaydi Ivan Ivanich. – Tushunib olasan, Bimka, tushunib olasan. Ozgina sabr qil.

Shu tariqa, bir-biriga qaragancha, ular ancha yurishdi.

Mana, ular ikkita o'rmon yo'li kesishib, to'rt tarafga qarab ketgan chorraha hosil qilgan yerdagi keng o'tloqda to'xtashdi. Ivan Ivanich o'rmon yong'og'i butasining ortiga o'tib, tepaga qaradi. Bim ham o'sha tomonga qaray boshladi.

Tepa yorug', bu yer esa tobora qorong'ilashib borayotgan edi. O'rmonda kimdir shitirlab yurdi-da, keyin jimib qoldi. Yana shitirlash eshitildi. Yana jimlik cho'kdi. Bim xuddi «U yerda nima bor? Kim ekan u? Balki borib qararmiz?» deb so'rayotgandek Ivan Ivanichning oyog'iga surkaldi.

– Quyon, – eshitarlar-eshtilmas ovozda dedi egasi. – Hammasi yaxshi, Bim. Yaxshi. Quyon. Qo'yaver, chopib yuraversin.

Mayli, «yaxshi» bo'lsa, demak ishlar joyida. «Quyon» ham tushunarli. Bim bir necha marta mitti hayvon izlarini topganida, egasi shu so'zlarni takrorladi. Bir safar esa u quyonning o'zini ko'rdi, uni quvib yetishga uringandi, evaziga faqat ogohlantirish oldi va jazolandi. Mumkin emas!

Demak, yaqin orada shitirlayotgan quyon ekan. Endi nima bo'larkin?

To'satdan tepadan ko'zga ko'rinmayotgan nimadir xo'rillab yubordi: «Xo'r-xo'r... Xo'r-xo'r!... Xo'r-xo'r!...» Bim uni birinchi bo'lib eshitdi va titrab ketdi. Egasi ham. Ikkovi ham tepaga tikilib qolishdi... Kutilmaganda osmonni bo'yagan alvon-zangori nurlar shu'lasida uzoqdagi o'rmon yo'li yoqalab uchib kelayotgan qush ko'rindi. Qush to'g'ri ular tomon parvoz qilardi. U uchayotib goh-gohida xuddi qush emas, balki qandaydir hayvoncha singari xo'rillab qo'yardi. Lekin u qush edi. Uning tanasi katta, qanotlari esa mutlaqo tovushsiz (bedana, kaklik yoki o'rdakdan farqli o'laroq) harakatlanardi. Xullas, qandaydir noma'lum parranda ular tomon uchib kelardi.

Ivan Ivanovich miltig'ini ko'tardi. Bim, xuddi buyruq berilgandek, yerga yotdi-da, qushdan nigohini uzmay tikildi... O'rmonda o'q ovozi shunaqangi qattiq va keskin jarangladiki, bunaqasini Bim sirayam eshitmagandi. O'q tovushi o'rmonda aks-sado berib yan-gradi va uzoq-uzoqlarda tindi.

Qush butalar orasiga tushdi, biroq do'stlar uni darrov topishdi. Ivan Ivanich qushni Bimning oldiga qo'yib, dedi:

– Bolakay, tanish: bu – yakantovuq. – U yana takrorladi. – Yakantovuq.

Bim qushni hidladi, uzun tumshug‘ini panjalari bilan turtib ko‘rdi. Keyin yerga o‘tirdi-da, sal titraganicha hayrat ila oldingi panjalarini silkita boshladi. U go‘yo «Bunaqangi tumshuqni sirayam ko‘rmagandim. Mana buni tumshuq desa bo‘ladi!» deyayotgandek edi.

O‘rmon shovqini borgan sari pasayib borardi. Keyin esa shovqin birdaniga to‘xtadi, xuddi daraxtlar uzra qudratli nimadir uchib o‘tib qanotini silkitgandek va «shovqinni to‘xtating» deb buyurgandek bo‘ldi. Shox-shabbalar qimir etmas, daraxtlar esa uxlab qolgandek tuyular, faqat goh-gohida zulmat aro sal silkinib qo‘yishardi.

Yana uchta yakantovuq uchib o‘tdi, biroq Ivan Ivanich o‘q uzmadi. Garchi oxirgisini ular ko‘rmagan, balki faqatgina ovozi eshitgan bo‘lishsa-da, Bim hayratda qoldi: nega do‘sti hatto yaxshi ko‘rinib turgan qushlarni ham otmadi? Bim bu savolning javobini topolmay, hayajonlanardi. Ivan Ivanich esa shunchaki tepaga qarar yoki nigohini yerga qadab, sukunatni tinglardi. Ikkovlon jim turishardi.

Bu paytda hech qanday so‘z kerak emas – insonga ham, itga ham!

Faqat Ivan Ivanich asta dedi:

– Yaxshi, Bim! Yana hayot boshlanyapti. Bahor keldi.

Bim do‘stining gap ohangidan uning kayfiyati yaxshiligini angladi. Burni bilan uning tizzasiga turtib, dumini likillatdi: yaxshi bo‘lsa unda juda soz-da!

... O‘rmonga ikkinchi marta ertalab, faqat miltiqsiz kelishdi.

Qayinning bo‘rtib qolgan xushbo‘y kurtaklari, ildizlarning o‘tkir hidlari, endi quloq chiqarayotgan barra maysalardan taralayotgan nozik is oqimlari – bularning bari hayratda qoldiradigan darajada ajoyib va yangi edi. O‘rmondagi barcha o‘simliklar orasidan quyosh nurlari yog‘ilib kirar, faqat qarag‘ayzorning u yer-bu yeridagina til-larang shu‘la cho‘zilib ketgandi. Atrof osuda edi. Eng muhimi shu – hammayoq jimjit. O‘rmondagi tonggi sukunat qanchalar ajoyib bo‘ladi-ya!

Bu safar Bim biroz dadillashdi: hamma narsa aniq-ravshan ko'rinib turibdi, lekin o'tgan safar, qosh qoraygan paytda kelishganida bunday emasdi. U egasini nazardan qochirmagani holda o'rmonda istaganicha sanqishi mumkin, bu yerda hamma narsa ajoyib edi.

Nihoyat, Bim yakantovuqning isini oldi. Uning gavdasi tarang tortildi. Bir panjasini tepaga ko'targanicha haykaldek qotdi. Ivan Ivanich unga «Olg'a!» deb buyruq berdi, biroq o'zining otadigan miltig'i yo'q. Qush uchib ketgach esa «Yot!» deb buyurdi. Qiziq, egasi ko'ryaptimi yoki yo'qmi, bu tushunarsiz edi.

Bim zimdan egasiga tikilib turdi-da, oxiri u ko'rayotganiga ishonch hosil qildi.

Ikkinchi yakantovuq bilan ham shunday bo'ldi. Endi Bim chiday olmadi, o'zining xafaligini ifodalashga urindi: ehtiyotkorona boqib, bir chekkadan yugura boshladi, hatto buyruqqa bo'ysunmaslikka ham urindi, qisqasi, undagi norozilik kuchayar va tashqariga chiqishga yo'l izlardi. Shu sababli ham Bim parillab uchib ketgan uchinchi yakantovuqning ortidan xuddi oddiy laycha itdek quvishga urinib ko'rди. Biroq yakantovuqning ortidan uzoqqa borolmaysan: shoxlar orasidan yalt etib ko'rinadi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ladi-qo'yadi. Bim norozi holda ortga qaytdi, ustiga-ustak jazolandi ham. Nimayam qilardi, bir chekkaga yotdi-da, og'ir xo'rsindi (itlar bunday qilishni juda qotirishadi).

Agar ikkinchi dilsiyohlik qo'shilmaganida edi, bularning bariga chidasa bo'lardi. Bu safar Bim egasining yangi nuqsoni – noto'g'ri sezgisini kashf qildi. Shusiz ham hid bilish sezgisi yo'q edi, endi bo'lsa...

Bu shunday sodir bo'ldi.

Ivan Ivanich to'xtadi, yon-veriga alangladi va hidlay boshladi (qarang-a!). Keyin bir daraxt tomon yurdi, cho'kkalab o'tirdi va barmog'ining uchi bilan mittigina gulchani asta siladi (Ivan Ivanich uchun gul mutlaqo hidsiz bo'lib tuyulsa, Bim uchun u chidab bo'lmas darajada badbo'y edi). Xo'sh, bu gulning qanday fazilati bor ekan? Hamon cho'nqayib o'tirgan egasi esa jilmayardi. Turgan gapki, Bim o'zini kayfiyati chog'dek qilib ko'rsatar, biroq faqat

egasining hurmati uchugina shunday qilar, aslida judayam hayratda qolgandi.

– Buni qara, Bim, qaragin-a! – deb xitob qildi Ivan Ivanich va itning burnini gul tomon egdi.

Bunga Bim chiday olmadi – tumshug‘ini teskari burib oldi. Keyin tezgina egasidan uzoqlashdi va o‘tlar ustiga yotdi, uning ko‘rinishidan «O‘sha gulingni hidlab o‘tiraver!» degan ma‘no aks etib turardi.

Bu ixtilof zudlik bilan munosabatlarni oydinlashtirishni taqozo etardi, biroq egasi Bimga qarab, xandon otib kulib yubordi. Bimning bundan ko‘ngli og‘ridi. «Xaxolab kulishini qara-ya!»

Ivan Ivanich esa yana gulga qarab, jilmaydi:

– Salom, boychechak!

«Salom» degan so‘z o‘ziga nisbatan aytilmaganini Bim darrov tushundi.

Agar ta‘bir joiz bo‘lsa, itning yuragini rashk o‘ti yondirdi. Garchi uyda munosabatlari yaxshilangandek tuyulgan esa-da, biroq kun Bim uchun omadsiz bo‘ldi: o‘lja bor edi – uni otishmadi, o‘zi qushning ortidan chopgandi – jazolashdi, ustiga-ustak manavi gul oyoq ostidan chiqib qoldi. Yo‘q, baribir itlarning hayoti judayam og‘ir bo‘ladi-da, u «Mumkin emas», «Orqaga», «Yaxshi» degan uchta «kit»ning ostida ezilib kun kechiradi.

Faqat na Bim, na Ivan Ivanich vaqt-soati kelib, shu kunni juda baxtli kun sifatida eslashlarini hali bilishmasdi.

Egasining yozuvlaridan

Qahraton ayozlar sillasini quritgan o‘rmonda hali kurtaklar bosh chiqarmagan, qishda kesilgan daraxtlarning to‘nkalarida hayot alomati ko‘rinmasa-da, qayinlarning «ko‘z yoshlari» ularning uyg‘onganini sezdirib qo‘yar, qavat-qavat qo‘ng‘irrang jonsiz barglar ko‘rpasi ostidagi shox-shabbalar hatto qirsillamas, faqat bir-birini asta bag‘riga olishar; nogahonda boychechak hidi dimoqqa urilardi! Uyg‘onayotgan hayotning arang seziluvchi nozik ifori yuraklarni to‘lqinlantirib yuboradi. Atrofga alanglasam, u yonginamda turibdi. Oyoq ostida zangori osmonning zig‘irdekkina tomchisi – boychechak sipogina bo‘lib, ayni vaqtda o‘zini ko‘rgan

nigohlarga quvonch va baxt ulashib turibdi. Hozir u baxtlilar uchun ham, baxtsizlar uchun ham hayotning bezagi edi.

Biz, insonlar orasida ham shunday: pok qalbli, «sezilmas» va «kichkina», biroq yuragi tog'dek odamlar bor. Ular insonlarda mavjud bo'lgan barcha yaxshi fazilatlar – ezgulik, sipolik, ishonchni o'zida mujassam etib, hayotni bezatib turishadi.

Oradan bir necha kun o'tgach, aniqrog'i, kecha Bim bilan birga yana o'sha yerga bordik. O'rmonni minglab mitti osmon tomchilari qoplab olibdi. Ularga qarab, hammadan oldin qad rostlagan o'sha jasur boychechakni izladim: qani u? Manavi, shekilli. O'shami yoki boshqami? Bilmadim. Gullar shunaqangi ko'p ediki, endi o'sha boychechakni topib bo'lmadi – u ortidan ergashganlarning orasiga singib ketgandi. Vaholanki, u shunaqangi mitti, lekin shunchalar jasur, muloyim, biroq qat'iyatli ediki, qishning so'nggi ayozlari aynan undan qo'rqib, maysazor uzra mag'lublikning oq bayrog'i sifatida qirovni yoyganicha juftakni rostlab qolishgan edi. Hayot davom etyapti.

... Bim esa buni tushunishga ham qodir emas. Birinchi marta ko'rganida hatto rashki kelib, xafa bo'ldi ham. Lekin gullar ko'payib ketganidan keyin ham ularga e'tibor bermadi.

O'rgatayotgan paytimda u o'zini yaxshi tutmadi: miltiq yo'qligidan xafa bo'ldi. Biz u bilan rivojlanishning turli bosqichlaridamiz, lekin judayam yaqinmiz. Tabiatning yaratish qonuni barqaror: bir narsaning boshqasiga zarurligi eng oddiylikdan boshlanib, o'ta yuqori rivojlangan hayot bilan tugaydi, hamma joyda shu qonun amal qiladi... Agar Bim bo'lmaganida, men bunaqangi dahshatli yolg'izlikka qanday dosh berar edim?

U menga qanchalar kerak edi! U ham boychechaklarni yaxshi ko'rardi. O'tmish xuddi tushga o'xshaydi...

Hozirgi zamon tush emasmi? Kechagi zangori gilam to'shalgan bahorgi o'rmon tush emasmidi? Harqalay, zangori tushlar – vaqtincha bo'lsa-da davolovchi ilohiy dori. Albatta, vaqtinchalik. Hatto yozuvchilar kulrangdan uzoqlashib, faqat moviy orzular haqida va'z o'qisalar ham, insoniyat hozirgi kunni abadiyat va kelajak deb qabul qiladi-da, kelajak haqida tashvishlanishni bas qiladi.

Vaqt bo'yicha halokatga mahkumlik qismati shundan iboratki, hozirgi zamon faqat o'tmish bo'lishi lozim. Inson «Quyosh, to'xta!» deb buyurishga qodir emas. Vaqtni to'xtatish, ushlab turish va o'zgartirish mumkin emas. Hamma narsa vaqtga bog'liq bo'ladi va muntazam harakatlanadi. Faqat barqaror tinchlikni izlaydigan kimsa butkul o'tmishda bo'lishi lozim, uning yoshmi yoki keksa ekanligining ahamiyati yo'q. Moviy rangning o'ziga xos ovozi bor, u osoyishtalik, unutishdek yangraydi, biroq vaqtinchalik, faqat dam olish uchun bo'ladi; bunday lahzalarni aslo o'tkazib yubormaslik lozim.

Agar men yozuvchi bo'lganimda, albatta, «Hoy tinib-tinchimagan odam! Sendek kelajakni o'ylab, qayg'uruvchi zotga abadiy shon-sharaflar bo'lsin! Agar qalbing dam olishini xohlasang, unda erta bahorda o'rmonga – boychechaklarni ko'rgani borgin, ana shunda haqiqatning ajoyib tushini ko'rasan. Tezroq borgin, ehtimol bir necha kundan keyin boychechaklar bo'lmasligi ham mumkin, sen esa tabiat hadya qiladigan ro'yo sehrini eslab qololmaysan. Bor, biroz dam ol. «Boychechakni ko'rish baxt keltiradi» degan naql bor xalq orasida» degan bo'lardim.

...Bim esa qotib uxlab yotibdi. U tush ko'ryapti: uyquda oyoqlarini qimirlatib qo'yadi – tushida yuguryapti. U boychechaklarga parvo ham qilmaydi: moviy tus unga kulrang bo'lib ko'rinadi (itning ko'rish qobiliyati shunday tuzilgan). Tabiat mavjudlikni qora tusga kirituvchini yaratgandek go'yo... Qani, o'sha aziz do'stingni insonning nuqtayi nazaridan ko'rdirishga urinib ko'r-chi! Kallasini uzib tashlasang ham baribir o'zi xohlagandek ko'radi. Judayam mustaqil it.

Uchinchi bob

BIMNING BIRINCHI DUSHMANI

Bim uchun quvonchga, Ivan Ivanovich uchun esa do'stlikka to'lgan baxtiyor yoz o'tib ketdi. O'tloqlar va botqoqlarga borish (miltiqsiz), quyoshli kunlar, cho'milish, daryo sohilidagi sokin oqshomlar – bir itga bundan boshqa yana nima kerak? Hech narsa kerak emas, bunisi aniq.

O'rganish va mashg'ulotlar vaqtida ular ovchilar bilan ham uchrashishardi. Ular bilan tanishuv oshig'ich bo'lardi, chunki bu odamlardan har birining iti bor edi. Egalari tanishib olishmaslaridan burunroq ikkala it bir-biri tomon yugurar, ishoralar va nigohlardan iborat itlar tilida qisqagina suhbatlashishardi:

«Sen kimsan?» – deb so'rardi Bim notanish itning atrofida gir aylanib, hidlarkan.

«O'zing ko'rib turibsan-ku, yana so'rashingga balo bormi?» – deb javob berardi notanish it.

«Ishlar qalay ketyapti?» – hurramlik ila surishtirardi Bim.

«Ishlayapmiz!» – chinqiroq ovozda javob qaytarardi suhbatdoshi tannozlanib, birdaniga to'rtta oyog'ida sakrarkan.

Shundan so'ng ular yangi tanish haqida xabar berish uchun egalari tomon shoshilishardi. Ovchilar suhbatlashish uchun buta yoki daraxtlarning soyasiga o'tirishganida esa itlar to'li osilib qolguncha yugurgilab o'ynashardi. Shundan so'ng ular egasining yoniga cho'zilib yotishar va sokingina samimiy suhbatga quloq tutishardi.

Ovchilardan boshqalar Bimni unchalik qiziqtirmasdi, ular oddiy odamlar, xolos. To'g'ri yaxshi odamlar, biroq ovchi emaslar!

Itlarga kelsak, ular boshqacha bo'lishadi.

Bir safar u o'tloqda bo'yi o'zining yarmicha keladigan, qopqora, paxmoq junli itni uchratib qoldi. Ular bosiqlik bilan, ortiqcha xursandchiliksiz salomlashishdi. Yangi tanishi bunaqa paytda beriladigan bir to'da savollarning bariga dumini silkitib, «Qornim ochdi» deb javob berib turganidan keyin, negayam xursand bo'lsin?

Paxmoq itning nafasidan sichqon hidi anqib turardi. Bim uning hidini olarkan, ajablanib so'radi:

«Nima, sen sichqon yedingmi?»

«Ha, sichqon yedim, – deb javob qaytardi u. – Qornim ochib ketdi».

Shunday deb u qamishning sertugun, oppoq ildizini g'ajiy boshladi. Bim ham qamish ildizini tatib ko'rmoqchi edi, paxmoq it norozi ohangda dedi:

«Qornim ochib ketdi».

Bim yangi tanishi hamma narsani birma-bir g‘ajib ko‘rgunicha kutib turdi, keyin uni ortidan yurishga undadi. U junlari paxmoq, biroq top-toza it edi (aftidan, u ko‘pchilik itlar kabi cho‘milishni yoqtirsa kerak, lekin hatto daydi itlar ham yozda top-toza bo‘lishadi). Bim Paxmoqni itni uzoqdan do‘stining tanishuvini kuzatib turgan egasining oldiga boshlab bordi. Biroq Paxmoq notanish odamga darhol ishonmadi, shu bois undan uzoqroqqa cho‘nqayib o‘tirib oldi, Bimning o‘zi bilan egasi orasida zir yugurishlariga e‘tibor ham bermadi. Ivan Ivanich xaltachasini ochib, kolbasa oldi, kichkina bo‘lak kesdi-da, uni Paxmoqqa tashladi:

– Paxmoq, yonimga kel! Yonimga!

Kolbasa bo‘lagi Paxmoqdan uch metrcha nariga tushdi. U ehtiyotkorlik bilan odimlab, asta bo‘ynini cho‘zdi, kolbasani olib yedi-da, o‘sha yerga o‘tirdi. Keyingi bo‘lakni yeb, yanada yaqinlashdi. Keyin u odamning oyog‘i yonida ovqatlanadi, ehtiyotkorlik bilan bo‘lsa-da, o‘zini silashiga ruxsat berdi. Bim va Ivan Ivanich unga kolbasaning hammasini berib yuborishdi. Egasi bo‘lakchalarni Paxmoqqa tashlar, Bim esa uning ovqatlanishiga xalaqit bermasdi. Bu oddiy ish edi: bir bo‘lak tashlaysan – u yaqin keladi, ikkinchisini tashlaysan – yanada yaqinlashadi, uchinchisi, to‘rtinchisi... Qarabsan-ki, oyog‘ing yoniga kelib qoladi, keyin senga sadoqat bilan xizmat qiladi. Ivan Ivanich shunday deb o‘ylardi. U Paxmoqning boshini, quloqlarini paypasladi, yelkasini silab, dedi:

– Burni sovuq, demak u sog‘lom. Bu yaxshi. – Keyin ikkalasiga buyruq berdi. – Bor, bor!

Paxmoq bunaqangi so‘zlarni tushunmasdi, lekin Bimning o‘tloqdan g‘izillab chopib ketganini ko‘rib, yugurish kerakligini tushundi. Ular shunaqangi shataloq otib o‘ynashdiki, hatto Bim nima uchun bu yerga kelganini ham unutib qo‘ydi. Ivan Ivanich ularning o‘ynashlariga qarshilik qilmas, hushtak chalganicha asta yurib borardi.

Paxmoq to shahargacha indamay ularga ergashib bordi. Shahar chegarasiga yetganda esa to‘satdan yo‘l chetiga o‘tirib oldi-da, aslo joyidan qo‘zg‘alishni xohlamadi. Ivan Ivanich va Bim uni qanchalik chaqirishmasin va undashmasin, ko‘zlari bilan ularni kuzatganicha

qimirlamay o'tiraverdi. Ivan Ivanich yanglishgan edi – itlarning barini ham xo'rakka ilintirib bo'lmaydi.

Bim manavi paxmoq junli qora itning ham egalari bo'lgani, ular kichkina uyda yashashgani, ko'cha kengaytirilgani tufayli uning yoqasidagi barcha uylar buzib tashlangani, Paxmoqning egalariga esa beshinchi qavatdan barcha qulayliklari bor uy berilganini bilmadi.

Xullas, egalari Paxmoqni ko'chaga tashlab ketishdi. Biroq u egalari yashayotgan yangi uyni va egasining xonadoni eshigini topib bordi. Uni rosa kaltaklab, haydab yuborishdi. O'shandan beri u yolg'iz yashaydi, shaharga esa xuddi daydi itlar singari faqat tunda kiradi.

Ivan Ivanich bo'lgan ishlarni taxminlab bilib olgandi, biroq bu haqda Bimga aytib berishning iloji yo'q-da! Bim esa yangi tanishini tashlab ketishni xohlamas, nuqul ortiga o'girilib qarardi. Nihoyat Bim to'xtadi va savol nazari bilan Ivan Ivanichga qaradi. Biroq egasi xuddi hech narsa bo'lmagandek indamay ketardi. Agar Bim va Paxmoqni qanaqangi achchiq taqdir birlashtirishini, ular qachon va qayerda uchrashishlarini bilganida edi, Ivan Ivanich hozir shunchalik xotirjam odimlamagan bo'lardi. Biroq inson kelajakda nimalar sodir bo'lishini bilishga qodir emas.

...Uchinchi yoz o'tdi. Yoz Bim uchun maroqli, Ivan Ivanich uchun ham yaxshi o'tdi. Bir kuni tunda egasi derazani yopib, Bimga dedi:

– Sovuq tushib qoldi, Bimka. Bu – birinchi sovuq.

Bim tushunmadi. U o'rnidan turib, qorong'ida tumshug'i bilan Ivan Ivanichning tizzasiga turtindi, bu bilan «Tushunmadim», dedi.

Ivan Ivanich itlar tilini – ko'zlar va harakatlar tilini yaxshi bilardi. U chiroqni yoqdi-da:

– Tentakvoy-ey, buning nimasini tushunmaysan? – deb so'radi, keyin dona-dona qilib tushuntirdi. – Ertaga yakantovuq ovlagani boramiz. Yakantovuq!

Oh, Bim bu so'zni bilardi! U joyidan shaxt bilan sakrab tirdi-yu, do'stining iyagini yalab olishga ulgurdi.

– Ertaga ovga chiqamiz, Bim, ovga!

Buni qarang-a! Bim o'zining dumini tishlab oldi-da, xuddi bizbizakdek chir aylana boshladi, keyin joyiga o'tirdi va oldingi

panjalarini likillatgancha Ivan Ivanichning yuziga mo'ltirab tikildi. Jozibakor «ov» so'zi Bim uchun baxtga erishish belgisidek edi. Biroq egasi unga buyurdi:

– Hozir esa uxla!

U chiroqni o'chirib, joyiga yotdi.

Bim tunning qolgan qismini do'stining karavoti yonida o'tkazdi. Endi ko'ziga uyqu kelarmidi! Ivan Ivanichning o'zi ham tong otishini orziqib kutgancha goh mudroq, goh uyg'oq holda vaqt o'tkazardi.

Ertalab ular yo'lxaltani hozirlab, miltiq milidagi moyni tozalab artishdi, yengil nonushta qilishdi (ovga chiqqanda to'yib ovqatlanish mumkin emas), o'q-yaroq xaltasini tekshirishdi, miltiqqa o'qlarni joylashtirishdi.

Shu qisqagina vaqt ichida ko'p ishni bajarishga ulgurishdi: egasi oshxonaga kirsam – Bim ham o'sha tomonga yugurardi, egasi qaznoqqa yo'nalsa, Bim ortidan ergashardi, egasi yo'lxaltadan noqulay joylashtirilgan konserva idishni chiqarsa, Bim uni tishlab yana ichkariga itarar, egasi o'qlarni tekshirsa, Bim unga tikilardi (yanglishmayaptimikan, ishqilib?), bir necha marta tumshug'i bilan miltiq g'ilofini turtib ko'rdi ham (joyida turibdimikan?). Shunaqangi sertashvish lahzalarda hayajondan Bimning qulog'ini orqasi qichishar va goh-goh panjasini ko'tarib qashib qo'yardi.

Shu tariqa, ular tayyor bo'lishdi. Bimning quvonchi ichiga sig'masdi. Bo'lmasa-chi! Ovga chiqqanida kiyadigan kiyimlarini egniga ilgan egasi ov xaltasini yelkasiga osib, miltiqni qo'liga oldi.

– Ovga ketdik, Bim! Ovga! – deb takrorladi u.

«Ovga! Ovga!» ko'zlari yonib ketdi Bimning. U shunaqangi zavqqa to'lib-toshdiki, dunyodagi yagona do'stiga bo'lgan minnatdorchilik va mehrini yuragiga sig'dira olmay, salgina ingillab yubordi ham.

Shu payt uyga bir kishi kirib keldi. Bim uni tanir, hovlida uchratgandi, lekin uni e'tibor berishga arzigulik odam deb hisoblamasdi. Oyoqlari kalta-kalta, semiz, yuzlari oytovoqdek bu odam bo'g'iq past ovozda dedi:

– Salom berdik! – u yuzini dastro'moli bilan arta-arta kursiga o'tirdi. – Xo'-o'sh... Ovga otlanyapmizmi?

– Ovga, – istar-istamas to‘ng‘illadi Ivan Ivanich. – Yakantovuq ovlagani ketyapmiz. Uyga kiring, mehmonimiz bo‘ling.

– Shunaqami... Ovga deng-a... Mayli, keyinroq gaplasharmiz bo‘lmasa...

Bim ajablanish va diqqat to‘la nigohini egasidan mehmonga qaratdi. Ivan Ivanich jahli chiqqanini yashirolmay dedi:

– Gapingizni tushunmadim. Iltimos, ochiqroq gapiring.

Shu payt Bim... bizning muloyimgina Bimimiz salgina irilladi-yu, kutilmaganda vovullab yubordi. Uyda, ayniqsa, mehmonlar oldida sirayam bunday qilmagandi. Mehmon undan qo‘rqish tugul, hatto pinagini ham buzmedi.

– Joyingga yot! – jahl bilan buyurdi Ivan Ivanich.

Bim darrov buyruqqa bo‘ysundi: darrov joyiga yotdi-da, boshini panjalariga qo‘ydi va begona kimsaga tikildi.

– Buni qara-ya! Demak, quloq solarkan-da! Xo‘-o‘sh... Demak, u shu yo‘lakda yashovchilarga ham xuddi tulkilarga vovullagandek tashlanarkan-da?

– Aslo! Hech qachon hech kimga vovullamagan. Birinchi marta shunday qilishi. Chin so‘zim! – xavotir va jahl aralash ovozda xitob qildi Ivan Ivanich. – Agar bilsangiz, uning tulkilarga mutlaqo daxli yo‘q.

– Shunda-ay... – yana cho‘zib dedi mehmon. – Keling, ishga o‘taylik.

Ivan Ivanich po‘stinini yechdi.

– Qulog‘im sizda.

– Demak, sizning itingiz bor ekan-da... – gap boshladi mehmon. – Menda esa, – u cho‘ntagidan qandaydir qog‘oz chiqardi, – uning ustidan tushgan shikoyat bor. Mana, – u qog‘ozni uy egasiga uzatdi.

Qog‘ozni o‘qiyotgan Ivan Ivanich xavotirini yashirolmasdi. Buni payqagan Bim o‘z ixtiyori bilan joyidan turib, uning oyog‘i yoniga o‘tirdi, garchi mehmonga qaramayotgan bo‘lsa-da, xushyorligini yo‘qotmadi.

– Bu bema‘nilik, – dedi Ivan Ivanich endi xotirjamroq ovozda. – Bema‘nilikning o‘zginasi! Bim – yuvosh it, u hech kimni tishlamagan va tishlamaydi, xafa ham qilmaydi. U aqlli it.

– Ha-ha-ha! – kulgidan mehmonning qorni silkinib ketdi, keyin bexosdan aksirib yubordi. – Obbo, hayvon-ey! – dedi u beg'arazgina ohangda Bimga qarab.

Bim yana teskari tomonga o'girildi, biroq odamlar o'zi haqida gapirayotganlarini tushunib, xo'rsinib qo'ydi.

– Shikoyatlarni shu tarzda ko'rib chiqish mumkinmikan? – jilmayib so'radi Ivan Ivanich endi mutlaqo xotirjam ohangda. – Kimning ustidan shikoyat qilingan bo'lsa, unga o'qish uchun berishingiz lozim. Menga esa shunchaki mazmunini aytib bersangiz ham ishonaman.

Bim mehmonning ko'zlaridagi kulgu uchqunlarini payqadi.

– Birinchidan, shunday qilinishi lozim, – dedi mehmon. – Ikkinchidan, shikoyat sizning emas, balki itning ustidan yozilgan. Itning esa shikoyatni o'qishiga yo'l qo'ya olmaymiz.

Shunday deb, mehmon baralla kulib yubordi.

Egasi ham ozgina kulgan bo'ldi. Bim hatto tabassum ham qilmadi: u gap o'zi haqida ketayotganini tushunsa-da, faqat gapning mazmunini anglayolmas, bu mehmoni qurmag'ur judayam tushunarsiz odam edi. U barmog'ini Bim tomon niqtab dedi:

– Itni haydash kerak.

U qo'lini eshik tomon silkitib qo'ydi.

Bim hozir o'zidan ketishni talab qilishayotganini aniq tushundi. Biroq u egasidan bir qadam ham uzoqlashmadi.

– Shikoyatchi ayolni chaqiring. Gaplashib ko'raylik, zora murosaga kelsa, – iltimos qildi Ivan Ivanich.

Kutganlariga qarshi o'laroq mehmon uydan chiqib ketdi va tez orada bir ayol bilan qaytib keldi.

– Mana, xolani olib keldim.

Bim bu ayolni bilardi: kaltabaqay, baqiroq va semiz bu ayol kun bo'yi hovlidagi o'rindiqa o'ziga o'xshagan boshqa bekorchi xotinlar bilan gap sotib o'tirardi. Bir kuni Bim hatto uning qo'lini yaladi ham (ayolning o'ziga emas, balki butun insoniyatga nisbatan mehri oshib-toshib ketgan paytda), bundan esa ayol chinqirib yubordi va ochiq derazalar tomonga o'girilib, butun hovli eshitadigan qilib qichqira boshladi. U nimalar deb qichqirayotganini Bim tushunmadi,

lekin judayam qo'rqib ketdi-da, uyi tomon tiraqaylab qochdi. U xolaga nisbatan boshqa hech qanday gunoh qilmagandi.

Mana, xola uyga kirdi. Bim o'zini qo'ygani joy topolmay qoldi! Avval egasining oyoqlariga surkaldi, u yelkasini silaganidan so'ng esa, dumini oyoqlari orasiga qistirganicha o'zining joyiga bordi va zimdan ayolni kuzatib yotdi. Bim xolaning so'zlarini mutlaqo tushunmas, u esa xuddi zag'izg'ondek tinimsiz vaysar va nuqul qo'lini ko'rsatardi. Ayolning imo-ishoralari, g'azabli nigohini ko'rgan Bim uning qo'lini yalab noto'g'ri ish qilganini tushundi. U paytlari Bim hali kichkina edi, ko'p narsalarni tushunmasdi. Balki u, «To'g'ri, men aybdorman, lekin endi nimayam qila olardim?» deb o'ylagan bo'lsa kerak. Har holda uning nigohidan xuddi shunaqangi ma'noni uqsa bo'lardi.

Faqat Bim o'zini yolg'ondakam ayblashganidan bexabar edi.

– U meni tishlamoqchi bo'ldi! Tishlamoqchi edi! Deyarli tishladi ham!

Ivan Ivanich ayolning qichqirig'iga e'tibor ham bermay, Bimga buyurdi:

– Bim! Shippagimni keltirib ber!

Bim egasining buyrug'ini bajon-u dil bajardi, keyin uning oyog'i yoniga kelib yotdi. Ivan Ivanich ov etigini yechib, oyog'iga shippak kiydi.

– Endi etigimni joyiga eltib qo'y.

Bim bu buyruqni ham bajardi: etiklarni birma-bir tishlab kiyim ilgich ostiga eltib qo'ydi. Buni ko'rgan ayolning ko'zlari katta-katta ochilib, jimib qoldi.

– Barakalla! Qarang-a, uddaburongina ekan, – maqtab qo'ydi mehmon, keyin g'ijinib ayolga qaradi. – U yana biron narsani bajara oladimi?

– Marhamat, o'tiring, – taklif qildi Ivan Ivanich ayolga qarab.

U qo'llarini peshbandi ostiga yashirib, kursiga o'tirdi. Egasi Bim uchun stul qo'ydi va buyurdi:

– Bim! Stulga!

Bu buyruqni Bimga takrorlash shart emas, endi hammalari stulda o'tirishardi. Xola labini qimtididi. Mehmon mamnuniyat ila oyog'ini likillatib, dedi:

– Yaxshi uddalayapti. Yaxshi, yaxshi...

Egasi esa ko‘zlarini makkorona suzib, Bimga qaradi.

– Qani, panjangni ber-chi! – dedi u va qo‘lini uzatdi.

Ular salomlashishdi.

– Mittivoy, endi mehmon bilan salomlash, – dedi egasi va barmog‘i bilan mehmonga ishora qildi.

Mehmon qo‘lini Bimga cho‘zdi:

– Salom, og‘ayni, salom.

Bim kerakli harakatlarni risoladagidek bajardi.

– Tishlab olmaydimi? – ehtiyotkorlik bilan so‘radi xola.

– Nimalar deyapsiz? – hayratlandi Ivan Ivanich. – Qani, qo‘lingizni uzatib, «Panjangni ber!» deng-chi!

Ayol rostdan ham qo‘lini peshband ostidan chiqarib, Bimga uzatdi.

– Faqat tishlab olma, – ogohlantirdi u.

Shu asnoda nimalar sodir bo‘lganini ta‘riflashning iloji yo‘q. Bim qo‘rqqanidan yotoq joyi tomon otildi, darhol mudofaalanish vaziyatini egallab, burchakka yelkasini tirab, egasiga tikilib qoldi. Ivan Ivanich unga yaqinlashdi, boshini siladi, bo‘yinbog‘idan ushladi-da, uni shikoyatchi ayol tomon olib bordi:

– Qani, panjangni ber-chi...

Yo‘q, Bim panjasini uzatmadi. Orqasiga o‘girilib, yerga qaradi. Birinchi marta egasiga itoat qilmadi. G‘amginlik bilan, aybdorona va tushkun qiyofada burchak tomon tisarildi.

Oh, ana shunda nimalar bo‘lganini ko‘rsangiz edi! Xola xuddi qurib, qovjirab ketgan shaqildoqdek shaqillay ketdi.

– Siz meni haqorat qildingiz! – deb qichqirdi u Ivan Ivanichga qarab. – Qandaydir bitliqi ko‘ppak mendek ayolni nazariga ilmasa-ya! – ayol barmog‘ini Bim tomon nuqidi. – Bilasizmi, men... Bilasizmi, men... Hali shoshmay turing, shunaqangi kuningizni ko‘rsatmasammi!

– Bas qiling! – kutilmaganda unga baqirdi mehmon. – Demak, aldagan ekansiz. It sizni tishlamagan, bunday niyati ham bo‘lmagan. U sizni ko‘rganida, xuddi azroilni uchratgandek titrab qochyapti-ku!

– Siz esa menga baqirmang, – e‘tiroz bildirishga urindi ayol.



Shunda mehmon shartta dedi:

– O‘chiring! – u uy egasiga o‘girildi. – Bundaylar bilan boshqacha muomala qilish mumkinmas. – Keyin yana xolaga qaradi. – Yo, tavba! «Mendek ayol» emish, siz kim bo‘libsiz... Qorangizni o‘chiring! – o‘shqirdi u. – Yana tuhmat qilsangiz, sharmandangizni chiqaraman. Qorangizni o‘chiring bu yerdan!

U shikoyat xatini ayolning ko‘z o‘ngida yirtib tashladi.

Mehmonning oxirgi so‘zlarini Bim yaxshi tushundi. Xola miq etmay, boshini mag‘rur ko‘targanicha hech kimga qaramay ketardi. Bim hamon undan ko‘zini uzmay tikilib yotar, hatto ayol chiqib ketib, qadam tovushlari tinganidan so‘ng ham u eshikka tikilishda davom etardi.

– Siz ayol bilan juda ham... dag‘al gaplashdingiz, – dedi Ivan Ivanich.

– Bunaqangilar bilan boshqacha gaplashib bo‘lmaydi, dedimku, sizga. Aks holda, qo‘shnilaringizning barini sizga qarshi qayrab qo‘yadi. Men bir narsani bilmasam, gapirmayman. Bunaqangi g‘iybatchi va ig‘vogarlar mana bu yerimga kelgan, – u kafti bilan tomog‘iga yengil urib qo‘ydi. – G‘irt bekorchi-da, shuning uchun ham kimni qopishni bilmay halak. Bunaqangilarga qo‘yib bersang, butun uyni rasvoyi-raddibalo qiladi!

Bim ularning yuz ifodasi, imo-ishoralari, ovoz ohangini kuzatib, mehmon va mezbon bir-birga dushman emasligini, ehtimolki, hurmat ham qilishlarini tushunib yetdi. Egasi o‘zining mehmoni bilan uzundan uzoq suhbatlashayotgan paytida ham ularni kuzatishdan to‘xtamadi. Biroq u asosiy narsani aniqlagandi, qolgani esa unchalik qiziqitirmasdi. Bim mehmonning oldiga bordi va xuddi «Meni kechiring» degandek uning oyoqlari yoniga yotib oldi.

Egasining yozuvlaridan

Bugun itimning ustidan tushgan shikoyatni ko‘rib chiqish uchun uy boshlig‘i kirdi. Bim g‘olib chiqdi. Ammo mening mehmonim xuddi donishmand Sulaymondek hukm chiqardi! U tug‘ma qobiliyat egasi ekan!

Nega dastavval Bim unga qarab irilladi? Ha-a, buni tushundim! Axir, men kirib kelgan odam bilan qo‘l berib ko‘rishmadim,

unga jahl bilan muomala qildim (chunki ovni qoldirishga to'g'ri kelgandi), Bim esa o'zining itlik tabiatiga muvofiq holda «egamning dushmani – mening dushmanim» qabilida ish tutadi. Vaholanki, bu yerda Bim emas, men uyalishim kerak. Uning tovush ohangi, yuz ifodasi, imo-ishoralarni idrok etish qobiliyati qanchalar nozik-a! Buni doimo nazarda tutishim lozim.

Shundan so'ng uy boshlig'i bilan judayam qiziqarli suhbat qurdik. U hatto meni sensirashga o'tib oldi.

– Bir o'ylab ko'rgin-a, – dedi u, – men boshchilik qiladigan uyda bir yuz ellikta xonadon bor! To'rt-beshta buzg'unchi-bekor-chilar shunaqangi ishlarni qilib tashladiki, hammaning tinchi buziladi. Ularni hamma taniydi, barcha ulardan qo'rqadi va chekka-chekkada qarg'ab yuraveradi. Yomonga balo ham urmaydi, degani rost gap!

Mening ashaddiy dushmanlarim kimligini bilasanmi? Ishlamaydigan bekorchixo'jalar. Bizda, birodar, ishlash shart emas, lekin to'kin-sochin yashash mumkin. Senga aytsam, buning nimasidir noto'g'ri. Noto'g'ri, demak... Ishlamaslik mumkin! Ko'ryapsanmi? Masalan, sen nima ish qilasan?

– Yozaman, – dedim men, garchi uning hazillashayotganini ham, jiddiy gapirayotganini ham tushunmagan bo'lsam-da (bunday gaplar ko'pincha hazilkash odamlardan chiqadi).

– Shuyam ishmi endi! Qo'l qovushtirib o'tirasan, shuning uchun pul to'lashadimi?

– To'lashadi, – javob berdim men. – Faqat men juda kam maosh olaman. Qarib qolganman, nafaqaga yashayman.

– Nafaqaga chiqquningcha qanday kasb bilan shug'ullangansan?

– Men jurnalistman. Gazetalarda ishlaganman. Mana endi uyda o'tirib, oz-oz yozib turibman.

– Yozyapsanmi? – iltifotli ohangda so'radi u.

– Yozyapman.

– Mayli, unda yozaver... Ko'rib turibman, sen yomon odam emassan. Hamma gap shunda. Men ham yuz so'm nafaqa olaman, uy boshlig'i bo'lib ishlashimga esa maosh to'lanmaydi, bilib qo'y. Men bir umr rahbarlik ishida ishlaganman, hech qachon sondan

ham, sanoqdan ham qolmaganman. Oxirida esa surib, chetga chiqarishdi, xizmat pog'onasidan tushirib yuborishdi. Oxirgi ishlagan joyim – kichkinagina zavodcha bo'ldi. O'sha yerda nafaqa tayinlandi. Xos nafaqa tayinlanmadi – qandaydir hiyla-nayranglar to'sqinliklar bo'ldi... Hamma ishlashi shart. Men shunday deb o'ylayman.

– Lekin mening ishim ham oson emas, – o'zimni oqlashga urindim men.

– Yozish-a? Bo'lmag'ur gapni gapirma. Agar sen yosh bo'lganingda edi, o'zim ishga olardim. Nafaqaga chiqqan bo'lsang... Umuman olganda, ishlamaydigan yoshlarni uydan haydab chiqaraman: yo ishlasin, yoki boshi oqqan tomonga daf bo'lsin.

U haqiqatan ham uyimizdagi bekorchilarning dushmani. Hozir uning hayotdagi asosiy maqsadi – bekorchilar, g'iybatchilar va tekinxo'rlarni yo'qotishdan iborat bo'lib, barchani baravar tarbiyalashga urinadi. Yozish ham ish ekanligini unga isbotlab berishning iloji yo'q edi. Bu borada u nozik sha'ma bilan yo'g'rilgan hazil qilar yoki shunchaki lutf ko'rsatar, «Mayli, g'irt bekorchil bo'lgandan ko'ra yozgan ham ma'qul», derdi.

Ketar oldidan uning ko'ngli ochilib, saxiylashib qoldi, Bimni silab:

– Mayli, sen yashayver, biroq xolangning yaqiniga yo'lamagin, – dedi, keyin menga o'girildi. – Mayli, yaxshi qol. Yozaver, ishing shunaqa bo'lganidan keyin boshqa ne ilojing bor?

Biz qo'l siqishib xayrlashdik. Bim dumini likillatib, goh-goh uning yuziga mo'ralaganicha, mehmonni eshikka qadar kuzatib qo'ydi. Bimning yangi tanishi paydo bo'ldi: Pavel Titich Ridayev. Odatda uni hamma Paltitich deb chaqiradi.

Zero, Bim dushman ham orttirdi: u – o'zi taniydigan odamlar ichidagi yagona ishona olmaydigan xola. It tuhmatchini aniqlab bergandi.

Biroq bugungi ov qoldirildi. Ba'zan odam kuni maroqli o'tishini kutadi, lekin nuqul ko'ngilsizliklarga duch keladi. Shunaqasiyam bo'lib turadi.

Kunlarning birida, erta tongda ikkovlon uydan chiqishdi. Dastaval tramvayda ketishdi. Tramvay haydovchi ayol Ivan Ivanich va Bimning tanishi bo'lib chiqdi. Ayol bir temir izni boshqasiga ulovchi moslamani surish uchun pastga tushishga chog'langan paytda, Bim u bilan salomlashishga shoshildi. Tramvay haydovchi ayol uning qulog'ini siypalab qo'ydi, Bim esa ayolning qo'lini yalamadi, balki o'tirgan joyida panjalarini silkitib, dumini yerga urib, o'zicha salomlashgan bo'ldi.

Shahar tashqarisiga yetganlarida hali judayam erta bo'lgani sababli atigi besh-oltitagina yo'lovchi o'tirgan avtobusga chiqishdi. Avtobusga chiqayotganlarida haydovchi «it» va «mumkin emas» degan so'zlarni takrorlab, nimalardir deb ming'irladi. Bim haydovchining yuziga qarab, u o'zlarini olib ketishni xohlamayotganini, bu esa yomonligini tushunib yetdi. Yo'lovchilardan biri ularning yonini oldi, boshqasi esa haydovchining gapini ma'qulladi. Bim ularning janjalini qiziqish ila kuzatardi. Nihoyat, haydovchi avtobusdan tushdi. Ivan Ivanich unga sarg'imtir qog'ozni uzatdi, Bim bilan birga zinadan ko'tarilib, o'rindiqqa o'tirdi va g'amgin ohangda «Oh-ho-ho!» deb qo'ydi.

Bim odamlar allambalo hidlar anqib turadigan qandaydir qog'ozchalarni almashtirishlarini payqaganiga ancha bo'lgan. Bir safar u stol ustida yotgan qog'ozchalarning biridan qon hidi anqiyotganini sezdi, uni burni bilan turtib, egasining diqqatini tortmoqchi bo'ldi, biroq u pinagini ham buzmad – hid bilmaydi-da! – va doimiy «mumkin emas» degan so'zini takrorladi. Keyin esa qog'ozchalarni g'aladonga solib, qulflab qo'ydi. Ba'zi qog'ozchalar toza bo'ladi, ulardan faqat non, kolbasa, umuman do'konning hidi keladi, ayrimlaridan esa faqat qo'l isi anqib turadi. Bu qog'ozchalarni odamlar yaxshi ko'rishadi, ularni cho'ntaklariga yoki egasi kabi g'aladonlarga yashirishadi. Bu borada Bim hech narsani tushunmasada, bir narsani aniq sezdi: egasi haydovchiga qog'ozcha berganidan so'ng ular do'st bo'lib qolishdi. Ivan Ivanich nega xo'rsinganini esa

Bim tushunolmadi, buni do'stiga qadalgan aqlli ko'zlari ko'rsatib turardi. U qog'ozchalarning sehrli kuchini tasavvur ham qilolmas, zero Bim it bo'lgani uchun ham ushbu pullar vaqti kelib o'zining taqdirida mash'um o'rin tutishini tushunishga qodir emasdi.

O'rmon yoqasiga yetgach, Ivan Ivanich dam olish uchun to'xtadi, Bim esa atrofni ko'zdan kechirdi. Bunday o'rmonni u sirayam ko'rmagandi. O'rmon-ku, ular bahorda va yozda kelishganining o'zginasi edi, biroq endi atrofdagi hamma narsa sarg'ish va to'q qizil rangda bo'lib, xuddi bari yonayotgandek va quyosh bilan birga porlab turgandek tuyulardi.

Daraxtlar barg-liboslarini endigina yecha boshlashgan, barglar havoda hilpiragancha, unsiz va yengilgina yerga uchib tushishardi. Havo salqin va yengil bo'lib, judayam xush yoqardi. O'rmonning kuzgi hidi o'ziga xos, turg'un va shunaqangi toza ediki, Bim o'nlab metr naridan egasining hidini payqab turardi. U ancha naridagi o'rmon sichqonining «hidini oldi», biroq uni izlashga shoshilmadi (urinishiga arzimaydigan bekorchi narsa!). Biroq boshqa tirik jon-zotning hidi burniga urilganida, Bim to'xtab qoldi. Keyin unga yaqinlashib, tikanlar bilan qoplangan koptokka qarab vovullay boshladi.

Ivan Ivanich daraxt to'nkasidan turib, Bimning oldiga yaqinlashdi:

– Mumkin emas, Bim! Tentakvoy, mumkin emas. Bu – tipratikan! Orqaga qayt! – dedi va Bimni nari olib ketdi.

Demak, tipratikan – jonivor, boz ustiga yaxshi ekan, demak, unga tegish mumkin emas.

Ivan Ivanich yana to'nkaga o'tirdi, Bimning ham o'tirishini buyurdi, keyin boshidagi qalpog'ini yechib, yoniga, shundoqqina yerga qo'ydi va xazonlarga qaradi. U o'rmonning sukunatini tinglardi. Va, albatta, u jilmayardi! U doim ov boshlanishi oldidan bo'ladigan ko'rinishida edi.

Zag'izg'on uchib keldi-da, surbetlarcha bir narsalarni shaqilladi va yana uchib ketdi. Shoxdan shoxga sakragancha xo'jasavdogar keldi, u yoqdan bu yoqqa uchib, ovozinining boricha rosa sayradi. Mana, mitti chumchuqcha keldi, uning yonginasida «Chirq-chirq,

chirq-chirq!» deb rosa chirqilladi. Uni nima qilsa bo'ladi-ya? O'zi qo'ng'izchadek keladi-ku, tovushi o'qdek quloqni teshadi: «Chirq-chirq, chirq-chirq!» Salomlashyapti, shekilli...

Qolgan barchasi sukut saqlab turardi.

Mana, egasi o'rnidan turdi, miltiqni ochib, o'qlarni joyladi. Bim hayajondan titrab ketdi. Ivan Ivanich uni erkalatib, bo'ynini siypaladi, bundan Bimning hayajoni oshdi.

– Qani, bolakay... Qidir!

Bim ish boshladi! U yer bag'irlab, oyoq uchida va deyarli tovuhsiz g'izillab chopardi. Ivan Ivanich do'stining ishiga qoyil qolgancha asta uning ortidan kelardi. Endi o'zidagi barcha go'zalliklar bilan birga o'rmon ikkinchi o'ringa, serzavq, bejirim va chaqqon Bim asosiy o'ringa o'tib qoldi. Ivan Ivanich vaqti-vaqti bilan Bimni yoniga chaqirar va u tinchlanib, nafasini rostlab olishi uchun «Yot!» deb buyurardi. Tez orada Bim ishini o'zi bilib bajaradigan bo'ldi. Setterning ishlashi – ajoyib san'at! Mana, u boshini ko'tarib yengilgina lo'killab chopa boshladi. Boshini pastga egishi va yerni hidlashi shart emas, u tepadan hid olishi mumkin, kelishgan yag'rinini o'rab olgan ipakdek mayin juni, boshini mag'rur ko'tarib, dadil, ishonch bilan, jo'shqin yurishi uni yanada ko'rkam qilib ko'rsatadi.

Bunaqangi damlar Ivan Ivanich uchun unutishlar vaqti bo'lardi. U urushni, o'tmishidagi mashaqqatlarini va yolg'izligini unutardi. Hatto shafqatsiz urush bag'ridan yulib olgan o'g'li Kolya yonida yurgandek, o'limidan keyin ham otasi unga quvonch baxsh etayotgandek tuyulardi. Kolya ham ovchi edi! Marhumlar o'zini yaxshi ko'rganlarning hayotini tark etishmaydi. Marhumlar qarishmaydi va ketayotgan paytlarida qanday bo'lishsa, o'sha qiyofada tiriklarning qalbida qoladilar. Ivan Ivanovich bilan ham shunday: uning qalbida gi jarohat bitib ketdi, lekin tinimsiz simillab og'riyveradi. Ovda esa qalb og'riqlari biroz bo'lsa-da yengillashadi. Bu ham ovchi bo'lib tug'ilganlarning baxti!

Mana, Bim aylanish doirasini toraytirib, yugurishni sekinlashtirdi, bir zum tin oldi va asta-asta qadam bosa boshladi. Uning mayin, ehtiyotkor, tekis harakatlarida mushuknikiga o'xshash nimadir bor edi. Endi u boshini tanaga tomon bir tekis cho'zgan edi. Tanasi-

ning har bir zarrasidan tortib dumigacha hid oqimiga qaratilgandi. Qadam... Mana, bitta panjasi yerdan ko'tarildi. Yana bir qadam... keyingi panjasi bir zum havoda muallaq qotadi, keyin unsizgina yerga tushadi. Nihoyat, oldingi o'ng panjasi odatdagidek yerga tegmasdan muallaq qotib qoldi.

Miltig'ini shay qilib ushlagan Ivan Ivanich orqadan asta yaqinlashdi. Endi ikkita haykal qotib turardi: odam va it.

O'rmonda sukunat hukm surardi. Qayinning tillarang barglari shildirab, quyosh nurlarida cho'milardi. Baquvvat eman daraxtining yonidagi yoshgina eman niholchalari jim turishadi. Tog'terakning kulrang-kumush tusli barglari tinmay titraydi. Za'faron tusli barglar ustida esa tabiat va sabrli inson yaratgan mo'jiza – it turibdi. Uning bitta tuki ham qimir etmaydi! Shunday damlarda Bim zavq-shavq va ehtirosdan yarim jonsiz bo'lib qolgandek tuyulardi. Bu sariq libosli o'rmondagi mumtoz turish namunasi edi.

– Olg'a, bolakay!..

Bim yakantovuqni hurkitdi.

O'q otildi!

O'rmon titrab ketdi, norozi, ranjigan ohangda aks-sado qaytardi. Emanzor va tog'teragining chegarasiga kelib qolgan qayin qo'rquvdan qaltirab ketgandek bo'ldi. Emanlar xuddi bahodirlardek na'ra tortishdi. Yaqin orada o'sib turgan tog'terak shosha-pisha barglarini yerga to'kdi.

Yakantovuq yerga toshdek quladi. Bim uni barcha qoidalarga muvofiq olib kelib berdi. Biroq egasi Bimni erkalatib, chiroyli ishlagani uchun minnatdorchilik bildirganidan keyin qushni kaftiga oldi, uni ko'zdan kechirdi va o'ychan holda:

– Eh, bu kerak emasdi, – dedi.

Bim hech narsani tushunmay Ivan Ivanichning yuziga tikildi, u gapida davom etdi:

– Bu sen uchun kerak, Bim, faqat sen uchun, tentakvoy. Aslida esa bunday qilish kerak emasdi.

Yana Bim hech narsani tushunmadi. Ammo butun ov davomida egasi xuddi ko'r bo'lib qolgandek, «nishonga urolmadi». Egasi bi-rontayam yakantovuq otolmaganidan Bim judayam norozi bo'ldi. Faqat eng oxirgisini yerga urib tushirdi, xolos.

Ular qosh qorayganidagina uyga qaytishdi. Ikkovi ham charchagan, bir-biriga mehribon edilar. Hatto Bim o'zining joyida tunashni xohlamay, to'shamasini Ivan Ivanichning karavoti yoniga sudrab olib keldi. Zero, «Mumkin emas!» degani joyiga borishni bildirardi, u esa «joy»ini o'zi bilan birga olib kelgandi.

Tunda Ivan Ivanich negadir sekingina ingradi, o'rnidan turdi, dorisini ichdi, yana joyiga yotdi. Avvaliga Bim do'stiga razm solib, asta quloq tutdi, keyin o'rnidan turdi va uning karavotdan osilib tushgan qo'lini yalab qo'ydi.

– O'q parchasi. O'q parchasi, Bimka... Sudralib yuraveradi. Bu yomon, bolakay, – dedi Ivan Ivanich qo'lini yuragi ustiga bosib.

Bim «yomon» degan so'zni juda yaxshi tushunardi. Mana, u bir necha bor «o'q parchasi» degan so'zni eshitdi, uning ma'nosini tushunmadi-yu, lekin u xavotirga soluvchi mash'um, yomon so'z ekanligini taxmin qildi.

Biroq hammasi baxayr tugadi: ertalabki sayrdan so'ng Ivan Ivanich odatdagidek stol yoniga o'tirdi, oldiga oq qog'oz qo'ydi va tayoqcha bilan uni qitirlatib, uzoq o'tirdi.

Egasining yozuvlaridan

Kecha baxtli kun bo'ldi. Hammasi ko'ngildagidek: kuz, quyosh, tillarang o'rmon, Bimning nafis ishi. Shunga qaramay, negadir ko'nglimning bir chekkasi xijil. Nega bunday bo'lyapti-ya?

Avtobusda Bim mening xo'rsinganimni aniq sezdi, lekin ko'nglimdan o'tganlarini tushunib yetmadi. It haydovchiga pora berganimni tasavvur qila olmaydi-da! Itning bu bilan ishiyam yo'q. Men-chi? Kichkina «ish» uchun bir so'm uzatdimmi, kattarog'i uchun yigirma so'm berdimmi, buning nima farqi bor? Baribir bu uyat. Xuddi vijdongingni maydalab sotayotganga o'xshaysan. Turgan gapki, Bim insondan pastroq turadi, shuning uchun hech qachon buni bila olmaydi.

Bu qog'ozchalar va vijdon ba'zan bevosita bog'liq bo'lishini Bim tushunib yetarmidi? Ammo o'zim ham g'alati odamman-da! It-dan uning imkoniyatidan oshiq bo'lgan narsani talab qilish mumkin emas: itni odam qilib bo'lmaydi.

Yana bir narsa: parrandalarni o'ldirishga ko'nglim bo'lmayapti. Bu keksalikdan bo'lsa kerak, ehtimol. Atrof shunaqangi chiroyli bo'lsa-yu, birdaniga qushni o'ldirsang... Men ko'katxo'r ham, shuningdek, o'ldirilgan jonivorlarning azoblarini tasvirlay turib, ularning go'shtini pok-pokiza tushiradigan riyokor ham emasman. Har ovda bitta-ikkitadan oshiq yakantovuq otmayman deb o'z-o'zimga shart qo'yanman. Bironta ham otmasam, nur ustiga a'lo nur bo'lardi-ku, lekin bunda Bim ovchi it sifatida tamom bo'ladi, mening esa boshqa birov otgan parrandani sotib olishimga to'g'ri kelardi. Yo'q, bunaqasi ketmaydi... Men aslida kimga murojaat qilayapman? O'z-o'zimga albatta: uzoq muddat yolg'iz yashaganda, shaxsiyat ikkiga bo'linishi ma'lum darajada muqarrardir. Asrlar davomida insonni bunday holatdan ko'pincha itlar qutqarib kelgan.

Kechagi dilxiralik qayerdan keldi? Faqatgina kechagi edimi? Bironta fikrni o'tkazib yubormadimmi?.. Demak, kechagi kun: baxtga intilish va sariq pul, sariq o'rmon va o'ldirilgan qush. Nima bu: o'z vijdoning bilan tuzilgan bitimmi?

Shoshma-chi! Kecha dumini tutqazmay qochgan fikr: bitim emas, balki insoniyligini yo'qotganda bekorga o'ldiruvchi har bir kimsa uchun dil og'rig'i va vijdon qiynog'i. O'tmishdan, o'tmish haqidagi xotiralardan qushlar va hayvonlarga nisbatan achinish paydo bo'lmoqda va u tobora kuchaymoqda.

Esimda.

Ovchilar jamiyati rahbariyati biologlarning tadqiqotlarini ro'kach qilgan holda zag'izg'onlarni zararli qush sifatida yo'qotish haqida ko'rsatma bergan edi. Shu sababli ham ovchilar vijdonlari qilt etmagani holda bajon-u dil zag'izg'onlarni o'ldirardilar. Kalxatsimon qushlar haqida ham xuddi shunaqangi buyruq berilgandi. Ularni ham bemalol qirib tashlashardi. Bo'rilar haqida ham unutilmagandi. Ular qariyb yo'q qilib tashlandi. O'ldirilgan bo'ri uchun uch yuz so'm (eski pulda) mukofot puli to'lashar, ovchilar jamiyatiga topshirilgan zag'izg'on yoki kalxat panjasi uchun besh tiyinmi yoki ellik tiyinmi to'lanardi, anig'i esimda yo'q.

Kutilmaganda yangi ko'rsatmada kalxat va zag'izg'onlarning zararli emas, balki foydali qushlar ekanligi e'lon qilindi va ularni

o'ldirish taqiqlandi. Bu qushlarni qirib tashlash haqidagi qat'iy ko'rsatmalar ularni o'ldirishni taqiqlash haqidagi buyruq bilan almashtirildi.

Endi esa qonundan tashqari deb e'lon qilingan, qirib tashlanishi shart bo'lgan yagona qush – olaqarg'a qoldi. U go'yoki qushlarning uyalarini vayron qilardi (ammo zag'izg'onga ham shunday ayb qo'yilgan edi). Biroq dasht va o'rmon-dasht hududlarida qushlar zaharli dorilar bilan dorilab o'ldirilishi uchun hech kim javobgar deb hisoblanmasdi. Biz o'rmon va dalalarni zararkunanda hasharotlardan tozalashga urinib, qushlarni qirib tashlardik, ular bilan birga esa o'rmonlarni ham yo'q qilardik. Nahotki insonlar jamiyatining doimiy yo'ldoshi sifatida tanilgan olaqarg'a atrof-muhitni tozalagani uchungina aybdor bo'lsa?

Aybni olaqarg'aga ag'dar! Qushlar o'limida o'zini oqlashning eng aniq, ishonchli usuli shu.

O'limga oid uzoq muddatli tajribalar dahshatli bo'ladi. To'g'riso'z biolog olimlar va ovchilar allaqachon bunga qarshi isyon ko'targan, qushlar va o'rmonlarni himoya qilish uchun kurash xalqaro miqyosga chiqqan.

Men o'limga oid tajribalarga qarshi norozilik bildirganmanmi? Yo'q. Lekin ana shu narsa vijdonimni qiynaydi. Agar kech bo'lganidan so'ng, «Odamlar yashaydigan joylarning tozalovchisi bo'lgan olaqarg'ani qutqaring. Ularni qirilib ketishdan saqlang. Zero, hajv qiluvchilar jamiyatni ruhiy iflosliklardan tozalagani kabi, olaqarg'alar bizning atrofimizni iflosliklardan tozalashda yordam beradi. To'g'ri, qushlarning tuxumini o'g'irlashga sal moyilroq bo'ladi, lekin uning bahonasida qushlar uyalarini pishiqroq qilib quradilar. Dunyodagi yagona bu surbet qush insonning naq ko'ziga boqib, «Qag'-g'-g'» (Yo'qol, ahmoq!) deb qag'illashi, siz daraxtdan sal uzoqlashganingiz hamoni beparvogina yerga uchib tushib, hech qaysi it zoti og'ziga ololmaydigan aynigan go'sht bo'lagini xotirjam yeya boshlashi mumkin. Qushlar dunyosining hajvchisi bo'lgan olaqarg'ani qutqaring! Undan qo'rqmang! Mittigina qaldirg'ochlar to'dalashib, olaqarg'ani cho'qilayotganlari, uni toza joydan quvib chiqarayotganlari, u esa zaharxandali qag'illagancha iflosliklar

to'la joylarga bosh olib ketayotganiga bir qarang. Olaqarg'ani qutqaring!» deganimda edi, ovozim qanchalar zaif va ojiz chiqqan bo'lardi.

Ha, bu ham zaif, ham asossiz bo'lur edi. Biroq bu so'zlarim Bim haqidagi daftarimda qola qolsin. Hozirning o'zidayoq daftar muqovasiga «Bim» deb yozib qo'yaman.

Bu yerda hamma narsa faqat o'zim uchun bo'ladi. Axir men bu yozuvlarni o'zining nasli uchun aybdor bo'lgan Bimning sha'nini saqlash uchun yoza boshladim. Lekin yozuvlar tobora ko'payib, na-faqat Bim, balki o'zim bilan bog'liq bo'lgan narsalarni ham qam-rab olmoqda. To'g'ri, ularni hech kim nashr etmaydi, axir «it va o'zim haqimda»gi yozuvlar kimniyam qiziqtirardi? Hech kimni. Shu yerda Kolsovning so'zlarini esga olgim kelyapti:

Yozmayman-u oniy shuhrat uchun,

Lek yozaman ermaklar uchun,

Ko'ngil yozish, o'tmishning yodi,

Jondan aziz do'stlarim uchun.

...Bim esa kunduzlari ham dam olyapti – do'stinam ishlab charchadi, tillarang o'rmonning shifobaxsh islariga to'yinib ketdi.

Oh, tillarang o'rmon, za'faron o'rmon! U – baxtning bir bo'lagi, o'y surish uchun eng qulay joy. Kuzgi za'far to'nini kiygan va qu-yosh nurlariga to'lgan o'rmonda odam poklanadi.

Beshinchi bob

BO'RIJARDAGI OV

Kuz kunlaridan birida Ivan Ivanichning oldiga butun vujudidan o'q-dori va it hidi anqib turgan bir kishi keldi. Garchi u ov kiyimida emas, balki barcha oddiy va zerikarli odamlar kabi kiyingan bo'lsa-da, Bim undan anqib turgan nozik o'rmon iforini, qo'llaridagi mil-tiq izlarini va boshmoqlaridan taralayotgan kuzgi xazonlarning xush bo'yini tuydi. Mehmonni ishtiyoq bilan hidlab, shularni payqagan Bim dumini likillatib, egasiga nigoh tashladi.

Bu odamni birinchi marta ko'rayotgan bo'lsa-da, uzil-kesil va sira ikkilanmay uni do'sti sifatida tan oldi. Mehmon itlarning tilini tushunardi, shuning uchun ham mehr bilan dedi:

– Tanidi, tanidi. Yaxshi, yaxshi, yaxshi, – mehmon Bimning boshini siladi-da, dadil ovozdagi aniq qilib buyurdi. – O‘tir!

Bim buyruqni bajardi – panjalarini tez harakatlantirib cho‘k tushib o‘tirdi. Keyin undan ko‘zini uzmay, sabr bilan kutib turdi.

Uy egasi va mehmon do‘stona ko‘z urishtirib qo‘yishdi. «Zo‘r!» angillab yubordi Bim.

– Aqlli it, – dedi mehmon Bimga nazar tashlab.

– Bim zo‘r, undan yaxshisi kerak emas! – uning gapini tasdiqladi Ivan Ivanich.

Shu tariqa ular uchovlon gaplashib turishdi. Keyin mehmon ovchi cho‘ntagidan qog‘oz chiqarib, yozdi-da, uning ustidan barmog‘ini yurg‘azib, gapira boshladi:

– Mana bu yerda... Bo‘rijarning eng ichkarisida... Rosa berilib uvulladi... Beshta bo‘ri javob qaytardi: uchtasi bir yoshga kirgan yosh bo‘rilar, ikkitasi esa voyaga yetgan, kuchli bo‘rilar. Bittasini o‘zim ko‘rdim. Bo‘rimisan bo‘ri!

Bim qidiruv paytida egasi ishlatadigan «Bu yerda, bu yerda va bu yerda» degan so‘zlarni bilardi. U xushyor tortdi. Ammo «bo‘ri-i!» deyilganida, uning ko‘zlari katta ochilib ketdi. Esiga bir vaqtlari Bimni qo‘rqitgan o‘rmon itidan taraladigan badbo‘y hid keldi. O‘shanda egasi uning izini ko‘rsatib, dahshatli tarzda «Bo‘ri! Bu bo‘ri, Bim» deb takrorlagandi. Endi mehmon ovchi ham og‘zini to‘ldirib, «Bo‘rimisan bo‘ri!» deyapti.

Mehmon Bim bilan xayrlashib, chiqib ketdi.

Ivan Ivanich yirik qo‘rg‘oshin donalarini sochib, ustidan kartoshka unini sepdi va o‘qlarni miltiqqa joylay boshladi.

Tunda Bim juda bezovtalanib uxladi.

Tong otmasidan ancha avval ular miltiqni ko‘tarib ko‘chaga chiqishdi va muyulishda kutib turishdi. Tez orada ovchilar bilan to‘lgan katta avtomobil keldi. Ovchilar usti yopiq mashinaning o‘rindiqlarida jimgina va tantanavor qiyofada o‘tirishardi. Ivan Ivanich avval Bimni mashinaga chiqardi, keyin o‘zi joylashdi. Kechagi ovchi Ivan Ivanichga qarab:

– E, bu qanaqasi?! Nega Bimni birga olib ketyapsiz? – dedi.

– Ov paytida it bo‘lishi mumkin emas. Tushirib yuboring! – qat’iy ovozda buyurdi kimdir. – Akillab qolsa bormi, ovni xudo urdi, deyavering!

– Bim akillamaydi, – xuddi o‘zini oqlagandek ohangda dedi Ivan Ivanich. – U tozi it emas.

Unga birdaniga bir necha kishi e’tiroz bildira ketdi, biroq oxirida kechagi mehmon:

– Mayli. Bim bilan sizni zaxiraga qo‘yaman. Ivan Ivanich, bitta joy bor, bir safar bo‘ri irmoq tomondan kelib, o‘sha joydan chiqib qochgan edi, – dedi.

Bim o‘zini olib ketishni istamayotganlarini tushundi. U yonida o‘tirganlarni ko‘ndirishga urindi, biroq qorong‘ida buni hech kim tushunmadi. Va, nihoyat, avtomobil o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Ular tanish o‘rmonchining qorovulxonasi oldida to‘xtaganlarida, allaqachon quyosh chiqqan edi. Ovchilarning bari xuddi Bim kabi jimgina, so‘zsiz mashinadan tushishdi. Keyin izma-iz tizilgan-cha so‘qmoq yo‘ldan uzoq yurishdi. Hech kim sigaret chekmas, yo‘talmas, hatto etigini etigiga urib shovqin ham chiqarmas, ham-malari «qayerga, kim va nega» degan savollarning javobini juda yaxshi bilishardi. To‘g‘ri, buni faqatgina Bim bilmasdi-yu, lekin u ham egasining izidan soyaday odimlardi. Yo‘lda egasi Bimning qulog‘ini asta silab qo‘ydi: «Yaxshi, Bim, barakalla».

Hammadan oldinda kechagi mehmon ovchi kelardi. Mana, u qo‘lini ko‘tardi. Hamma to‘xtadi. Eng oldindagi uch ovchi xuddi mushukdek sassizgina odimlab, o‘rmonga kirib ketishdi va tez orada qaytib chiqishdi. Endi boshlovchi qalpog‘ini tepaga ko‘tarib, u bilan «Olg‘a» deb ishora qildi. Bu ishoraga ko‘ra ovchilarning yarmi, shu jumladan, Ivan Ivanich va Bim ham unga ergashishdi. Bim hammadan oxirida kelardi. Garchi hech kim Bimchalik sharpasiz harakatlana olmasa-da, Ivan Ivanich uning bo‘yinbog‘idan ushlab oldi.

Eng oldinda kelayotgan boshlovchining unsiz buyrug‘iga binonan uning ortidan kelayotgan kishi buta orqasiga o‘tib, harakatsiz qotdi. Tez orada emanzor oldida ikkinchi ovchi shu tarzda qotib qoldi. Navbatma-navbat barcha ovchilar o‘zlarining raqamlangan joylarini egallashdi. Boshlovchining oldida Ivan Ivanich va Bim

qolishdi. Ular avvalgidan-da ehtiyotkorroq odimlashardi. Endi Bim o'zlari ketayotgan yo'lning yon taraflarida tizimcha cho'zilib ketgani, unda olovga o'xshash mato parchalari osilib turganini ko'rdi. Mana, boshlovchi ularning ikkovini shu yerga qoldirib, o'zi ortiga qaytib ketdi.

Garchi odamlarga ularning qadamlarini hech kim eshitmayotgandek tuyulsa-da, Bimning sezgir quloqlari hamon eshitib turardi. Bim boshlovchi qolgan ovchilarni ham tekshirganini ilg'adi, biroq bu paytda ancha uzoqda bo'lganidan shitirlashlarni aniq ajrata olmadi.

Oraga sukunat cho'kdi. O'rmonning xushyor torttiruvchi, vahimali sukunati. Bim buni egasi qanday qotib qolgani, tizzasi titragani, unsizgina miltiqni ochgani, o'qlarni joylagani, o'qdonni yopgani va yana diqqat bilan jim kutayotganidan sezdi.

Ular ichi tikanli butalar bilan qoplangan jarlikning yonboshidagi sershox o'rmon yong'og'i butasining panasida kutishardi. Atroflarini o'ragan qudratli emanzor qovoq uygancha jim turardi. Har bir daraxt – pahlavon! Ularning orasidagi zich o'sgan yosh niholchalar esa quyuq o'rmonning ajabtovur qudratini yanada bo'rttirib ko'rsatardi.

Bimning butun vujudi diqqatga aylandi: u qimirlamay o'tirar va havoni hidlar, biroq e'tiborni tortadigan hech narsani sezmasdi, chunki havo harakatsiz edi. Aynan shu Bimni bezovtalantirardi. Agar qilt etgan shabada bo'lganida edi, u oldinda nimalar borligini bilgan bo'lardi. Shabada yo'q mana bunaqangi quyuq o'rmonda, boz ustiga mehribon do'sti yonginasida hayajonlanib o'tirganini ko'rgandan keyin xotirjamgina kutish mumkinmi?

To'satdan boshlandi.

Ogohlantiruvchi o'q tovushi sukunatni katta bo'laklarga bo'lib tashladi, goh u yerda, goh bu yerda, yaqin-uzoqlarda aksado yangradi. Shundan keyin uzoq-uzoqlardan boshlovchining gumburlagan ovozi yangradi:

– Ketdi-i-i! Hoy-hoy-hoy-y!

Ivan Ivanich Bimning qulog'iga egilib, eshitilar-eshtilmas ovozda pichirladi:

– Yot!

Bim yotdi. Vujudiga titroq kirdi.

– Hoy-hoy-hoy-y! – bo‘rilarni haydab kelayotgan ovchilarning na‘rasi yangradi.

Sukunat endi notanish, g‘azabli, vahshatli ovozlarga ajralib ketdi. Ovchilar daraxtlarni tayoqlar bilan urib taqillatishar, shaqildoqlarni shaqillatishar, atrofni do‘zaxiy shovqinga to‘ldirishardi. Tinmay osmonga qarata o‘q uzayotgan ovchilar zanjiri baqir-chaqir va shovqin-suron bilan tobora yaqinlashardi.

Mana, Bim yoshligidan tanish bo‘lgan hidni sezdi: bo‘ri! U o‘zini egasining oyog‘i yoniga oldi, old panjalarida ozgina – ozginagina! – ko‘tarildi va dumini cho‘zdi. Ivan Ivanich hammasini tushundi.

Uni ikkalovi ham ko‘rishdi. Bo‘ri otishmalar doirasidan tashqarisida, bayroqlar yoqalab kelardi. U katta-katta odimlar, boshini pastga eggan, dumi osilib turardi. Kutilmaganda, vahshiy hayvon ko‘zdan yo‘qoldi. Shu zahoti zanjir ichida o‘q ovozi varangladi, ortidan yana o‘q uzildi.

O‘rmon gumburlardi. O‘rmon darg‘azab, xavotirli gumburladi.

Yana o‘q uzildi. Bu safargisi juda yaqindan eshitildi. Shovqin-suron tobora yaqinlashardi.

Ulkan, qari bo‘ri kutilmaganda paydo bo‘ldi. U tikanli butalar bilan to‘lgan jarlik tomondan chiqib keldi-yu, lekin bayroqchalarni ko‘rib nimagadir to‘qnash kelgandek taqqa to‘xtadi. Biroq bu yerda – jarlik ustida bayroqchalar boshqa joylardagiga nisbatan ancha balandroq osilgan edi. Odamlarning shovqin-suronlari tobora yaqinlashardi. Bo‘ri qandaydir qat‘iyatsizlik, hatto lanjlik ila bayroqchalarning ostidan o‘tdi va Ivan Ivanich bilan Bimdan o‘n besh qadamcha masofaga kelib qoldi. Mana, u yana bir necha qadam tashladi, biroq bu vaqt ichida odam va it uning yaralanganini payqashga ulgurishdi: bo‘rining butun biqinini qon dog‘i egallagan, og‘zi atrofi qonli ko‘pik bilan qoplangandi.

Ivan Ivanich o‘q uzdi.

Bo‘ri to‘rttala oyog‘ida bir sakradi-yu, bo‘ynini o‘girmay, lekin butun gavdasi bilan qayrilib o‘q uzilgan tomonga boqdi va... turib

qoldi. Keng, do'ngpeshana, qonga to'lgan ko'zlar, irjaygan tishlar, qizil tusli ko'pik... U aslo nochor ko'rinmasdi. Bu ozod yovvoyi juda ko'rkam edi. U mag'rur edi, yerga qulashni aslo xohlamasdi, biroq... panjalarini asta qimirlatganicha yuztuban quladi. Keyin tinchlandi, qimirlamay, qotib qoldi.

Bim bunga chiday olmadi. U joyidan sakrab turdi-yu, old panjasini ko'targancha qotib qoldi. Bu qanday turish edi-ki! Yelkasidagi mo'ynasi tikrayib, dumi oyoqlari orasiga kirib ketgandi: allaqachon jon taslim qilgani, shu tufayli ham endi xavfsiz bo'lgan, biroq hamon ruhan va jisman dahshatga solib turgan birodariga nisbatan qo'rqoqlarcha-zaifona, xunukdan xunuk turish edi bu. Bim birodarini yomon ko'rardi. Bim odamga ishonardi, bo'ri esa ishonmasdi. Bim birodaridan qo'rqardi, biroq bo'ri hatto o'ladigan darajada yarador bo'lganida ham undan qo'rqmasdi.

...Baqir-chaqirlar ancha yaqinlashdi. Mana, bir o'q uzildi. Yana o'qning varanglagani yangradi. Aftidan, qandaydir o'ta tajribali bo'ri ovchilar zanjirining yaqinida yurar, odamlar bir-biri bilan yaqinlashib, hushyorlikni yo'qotgan palladan foydalanib qurshoqni yorib chiqib ketishga muvaffaq bo'lgandi. Va, nihoyat, o'rmondagi butalar orasidan chiqqan boshlovchi Ivan Ivanichning oldiga keldi va Bimga qarab dedi:

– Qoyil-e! Qara-ya, itga sirayam o'xshamaydi: hayvonmisan hayvon! Ikkitasini qo'ldan chiqarib yubordik. Bittasi yaralandi.

Ivan Ivanich Bimni siladi, erkaladi, tinchlantirishga urindi, biroq uning yelkasidagi tuklari pasaygan bo'lsa-da, o'zi hamon joyida chir aylanar, hansirar, tilini osiltirganicha odamlardan teskariga o'girilardi. Ikki ovchi bo'rining jasadı tomon yo'nalishganida Bim ularga ergashmadi, balki barcha qoidalarini buzgancha bo'yinbog'ini sudrab ulardan o'ttiz qadamcha uzoqlashdi, boshini za'faron tusli xazonlar ustiga bosganicha asta titray boshladi. Bimning yoniga qaytgan Ivan Ivanich uning ko'zi qip-qizarib ketganini payqadi. Hayvon!

– Oh, Bimka, Bimka! Qiynalyapsanmi? Ha, albatta, qiynalasan-da... Shunday bo'lishi kerak, bolakay. Kerak.

– Ivan Ivanich, unutma, bo‘ri tozi itni sindirib qo‘yishi mumkin, u o‘rmondan qo‘rqadigan bo‘lib qoladi, – dedi boshlovchi ovchi. – It – qul, bo‘ri esa – ozod jonivor!

– To‘g‘riku-ya, lekin Bim allaqachon to‘rt yoshga kirdi – allaqachon balog‘at yoshiga yetgan, uni o‘rmon bilan qo‘rqitolmayсан. Zero, o‘rmonda bo‘rilar bo‘lsa, u yoningdan uzoqlashmaydi. Izini payqadimi, «Bo‘ri!» deb turaveradi.

– To‘g‘ri, bo‘rilar tozi itlarni xuddi jo‘jadek yengib ketishadi. Buni yengishi esa ehtimoldan uzoq, chunki hidini sezdimi, oyog‘ing yonidan ketmaydi.

– Ko‘rdingmi! Itni faqat bir yoshigacha bo‘ri bilan qo‘rqitmaslik kerak. Keyin nima bo‘lsa bo‘lar – u yog‘i peshanasidan...

Ivan Ivanich Bimni olib ketdi, boshlovchi ovchi esa bo‘rilarni haydab chiqqan ovchilarni kutib qoldi.

Ovi baroridan kelgan ovchilar o‘rmonchining qorovulxonasiga yig‘ilib, quvonch va hayajon ila qadah urishtirayotgan bir paytda, ko‘zlari qizarib ketgan, larzaga tushgan va bo‘rining irodasini yuqtirgan Bim yolg‘iz holda choyshab ostida g‘ujanak bo‘lib yotardi. Eh, taqdir uni yana bir marta shu o‘rmonga tashlashini Bim bilganida edi!

Qorovulxonaning egasi bo‘lgan o‘rmonchi unga yaqinlashdi, cho‘k tushib o‘tirdi va yelkasini silab:

– Yaxshi it. Aqlli it. Butun ov davomida biron martayam akil-lamadi-ya! – dedi.

Bu yerga to‘planganlarning hammasi itlarni yaxshi ko‘rishardi.

Ovchilar mashinaga joylashib, Ivan Ivanich Bimni ham unga chiqarmoqchi bo‘lganida, u mushukday epchillik bilan yerga sakrab tushdi, junlarini tikraytirgancha ayanchli g‘ingshiy boshladi. U jasad-i toshdek qotgan uchta o‘lik bo‘ri bilan birga ketishni xohlamasdi.

– Buni qara-ya! – dedi boshlovchi ovchi. – Juda balo it ekan-ku bu!

Notanish semiz ovchi istar-istamas kabinadan tushib, kuzovga chiqib o‘tirdi. Ivan Ivanich bilan Bim kabinaga joylashishdi.

Shundan so‘ng ko‘p marta yakantovuq ovlashdi, Bim har doim benuqson ishlardi. Biroq bo‘rining izini sezgan zahoti u ovni taqqa

to'xtatar, egasining oyoqlariga surkalar va bir qadam ham oldinga yurishni xohlamasdi. U «bo'ri» so'zini shu tarzda aniq ifodalardi. Va bu yaxshi edi. Bo'ri ovidan keyin u Ivan Ivanovichni yanada yaxshi ko'rib qoldi va uning kuchiga ishona boshladi. Bim insonning mehribonligiga ishongan. Ishonish – ulug' fazilat. Yaxshi ko'rish ham. Bunday fazilatga ega bo'lmagan it endi it emas, balki ozod bo'ri yoki (hatto undan ham yomoni) daydi itga aylanadi.

Egasiga ishonchini yo'qotib, undan qochib ketishni ixtiyor etgan yoki haydalgan har bir it mana shu ikki imkoniyatdan birini tanlaydi. Ammo o'zi yaxshi ko'rgan odamini yo'qotgan itning sho'ri quriydi. Uni qidiraveradi, kutaveradi. Oqibatda u na ozod bo'riga, na oddiy daydi itga aylanolmaydi, balki yo'qolgan do'stiga sadoqatini yo'qotmagan itligicha qoladi, umrining oxirigacha yolg'iz yashaydi.

Aziz o'quvchim, itlarning sadoqati haqidagi o'zim guvoh bo'lgan bunaqangi hikoyalarni so'zlab, vaqtingizni olmayman. Men faqat bittagina qora quloqli Bim haqida so'zlayman, xolos.

Oltinchi bob

DO'ST BILAN VIDOLASHUV

Bir safar ovdan uyga qaytgach, Ivan Ivanich Bimni ovqatlantirdi, o'zi esa kechki ovqatni yemasdan va chiroqni o'chirmasdan o'rniga yotdi. O'sha kuni Bim rosa ko'p ishlagandi, shuning uchun ham tezgina uxlab qoldi va hech narsani eshitmadi. Biroq shundan keyingi kunlari Bim egasining kunduzlari tez-tez o'rniga yotganini, nimalarnidir o'ylab siqilayotganini, ba'zan kutilmaganda og'riqdan ingrab yuborishini payqay boshladi.

Bir haftadan oshiq vaqt davomida Bim yolg'iz o'zi, oz vaqtdan sayr qildi. Keyin Ivan Ivanich kasal bo'lib qoldi. U Bimni tashqariga chiqarish yoki ichkariga kiritish uchun eshik ochgani zo'rg'a o'rnidan turardi. Bir safar u to'shagida yotganicha qattiq ingrab yubordi. Bim o'rnidan turib, egasiga yaqinlashdi, uning to'shagi yoniga cho'nqayib o'tirdi va do'stining yuziga diqqat bilan tikildi, keyin boshini uning cho'zilgan qo'li ustiga qo'ydi. U egasining yuzi

oqarib, ko'zlarining osti salqib qolganini, soqoli qirilmagan iyagi so'rrayib qolganini ko'rdi. Ivan Ivanich boshini Bim tomonga burib, zaifgina ovozda dedi:

– Xo'sh, bolakay, nimayam qilardik endi? Ahvolim chatoq, Bim, judayam chatoq. O'q parchasi... sudralib yurak tagiga yetib qoldi. Bu yomon, Bim.

Egasining ovozi shunaqangi g'ayrioddiy ediki, Bim xavotirga tushib qoldi. U xonada aylanib yurar, goho xuddi «O'ringdan tur, ketaylik» deb chaqirayotgandek eshikni asta tirnab qo'yardi. Ivan Ivanich esa hatto qimirlashga ham qo'rqardi. Bim yana uning yoniga o'tirdi va asta g'ingshiy boshladi.

– Mayli, Bimka, bir urinib ko'raylik-chi... – dedi Ivan Ivanich zaif tovushda va ehtiyotkorlik bilan o'rnidan turdi.

U ozgina to'shakda o'tirdi, keyin o'rnidan turdi va bir qo'li bilan devorni ushlab, ikkinchisini yuragiga bosib, asta eshik tomon yo'naldi. Bim uning yonida odimlarkan, do'stidan ko'z uzmas, hatto biron marta bo'lsin-da dumini ham qimirlatmasdi. U go'yo «Juda soz. Mana shunday asta-sekin yuramiz» deyayotgandek edi.

Zinapoya maydonchasiga yetgach, Ivan Ivanich qo'shni xonadonning qo'ng'irog'i tugmasini bosdi, eshikni ochgan qizaloq Lyusyaga nimadir dedi. Lyusya uyiga yugurib kirib ketdi va buvisi Stepanovna kampirni boshlab chiqdi. Ivan Ivanich «o'q parchasi» degan so'zni aytgan zahoti kampir bezovtalanib qoldi, qo'shnisining qo'lidan ushlab, joyiga olib borib yotqizdi.

– Yotishingiz kerak, Ivan Ivanich. Yoting. Mana shunday, – dedi u to'shakka uzala tushgan qo'shnisiga ta'kidlab. – Qimirlamay yoting.

Kampir stol ustidagi kalitlarni olib, g'izillagancha xonadan chiqib ketdi.

Turgan gapki, Bim uch marta qaytarib aytilgan «Yot» so'zini xuddi o'ziga aytilgandek qabul qildi. U egasining o'rne yoniga cho'zildi-da, eshikdan ko'z uzmay yotaverdi. Ivan Ivanichning ayanchli holati, stol ustidagi kalitlarni olib ketgan Stepanovnaning hayajoni Bimga o'tdi va u xavotir ila kuta boshladi.

Tez orada u qulf teshigiga kalit suqilganini, qulf shiqillaganini, eshik ochilganini, yo'lakda kimlardir gaplashganini eshitdi, keyin

xonaga Stepanovna va uning ortidan oq kiyimli uch kishi – ikki ayol va bir erkak kirdi. Ulardan boshqa odamlarnikiga o'xshamagan, devorga osig'liq turgan va egasi «Ahvolim chatoq, Bim, judayam chatoq» degan paytda ochadigan qutichaniki kabi hid taralardi.

Erkak xonaga kira solib Ivan Ivanich tomon yo'naldi, biroq... Bim jon-jahdi bilan otilib, uning ko'kragiga panjalarini tiradi va ovozi boricha ikki marta vovulladi.

«Yo'qol! Yo'qol!» deb qichqirardi Bim.

Erkak Bimni itarib yuborib, ortiga tislandi, ayollar esa dahlizga qochib chiqishdi. Butun vujudi titrayotgan Bim egasining o'rni yoniga o'tirdi. U do'stining shunaqangi og'ir damlarida unga notanish kimsalarni yaqin yo'latishdan ko'ra jonini berishni afzal ko'rardi.

Shifokor eshik oldida turganicha:

– Bu qanday ko'ppak bo'ldi?! Endi nima qilamiz? – dedi.

Ivan Ivanich imo qilib, Bimni yaqinroq kelishga undadi, salgina burilib, uning boshini siladi. Bim esa do'stiga yelkasini tirab, uning bo'yni, yuzi, qo'llariniyaladi...

– Yaqinroq keling, – dedi Ivan Ivanich zaif ovozda shifokorga qarab.

U qariyaga yaqinlashdi.

– Menga qo'lingizni bering.

U qo'l uzatdi.

– Salom.

– Salom, – dedi shifokor.

Bim burnini shifokorning qo'liga tekkizdi, bu itning tilida «Ni-mayam derdim! Do'stimning do'sti – mening do'stim» deganini anglatardi.

Zambilni olib kirishdi. Unga Ivan Ivanichni yotqizishdi.

– Stepanovna... Azizam, Bimga ko'z-quloq bo'lib turing, – iltijo qildi Ivan Ivanich. – Ertalablari aylanishga chiqarib turing. Uning o'zi tezgina aylanib keladi... Bim meni kutadi. – u Bimga o'girildi. – Meni kut.... Kut...

Bim «kutish» so'zini bilardi: do'kon oldida – «o'tir, kut», ov paytida xalta yonida – «o'tir, kut». Hozir ham u g'ingshigancha, dumini silkitdi, bu «Ha, do'stim qaytadi! U ketadi, lekin tez orada qaytib keladi» deganini bildirardi.

Faqatgina Ivan Ivanovich uni anglab yetdi, boshqalar esa tushunishmadi – buni ularning ko‘zlaridan bildi. Bim zambilning yoniga o‘tirib, panjasini uzatdi. Ivan Ivanich uning panjasini siqib qo‘ydi.

– Meni kut, bolakay. Kut.

Bim do‘stining ko‘zlaridan no‘xat donalari kabi dumalab tusha-yotgan suv tomchilarini hech qachon ko‘rmagandi.

Zambilni olib chiqib ketishdi, eshik qulfi shiqirladi. Bim eshik oldiga cho‘zilib yotdi, oldingi panjalarini oldinga uzatib, boshini yerga qo‘yib, yon tarafga qaradi: itlar alam va qayg‘uga to‘lganlarida shunday yotishadi, ko‘pincha shu holatda olamdan o‘tishadi ham.

Ammo Bim ko‘zi ko‘r odam bilan uzoq yillar birga yashagan yo‘lboshchi it kabi sog‘inishdan o‘lmadi. O‘sha it egasining qabri yoniga yotib olgan, qabristonga tashrif buyuruvchilar olib keladigan ovqatni yeyishdan bosh tortgan, beshinchi kuni quyosh chiqayotgan pallada jon taslim etgandi. Bu uydirma emas, sof haqiqat. Shu bois itlarning egasiga nisbatan g‘ayrioddiy mehri va sadoqati haqida yaxshi biladigan ovchilar kamdan kam holatlardagina it haqida «o‘ldi» so‘zini ishlatishadi, ular asosan «vafot etdi» deyishadi.

Yo‘q, Bim o‘lmadi. Egasi unga aniq qilib «Meni kut» dedi. U do‘stining qaytib kelishiga ishonadi. Axir, necha marta shunday bo‘lgan-ku! «Meni kut» dedimi, demak, albatta, qaytib keladi.

Kutish! Bu endi Bimning hayotdagi maqsadiga aylanadi.

Ammo o‘sha kecha o‘zini qanchalar yolg‘iz, qanchalik ma‘yus his etgandi-ya! Nimadir odatdagidan boshqacharoq bo‘layotgandi... Oppoq liboslardan qayg‘u isi anqirdi. Bimning yuragi siqilib ketdi.

Yarim tunda, osmonga oy ko‘tarilganida u chiday olmay qoldi. Egasi yonida ekanligida ham oymomo Bimni bezovta qilaverardi: uning ko‘zlari bor, o‘lik ko‘zlari bilan tikiladi, jonsiz sovuq shu‘la sochadi va Bim undan yashirinish uchun qorong‘u burchakka tiqilib oladi. Hozir esa oymomoning tikilishlaridan vujudi titroqqa tushyapti, aksiga olib egasi yonida emas. Mana, yarim tunda u xuddi baxtsizlikning hujumiga uchragandek cho‘ziq ovozda uvullab yubordi. U ovozini kimdir, ehtimol egasi eshitishiga ishonardi.

Stepanovna keldi.

– Xo‘sh, Bim, qalaysan? Nima? Ivan Ivanich ketdi. Oh-oh, yomon ish bo‘ldi.

Bim unga na nigohi, na dumini likillatish bilan javob qaytarmadi. U shunchaki eshikka tikildi. Stepanovna chiroqni yoqib, chiqib ketdi. Yorug'da sal osonlashdi – oy ancha nariga surildi va kichrayib qoldi. Bim chiroqning ostiga joylashib, oyga orqa o'girib yotib oldi, lekin tez orada yana eshik oldiga bordi: kutish kerak.

Ertalab Stepanovna bo'tqa olib kelib, Bimning yalog'iga solib qo'ydi, lekin u o'rnidan ham turmadi. Yo'lboshchi it ham xuddi shunday qilgan – ovqat olib kelinganida o'rnidan turmagan edi.

– Voy-bo', egangni shunchalar yaxshi ko'rarmiding-a? Aql bovar qilmaydi-ya! Mayli, Bim, bor, aylanib kel, – kampir eshikni ochdi. – Sayr qil.

Bim boshini ko'tardi, kampirga tikilib qaradi. «Sayr qilish» so'zi unga tanish, bu – erkinlikni anglatadi, «Bor, sayr qil» degani esa to'liq ozodlikka chiqishni bildiradi. Oh, Bim ozodlik nimaligini biladi: bunda egasi ruxsat bergan hamma ishni qilish mumkin. Ammo hozir egasi yo'q, unga esa «Bor, sayr qil» deyishyapti. Bu qanaqangi ozodlik bo'ldi?

Stepanovna itlar bilan muomala qilishni bilmasdi. U Bimga o'xshagan itlar odamlarni so'zsiz ham tushunishlaridan, biladigan so'zlari esa juda ko'p narsalarni qamrab olishidan bexabar edi. Shu sababli ham sodda kampir oddiygina qilib dedi:

– Agar bo'tqa yeyishni xohlamasang, o'zingga biron yegulik izlarsan. Chiqindixonaga borsang, tishga ilingulik nimadir topasan (sodda kampir Bimning chiqindixonaga umuman yaqinlashmasligini bilmasdi). Boraqol, qorningni to'ydiradigan narsa qidir.

Bim o'rnidan turdi, hatto silkinib ham ketdi. Nima? «Qidir» deydimi? Nimani qidirish kerak? «Qidir» degani odatda yashirib qo'yilgan pishloq bo'lagini, parrandani, yo'qotilgan narsani izlab topishni bildiradi. «Qidir» degani, bu – buyruq, nimani izlash kerakligini esa Bim vaziyatdan kelib chiqqan holda aniqlaydi. Hozir u nimani izlashi kerak?

Bularning hammasini u Stepanovnaga ko'zlari, dumi, oldingi panjalarini savolomuz silkitish yordamida aytdi, biroq kampir hech narsani tushunmadi-da, yana gapini takrorladi:

– Bor, sayr qil. Qidir!

Bim eshikka otildi. Ikkinchi qavatning zinasidan chaqmoqdek otilib hovliga chiqdi. Qidirish! Egasini qidirish kerak! Boshqa hech narsani qidirish kerak emas, buni u tushundi. Manavi yerda zambillar turgandi. Ha, turgan edi. Oq kiyimli odamlarning zaifgina hidi ham qolibdi. Avtomobilning izi. Bim doira yasab, unga kirdi (hatto eng qobiliyatsiz it ham shunday qilgan bo'lar edi), lekin yana o'sha izni topdi. O'sha hidga ergashib ko'chaga chiqdi-yu, lekin muyulishga yaqinlashganida uni yo'qotib qo'ydi. Bu yerda atrofdan va yo'ldan rezina hidi kelardi. Insonlarning izlari ko'p va turfa xil bo'ladi. Avtomobillarning hidi esa o'zaro qo'shilib ketadi va hammasi bir xil bo'ladi. Biroq Bimga kerakli iz hovlidan chiqib, muyulishda burilib ketgandi, demak u ham qayrilishi kerak.

Bim bir ko'chadan, ikkinchisidan yugurib o'tdi, keyin uyga qaytib, Ivan Ivanich bilan birga sayr qiladigan joylarini aylanib keldi, biroq hech qayerda egasidan belgi topmadi. Faqat bir marta uzoqdan katak qalpoq kiygan kishini ko'rib, uni quvib yetdi. Yo'q, u boshqa odam bo'lib chiqdi. E'tibor berib qarasa, juda ko'pchilik uning egasini kabi katak qalpoq kiyar ekan.

Bu yilgi kuzda do'konlarda faqatgina katak qalpoqlar sotilganini, shu sababli ular hammaga ma'qul kelganini u qayerdan ham bilsin... Ilgari bunaqangi narsalarni sezmagani ekan, chunki itlar doim odamlarning kiyimini pastki qismiga ko'proq e'tibor berishadi va eslab qolishadi. Ularning bunday odati bo'rilar, tabiatdan, ko'p asrlik hayot tarzidan saqlanib kelmoqda. Masalan, ovchi faqat beligacha yetadigan qalin butaning ortida qimirlamay tursa-yu, shamol uning hidini olib bormasa, tulki o'sha odamning mavjudligini sezmaydi ham. Shunday qilib, Bim to'satdan bunda yashirin ma'noni ko'rди: tepadan qidirishga hojat yo'q, chunki boshlarning rangi ham, ko'rinishi ham bir-biriga o'xshatilgan bo'lishi mumkin.

Havo ochiq edi. Ba'zi ko'chalardagi piyodalar yo'laklarida barglar to'kilib yotar, ba'zilarini esa butkul xazon qoplab olgandiki, agar egasining zarradek izi qolgan bo'lsa ham Bim uni payqagan bo'lardi. Biroq hech qayerda va hech narsa yo'q edi.

Tushga yaqin Bim umidsizlikka tushib qoldi. To'satdan hovlilar-dan birida zambilning iziga duch keldi. Bu yerga zambil qo'yilgan

edi. Keyin xuddi shu hid oqimi yon tomondan anqib qoldi. Bim uni hidlagancha o'ngir-cho'ngir yo'ldan yurib ketdi. Yo'l oq kiyimli odamlar kirib-chiqayotgan ostonaga borib taqaldi. Bim eshikni tirnay boshladi. Oq kiyimli qiz eshikni ochdi-yu, qo'rqqanidan orqasiga tisarildi. Ammo Bim o'zi bilganicha u bilan salomlashib, «Ivan Ivanich shu yerdami?» deb so'radi.

– Ket, yo'qol! – deb qichqirdi qiz va eshikni yopib oldi, keyin qiya ochib, kimgadir qichqirdi. – Pyotrov! Itni haydab yubor! Aks holda xo'jayin changimni qoqadi, «Bu «tez yordam» emas, balki itxona!» deb ko'zimni ochirmaydi! Hayda dedim, senga!

Garajdan qop-qora kiyimli bir erkak chiqib keldi-da, Bimni bir tepdi. So'ngra jahl bilan emas, balki shunchaki majburiyati yuzasidan erinibgina qichqirib qo'ydi:

– Hoy, ko'ppak, yo'qol bu yerdan! Bor, ket!

Bim bu yerda aytilgan «xo'jayin», «itxona», «hayda», «changni qoqish», «ko'zni ochirmaydi», «tez yordam» degan so'zlarni tushunish tugul, ularni hatto eshitmagandi ham, biroq «yo'qol» va «ket» degan so'zlarni aytilish ohangiga qarab darrov tushundi. Bu borada Bimni aldash qiyin edi. U biroz nariga yugurib bordi-da, cho'ngayib o'tirganicha eshikka tikildi. Bim nimani qidirayotganini bilganlarida edi, odamlar unga yordam bergan bo'lishardi. Vaholanki Ivan Ivanichni bu yerga olib kelishmagan, balki to'g'ridan to'g'ri kasalxonaga olib ketishgandi.

Agar itlar odamlarni tushunishsa-yu, insonlar esa itlar tugul, hatto o'zaro bir-birini tushunishmasa, nimayam deyish mumkin. Aytgancha, Bim bunaqangi chuqur fikrlay olmasdi, shu bois vijdonan eshikni tirnasa-da, uning kirishiga ruxsat berishmayotganini tushuna olmasdi. Lekin ishonuvchan va soddadil itning nazarida mana shu eshikning ortida uning do'sti yotgan bo'lishi mumkindek tuyulardi.

To oqshom tushguniga qadar Bim barglari qovjirab qolgan nastarin butasining yonida o'tirdi. Avtomashinalar kelar, ulardan oq libosli odamlar tushishar, kimnidir qo'ltiqlab, boshqasini esa yetaklab olib kirishardi. Goh-gohida ular biron kishini zambilda ko'tarib mashinadan tushirishar, shunda Bim biroz yaqinlashar va hidlab ko'rardi: yo'q, bu egasining hidi emas... Kechga borib,

boshqa odamlar ham itni payqashdi. Kimdir unga bir bo'lak kolbasa tashladi – Bim unga tegmadi ham. Boshqa odam uning bo'yinbog'idan ushlab olmoqchi bo'lgandi, Bim qochib ketdi. Hatto o'sha qora kiyim kiygan amaki ham bir necha marta uning yonidan o'tdi va to'xtab, Bimga achinib qaradi, lekin uni tepishga urinmadi ham. Bim haykaldek qotib o'tirar, hech kimga hech narsa demasdi. U kutardi.

Qosh qoraya boshlagandagina Bim shoshib qoldi: egasi uyda bo'lsa-chi? U g'izillaganicha yugurib uyiga ketdi.

Shahar bo'ylab chiroyli, junlari yaltiragan, yaxshi parvarish qilingan oppoq, qulog'i qora it yugurib borardi. Uni ko'rgan kishi borki to'xtab, «Bu tozi it bunchayam yoqimtoy bo'lmasa-ya!» deyishi aniq edi.

Bim qadrdon eshigini tirnay boshladi, lekin u ochilmadi. Shunda u g'ujanak bo'lib, ostona oldiga yotib oldi. Uning na yegisi, na ich-gisi, umuman, hech narsa qilgisi kelmasdi. Yuragini sog'inch ezardi.

– Sho'rlikkina-ey, keldingmi?

Bim faqat bir marta dumini likillatdi («Keldim»).

– Mayli, unda kechki ovqatingni yeb olgin.

Kampir ertalabki bo'tqa solingan yaloqni u tomon surib qo'ydi. Bim ovqatga qaramadi ham.

– Qorningni to'ydirib kelishingni o'zim ham biluvdim-a! Voy, aqlli it-ey! Bo'pti, uxla!

Kampir gapira-gapira eshikni qulflab ketdi.

O'sha tunda Bim uvullamadi. Ammo eshik yonidan uzoqlashmadi: kutdi.

Ertalab esa uning tashvishi yana yangilandi. Qidirish.... do'stini qidirish kerak! Hayotining butun mazmuni shunda edi. Stepanov-na ko'chaga chiqarib yuborganida u birinchi navbatda oq kiyimli odamlarning oldiga yugurdi. Biroq bu safar qandaydir semiz odam hammaga baqirdi va tinimsiz ««ko'ppak» so'zini takrorladi.

Ular Bimga tosh otishdi (garchand, ataylab tekkizishmagan bo'lsa-da!), tayoq o'qtalishdi va, nihoyat, uzun xivich bilan og'ritib urishdi. Bim uzoqroqqa qochdi, cho'nqayib o'tirdi va bir muddat o'tirganidan so'ng egasi bu yerda bo'lishi mumkin emas, aks holda

uni shunchalar shafqatsizlik bilan haydamagan bo'lishardi, degan xulosaga keldi. Bim boshini biroz egganicha u yerdan ketdi.

Shahar bo'ylab yolg'iz, g'amgin, besabab ranjatilgan it ohista yurib ketardi.

U gavjum ko'chaga chiqdi. Bu yerda odamlar judayam ko'p, hamma qayoqqadir shoshilar, onda-sonda kimgadir so'z qotib qo'yishardi-yu, yana yo'liga ravona bo'lishardi. Shunda Bimning xayoliga bir fikr keldi: «Egasi bu yerdan o'tib qolmasmikan?». U hech narsani o'ylamay, shunchaki muyulishdagi darvoza yonida, soya joyda to'xtadi-yu, o'tgan-ketgan odamlarni bitta qoldirmay nazaridan o'tkaza boshladi.

Birinchidan, Bim bu yerdagi hamma odamlardan avtomobil tuning hidi anqiyotganini, undan boshqa islar esa sezilar-sezilmas ekanligini payqadi.

Mana, uzun bo'yli, kiyilaverganidan to'zib ketgan katta-katta boshmoq kiygan qiltiriq odam Ivan Ivanich egasi ko'tarib yuradigan to'rxaltaga o'xshagan xaltada kartoshka ko'tarib kelyapti. Qiltiriq odam kartoshka olib kelyapti-yu, butun vujudidan tamaki hidi burqirab anqiyapti. U xuddi kimgadir yetib olmoqchidek shoshilib qadam tashlaydi. Bir qarashda shunday tuyuladi, aslida hammani ham kimdir quvib yetadi. Barchalari xuddi dala sinovlaridagi kabi nimanidir qidirishadi, aks holda ko'chalarda shoshilib yurish, eshiklardan yugurib kirish va yana otilib chiqishga nima hojat, dersiz?

– Salom, Qoraquloq! – yo'l-yo'lakay gap qotdi Qiltiriq.

«Salom», qovog'ini ochmay javob qaytardi Bim, dumini yer uzra silkitishda davom etib va diqqatini buzmaslik uchun odamlarga tikilarkan.

Qiltiriqning ortidan kelyotgan, egniga jomakor kiygan erkakdan xuddi devorni yalaganda chiquvchi hidga o'xshaydigan bo'y anqiydi. Bu odam boshdan oyoq oqish-kulrang tusda bo'lib, uchida soqoli bor uzun tayoq va og'ir sumka ko'tarib kelardi.

– Bu yerda nima qilyapsan? – deb so'radi u Bimning yonida to'xtab. – Egangni kutyapsanmi yoki adashib qoldingmi?

«Ha, kutyapman», deb javob berdi Bim oldingi panjalarini il-dam tashlab yurib ketarkan.

– Unda manavini ol, – erkak sumkasidan yelimxalta chiqarib, konfet oldi, uni Bimning oldiga qo'ydi, keyin qora qulog'ini silab qo'ydi. – Ol, ye, yeyaver! (Bim shirinlikka teginmadi.) O'rgatilgan ekansan-da! Ziyoli it! Birovning idishidan ovqat yemaydi.

U gapirganicha, yana yo'lida davom etdi.

Kimga qanday-ku, lekin Bim uchun bu kimsa yaxshi odam edi, chunki u «kutish» nimaligini bilardi. U Bimni tushundi, «kutgin» dedi.

Baq-baqaloq, qo'lida semiz hassa tutgan, burni ustiga qalin qora ko'zoynak qo'ndirgan odam semiz papka ko'tarib kelardi. Bu kim-saning hamma narsasi semiz edi. Undan Ivan Ivanich tayoqchasi bilan qitirlatadigan qog'ozlarning, bundan tashqari, cho'ntagiga so-lib yuradigan sariq qog'ozchalarning hidi anqiyotgandek tuyuldi. U Bimning yonginasida to'xtab, to'ng'illadi:

– Uf! Buni qara-ya! Xiyobonda ko'ppaklar sayr qiladigan kun-gayam yetib keldikmi-ya?!

Kichkina eshikchadan supurgi ko'targan ko'cha supuruvchi chiqdi-da, baqaloqqa yaqinlashdi. U esa barmog'ini Bim tomon nuqib, ko'cha supuruvchidan so'radi:

– Anavini ko'ryapsanmi? Sening hududing bo'lsa kerak, hoy-nahoy?

– Ha, ko'ryapman, – dedi ko'cha supuruvchi va supurgining dastasiga suyandi.

– Ko'ryapsanmi... E, sen hech narsani ko'rmasan, – jahl bi-lan to'ng'illadi baqaloq. – U hatto konfetga ham qaramaydi, to'yib ketgan. Bu ketishda yashab bo'ladimi?! – qahr-g'azabga to'lib o'shqirdi u.

– Xohlamasang, yashama, – dedi ko'cha supuruvchi, keyin beparvolik bilan qo'shib qo'ydi. – Bechoraning ozib ketganini qara!

– Meni haqorat qilyapsan! – xitob qildi baqaloq.

Ularning yoniga uch nafar yosh yigit kelib to'xtadi. Yigitlar bir baqaloqqa, bir Bimga qarab, jilmayishdi.

– Buning nimasi kulgili? Nima, maymun o'ynatyapmanmi? Men unga aytyapman. It! Minglab itlar, har biri kuniga ikki-uch kilo-

grammdan go'sht yesa, ikki yoki uch tonna bo'ladi. Sizningcha, bu qanchaga tushadi?

Yigitlardan biri e'tiroz bildirdi:

– Hatto tuya ham kuniga uch kilogramm yemaydi-ku!

Ko'cha supuruvchi xotirjamgina gapga tuzatish kiritdi:

– Tuyalar go'sht yeyishmaydi, – kutilmaganda u supurgi dastasini o'rtasidan ushlab oldi-da, uni Baqaloqning oyog'i oldidagi asfaltga urdi. – Hoy, chetga o't! Kimga aytyapman? Senga nima dedim, qovoqkalla!

Semiz odam tupura-tupura nari ketdi. Uch yigit ham kula-kula yo'liga ravona bo'lishdi. Ko'cha supuruvchi darrov ko'chani supurishni to'xtatdi. U Bimning yelkasini siladi, biroz o'ylaninqirab turgach, dedi:

– Mayli, kutaver. U keladi.

Ko'cha supuruvchi shunday deb, kichkina darvoza tomonga ketdi.

O'rtada bo'lib o'tgan gap-so'zlardan Bim nafaqat «go'sht», «ko'ppak», «itlar» degan so'zlarni tushunganidan tashqari, yana ovoz ohanglariga e'tibor berdi va aqlli it bo'lgani uchun asosiy narsani tushunib yetdi. Baqaloq – hayotidan norozi, ko'cha supuruvchi esa lazzatlanib yashaydi. Biri – yovuz, ikkinchisi – mehribon. Bim tong sahardan ko'chalarda faqat ko'cha tozalovchilar ter to'kishlarini va ular itlarni hurmat qilishlarini yaxshi bilardi. Ko'cha supuruvchi baqaloqni haydab yuborgani esa Bimga bir qadar yoqdi ham. Umuman olganda, bu tasodifiy ahamiyatsiz voqea Bimni biroz chalg'itdi. Ehtimol, ozgina bo'lsa-da foyda ham bergandir, chunki u odamlar turfa xil ekanligini, ular orasida yaxshilari ham, yomonlari ham uchrashi mumkinligini sal-pal anglab yeta boshlagandi. Nimayam derdik, bu ham bo'lsa foyda, albatta. Biroq hozircha Bim uchun buning umuman ahamiyati yo'q – u hamon o'tkinchilarga tikilib qarash bilan ovora edi.

Ba'zi ayollardan taraladigan hid Bimning hid bilish qobiliyatini bir muddatga yo'qotib qo'yadigan mitti oq gullar – marvaridgullarning o'tkir isiga o'xshardi. Bunday paytlarda Bim teskari o'girilar va bir necha soniya davomida nafas olmasdi – bu hid unga

yoqmasdi. Ayollardan aksariyatining labi bo'ri ovi paytida osiladigan bayroqlarga o'xshash alvon tusda bo'lardi. Barcha itlar va buqalar kabi, Bim ham bu rangni mutlaqo yoqtirmasdi. Ayollarning qariyb bari qo'lida biror narsa ko'tarib yurishardi. Bim qo'lida tuguncha ko'targan ayollar nisbatan ko'proq uchrashini, erkaklarning qo'li ko'pincha bo'sh bo'lishini payqadi.

... Ivan Ivanichdan hamon darak yo'q edi. Do'stim! Qayerlarda yuribsan?..

Odamlar ham daryodek oqishardi. Odamlar orasida Bimning ma'yusligi biroz tarqaldi va u «Do'stim kelmayaptimikan?» degan ilinjida yanada diqqat bilan oldinga tikila boshladi. Bugun Bim shu yerda kutadi. Kutadi!

Qalin lablari osilib tushgan, yuzini chuqur ajinlar to'ldirgan, burni tanqaygan, ko'zlari chaqchaygan odam uning yoniga kelib to'xtadi.

– Rasvogarchilik! – qichqirdi u kutilmaganda, o'tkinchilar uning yonida to'xtay boshlashdi. – Atrofda gripp, epidemiya, oshqozon saratoni tarqalib yotganida bu yana nimasi? – u qo'lini Bimga palaxsa qildi. – Bu yerda, xalq ommasining o'rtasida, mehnatkashlarning orasida tirik maraz o'tiribdi!

– Itlarning hammasi ham kasallik yuqtiravermaydi. Bu itning qanchalar yoqimtoyligini ko'ring! – e'tiroz bildirdi bir qiz.

Tanqaburun qizga oldin tepadan pastga, keyin aksincha nigoh tashladi-da, jahl bilan teskari o'girildi:

– Qanday vahshiylik! Oyimqiz, siz o'ta vahshiysiz!

Shunday qilib... Eh, qaniydi Bim inson bo'lganida edi! Mana, Bimga tanish bo'lgan tuhmatchi xola ham keldi. Bim avvaliga qo'rqib ketdi, lekin darrov o'zini o'ngladi-yu, yelkasidagi tuklarini tikraytirib, himoyalaniish vaziyatini egalladi. Xola esa Bimdan sal nariroqda yarim doira yasab turganlarning bariga birvarakayiga murojaat qilib, shang'illadi:

– Vahshiyning o'zginasi! U meni tishlab oldi. Tish-la-di!

U qo'lini hammaga ko'z-ko'zlay boshladi.

– Qayeringizni tishladi? – deb so'radi portfel ko'targan yigitcha. – Qani, ko'rsating-chi!

– Hoy, ko‘ppak, sen hali menga aql o‘rgatyapsanmi?! – deb o‘shqirdi xola va qo‘lini yashirib oldi.

Tanqaburundan boshqa hamma kulib yubordi.

– Sizlarga institutda do‘zaxiy tarbiya berishadi, oqibatda gazanda bo‘lib yetishasizlar! – talaba yigitga hujum qila ketdi ayol. – Hali menga, sho‘ro ayoliga ishonmayapsanmi? Bu ketishda qanday yashaysan hali? Hoy, o‘rtoqlar, biz qayerga qarab ketyapmiz? Yoki bizda sho‘ro hukumati yo‘qmi?

Yigit qizarib-bo‘zarib, jahl bilan o‘shqirdi:

– Agar siz o‘zingizning ko‘rinishingiz qandayligini bilganingizda edi, manavi itga havas qilgan bo‘lardingiz, – u xola tomon yana bir qadam tashlab, qichqirdi. – Meni haqorat qilish uchun kim sizga huquq berdi?

Garchi Bim odamlarning so‘zlarini tushunmasa-da, boshqa chidab tura olmadi: – Xola tomon otildi-da, bor kuchi bilan vovulladi va to‘rttala panjasini yerga qattiq tirab, ayolga tashlanishdan o‘zini zo‘rg‘a to‘xtatib qoldi (buning oqibati qanday bo‘lishi uchun u kafolat berolmasdi). Ziyoli it! Ammo baribir it!

Xola ovozing boricha dod soldi:

– Mili-itsiya! Mili-itsiya!

Qayerdandir hushtak ovozi eshitildi, kimdir yugurib kelib:

– O‘rtoqlar, tarqalinglar! O‘zingizning ishingiz bilan shug‘ullaning! – deb xitob qildi, u militsioner edi (Bim hayajonlanib ketganiga qaramay, dumini sal likillatib qo‘ydi). – Kim qichqirdi?! Sizmi? – shunday deb, militsioner xolaga yuzlandi.

– Ha, u qichqirdi, – tasdiqladi talaba yigit.

Tanqaburun gapga aralashdi:

– Sizlar qayoqqa qarayapsizlar? Nima ishlar bilan shug‘ullanaysizlar? – militsionerga dag‘dag‘a qila ketdi u. – Shahar xiyobonida itlar yursa-ya!

– Itlar! – deb baqirdi xola.

– Mana bunaqangi yovvoyi pitekantropuslar ham! – hayqirdi talaba.

– U meni haqorat qildi! – Xola duv-duv ko‘z yoshi to‘kdi.

– O‘rtoqlar, tarqalinglar! Siz, siz va siz men bilan bo‘linmaga borasiz, – dedi xolaga, talaba yigitga va tanqaburunga bir-bir qarab militsioner.

– It-chi? – deb baqirdi xola. – Halol odamlarni bo‘linmaga olib borasizlar, itni bo‘lsa...

– Men bormayman, – dedi talaba yigit.

Shu payt ikkinchi militsioner kelib qoldi.

– Nimalar bo‘lyapti bu yerda?

Bo‘yinbog‘ taqib, shlapa kiygan erkak viqor bilan tushuntira boshladi:

– Manavi talaba yigit bo‘linmaga borishdan bosh tortyapti, qisqasi, qonunga itoat qilmayapti. Anavi ikkalovi xohlashyapti, bu esa yo‘q. Itoatsizlik. Zero, bunday qilish mumkin emas. Borasan, deyildimi, demak, borish shart! Kim bilsin hali...

U teskari o‘girilib, xuddi quloq teshigini kengaytirmoqchiday bosh barmog‘i bilan kavlay boshladi. Aftidan, bu ishi uning nafaqat atrofda to‘planganlar, balki hatto militsionerlarning oldida ham o‘z so‘ziga ishonch bilan dadil turishiga yordam beradigandek edi.

Militsionerlar ko‘z urishtirib olishdi, lekin baribir talaba yigitni o‘zlari bilan birga olib ketishdi. Tanqaburun va xola ularga ergashishdi. Odamlar tarqalishdi. Endi faqat o‘sha yoqimtoygina qizdan boshqa hech kim itga e‘tibor bermasdi. Qiz Bimning yoniga keldi, boshini silab qo‘ydi, keyin u ham militsionerning ortidan ketdi. Qiz o‘z ixtiyori bilan ketganini Bim aniq tushundi. U qizning ortidan qarab turdi, ozgina joyida depsinib turdi-yu, keyin uning ortidan yugurdi, quvib yetdi va yonma-yon keta boshladi.

Qiz va it militsiya bo‘linmasiga ketishardi.

– Hoy, Qoraquloq, kimni kutyapsan o‘zi? – deb so‘radi qiz, to‘xtab.

Bim ma’yus cho‘kkalab o‘tirdi, boshini egdi.

– Azizim, qorning ham o‘lardek ochga o‘xshayapti-ya! Mayli, Qoraquloq, ozgina sabr qilgin, keyin senga ovqat beraman.

Mana, Bimni bir necha marta «Qoraquloq» deb chaqirishdi. Egasi ham bir safar «Eh, seni qara-yu, Qoraquloq!» degandi. Ancha vaqtlar avval, u kichkina kuchukcha ekanligida shunday degandi.

«Do‘stim qayerda bo‘lsa ekan-a?» deb o‘yladi Bim. Keyin yana qayg‘u-alamga botgan holda qiz bilan birga ketdi.

Ular militsiya bo‘linmasiga birga kirishdi. Bu yerda xola faryod ko‘tarar, tanqaburun amaki o‘kirar, talaba yigit esa boshini eggani-

cha miq etmasdi. Stol yonida notanish militsiya xodimi o'tirar va uchovlariga ochiqdan ochiq g'azabli nigoh tashlardi.

– Aybdorni olib keldim, – dedi qiz va Bimga ishora qildi. – Judayam yoqimtoy jonivor. Men boshidanoq o'sha yerda edim, bo'lgan gap-so'zlarning barini ko'rdim va eshitdim. Bu yigit, – u boshi bilan talabaga ishora qildi, – aybdor emas.

U bosqlik bilan, goh Bimga, goh uchalovidan birortasiga ishora qilganicha gapirardi. Xola va tanqaburun amaki qizning gapini bo'lmoqchi bo'lishdi, biroq militsioner bunga yo'l qo'ymadi. Uning qizga nisbatan do'stona munosabatda ekanligi aniq edi. Qiz gapining oxirida hazillashib:

– To'g'rimi, Qoraquloq? – deb so'radi, keyin militsionerga qarab qo'shib qo'ydi. – Mening ismim Dasha. – Keyin Bimga o'girildi: – Men Dashaman. Tushundingmi?

Bim uni hurmat qilishini butun vujudi bilan ko'rsatishga urindi.

– Hoy, Qoraquloq, qani oldimga kel-chi! Yonimga kel! – deb chaqirdi militsioner.

Ha, Bim bu so'zni biladi: «Yonimga kel!». Aniq biladi. U militsionerning yoniga bordi. U itning bo'yniga shapatilab qo'ydi-da, bo'yinbog'ini oldi, raqamiga qarab, nimalarnidir yozib oldi. Keyin Bimga buyurdi:

– Yot!

Bim qoidadagidek qilib, ya'ni orqa oyoqlarini tagiga bosib, oldingilarini oldinga uzatib yotdi. Ko'zlarini qarshisidagi odamning ko'ziga qadadi. Bu vaqtda militsioner telefon go'shagini ko'tarib, kimdandir:

– Ovchilar uyushmasimi? – deb so'rayotgan edi.

«Ov! – Bim titrab ketdi. – Ov! Bu yerda ov nimani anglatarkin?»

– Ovchilar ittifoqimi? Men militsiyadanman. Yigirma to'rtinchi raqamli itni qarab bering. Setter... Qanaqasiga yo'q bo'ladi? Bunday bo'lishi mumkin emas. O'rgatilgan, yaxshi it... Shahar Kengashigami? Yaxshi. – u go'shakni qo'ydi, yana bir marta ko'tardi, nimalarnidir so'radi va ovoz chiqarib takrorlagancha yoza boshladi: – Setter... tashqi irsiy nuqsonlarga ega, nasabnomasi yo'q, egasi Ivan

Ivanovich Ivanov, Proyezjaya ko'chasi, qirq birinchi uy. Rahmat. — u qiz tomon o'girildi. — Barakalla, Dasha. Itning egasi topildi.

Bim sakrab turdi, tumshug'ini militsionerning tizzasiga taqadi, Dashaning qo'lini yaladi, faqat eng aqlli va mehribon ishonuvchan itlar qaraganidek qilib uning ko'zlariga tikildi. Chunki u odamlar o'zining do'sti, birodari, qadrdoni Ivan Ivanich haqida gapirayotganlarini tushundi. U hayajondan qaltirardi.

Militsioner xola va Tanqaburunga xo'mrayib qaradi:

— Ketishingiz mumkin. Xayr.

Tanqaburun amaki navbatchini egovlay boshladi:

— Shugina, xolosmi? Shundan keyin sizlarda tartib bo'larmidi? Hammangizni haydash kerak!

— Boring, keting, bobo. Xayr. Damingizni oling.

— Qanaqasiga men bobo bo'larkanman? Men otang tengi kelman, otaxon degin, jillaqursa! Hatto odamdek muomala qilishni unutilib yuborishgan, bu itvachchalar! Sizlar mana bunaqalarni, — u talaba tomon barmoq nuqidi, — tarbiyalab yetishtirishni, boshini silashni xohlaysizlar. U esa — hali qarab turing! — «vov» deydi-yu, sizni yeb qo'yadi!

U rostakamiga, juda o'xshatib itdek vovulladi. Turgan gapki, Bim darrov unga javob qaytardi. Navbatchi kulib yubordi:

— Qarang-a, otaxon, it gapingizni tushundi, hamdardlik bildiriyapti.

Xola esa inson va itning qo'shaloq vovullashidan cho'chib tushdi, Bimdan uzoqlashish uchun eshik tomon tisarilarkan, ovozining boricha baqirdi:

— U menga hujum qildi. Menga! Hatto militsiya ham sho'ro ayollarini himoya qilolmaydi!

Va, nihoyat, ular ketishdi.

— Meni nega qo'yib yubormayapsiz? — xo'mrayib so'radi talaba.

— Qonunga bo'ysunish kerak, azizim. Yur, deyishdimi, demak borishing shart. Qoida shunaqa.

— Qanaqa qoida? Hech qaysi qoidada tartib buzmagani odamni xuddi o'g'ridek qo'lini qayirib militsiyaga olib borilsin deb yozilmagan. Anavi xolani o'n besh kunga qamashingiz lozim edi, sizlar bo'lsa... Eh, sizlarni qarang-u!

Talaba yigit Bimning qulog'ini chimdib qo'ydi-da, chiqib ketdi.

Endi Bim hech narsani tushunmay qolgandi: yomon odamlar militsionerni koyishyapti, yaxshi odamlar ham tanbeh berishyapti, navbatchi yigit esa indamaygina kulib o'tiribdi. Bu voqeani aqlli it ham tushunishga qodir bo'lmasa kerak.

– O'zingiz eltib berasizmi? – deb so'radi navbatchi Dashadan.

– Ha. Uyga! Qoraquloq, uyga!

Bim endi tez yurar, ba'zan to'xtab, Dashaning yetib olishini kutib turardi. U «uy» so'zini yaxshi bilardi va qizni aynan o'zining uyiga boshlab borardi. Odamlar Bimning o'zi uyini topib borishini tushunishmagandi, nazarlarida u esipast itdek tuyulgandi. Faqatgina Dashaga – oppoqqina, shahlo ko'zlari iliq nazar tashlaydigan qizgagina Bim bir qarashda ishondi. Va uni o'zining eshigi oldiga boshlab bordi. Qiz qo'ng'iroqni chaldi, hech kim ochmadi. Endi qiz qo'shnining eshik qo'ng'irog'ini jiringlatdi. Stepanovna chiqdi. Bim kampir bilan salomlashdi: uning ko'rinishi kechagiga nisbatan ancha quvnoqroq edi. Aftidan, u «Dasha keldi. Men Dashani boshlab keldim» derdi (goh Stepanovnaga, goh Dashaga termulayotgan Bimning nigohini boshqacha izohlash mumkin emasdi).

Ayollar past ovozda so'zlashishar, gap orasida «Ivan Ivanich» va «o'q parchasi» deyishardi. Keyin Stepanovna eshikni ochdi. Bim Dashani ichkariga taklif qildi: undan ko'zini uzmay tikilib turdi. Dasha esa Bimning yalog'ini olib, undagi bo'tqani hidlab ko'rdi-da:

– Achib qolibdi, – dedi.

U bo'tqani chiqindi chelakka to'kdi, yaloqni yaxshilab yuvib, odatdagi joyiga qo'ydi. Keyin Bimga qarab, dedi:

– Men hozir kelaman. Qoraquloq, meni kutgin!

– Uning laqabi Bim, – qizning gapini tuzatdi Stepanovna.

– Bim, meni kutgin, xo'pmi?

Dasha chiqib ketdi. Stepanovna stulga o'tirdi. Bim uning qarshisiga cho'kdi, lekin ko'zini uzmay eshikka tikildi.

– Sen aqlli it ekansan, – dedi Stepanovna. – Yolg'iz qolding, lekin kim senga jon kuydirayotganini tushunyapsan. Bimka, men ham... Qarigan chog'imda nabiram bilan yashayapman. Ota-onasi bolani dunyoga keltirishdi-yu, o'zlari naq Sibirga juftakni rostlab

qolishdi, men esa uni tarbiyalab, oyoqqa qo'yyapman. Baxtimga nabiraginam eslikkina, meni yaxshi ko'radi, qayg'uradi.

Stepanovna yuragida borini Bimga to'kib-sochardi. Odatda insonlar dardini aytadigan biror odamni topisholmasa, itigami, sevimli otigami yoki sigirigami yurak ochishadi. Aqlli itlar esa baxtsiz kim-sani juda yaxshi ajratishadi va doimo hamdardlik bildirishadi. Hozir esa ikkovlarining ham boshiga kulfat tushgandi: Stepanovna unga hasrat qilar, Bim esa do'stini oq kiyimli odamlar olib ketishganidan azob chekardi.

Kun davomidagi barcha ko'ngilsizliklar Bimni qalbidagi og'riqdan biroz chalg'itgan bo'lsa-da, endi yana kuchayib ketgan edi. U Stepanovnaning so'zlari orasidagi g'amgin harorat bilan aytilgan «yaxshi» va «menga» degan ikkita tanish so'zni anglab qoldi. Turgan gapki, Bim kampirga yaqinlashib, boshini uning tiz-zasiga qo'ydi, Stepanovna ro'molchasini ko'ziga bosdi.

Dasha bitta tuguncha ko'tarib keldi. Bim jimgina unga yaqinlashdi, qornini yerga qilib yotdi, bitta panjasini qizning tuflisiga bosdi, boshini ikkinchi panjasiga qo'ydi. Bu bilan u «Rahmat sen-ga» degan edi.

Dasha qog'oz tuguncha ichidan ikkita kotlet, ikkita pishirilgan kartoshka chiqarib, Bimning yalog'iga soldi:

– Ol, ye.

Garchi uch kundan beri og'ziga ushoq olmagan bo'lsa-da, Bimning ovqat yegisi kelmasdi. Dasha uning yelkasiga yengil qoqib qo'ydi-da, erkalatib dedi:

– Bim, eya qol!

Dashaning ovozi yumshoq, samimiy, sokin va xotirjam, qo'llari esa iliq, muloyim va mehrga to'la edi. Biroq Bim kotletlarga tes-kari o'girildi. Dasha Bimning jag'ini ochdi-da, kotletni og'ziga itarib yubordi. Bim Dashaga ajablanib qaragancha bir zum kotletni og'zida ushlab turdi, kutilamaganda taomning o'zi yutilib ketdi. Ik-kinchi kotlet bilan ham shunday bo'ldi. Kartoshka bilan ham.

– Uni majburlab ovqatlantirish kerak, – dedi Dasha Stepanovna-ga. – U egasini sog'inyapti, shuning uchun ham ovqat yemayapti.

– Voy, nimalar deyapsan? – ajablandi Stepanovna. – It o'zini o'zi boqadi. Qara, qancha itlar daydib yurishibdi, lekin nimalardir topib yeyishyapti-ku!



– Seni nima qilish kerak ekan-a? – deb so‘radi Dasha Bimdan. – Bu ketishda tamom bo‘lasan.

– Tamom bo‘lmaydi, – komil ishonch bilan dedi Stepanovna. – Bunaqangi aqlli it tamom bo‘lmaydi. Kuniga bir marta unga suyuq bo‘tqa pishirib beraman. Nimayam qilardik? Yashash kerak!

Dasha nimanidir o‘ylab qoldi, keyin Bimning bo‘yinbog‘ini yechib tashladi.

– To men bo‘yinbog‘ olib kelgunimcha, Bimni ko‘chaga chiqara ko‘rmang. Ertaga ertalab soat o‘nlarda kelaman... Ivan Ivanich hozir qayerda? – deb so‘radi u Stepanovnadan.

Bim sapchib tushdi: egasi haqida gapirishyapti!

– Uni samolyotda Moskvaga olib ketishdi. Yurakda murakkab jarrohlik operatsiyasi o‘tkazish kerak ekan. O‘q parchasi yurakka yetib qolibdi.

Bimning butun vujudi diqqatga aylandi: yana «o‘q parchasi» haqida gapirishyapti. Bu so‘zdan kulfat hidi keladi. Lekin Ivan Ivanich haqida gaplashishyaptimi, demak, u qayerdadir bo‘lishi kerak. Qidirish kerak. Qidirish!

Dasha ketdi. Stepanovna ham. Bim yana tuni bo‘yi yolg‘iz qoldi. Endi u goh-gohida, atigi bir necha daqiqaga mudrardi. Har safar tushida ov qilayotgan yoki uyda yurgan Ivan Ivanichni ko‘rardi. Bim sakrab turar, atrofga alanglar, xonani aylanib chiqar, burchaklarni hidlar, sukunatga quloq tutar, keyin yana eshik oldiga yotardi. Xipchin yegan joyidagi yarasi qattiq og‘rir, biroq bu oldidagi cheksiz qayg‘u va mavhumlikning oldida hech narsa emas edi. Kutish kerak. Kutish. Tishini tishiga qo‘yib, kutish kerak.

Yettinchi bob

QIDIRUV DAVOM ETADI

Shu tong Bimning yig‘lashiga sal qoldi. Quyosh derazalardan tepaga ko‘tarildi hamki, hech kim kelmadi. Yo‘lakdagi tepa xonadonlarda yashovchilar eshik oldidan o‘tayotganlarida yoki zinadan tepaga ko‘tarilayotganlarida, Bim ularning qadam tovushlariga quloq tutardi. Barcha qadam tovushlari tanish edi, biroq

egasiniki eshitilmasdi. Va nihoyat, Dashaning tuflisi tovushini aniq eshitdi. Dasha! Bim ovoz chiqarib, o'zidan darak berishga shoshildi. Uning vovullashi insoniy tilda «Dasha, seni eshityapman!» deganini anglatardi.

– Hozir, hozir, – darrov javob qaytardi Dasha va Stepanovnaning eshigi qo'ng'irog'ini chaldi.

Ikkala ayol Bimning oldiga kirishdi. Bim ayollarning ikkalovi bilan ham salomlashdi. Keyin eshik tomon otildi-da, boshini ayollar tomon burib, dumini iltijoli likillata boshladi: «Eshikni oching. Qidirish kerak».

Dasha unga bo'yinbog' taqib qo'ydi. Bo'yinboqqa mahkamlangan jez taxtachaga «Uning nomi Bim. U egasini kutyapti. Uyi qayerdaligini yaxshi biladi. Egasining uyida yashaydi. Odamlar, uni xafa qilmanglar!» deb o'yib yozilgandi. Dasha bu yozuvni Stepanovnaga o'qib berdi.

– Voy, qanchalar mehribon ekansiz-a! – ta'sirlanganidan qarsak chalib yubordi Stepanovna. – Demak, itlarni yaxshi ko'rakansiz-da?

Dasha Bimning boshini siladi-da, g'alati javob qaytardi:

– Erim tashlab ketgan. O'g'lim vafot etdi... Men esa o'ttiz yoshga kirdim. Ijaraxonada yashardim. Endi jo'nab ketyapman.

– Yolg'izmisan... Voy, bechoraginam-ey! – kuyinib dedi Stepanovna. – Axir bu...

Biroq Dasha uning gapini shartta bo'ldi:

– Men boray. – Eshik yoniga yetganida, qo'shib qo'ydi. – Hozircha Bimni chiqarmay turing, tag'in ortimdan ergashmasin.

Bim Dasha bilan birga eshikdan chiqib ketishga urindi. Lekin Dasha unga yo'l bermadi va Stepanovna bilan birga chiqib ketdi.

Oradan bir soat o'tar-o'tmas Bim g'ingshiy boshladi, keyin yuragini to'ldirgan sog'inchga chidolmay, bor ovozida uvullab yubordi. Odatda bunday paytda odamlar ham «Xuddi itdek uvullashga tayyorman» deyishadi.

Stepanovna eshikni ochib, Bimni tashqariga chiqardi (Dasha bu paytda uzoqqa yetgan edi).

– Bor, bora qol. Kechqurun senga atala pishirib beraman, – dedi kampir.

Bim Stepanovnaning soʻzlariga ham, koʻzlariga ham eʼtibor bermadi, zinalardan oʻqdek uchib tushdi-yu, koʻchaga otili. Chir aylanib hovlini tekshirib chiqdi, koʻchaga chiqdi, ozgina oʻyladi, keyin xuddi satrma-satr oʻqigandek hidlarni koʻrib chiqa boshladi, biroq birodarlarining dastxatlari tushirilgan va oʻzini hurmat qiladigan har bir it oʻqishi shart boʻlgan daraxtlarga eʼtibor ham bermadi.

Bim kuni boʻyi zir yugurib, Ivan Ivanichdan biron nishon topolmadi. Kechqurun esa har ehtimolga qarshi shaharning qayta qurilayotgan tumanidagi yangi boqqa kirdi. Bu yerda toʻrt nafar bolakay toʻp tepishardi. Bim biroz shu yerda oʻtirdi, atrofdagi hidlarni tekshirdi va endi ketishga hozirlangandi hamki, oʻynayotganlar orasidan oʻn ikki yoshlardagi bolakay chiqdi va unga qiziqsinib tikildi.

– Sen kimnikisan? – deb soʻradi u, goʻyo Bim uning savoliga javob bera oladigandek.

Bim darrov dumini likillatdi, biroq boshini maʼyus solintirgan-cha oldin bir tarafga, keyin boshqa tomonga silkitib, bola bilan salomlashdi. Bu salomdan tashqari, yana «Oʻzing qanday odamsan?» deb soʻraganini bildirardi.

It oʻziga hozircha ishonch bildirmayotganini bola tushundi-da, dadil u tomon yurdi va qoʻlini uzatdi:

– Salom, Qoraquloq.

Bim panjasini uzatganida, bola qichqirib yubordi:

– Bolalar, bu yoqqa kelinglar!

Bolalar yugurib kelishdi-yu, sal nariroqda toʻxtab qolishdi.

– Qaranglar, uning koʻzlari qanaqangi aqqli ekan-a! – ajablandi birinchi bola.

– Balki u olim itdir? – savlat bilan dedi baqaloqqina bola. – Tolka, unga biron narsa degin, koʻramiz, tushunadimi yoki yoʻqmi?

Uchinchi, boshqalarga nisbatan yoshi kattaroq bola eʼtirozga oʻrin qoldirmaydigan ohangda dedi:

– Bu oʻqimishli it. Koʻrmayapsanmi, boʻynida taxtachasi ham bor-ku!

– U sirayam oʻqimishli itmas-da! – eʼtiroz bildirdi qiltiriqqina bolakay. – Oʻqimishli it boʻlganida, bunaqangi ozgʻin va maʼyus boʻlmasdi.

Haqiqatan ham Ivan Ivanichni qattiq sog'inganidan Bim qattiq ozib ketgan va oldingi ko'rkam qiyofasini yo'qotgandi: qorni ich-ichiga tortilgan, taralmagan junlari paxmoqlanib, oyoqlarida dumaloqlanib qolgan, yelkasidagi tuklarining rangi o'chgandi.

Tolik qo'lini Bimning peshonasiga qo'ydi, u esa bolalarga qarar va endi hammalariga ishonch bildirardi. Shundan so'ng bolalar Bimni galma-galdan silab chiqishdi, u e'tiroz bildirmadi. Darrov iliq muhit yuzaga keldi, bunaqangi o'zaro tushunish vaziyatida ish do'stlikkacha yetib borishi hech gap emas. Tolik jez taxtachadagi yozuvni ovoz chiqarib o'qidi:

– U Bim ekan! Uyida bir o'zi yasharkan! Bolalar, Bimning qorni och. Tez uyingizga yuguring-da, nimaiki ovqat topsangiz, olib kelinglar!

Bim Tolik bilan birga qoldi, bolalar uylariga tarqalib ketishdi. Endi bola o'rindiqqa o'tirdi, Bim uning oyoqlari yoniga yotdi-da, chuqur nafas oldi.

– Bim, ahvoling chatoq shekilli-a? – deb so'radi Tolik itning boshini silab. – Egang qayerda?

Bim burnini bolaning boshmog'iga tiragancha, indamay yota-verdi. Tez orada birin-ketin bolalar qaytib kela boshlashdi. Baqaloq bola – somsa, yoshi kattarog'i – bir bo'lak kolbasa, qiltiriq esa ikkita quymoq keltiribdi. Bolalar yeguliklarni Bimning oldiga qo'yishdi, biroq u hatto hidlab ham ko'rmadi.

– U kasal, – xulosa chiqardi qiltiriq bola. – Balki kasali yuqumlidir ham, – shunday deb, u Bimdan uzoqroqqa tisarildi.

Baqaloq bola negadir qo'llarini shimiga artidi-da, sal nariroqqa surildi. Yoshi katta bola kolbasani Bimning burniga ishqalab, ishonch bilan dedi:

– Yemaydi. Yegisi kelmayapti.

– Oyim hamma itlar yuqumli bo'ladi, deydilar, – hamon vahima qilardi baqaloq. – Bu it esa ustiga-ustak kasal ham ekan.

– Unda tuyog'ingni shiqillat! – jahl bilan o'shqirdi Tolik. – Ikkinchi bu yerda qorangni ko'rmay. «Yuqumli»mish-a... Yuqumli itlarni it tutuvchilar ovlashadi, bunga qara, qanaqangi bo'yinbog'i bor!

Mulohazali isbot ta'sir qildi: bolalar yana Bimni o'rab olishdi. Tolik bo'yinbog'ni tepaga tortdi. Bim o'tirdi. Tolik Bimning yum-

shoq lablarini sal ochib, jag“idagi o‘tkir tishlari tugagan yerda ko‘rinayotgan yoriqqa bir bo‘lak kolbasani tiqdi. Bim beixtiyor yegulikni yutib yubordi. Bola yana bir bo‘lak tiqdi, u yana yutdi. Shu tariqa, bolalarning ma‘qullashlari va xitoblari ostida Bim kolbasani yeb bo‘ldi. Bolalar Bimning ovqatlanishini diqqat bilan kuzatishar, u har bir bo‘lakni yutganida baqaloq ham beixtiyor yutib qo‘yardi (garchi og‘zida hech narsa bo‘lmasa-da) va shu tariqa Bimga yordamlashgan bo‘lardi. Somsa bo‘laklarini Bimning og‘ziga tiqishning iloji bo‘lmadi – uqalanib, sochilib ketdi. Shunda Bimning o‘zi somsani tishladi. U yerga yotib oldi, somsani panjasiga qo‘ydi, bir zum tikilib turdi-da, keyin yutib yubordi. U faqat Tolikka bo‘lgan hurmati yuzasidan shunday qildi. Bu bolaning qo‘llari shunaqangi mayin, mehribon, nigohi esa rahm-shafqatga to‘la ediki, Bim uni ranjitishga botina olmadi. Bim ilgari ham bolalarga nisbatan alohida munosabatda bo‘lardi, mana hozir esa u kichkina odamchalarning hammasi yaxshi bo‘lishlari, kattalar orasida esa ba‘zan yomonlari ham uchrab turishiga ishonch hosil qildi. U, turgan gapki, kichkina odamchalarning ulg‘ayishlarini va o‘zgarib ketishlaridan bexabar edi, biroq yaxshigina mitti odamchalarning katta bo‘lganidan so‘ng baqiroq xola yoki tanqaburun amaki singari yomon odamlarga aylanishlari mumkinligi haqida mulohaza yuritish itlarning ishi emas. U shunchaki Tolikning hurmati uchungina somsani yedi, xolos. Bundan u sal yengil tortdi, shuning uchun ham quymoqlardan ham bosh tortmadi. Bundan tashqari, bir haftadan beri Bim endi ikkinchi marta ovqat yeyishi edi.

Bim ovqatlanib bo‘lgach, birinchi bo‘lib Tolik gap boshladi:

– Ko‘raylik-chi, u nimalarni qila olarkin?

Qiltiriq bola dedi:

– Sirkda sakrash kerak bo‘lsa, «ap!» deyishadi.

Bim qaddini rostladi, go‘yo «Nimadan sakrash kerak?» deb so‘rayotgandek bolaga tikildi.

Bolalarning ikkitasi kamarning ikki uchidan ushlashdi, Tolik esa buyruq berdi:

– Bim! Ap!

Bim yotgan joyidan turib, oddiygina to‘siqdan sakrab o‘tdi. Bolalar zavqqa to‘lishdi. Baqaloq aniq qilib buyurdi:

– Yot!

Bim yotdi (marhamat, sizlar uchun bajon-u dil yotaman!).

– O‘tir, – dedi Tolik.

Bim o‘tirdi.

– Keltir! – u qalpog‘ini otdi.

Bim qalpoqni keltirib berdi. Tolik quvonchidan uni mahkam quchoqlab oldi. Bim ham qarzdor bo‘lib qolmadi: bolaning yuzlarini yalab oldi.

Turgan gapki, bu mitti odamchalar bilan birga bo‘lish Bimga juda yoqdi. Biroq shu payt hassasini o‘ynatgancha bir amaki kelib qoldi. U shunaqangi pisib yaqinlashdiki, bolalar uni:

– Bu kimning iti? – deb so‘raganidan so‘nggina payqashdi.

Ko‘rinishidan jiddiy, tor soyabonli kulrang shlapali, kulrang bo‘yinbog‘ taqqan, kulrang kostum-shim kiygan, hatto soqoli ham kulrang tusdagi ko‘zoynakli erkak qat‘iy ovozdagi so‘radi:

– Xo‘sh, bolalar, bu kimning iti?

Kattaroq yoshli bola va Tolik baravar javob berishdi.

– Hech kimniki emas, – dedi bola soddalik bilan.

– Mening itim – ehtiyotkorlik bilan dedi Tolik. – Ayni paytda u meniki.

Tolik bu jiddiy amakini ko‘p marta ko‘rgandi. U gerdayganicha bog‘ atrofida yolg‘iz o‘zi sayr qilib yurardi. Bir safar uni it yetaklab ketayotgan holda ham ko‘rgan. It arqonini tortar, uning ortidan yurishni sira istamasdi. Bir safar esa bu amaki bolalarning oldiga kelib, ularning risoladagidek o‘ynay olmasliklari, xushmuomala emasliklari, ularga noto‘g‘ri tarbiya berilayotgani, shularni deb odamlar fuqarolar urushida qon to‘kkanlarini, ammo hech kim buning qadriga yetmayotgani haqida rosa ming‘irlagandi.

Kulrang amaki ularga aql o‘rgatgan o‘sha kunda Tolik to‘qqiz yoshda edi. Hozir u o‘n ikki yoshga to‘ldi. Biroq bu amakini hamon eslaydi. Mana, Tolik Bimni quchoqlab, uni «meniki» dedi.

– Xo‘sh, gapiringlar, it hech kimniki emasmi yoki unikimi? – deb so‘radi amaki bolalarga murojaat qilarkan, qo‘lini Tolik tomon nuqib.

– Uning bo‘yinbog‘ida taxtachasi bor, – noo‘rin luqma tashladi baqaloq.

Kulrang amaki Bimga yaqinlashdi, qulog'ini silab qo'ydi va bo'yinbog'dagi yozuvni o'qiy boshladi.

Bim darrov Kulrangdan it hidi kelayotganini payqadi. Hidlar yangi emas, bir necha kunlik, lekin baribir anqiyapti.

Bim uning ko'ziga qaradi-yu, darhol unga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ldi – ovozigga ham, nigohiga ham, hatto undan anqiyotgan hidlarga nisbatan ham. Bu odam turli itlarning hidini o'ziga shunchaki jamlab olishi mumkin emas. Bim kulrang kiyimli odamdan uzoqlashish uchun Tolikning pinjiga tiqildi, biroq u bo'yinbog'ini qo'yib yubormadi.

– Bolakay, aldash mumkin emas, – deb ta'na qildi u Tolikka. – Taxtachadagi yozuvga ko'ra, bu it seniki emas. Uyat senga, bolakay! Nima, ota-onang senga rost so'zlashni o'rgatishmaganmi? Bu ketishda ulg'ayganingda qanday odam bo'larkinsan? Eh-he-he!

U cho'ntagidan tizimcha chiqardi-da, uni bo'yinboqqa bog'ladi. Tolik tizimchaga yopishib, qichqirdi:

– Tegmang! Bermayman!

Kulrang uning qo'lini nari itardi:

– Men itni kerakli joyga olib borishim kerak. Ehtimol, qaror chiqarishga ham to'g'ri kelar (u aynan «qaror» dedi). Balki uning egasini ichkilik ado qilgandir (u «ichkilik» dedi). Shunday bo'lsa, itni olib qo'yish kerak bo'ladi. Mening lavozimim hamma ishni insoniy nuqtayi nazardan halol bajarishni taqozo etadi. Shunday. Uning uyini topaman, hammasi risoladagidekmi yoki yo'qligini tekshiraman.

– Bo'yinbog'idagi yozuvga ishonmaysizmi? – ta'naomuz xitob qildi Tolik yig'lamoqdan beri bo'lib.

– Ishonaman, bolalar, ishonaman. Biroq... – u barmog'ini tepaga ko'tarib, nasihatomuz va tantanavor ohangda ta'kidladi. – Ishongin, biroq tekshirib ko'rgin!

Erkak Bimni olib ketdi. Bim oyog'ini yerga tirab qarshilik ko'rsatishga urinar, Tolikka o'girilib qarardi, biroq bola xafa bo'lganidan yig'lab o'tirardi. Nimayam qilsin, shundan so'ng u dumini oyoqlari orasiga qisib, yerga boqqanicha Kulrangning ortidan ketishga majbur bo'ldi. O'z-o'ziga umuman o'xshamay qolgan Bimning korinishi xuddi «Egamiz yo'q bo'lgan paytda biz itlarning

hayotimiz shunday kechadi» deya yotgandek edi. Balki o'zini tortib ketayotgan erkakning oyog'ini tishlab olib, qochib ketsa bo'lardi-ku, biroq Bim ziyoli it edi: «Xohlagan tomoningga boshlayver» – dedi.

Ular yangi qurilgan uylar orasidan o'tgan ko'chadan ketishardi. Uylarning bari yangi. Bari kulrang tusda. Uylar shunaqangi bir-biriga o'xshaydiki, Bim ularning orasida adashib ham qolgan bo'lardi. Shunaqangi egizak-uylardan birining uchinchi qavatiga ko'tarilishdi. Bim yo'lakdagi xonadonlarning eshiklari bir xil ekanligini payqadi.

Eshikni kulrang ko'ylak kiygan ayol ochdi:

– Yana olib keldingmi? Obbo, xudoyim-ey!

– Ming'irlama! – ayolning gapini shartta kesdi Kulrang. U Bimning bo'yinbog'ini yechib, ayolga ko'rsatdi. – Mana buni ko'r. – Ayol ko'zoynagini taqib o'qiy boshladi, u esa gapida davom etdi. – Tushunishmaydi-ya! Butun boshli respublikada men itlarning nishonlarini to'plovchi yagona kolleksionerman. Bu taxtacha esa – buyum! Besh yuzinchi nishon!

Bu odamning gaplaridan Bim hech narsani tushunmadi, bironta tanish so'zni uchratmadi. Mana, Kulrang uning bo'yinbog'ini ushlagancha dahlizdan o'tib, xonaga kirdi. O'sha yerdan turib chaqirdi:

– Bim, yonimga kel!

Bim o'yladi-o'yladi-da, ehtiyotkorlik bilan xonaga kirdi. U Kulrangga yaqinlashmadi, balki xona ostonasi oldida to'xtab atrofiga nazar tashladi. Top-toza devorlarda baxmal tortilgan taxtalar osig'liq turar, ularga qator qilib itlarning nishonlari: raqamlar, nishonlar, kulrang va sariq medallar, bir nechta chiroyli tizimcha va bo'yinbog'lar, takomillashtirilgan tumshuqbog'lar va boshqa shunaqangi itlarning anjomlari osilgan edi, faqat bo'g'ish uchun ishlatiladigan kapron ilmoq nega kerakligini Bim tushuna olmadi. Bu ilmoqni to'plam egasi qayerdan topganini hamma odam ham tushunolmaydi, Bim uchun esa u oddiygina tizimcha edi, xolos.

Bim o'zining bo'yinbog'ini Kulrang amaki qo'lida aylantirib ko'rganini, ombur bilan taxtachani chiqarib olganini va baxmal tortilgan taxtalardan biriga avaylab qistirib qo'yanini, raqamini ham ilganini xotirjam kuzatib turardi. Shundan so'ng erkak Bimning bo'yinbog'ini yana taqib qo'ydi va:

– Sen yaxshi itsan, – dedi.

Bir vaqtlari egasi ham shunday degandi, biroq hozir Bim ishonmadi. U dahlizga chiqdi va «Meni chiqarib yubor! Bu yerda qiladigan ishim yo‘q» degandek eshik yoniga borib turdi.

– Chiqarib yuboraqol, – dedi ayol. – Nega uni uyga olib kelding? Taxtachasini ko‘chada yechib olsang ham bo‘lardi-ku?

– Buning iloji yo‘q edi – bolakaylar ilakishib qolishdi. Hozir ham mumkin emas. Agar uni taxtachasiz ko‘rishsa, kerakli joyga xabar berishlari mumkin... Shunday ekan, it ertalabgacha shu yerda bo‘ladi. Yot! – buyurdi u Bimga.

Bim eshik yoniga yotdi: boshqa nimayam qila olardi! U ovozinig boricha uvullasa, Kulrangga tashlansa, kifoya edi, chiqarib yuborardi. Biroq Bim kutishni biladi. Bundan tashqari, u toza holdan toygan, hatto begona eshik yonida bo‘lsa-da, biroz mudrab olgisi kelardi.

Bu Bim uyiga qaytib bormagan birinchi tun edi. Buni u uyqudan uyg‘onib, qayerdaligini darrov bilolmagan paytida tushundi. Qayerdaligini tushungach, vujudini sog‘inch qamrab oldi. U doimo tushida Ivan Ivanichni ko‘rar, uyg‘onganida esa uning kuchukchalik paytidan beri yod bo‘lib ketgan qo‘llarining haroratini his etardi. Mening qadrdon, mehribon do‘stim qayerlarda ekan-a? Qayerda? Sog‘inch yurakni qiymalaydi. Yolg‘izlik og‘ir bo‘ladi, undan hech qayerga qochib qutula olmayсан. Ustiga-ustak kulrang odam xuddi tozining jag‘idagi quyondek xirillaydi. Manavi baxmal taxtalardan o‘lgan itlarning hidi anqiydi. Sog‘inch. Bim chidolmadi – uvullab yubordi. Keyin ikki marta xuddi quyonning yangi izini olgan tozi it kabi uvullash aralash vovulladi. Oxirida esa cho‘zib uvullay boshladi.

«O‘h-ho‘-ho‘! Hoy-oy, odam-lar, – deb nola qilardi u. – Men qiynalib ketdim. Do‘stimsiz judayam qiynalib ketdim. Meni qo‘yib yuboringlar. Do‘stimni izlab topay! O‘h-ho‘-ho‘! Hoy-oy, odamlar!»

Kulrang sakrab o‘rnidan turdi, chiroqni yoqdi va Bimni hassasi bilan urib, o‘shqira boshladi:

– O‘chir ovozingni, yaramas! Qo‘shnilar eshitishadi. Mana senga! Mana senga!

Bim beixtiyor boshini zarbalardan olib qochib, xuddi insondek ingrardi: «Oh... Oh-h... Ax-xr-r... Oh...»

Biroq yovuz odam epchillik bilan Bimning boshiga qattiq urishga ulgurdi. U panjalarini silkitgancha bir necha soniya behush yotdi, lekin tezgina o'ziga keldi, eshikdan nariga qochdi, orqasini burchakka tirab, tishlarini irjaytirdi. Birinchi marta tishlarini irjaytirdi.

Kulrang Bimdan nari tislandi:

– Voy-bo'! Tishlab olmasin tag'in, bu yaramas...

Kulrang gapira-gapira eshikni lang ochdi. Biroq Bim hatto Kulrang: «Bor, bora qol! Bim, bor sayr qilib kel! Kuchukcha, boraqol!» – deganida ham eshikning ochiqligiga ishonmadi.

Shuncha kaltakdan keyin bu mayin, erkalatuvchi ovozga ishonmadi. Kaltaklashdan keyingi erkalatish Bimning hayotdagi yangi kashfiyoti bo'ldi. Xola va tanqaburun amaki shunchaki yomon odamlar edi. Manavi esa... Bundan Bim nafratlanib ketdi. Nafratlandi! Bim insonlarga ishonchini yo'qota boshlagan edi. Ha, shunday.

Bim bo'ynini cho'zdi, tishlarini irjaytirdi va... sekin, lekin qat'iyat bilan Kulrang tomon dadil yurdi. Kulrang devorga taqaldi:

– Hoy, nima qilyapsan? Senga nima bo'ldi?

Tungi ko'ylakdagi ayol Kulrangga qarab baqirdi:

– Ha-a, murodingga yetding! Endi tishlaydi!

Bim dahshatli kulrang amaki qo'rqayotganini ko'rdi. U judayam qo'rqardi. Bundan Bim dadillandi, bir sakradi-yu, dushmanining yumshoq joyidan tishladi va ochiq turgan eshik tomon otildi. Bim yugurib ketarkan, og'zida o'zi bor vujudi bilan nafratlangan insonning go'shti ta'mini sezdi. Yo'q, Bim o'zini baxtsiz va ayanchli emas, balki jasur, mag'rur his etar, vujudini o'ziga bo'lgan ishonch to'ldirgandi.

Tong saharda Bim ko'chada yugurib borar, garchi uning bo'yinbog'i bo'lsa-da, endi «24» degan raqami yo'q edi. Dastavval u shoshganidan shahar tomonga emas, balki teskari tarafga yugurib ketdi (bu yoqda uylar yo'q edi). U ortiga qaytdi va yana bir xil uylar labirintiga uchradi. Ular orasida aylana-aylana, oxiri o'zi qochib chiqqan uyga duch keldi. Shunda uning yo'nalishini aniqlab

olishiga odamlarga yaxshi ma'lum bo'lmagan qonuniyat yordamga keldi. Kecha, kechqurun uni olib ketishayotganida, muyulishda bir birodarining, boshqasida yana birining «dastxati»ni ilg'agan edi. Hozir u o'ziga tanish bo'lgan mana shu belgilarga qarab kerakli yo'nalishni aniqladi. Bu yerda uyni topish tugul, hatto chiqib ketish uchun ham ajoyib sezgilar kerak bo'lardi. Bim esa mukammal sezgilar va ajoyib idrokka ega edi.

Tong yorishgandagina u o'zining uyiga yetib keldi, qadrdon eshigining yoniga chiqib, tirnay boshladi. Hech kim eshikni ochmadi. Yana tirnadi – jimlik. Muhimi, eshik yonida Ivan Ivanichning izlari yo'q edi. Stepanovna hali uxlab yotar, Bimning tonggi chaqirig'ini eshitmasdi.

Bim eshik yoniga cho'nqaydi, o'ylanib qoldi. Kaltaklardan butun badani zirqirar, boshi qattiq og'rir, ko'ngli aynir, butkul madori qurigan edi. Shunga qaramay, u qidirgani ketdi. U do'stini qidirardi. Bimdan boshqa kim ham uni qidirardi, axir?

Shahar bo'ylab horg'in, biroq sadoqatli, vafodor va jasur it yugurib borardi.

Sakkizinchi bob

TEMIRYO'LDAGI HODISA

Kunlar ketidan kunlar o'tardi. Bim ularni sezmasdi ham. U muntazam ravishda shaharni tekshirar va turli ikir-chikirlarni aniqlardi. Endi u oldindan belgilangan yo'nalish bo'ylab yurardi. Agar odamlar bilganlarida edi, Bimning kelishiga qarab soatlari tekshirgan bo'lishardi. U soat beshda – bog' oldiga, oltida – vokzalga, yetti yarimda – zavod oldiga, o'n ikkida – xiyobonga, kechki soat to'rtida – chap sohilbo'yiga kelardi.

Bim odamlar orasidan yangi do'stlar ham orttirdi. U odamlarning ko'pchiligi yaxshi insonlar ekanligini, biroq bunaqangilar ko'chada miq etmay yurishlarini, yomon kimsalarning esa og'zi gapdan to'xtamasligini bilib oldi. Badanidan moy va temir hidi anqib turadigan odamlarni ham topdi (ilgari bunaqa odamlarni yolg'iz holda uchratardi). Bu kishilar ertalabki soat sakkizga yaqin darvozadan, keyin qorovulxona eshigi yonidan tizilib o'tishardi.

Bu yerda ular qarg'alarga o'xshab ancha sergap bo'lib qolishadi, biroq gaplarini tushunib bo'lmaydi, zero bu Bimni qiziqitirmaydi ham. U odamlar oqimidan sal chekkaroqda o'tirib, ularni kuzatadi va kutadi.

– Hoy, Qoraquloq! Salom! – deb har tongda salomlashardi zangori jomakor kiygan yigit va yegulik solingan xaltachasini Bimning oldiga qo'yardi. – Hali ham tirikmisan? Salom, salom! – u o'zining dag'al, biroq iliqqina ulkan qo'lini Bimga cho'zadi.

Ba'zi odamlar jimgina Bimga qo'l uzatishar, salomlashgach, ichkariga kirib ketishga shoshilishardi. Bu yerda biron marta ham Bimni xafa qilishmadi.

Endi Bim asta-sekin odamlarni ajrata boshladi. Mana, masalan, uning yo'lida oppoqqina kapalak-ayol ko'p uchrardi. U doimo hayotdan mamnun, mehribon ko'rinar, yuz-ko'zida baxt chaqnardi, biroq Bimni ko'rgani hamon xuddi mushukdek pixillar, og'zidan tupuk sochar, qo'lidagi oziq-ovqat solingan sumkasini ko'kraklarigacha ko'tarar va har safar bitta so'zni qaytarardi:

– Voy-bo', buncha jirkanch! Nahotki asablarni egovlaydigan itlarning hammasini bo'g'ib o'ldirish mumkin emas-a? Yana bo'lsa «Militsiyam meni qo'riqlaydi!» deyishadi! Ha-a, qo'riqlaydi-ya! O'lganingdami? Uchragan it seni chaynab tashlashga tayyor. Militsiya nimayam qilib berardi? Militsiya uchun biz itning beshinchi oyog'imiz, xolos!

Kapalak bu so'zni ko'p qaytargani uchun ham, Bim uni Beshinchi Oyoq deb atashni ma'qul topdi. Biroq uning yoniga borish mumkinmasligini Bim yaxshi biladi. Laqabidan boshqa birontayam gapini tushunmasa-da, ko'rgani va eshitganlaridan kelib chiqqan holda uning yoniga yaqinlashmaslikni ma'qul ko'rdi. Keyinroq u kimni aylanib o'tishni va uzoqroq yurishni aniqlay boshladi (bu borada sezgisi yordam berarmidi?). Yaxshi odamlar judayam ko'p, yovuzlar sanoqli bo'lsa-da, baribir yaxshilar yomonlardan qo'rqishardi. Bim ulardan qo'rqmasdi-ku, lekin ular bilan ishi yo'q edi. Insonning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, itning nuqtayi nazarida esa u endi uchragan o'tkinchiga dumini likillatadigan, usti yaltiroq havaskor va xayolparast emasdi. Bim qisqa vaqt ichida ozg'in, jiddiy, hayotdan maqsadi kutish va qidirishdan iborat bo'lgan itga aylandi.

Mana, bir kuni erta tongda u piyodalar yo‘lakchalaridan biridagi hidlarni tekshirayotib, quvonchdan esi og‘ib qolayozdi. U to‘xtadi, pishqirib qo‘ydi va xuddi quturgan it kabi hech narsani ko‘rmay va farqiga bormay g‘izillagancha olg‘a yugurib ketdi. Faqat tashqaridan qaraganda shunday ko‘rinishi mumkin edi, aslida esa u yangi iz bo‘ylab chopib ketardi: bu yerdan Dasha o‘tibdi. U yaqindagina shu yerdan yurib o‘tibdi.

Dashaning izi uni vokzalga olib keldi. Binoga kirishning aslo iloji yo‘q edi: qayoqqa qarama odamlar, odamlar, odamlar... Hatto qandaydir darchaning oldida olomon bir-birini ezg‘ilar, qichqirar, pishqirar, dod solar, ular xuddi na qamchi zarbiga, na burg‘u ovozigaga e‘tibor bermay, quyonni tilka-pora qilayotgan tozi itlarga o‘xshashardi. Bunaqangi sharoitda Dashaning izini topish mahol edi – u izni yo‘qotib qo‘ydi. Shunda Bim vokzal bo‘ylab aylanib, oxiri perronga chiqdi. Bu yerda g‘ildirakli uzun uychalar oldida odamlar to‘planib turishar, lekin endi ular o‘shqirishmas, turtinishmas, aksincha bir-birini bag‘riga bosishar, o‘pishar, hatto uychalarning eshigi oldida raqsga ham tushishardi.

Bimga hech kim e‘tibor bermas, shu sababli u odamlarning oyoqlari ostida bemalol yugurib yurar va perronlarni diqqat bilan tekshirardi.

Kutilmaganda eshiklardan biri oldidan Dashaning hidi anqib qoldi. Bim darrov eshik tomon intildi, biroq ko‘kragiga nishon taqqan ayol uni kiritmadi. Bim taslim bo‘lmadi: u derazalarni hidlab, ichkariga qaray boshladi. U eng oxiridagi uychalarga oq kiyimli ikki ayol kirganini sezib qoldi. Darrov ayollarning ortidan intilgandi, biroq uychalar asta-sekin g‘ildirab yurib ketishdi. Bim yana oynalar tomon intildi. Uning itlik idroki uchun to‘g‘ri tuyulgan xulosa paydo bo‘ldi: Dasha oq kiyimli odamlarning orasida bo‘lsa, demak Ivan Ivanovich ham o‘sha yerda bo‘lishi mumkin. Mumkin! Axir uni oq kiyimli odamlar olib ketishdi-ku?

Bim... bechora Bim... endi baxtiqaro Bim derazalarga qaray-qaray uychalar bilan tengma-teng yugurib ketdi. Shu payt uni Dasha ko‘rib qoldi.

– Bim! Bi-im!! – deb qichqirdi u. – Jonginam Bim! Meni kuzatgani keldingmi-ya! Mening mehribonim Bim! Bi-i-m! Bi-i...

Dashaning ovozi borgan sari pasayib borardi. Uycha qochib ketdi. Bim qanchalik tez yugurmasin, oxiri ortda qolardi.

U to oxirgi uycha ko'zdan yo'qolgungiga qadar yugurdi, keyin ham o'sha yo'ldan yuguraverdi. Hech qayoqqa qayrilmay uzoq yugurdi. Va, nihoyat, nafasi qaytib, temir izlar orasiga yiqildi, to'rtala panjasini atrofga cho'zgancha, harsillab, asta g'ingshiy boshladi. Endi hech qanday umidi qolmagandi. Uning hech qayoqqa borgisi kelmas, hatto yashashni ham istamasdi.

Itlar umididan ayrilganida tabiiy ravishda – asta, shovqin-suronsiz, dunyo bilmaydigan azoblar ichra jon taslim qilishadi. Agar zarradek umid qolmasa, yer yuzasidagi barcha odamlar ham tushkunlikdan o'lib qolishlari mumkinligini Bim bilmas, buni tushunishga aqli ham yetmasdi. Bim uchun hammasi osongina edi: ichida juda qattiq og'riq sezyapti, do'sti yo'q, shuning o'zi yetardi. Xuddi juftining o'limidan keyin baland osmonga chiqib, o'zini toshdek yerga tashlagan oqqush yoki o'zi uchun yagona bo'lgan moda turnadan ayrilgach, qanotlarini yozib o'zini yerga otadigan va Oydan jonini olishini so'rab iltijo qilib sayraydigan nar turnadek... Bim esa cho'zilib yotar va alahsiraganidan ko'ziga yagona qadrdon do'sti ko'rinardi. Biroq u endi indamasdi. Dunyoda biron-bir inson shu paytga qadar it qanday jon berayotganini eshitgan emas. Itlar jimgina jon beradilar.

Eh, hozir bir necha qultum suv bo'lganida edi! Ehtimol, u shu bo'yicha o'rnidan turmagan bo'larmidi, agar...

Bir ayol unga yaqinlashdi. U paxtalik po'stin va paxtalik shim kiygan, boshini ro'mol bilan tang'ib olgandi. Kuchli, gavdali ayol. Aftidan, u Bimni allaqachon o'lgan deb o'yladi, shekilli, uning yoniga cho'kka tushdi va yuragini eshitib ko'rdi. Bim nafas olardi. U do'sti bilan vidolashganidan beri shunaqangi zaiflashib qolgan-diki, bugungidek poyezd ortidan yugurishlar unga mutlaqo mumkin emasdi. Bu aqlsizlikning o'zginasi edi. Biroq bunaqangi vaqtlarda hatto insonning ham aqli ishlaymay qoladi-ku!

Ayol kaftlari bilan Bimning boshidan ushlab, asta ko'tardi:

– Hoy, mittivoy, tuzukmisan? Qoraquloq, senga nima bo'ldi? Sho'rlikkina-ey, kimning ortidan shunchalar chopding-a?

Ko‘rinishidan qo‘pol tuyuladigan bu ayolning ovozi iliq va xotirjam edi. U qiyalikdan pastga tushib, brezent qo‘lqopida suv olib chiqdi. Keyin Bimning boshini ko‘tardi va qo‘lqopdagi suv bilan burnini ho‘lladi. Bim suvni yaladi. Madori qurib ketganidan boshini ortga tashlab, bo‘ynini cho‘zdi-da, yana bir marta suvni yaladi. Keyin yutoqib icha boshladi. Ayol bu itning yaxshi ko‘radigan kimidir butunlay ketganini tushunib yetdi. Butunlay ayrilish – judayam og‘ir narsa, xuddi tiriklayin ko‘milish bilan teng.

U Bimga hasratini ochdi:

– Men ham senga o‘xshayman. Otamni ham, erimni xam urushga kuzatdim... Ko‘ryapsanmi, Qoraquloq, qarib ketdim... Baribir sira unutilmayman... Men ham poyezdning ortidan yugurgandim... Men ham yiqilib tushdim... O‘zimga o‘lim tiladim... Ichaqol, sho‘rlikkinam, ichaqol, azizim...

Bim qo‘lqopdagi suvning deyarli hammasini ichib tugatdi. U ayolning ko‘zlariga qaradi va darhol uning yaxshi insonligiga ishonadi. Uning dag‘al, og‘ir mehnatdan yorilib ketgan qo‘llarini yaladi, ko‘zlaridan dumalab tushayotgan sho‘r tomchilarni ho‘pladi. Shu tariqa, Bim umrida ikkinchi marta inson ko‘z yoshining ta‘mini sinab ko‘rdi. Birinchi marta egasining ko‘zlaridan dumalagan tomchilarni, mana endi dardi olamga sig‘maydigan ayolning quyoshda yaltirayotgan shaffof ko‘z yoshlarini yaladi.

Ayol uni qo‘liga ko‘tarib oldi-da, temir iz orasidan qiyalikka olib tushdi.

– Yot, Qoraquloq! Yot. Men kelaman.

Shunday deb, u bir qancha ayollar ishlayotgan temiryo‘l tomon ketdi.

Bim shishadek jonsiz nigohi bilan ayolning ortidan qarab qoldi. Keyin bor kuchini to‘plab o‘rnidan turdi-da, gandaraklaganicha uning ortidan odimladi. Ayol ortiga o‘girildi, uning yetib olishini kutib turdi. Bim yetib keldi-yu, uning yoniga yotdi.

– Egang tashlab ketdimi? – so‘radi ayol. – Ketib qoldimi?

Bim xo‘rsindi. Ayol hammasini tushundi.

Ular ishlayotgan odamlar guruhi yoniga yetib borishdi. Bu yerda ishlayotganlarning bari ayollar bo‘lib, bir xilda paxtali po‘stin va

shim kiyishgan, yon tarafda turgan erkak uchquloq qalpog'ini ensasiga surib qo'ygandi. U jahl bilan so'radi:

— Matryona, nima, itlar bilan o'ralashib yuribsanmi? O'ringga kim ishlaydi? Eh, Matryona, Matryona... Bir so'z bilan aytganda Matryonasan-da, — u barmog'ini ayol tomon nuqidi.

Bim darrov angladi: yaxshi odam, bu — Matryona. U Bimga yo'l chekkasida yotishni buyurdi-da, o'zi qandaydir ulkan omburni olib, boshqa ayollar bilan birga ishga kirishib ketdi.

— Bir-ikki, oldik! — o'shqirdi erkak. — Yana bir marta! Yana bita! — deb qichqirardi u kekirdagini cho'zib, kibrona ohangda.

Erkakning har bir hayqirig'iga javoban ayollar do'stona siltanishar, oqibatda har tarafidan omburlar bilan qisib olingan ulkan xoda ularga bo'ysunib, ortlaridan sudralib borardi. Har safar siltanganda, zo'riqishdan ayollarning yuzlari qizarib ketar, faqat oralarida bir oriqqinasining yuzi oqarib, hatto ko'karib ham ketardi. Matryona qo'l ishorasi bilan bu ayolni ishdan chetlashtirdi, va bir vaqtlari egasi Bimga aytgani kabi ohangda dedi:

— Bor, ket! Nafasingni rostla, bo'lmasa jon taslim qilib yuborasan. — Keyin erkak tomonga qarab, dedi. — Hoy, dajjol, ovozingni chiqarsang-chi bundoq!

— Bir-ikki, oldik! — hayqirdi erkak, keyin uchburchak qalpog'ini to'g'rilab qo'ydi-da, so'zlarini chertib-chertib gapira boshladi. — Qani, oyimchalar, yana bir marta zo'r beringlar! Eringiz Kavkazga yetdi! Kavkazga yetib bormadi! O'sha yerda uylanib ketdi, maraz! To'xta! Asbobni qo'y!

«Maraz» degan so'zni Bim tanqaburun amakidan eshitgandi va yomon so'z ekanligini bilardi. Erkakning boshqa gaplarini u tushunmadi.

Ayollar esa omburlarini bir chetga qo'yishdi, temir ponalarni olishdi va ularni uzun, og'ir bolg'alar bilan qoqa boshlashdi. Matryona ponani uch marta urganida xuddi o'ynayotgandek osongina qoqib tashlar, ozg'in ayol esa har safar urganida ixrab-sixrardi:

— Oh-h! Voy-ey!

— Bo'l, bo'la qol! — deb qichqirardi erkak, trubkasiga tamaki to'ldirayotib. — Qani, bo'laqol Aksinya! — u ayolga yaqinlashdi. — Sen cho'zibroq ur! O'zing tomonga tortsang — osonroq kiradi.

Aksinya, bu – nimjon ayol. U har bir ponani boshqalarga nisbatan uzoqroq qoqadi va oxirida bir chekkaga o'tirib qoladi. Shu payt ayollarni hayratga solgan voqea sodir bo'ldi: Bim oyoqlarini zo'rg'a sudragancha Aksinyaning yoniga keldi-da, achchiq brezent qo'lqoplarini yaladi. Hamma ishdan to'xtab, Bimga tikilib qoldi.

Keyin ular uchburchak qalpoqlining buyrug'i bilan butalar ostiga o'tirishdi va uyidan olib kelgan ovqatlari bilan tushlik qilishdi. Bimni ham ovqatlantirishdi. Endi u yaxshi insonlarning qo'lidan ovqat olardi. Bu uning najoti edi.

Kechga tomon Bim bezovtalanib qoldi: Matryonaning yoniga kelib cho'qqaydi, oldingi panjalarini sustgina qimirlatdi, yuziga qaradi, nari ketdi, yerga yotdi, biroq tez orada ayolning yoniga qaytdi va yana uzoqlashdi.

– Ketging kelyaptimi? – darrov tushundi Matryona. – Mayli, bor, bora qol. Seni qayerimga olib ketardim? Olib ketadigan joyim yo'q. Boraqol.

Bim xayrlashdi va asta-sekin, itlarga xos bo'lmagan qadam bilan temiryo'l yoqalab keta boshladi. Yo'l baribir yo'l-da, doimo qayoqqa borish kerakligini ko'rsatadi, agar yo'nalishni to'g'ri tanlasang, hech qachon adashmaysan. Faqat kechagi kulrang amakining kal-taklaridan badani sirqiramoqda, yurganida nafas olishga qiynalyapti, ammo nimayam qilardi, yurishi kerak. Baxtiga yaxshi ayollar qor-nini to'yg'azishdi, temiryo'l chekkasidagi so'qmoq yo'l ham tekis va ravongina ekan. Asta-sekin qizishgach, u yengil yugurib ketdi. Itlar qanchalar yashovchan bo'lishadi-ya!

Agar tashqaridan qaralsa, temiryo'l yoqalab xasta it asta chopib ketayotganining e'tiborni tortadigan joyi yo'qdek edi.

Shaharga yaqinlashganda, yo'llardan biri ikkita bo'lib qoldi: yana bir juft temir izlar cho'zilib ketgandi. Keyin ular uchta bo'lishdi. Qorovulxona yaqinida to'satdan ikkita qizil ko'z navbatma-navbat lipillay boshladi: chap, o'ng, chap, o'ng. Chiroq tinmay sakrardi. Qizil rangni barcha jonivorlar yoqtirishmaydi. Masalan, bo'ri qizil bayroqchalar chizig'i ustidan sakrab o'tolmaydi ham. Tulki esa qizil bayroqchalar orasida ikki-uch kunlab o'tirishi mumkin. Shu sababli Bim ulkan qizil ko'zlarni aylanib o'tmoqchi bo'ldi. U uchinchi

temir izlar orasiga tushdi, to'xtadi va yurishga botinolmay o'chib-
yonayotgan qizil ko'zga qaradi. Kutilmaganda oyoqlari ostida ni-
madir g'ijirladi....

Dahshatli og'riqdan Bim angillab yubordi, biroq panjasini temir
izdan tortib ololmadi: panjasi yo'l ayirgichning milidagi ulkan is-
kanja orasiga kirib qolgandi. Bimning angillashidan faqat «Voy,
og'riyapti! Yordam beringlar-r!» deyayotganini anglash mumkin edi.

Yaqin-atrofda odamlar yo'q. Odamlar aybdor emas. Itlar
qopqonga tushib qolganida panjasini g'ajib tashlab, qutulib ketadi-
gan bo'rilardek yo'l tutisholmaydi. Itlar faqat insondan madad kuti-
shadi, ular yordam berishiga umid qilishadi.

Nima bu? Ikkita ulkan oppoq ko'z sekin va qat'iyat bilan bostirib
kelar, temiryo'lni va Bimning o'zini yoritib, ko'zini qamashtirardi.
Bim og'riq va qo'rquvdan g'ujanak bo'lib oldi. Muqarrar hujumni
kutib nafasini ichiga yutdi. Biroq ulkan ko'zli sershovqin mavju-
dot undan o'ttiz qadamcha narida to'xtadi, yorug' shu'la hududiga
qorong'ilik ichidan bir odam otilib kirdi va Bimning yoniga yugurib
keldi. Uning ortidan ikkinchisi paydo bo'ldi.

– Bechoragina, qanday qilib bu ahvolga tushding? – deb so'radi
birinchi erkak.

– Uni nima qilamiz? – deb so'radi ikkinchisi birinchisidan.

Kattakon nishon qadalgan rasmiy bosh kiyimi kiygan bu erkak-
larning ikkovidan ham xuddi haydovchilardan keladigandek hid an-
qib turardi.

– Bekatning yonginasida bo'lsak ham, to'xtaganimiz uchun
baribir adabimizni berishadi, – dedi birinchi erkak.

– Endi baribir emasmi? – dedi ikkinchisi va qorovulxona tomon
ketdi.

Bechora Bim erkaklar nimalar deyishganini tushunmasa-da,
so'z ohanglaridan ular o'zining najotkorlari ekanligini tushundi.
U qorovulxonada qo'ng'iroq quloqni qomatga keltiradigan dara-
jada qattiq jaranglaganini eshitdi, shu zahoti iskanja uning panja-
sini qo'yib yubordi. Biroq karaxt bo'lib qolgan Bim yura olmadi.
Shunda erkak uni ko'tarib oldi va temir izlardan tashqariga chiqarib
qo'ydi. Bu yerda Bim ezilib ketgan barmoqlarini yalab, chir aylana

boshladi. Shunga qaramay, u poyezdning derazalari va eshiklaridan eshitalayotgan gap-so'zlarga quloq tutdi (itlar naqadar kuzatuvchan bo'lishadi-ya!); endi yorug'lik ko'zini qamashtirmayotgan bir paytda u yon tomondagi poyezdni ko'rdi va turli-tuman ovozlari «it» va «tozi» so'zini qaytarayotganlarini eshitdi, zero bu so'zlarni u tushunardi.

Bim yaxshi, mehribon insonlardan minnatdor edi. Shunday. Qayerdadir kimdir Bim bemalol ketayotgan yo'ldagi ayirgich uskunani milini o'zgartirgandi. Endi ayirgich uskunani mili qandaydir itning panjasini qisib olgan va u majruh bo'lib qolgani bilan o'sha «kimdir»ning mutlaqo ishi yo'q edi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, Bim endi temiryo'ldan yurmaydi. Buni yoshligida avtomobillar yugurib yuradigan yo'llardan yurish mumkin emasligini tushunganidek anglab yetdi.

Majruhlangan, qiynalib ketgan Bim uch oyoqlab sakrab borardi. U tez-tez to'xtar va shikastlangan panjasining karaxti bo'lib, shishib ketgan barmoqlarini yalardi. Qon to'xtay boshlaganiga qaramay, u shishib ketgan barmog'ini top-toza bo'lmaguniga qadar yalayverdi. Bu judayam og'ritardi, biroq har bir it bitta qoidani yaxshi biladi: og'risa-da chida, og'risa-da yala, og'risa-da miq etma...

Qadrdon uyining eshigi oldiga u yarim tunda yetib keldi. Yo'q! Yana Ivan Ivanichning izlarini topmadi. Bim eshikni odatdagidek asta tirnamoqchi edi, qarasa, bu mumkin emas ekan: shikastlangan panjasida nafaqat orqa oyoqlarida turish, balki cho'nqayib o'tirib ham bo'lmas ekan. Faqat uch oyoqlab turishi yoki yuztuban yerga yotishi mumkin, xolos. Shunda u burnini eshik burchagiga taqadida, ichkaridagi havoni tekshirdi: egasi yo'q edi. Demak, u butunlay ketgan. Shu tariqa, go'yo boshi bilan zaiflashib qolgan tanasini ushlab turgandek, uzoq vaqt qimirlamadi. Keyin Stepanovnaning eshigiga yaqinlashib, qattiq, qisqa, umidsizlikka to'la ovozda dedi:

«Vov!» (Men keldim).

Bimning ahvolini ko'rgan Stepanovna oh urib yubordi:

– Voy, Xudoyim-ey, qayerda seni shu ahvolga solishdi? – kampir eshikni ochdi, Bimni ichkariga kirgizdi, o'zi ham ortidan kirdi. – Voy, bechora it-ey, seni nima qilsam ekan-a? Ivan Ivanich nima deydi hali?

Bim endigina oyoqlarini uzatib, xona o'rtasiga cho'zilgan edi, biroq... Bu nimasi? «Ivan Ivanich» deydimi? Bim boshini ko'tardi, bir amallab bo'ynini burib Stepanovnaga o'girildi va undan ko'z uzmay tikilib qoldi. U «Ivan Ivanich?! U qayerda?» deb so'rayotgani aniq edi.

Stepanovna itlarga muolamala qilishni, ularni qanday boqishni va parvarish qilishni bilmasdi, biroq achinishni uddalardi. Ehtimol, ayni paytda mana shu rahm-shafqat hissi Bimning savolini tushunishiga, «Ivan Ivanich» degan so'zi itda umid uchqunini yoqqanini anglashiga sabab bo'lgandir.

– Ha, ha, Ivan Ivanich, – tasdiqladi kampir. – Shoshma, men hozir kelaman, – kampir shoshib o'zining uyiga chiqdi-da, qo'lida xat ko'tarib keldi va uni Bimning burniga tutdi. – Mana, ko'rdingmi? Ivan Ivanich xat jo'natibdi.

Bim, bechora Bim, o'layotgan va qayta tirilgan, ezilgan va qutqarilgan, kasal va zarradek umidi qolmagan Bim titrab ketdi. U burnini xatga bosdi, keyin burun kataklarini qog'ozning chekkalari bo'ylab yuritdi: ha, ha, ha.... Stepanovna xatjildni yerdan olib, uning ichidagi maktubni chiqarganida, Bim zo'rg'a o'rnidan turdi va qog'ozga intildi. Endi kampir o'sha xatjild ichidan mutlaqo top-toza qog'oz chiqarib, uni Bimning oldiga qo'ydi. U dumini likillata boshladi: bu yerda Ivan Ivanichning barmoqlarini hidi yozilgandi. Ha, egasi ataylab qog'ozni barmoqlari bilan rosa ishqalagandi.

– Buni senga jo'natibdi, – dedi Stepanovna. – «Shu toza qog'ozni Bimga beringlar» deb yozibdi. – Ayol qog'ozga ishora qilib, ta'kidladi. – Ivan Ivanich... Ivan Ivanich...

Bimning to'satdan madori qurib yerga yotib qoldi, boshini qog'ozga qo'yib uzala tushdi. Uning ko'zlaridan ko'z yoshlari dumalab tushdi. Bim umrida birinchi marta yig'layotgandi. Bu umid ko'z yoshlari, baxt ko'z yoshlari edi. Sizga aytсам, bu dunyodagi eng yaxshi ko'z yoshlari bo'lib, diydor va baxtiyorlik paytida to'kiladiganlaridan kam emasdi.

...Xudo yarlaqagur o'quvchim, gaplarimga ishoning, setter kulishni va yig'lashni biladi!

...Stepanovna endi itni tushuna boshladi, biroq shu bilan birga uni yolg'iz o'zi parvarish qilishga kuchi yetmasligini ham angladi.

U Bimning yonida uzoq o'tirib, o'zining hayoti haqida o'yladi. O'zi tug'ilib-o'sgan qishlog'iga ketib qolgisi keldi, odamlar yillab bitta uy, hatto bitta yo'lakda yashasa-da bir-birlarini tanimaydigan bu tosh uylarda yashashdan yuragi siqilib ketdi. Shu paytda u Bimga suv berishi kerakligini tushunib qoldi.

Voy, bechoragina itga suv berish kerak-ku!

Bim sal qaddini rostlab, yutoqib, tomchilarni yerga to'ka-to'ka suvni icha boshladi, keyin yana avvalgi vaziyatida yotib oldi. Bim ko'zlarini yumdi, u xuddi hushidan ketganga o'xshardi.

Erta saharda Stepanovna xuddi og'ir bemorni uyg'otib yuborishdan cho'chigandek asta yurib chiqib ketdi.

Xona o'rtasida esa faqatgina it cho'zilib yotardi, xolos.

Bim o'zining qancha – bir necha soatmi yoki biror kunmi uxlaganini bilolmadi. U oyog'idagi qattiq og'riqdan uyg'ondi. Kunduzi edi, chunki quyosh nur sohib turardi. U og'riqqa ham e'tibor bermay, qog'ozni hidladi. Egasining hidi kuchsizroq va uzoqroq bo'lib qolibdi, biroq hozir bu muhim emasdi. Asosiysi u bor, qayerdadir bor va uni qidirish lozim. Bim o'rnidan turdi, yalog'idagi suvni ichdi va uch oyoqlab xonada yura boshladi. Oyog'i og'rir, biroq u xonadan dahlizga va aksincha yuraverar, xona bo'ylab gir aylanardi. Ichki sezgisi unga bir yonboshda yotsa-yu, og'riq qolmagan bo'lsa, yurishi kerakligini aytib turardi. Tez orada u ezilgan panjasini og'ritmasdan yurishni o'rganib oldi. Buning uchun ezilgan panjani yerda sudramay, biroq tepaga ko'tarish kerak bo'lardi, xolos, shunda og'riq pasayardi. Stepanovna yegulik olib kelganida esa unga dumini likillatib xursand qildi, keyin ovqatini yeb oldi. Umid tug'ilgan, «qidirish» va «kutish» kabi ikkita sehrli so'z paydo bo'lgan paytda negayam ovqat yemasin, axir?

Biroq qanchalik yalinmasin, talab qilmasin, Stepanovna uni ko'chaga chiqarmadi (Uyda o'tir, sen kasalsan). To'satdan u Bimning ham tirik mavjudot ekanligini, uning ham ehtiyojlari borligini eslab qoldi. U, turgan gapki, uch kungacha ko'chaga chiqarilmagan itlar ichagi yorilishidan yoki ichi qotishidan o'lganlaridan bexabar edi, albatta. Bunaqangi voqealar esa ko'p sodir bo'lgan.

Stepanovna umr bo'yi ulkan insoniy rahm-shafqati va mehribon ko'ngliga bo'ysunib yashadi. U bo'yinboqqa tizimcha uladi-da, eshik tomon yo'naldi. Bim uning yonida cho'loqlanib ketardi.

Hovlining uzoq burchagida sochlari oppoq oqargan kampir va terisi suyagiga borib yopishgan cho'loq it turardi.

Yo'laklardan yugurib chiqqan bolalar maktabi tomon oshiqishar, biroq ko'pchiligi kampirning oldiga kelib so'rashardi:

– Buvijon, buvijon, nega Bim uch oyoqlab yuribdi?

Yoki bo'lmasa:

– Bimka, qattiq og'riyaptimi? – deb so'rashardi.

Biroq maktabga borishmasa bo'lmaydi. Axir maktabga borish ularning oilasi, o'qituvchisi, do'stlari oldidagi ilk mas'uliyati. Shu tufayli ham ular Bimning yonida ortiqcha qololmay, maktabga yugurib ketishardi. Bu vaziyat Stepanovna uchun ham, Bim uchun ham juda muhim edi, shu sababli ular sayr qilib bo'lgach, uyga kirib ketishdi.

Yo'lakda ular Paltitich (Pavel Titich Ridayev)ni uchratishdi. U Stepanovnaga qarab:

– Shunaqa ishlar, degin. Bu it qimmat turadi, uni ehtiyot qilish lozim. Agar egasi itini senga ishonib topshirgan bo'lsa, maslahatim shuki, uni zanjirlab qo'y. Albatta shunday qilgin, bo'lmasa u qochib ketadi. Ko'z ochib-yumguningcha eshikdan chiqadi-yu, dumini ham ko'rmay qolasan.

– Nahotki shunaqangi aqlli itni zanjirlab bo'lsa? – ishoninqiramay e'tiroz bildirdi Stepanovna.

– Obbo, shungayam aqling yetmayaptimi? Unutma, egasi va zanjir yo'qligini ko'rgan it ozodlikni sezib qoladi. Qochadi-ketadi.

– Uni zanjirlab qo'ysam, yovuzlashib ketadi-ku?

– Hoy, omi xotin, nega tushunmaysan-a? Yovuzlashsa ham, har holda tirik bo'ladi. Uni zanjirlab qo'y, tamom-vassalom. Senga yaxshilik tilagan odamning gapiga kirsang-chi! Itni zanjirlab qo'y!

Stepanovna uy kengashi raisiga bo'ysunmaslikka botina olmadi, shu sababli o'n so'mga zanjir sotib oldi-da, uni Bimning bo'yinbog'iga taqib hovliga olib chiqa boshladi. Biroq uyga kirgan

zahoti u zanjirni bo'yinbog'dan yechib olib, burchakka uloqtirardi. Shu tariqa bo'ri ham to'q, qo'ylar ham omon bo'ladi, deb o'ylardi ayyorgina Stepanovna kampir. Illo, Bimning nomi atrofida sodir bo'lgan g'ayrioddiy voqealar tufayli ikki-uch martagina uni sayrga olib chiqishiga to'g'ri keldi, xolos.

To'qqizinchi bob

BIMNING USTIDAN SHIKOYAT

Maktabda, birinchi tanaffusdayoq bolalar yangilik sifatida mishmish tarqatishdi: ularning hovlisida yashaydigan it oldin to'rt oyoqlab yurardi, endi uchoyoq bo'lib qolibdi, ilgari savlatli bo'lgandi, hozir ozib-to'zib ketibdi, silliq junlari paxmoq bo'lib ketibdi, ilgari quvnoq it edi, endi ma'yuslashib qolibdi. Bim laqabli bu itning egasini jarrohlik operatsiyasi qilish uchun Moskvaga olib ketishgan, endi uni Stepanovna buvi sayr qildirib yuribdi.

Bu mishmish uslubchi-o'qituvchilardan birining qulog'iga ham yetib bordi, u esa tuman maorif xodimlari kengashida o'qigan qiziqarli nutqida bu hodisani quyidagicha yoritdi: ajoyib yosh avlod o'sib kelmoqda, ular «butun yer yuzida yashovchilarga nisbatan mehr-shafqat, ezgulik g'oyalariga ergashmoqdalar». O'qituvchi egasi jarrohlik operatsiyasiga yotqizilgan qora quloqli itga butun maktab ahli e'tibor qaratayotganini o'z e'tirofining isboti sifatida keltirdi.

Uch kun davomida shahardagi barcha maktablarda o'qituvchilar bolalarga hayvonlarga mehribon bo'lish haqida so'zlashdi, nechanchidir maktabda qandaydir itga yaxshi va iliq munosabatda bo'linganini aytib berishdi. Biroq ehtiyotkorroq o'qituvchilar it quturgan bo'lmasligi kerakligini ta'kidlashdi. Tolik o'qiydigan maktabda ham muallima shu haqda samimiy va oddiygina qilib so'zlab berdi.

– Bolalar, bir o'ylab ko'ringlar-a! – dedi u. – Qandaydir be-shafqat kimsa itning oyog'ini uzib olibdi (mishmish o'qituvchilar orasida shu tarzda o'zgargandi: nimayam deysiz, nomi bilan mishmish-da!). Bu sho'ro odamlariga nomunosib! Qora quloqli bechora kuchukcha bir umrga majruh bo'lib qolibdi. – Muallima daftardan

kerakli sahifani ochdi-da, gapida davom etdi: – Endi esa bolalar, «Men hayvonlarni yaxshi ko‘raman» degan mavzuda kichkina va iliqqina insho yozamiz. Erkin bayon qilishingiz va biron narsani adashtirib yubormasligingiz uchun sizlarga savolnoma-rejani yozib qo‘yaman.

U bo‘rni olib, daftariga qarab-qarab, sinf doskasiga savollarni yoza boshladi:

1. Itingizning laqabi nima?
2. U oqmi, qorami yoki boshqacha tuslimi?
3. Quloqlari tikrayib turadimi yoki shalpayib tushganmi?
4. Dumi uzunmi yoki qisqami?
5. U qanday zotga mansubligini bilasizmi?
6. Itingiz mehribonmi yoki jahldormi?
7. Itingiz bilan o‘ynaysizmi? Ha bo‘lsa, qanday o‘yinlar o‘ynaysiz?
8. U tishlaydimi yoki yo‘qmi? Tishlasa, kimni tishlaydi?
9. Ota-onangiz uni yaxshi ko‘rishadimi?
10. Itni nima uchun yaxshi ko‘rasiz?
11. Boshqa jonivorlar (tovuqlar, g‘ozlar, qo‘ylar, kiyiklar, sich-qonlar va boshqalar)ga munosabatingiz qanday?
12. Bug‘uni ko‘rganmisiz?
13. Nima uchun sigirni sog‘ishadi, bug‘u (uy hayvonlari va yov-voyi jonivorlar)ni esa yo‘q?
14. Hayvonlarni yaxshi ko‘rish kerakmi?

Tolik xuddi igna ustida o‘tirgandek tipirchilar, sirayam yoza olmasdi. Oxiri u chiday olmay, sinfga cho‘kkan sukunatni buzdi:

– Anpalna, qora quloqli itning laqabi nima ekan?

Muallima daftariga qarab olib, javob qaytardi:

– Bim.

– Bim! – butun sinfni jaranglatib qichqirib yubordi Tolik. – Anpalna, iltimos, menga javob bering! Iltimos! Men Bimni izlab topishim kerak. Bilaman, u judayam yaxshi it. Iltimos! – deb o‘tindi bola.

– Tolya! – qat‘iy ovozda dedi Anna Pavlovna. – Sen boshqalar-ni ishlashiga xalaqit beryapsan. O‘ylagin-da, inshoni yoz!

Tolik joyiga o'tirdi. U toza daftar varag'iga qarardi-yu, Bimni ko'rardi. Ko'rinishidan u hamma qatori erkin mavzuda insho yozishga kirishgandek tuyular, biroq varaqqa faqatgina «Men hayvonlarni yaxshi ko'raman» deb yozgandi, xolos. Faqat qo'ng'iroq chalinishiga yaqin u tez-tez yoza boshladi. Hatto qo'ng'iroq jaranglaganidan so'ng ham yozishdan to'xtamadi, Anna Pavlovna esa odatda bunaqangi holatlarda qilganidek sabr-toqat bilan uni kutib o'tiraverdi. Va, nihoyat, nimadan noroziligi noma'lum bo'lgan Tolik xo'mrayganicha inshosini Anna Pavlovnaning oldiga qo'ydi-da, sinfdan chiqib ketdi.

Uning inshosi eng oxirida topshirilgani uchun eng yuqorida yotardi, shu sababli Anna Pavlovna uni birinchi bo'lib o'qidi.

Tolik erkin mavzudagi inshoning barcha savollariga aniq, hatto biroz bo'rttiribroq javob qaytargandi. Uning ijodiga hatto she'rchalar ham kiritilgan bo'lib, bular har bir bolakay yaxshi biladigan mashhur qo'shiqlardan ko'chirilgani aniq sezilib turardi. Umuman olganda, inshoning ko'rinishi quyidagicha edi:

«MEN HAYVONLARNI YAXSHI KO'RAMAN

Uning laqabi Bim. O'zi oppoq, faqat qulog'i qora. Qulog'i osilib turadi. Dumi haqiqiy. Tozi it, lekin ovcharka emas. Yoqimtoy it. Bir safar u bilan o'ynayotganimda, mijg'ov amaki – esini yegan chol uni olib ketib qoldi. Bim tishlog'ich emas. Oyim va dadam uni yaxshi ko'rishlari mumkin emas, chunki u begona, bo'ynida sariq taxtachasi bor. Sababini bilmayman-u, uni shunchaki yaxshi ko'raman. Tovuqlar, g'ozlar, qo'ylar, kiyiklarni yaxshi ko'raman, lekin sichqondan qo'rqaman. Bug'uni shu paytgacha ko'rmaganman, chunki ular shaharda yashashmaydi. Do'konlarda sut bo'lishi va reja bajarilishi uchun sigirlarni sog'ishadi («U nuqsonli ekan-da!» – deb o'yladi Anna Pavlovna). Bug'uni sog'ishmaydi, chunki do'konlarda bug'u suti bo'lmaydi va u hech kimga kerak ham emas. Hayvonlarni yaxshi ko'rish kerak, it esa insonning eng yaxshi do'sti. Men hozir qo'shiq ham to'qidim:

Bug'u ham yaxshi,

Kiyik ham yaxshi,

Sichqon ham yaxshi,

Baridan a'lodir it!

Men dengiz cho'chqachalarini boqayotgandim, biroq oyim ular uyni sasitib yuborishganini aytib, barini begona qizchaga berib yubordilar. Mayli, meni darsdan ozod qilmasangiz-da, baribir Bimni izlab topaman. Baribir topaman, dedimmi, demak, topaman! Hatto Anna Pavlovna bo'lsangiz-da, menga baribir!».

Anna Pavlovnaning ko'zlari chaqchayib ketdi: «Bu bola juda chegaradan chiqib ketyapti-ku! O'zini kim deb o'ylayapti u? Voy, pismig'-ey...» U ortiqcha o'ylab o'tirmadi-da, inshoga «ikki» baho qo'yib qo'ya qoldi.

Shunaqasi ham bo'larkan-da.... Anna Pavlovna yaxshi muallima sanalardi, bolalar uni yaxshi ko'rishar, gapiga kirishardi, to'g'ri ba'zi bolalar bundan istisno edi-ku, lekin undaylar hamma sinfda ham topiladi. Ta'kidlash joizki, tarbiya – qiyin, murakkab ish. Tolik sababini o'zi ham tushunib yetmaydigan alam tufayli beixtiyoriy ravishda shunaqangi insho yozgandiki, agar dengiz cho'chqachalari va Anna Pavlovna haqidagi so'zlarni hisoblamaganda, mavzudagi savollarga deyarli javob qaytarilmagandi. Vaqti-soati kelib, u o'zining bolalikdagi xatosini tushunib yetar, biroq hozircha buni anglashga ojiz edi. U hatto tanaffusdan keyin sinfga qaytmadi ham. Bu esa favqulodda voqea edi!

Yangi tumanda yashaydigan Tolik eski tumandagi o'sha nechan-chidir maktabga bordi va bolalardan Bimni qachon ko'rganliklarini, u qayerda yashashini surishtira boshladi. Bimning oyog'i uzilib ketmagani, shunchaki osilib qolganini eshitib xursand bo'ldi. Keyin bolalar bilan birga Bim yashaydigan uyga bordi.

Tolik qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Bim savolomuz vovulladi: «Vov!» («Kimsiz?»).

– Men Tolikman! – deb qichqirdi mehmon. Bim burnini eshik tirqishiga tirab, havoni hidlayotganini eshitib, takrorladi. – Bim, men Tolikman.

Bim angillab, vovullab yubordi. U «Salom, Tolik!» deb qichqirardi. Bola uning gapini tushundi. Ilk bora itning so'zini tushundi. Itning vovullagani va bolaning ovozi eshitgan Stepanovna eshigini ochdi:

- Bolakay, senga nima kerak?
- Men Bimning oldiga keluvdim.

Tolik maqsadini tezgina tushuntirdi, keyin kampir bilan birga uyga kirishdi.

Tolik Bimni tanimay qoldi: ozib-to'zib ketgan, junlari paxmoqlashib, osilib qolgan, qovurg'alari turtib chiqqan, zo'rg'a oyog'ini sudrab bosadi. Yo'q, bu Bim emas! Biroq itning muloyim, aqlli ko'zlari «Men Bimman» deb turardi.

Tolik cho'nqayib o'tirdi. Bim bolani hidladi, kiyimini, iyagini, qo'llarini yaladi, keyin esa tumshug'ini Tolikning boshmog'iga taqadi. Aftidan, u tinchlanganga o'xshardi.

Stepanovna Tolik ismli notanish bolaga Bim va Ivan Ivanich haqida bilganlarining barini to'kib-soldi, faqat kim va qayerda itning panjasini ezib, shikastlaganini aytib berolmadi.

- Taqdir, – ta'kidladi kampir. – Har bir itning o'z taqdiri bo'ladi.

Kampir o'zining yoshi va hayotiy tajribasi kattaligini ro'kach qilmay, bolakay bilan xuddi tengdoshidek xotirjam gaplashardi.

– Bimning taxtachasi qani? – deb so'radi Tolik. – Uni o'zim ko'rganman. Yozuvlarini ham o'qiganman.

- Ha, taxtachasi bor edi. Sening isming nima?

– Tolik.

– Tolik. Bu yaxshi... To'g'ri, taxtachasi bor edi. Kimdir yechib olgan, shekilli.

«Anavi kulrang amaki yechib olgan» deb o'yladi Tolik. Lekin ovoz chiqarib aytmadi, chunki buni aniq bilmasdi.

– Voy, xudoyim-ey, uni nima qilsam ekan-a? – deb so'radi Stepanovna Bimga qarab. – Unga yuragim achib ketyapti, lekin nima qilishni bilmayman. Vitinar kerakmikan?

– Veterinar, – kampirning gapini to'g'riladi Tolik, keyin «nima qilish» haqidagi savolga javob berdi. – Men har kuni maktabdan keyin kelaman, Bimni o'zim veterinarga olib boraman. Maylimi?

Shu tariqa, Bimning yangi kichkina do'sti paydo bo'ldi. U har kuni tushdan keyin butun shaharni kesib o'tib Bimning oldiga kelar, u bilan hovlida, ko'chalarda, bog'larda sayr qilar va mag'rur ovozda o'rtoqlariga ta'kidlardi:

– It – insonning eng yaxshi do'sti.

Bu so'zlarning ma'nosi inshodagi alam bilan yozilgan so'zlardagiga nisbatan mutlaqo boshqacha edi.

Tolik o'sha kulrang amakini izlab topishni va ochiqchasiga gaplashib olishni oldiga maqsad qilib qo'ydi. Uni o'zining yangi tumanida poylay boshladi va oxiri yuzma-yuz kelishga muvaffaq bo'ldi.

– Amaki, – dedi u qalpog'ining soyabonini tepaga ko'tarib, qo'llarini orqasiga qilib, – nega Bimning taxtachasini yechib olдингiz?

– Hoy, bola, nima, esingni yeb qo'ydingmi? – savolga savol bilan javob qaytardi u.

– Siz Bimni bo'ynidagi taxtachasi bilan birga olib ketgandingiz. Buni o'rtoqlarim ham ko'rishgandi.

– Itni bo'ynidagi taxtachasi bilan qo'yib yuborganman. U meni tishlab oldi-ku! Xuddi bo'ridek tishlaganidan keyin qo'yib yubordim.

– Amaki, siz aldayapsiz. Bim judayam yuvosh it.

– Menmi? Hoy, itvachcha, men aldayapmanmi? Ota-onang qayerda? Kimlarning bolasisan o'zi? Gapir! – o'shqirib ketdi kulrang amaki.

Kulrang qisman haq edi. Aynan, qisman: Bim uni tishlab olganini aytganida u aldamagandi va jahli chiqishiga to'liq asos bor edi, biroq itning bo'ynidagi taxtachani yechib olmaganini aytganida, aldagandi. Bo'lib o'tgan voqeaga o'zi Bimning taxtasini yechib olganini emas, balki it uni tishlab olgani aybdor ekanligini aytar, sabab va oqibatning o'rni almashtirilishi uning uchun foydali isbot bo'lishi mumkin edi. U o'zining rost gapirayotganiga qattiq ishonar, lekin bor haqiqatni aytmayotganining unga ahamiyati yo'q edi. Kim bilsin, sabab qayerda-yu, oqibat qayerda: it oldin tishladimi yoki avval uning taxtachasi yechib olindimi? Bu hamma uchun sirlicigicha qoladi. Tolik esa Bim kulrang amakini tishlashga qodirligiga ishonmasdi, axir u quyon yoki tulki emas, balki odam-ku! Shu sababli u qayta-qayta:

– Amaki, siz meni aldayapsiz. Uyalsangiz bo'lardi! – derdi.

– Qorangni o'chir! – o'shqirdi kulrang amaki.

Keyin u cho'loqlanganicha va bir tomonga shox tashlagancha (aftidan, Bim uni boplab tishlagan, shekilli) nari ketdi.

Qizig'i shundaki, bir taraf yarim haqiqatni gapirganida, ikkinchi tomon esa haqiqatning ikkinchi yarmini bilmaganida, ularning bari haq bo'lishadi.

Kulrang amaki yo'lda ketayotib, o'ylardi: «Bu mishiqi o'rtoqlari bilan militsiyaga borib xabar beradi, keyin ular uyimga kelib, kolleksiyamni ko'rishadi... Yo'q, besh yuzinchi nishonni aslo bermayman. Uning evaziga yigirmata oddiy nishonlarni almashtirish mumkin». U «Mudofaaning eng yaxshi ko'rinishi – hujum» degan qarorga keldi.

Uyiga kelgach, u shikoyatnoma yozdi, keyin uni veterinariya kasalxonasiga olib bordi. Shikoyatnomada «...Ko'chada yurgan it (qora quloqli zotsiz setter) yugurib kelib meni tishladi, yumshoq joyimdan bir bo'lak uzib oldi va qochib ketdi... U xuddi quturgandek dumini osiltirib, boshini yerga eggancha yugurar, ko'zlari qonga to'lgan... Daydi itlarni tutuvchilar jamoasiga uni tutib, yo'q qilishga buyruq berishingizni talab qilaman, aks holda sizlarning qog'ozbozligingiz va toshbag'rilingizdan shikoyat qilaman...» deb yozilgandi.

Veterinariya shifokori hayajonlanib ketdi:

– Qayeringizdan tishladi? Qachon? Qayerda? Qanday vaziyatda tishladi?

Kulrang aldab-to'qishni ham uddalolmasdi. Shifokor uchun esa hamma narsa ayon edi: ko'chada daydi it tishlab olgan! U telefon go'shagini ko'tardi, emlaydigan joy navbatchisini chaqirtirdi.

Tez orada, aniqrog'i, bir necha daqiqadan keyin avtomobilda kelgan shifokor ayol Kulrang amakining shimini yechib, it tishlagan joyini ko'rdi-da, so'radi:

– Bunga necha kun bo'ldi?

– O'n kun, – istar-istamas javob qaytardi bemor.

– To'rt kundan keyin quturasiz, – qat'iy uqtirdi shifokor, biroq bunaqangi hukmdan bemor mutlaqo hayajonlanmaganini ko'rgach, unda boshqacha shubhalar tug'ildi, shekilli, so'radi. – Necha oydan beri cho'milmagansiz?

Shifokor ayol yarani yana qayta ko'zdan kechirgach:

– Nimalar qilib qo'ydingiz! – deb xitob qildi. – Tezda emlash joyiga borishingiz kerak! Zudlik bilan quturishga qarshi emlaymiz... Qorningizga... Olti oy davomida...

– Nima balo, esingizni yeb qo'yganmisiz? – o'shqirdi Kulrang amaki.

– Sirayam esimni yeganim yo'q, – xotirjamlik bilan uning gapini bo'ldi veterinar. – Agar bo'ysunmasangiz, kuch ishlatib olib boramiz. Shunaqangi omi odam bo'lsangiz, uyingizdan militsiya olib ketadi.

– Men-a? Men omi odammanmi?! – qichqirdi Kulrang amaki. – O'z vaqtida men qayerlarda ishlaganimni bilasizmi o'zi?

– Menga buning ahamiyati yo'q, – dedi shifokor ayol. – Emlash joyiga olib boring! – qo'shib qo'ydi u yanada qat'iyroq tovushda.

Endi chaqmachaqqar belgilangan kun va vaqtda emlatish uchun qatnay boshladi. U g'azabdan o'zini qo'ygani joy topolmasdi: it yumshoq joyini tishlasa-yu, shifokorlar jonini og'ritib igna suqsa-ya...

Keyin esa quyidagicha voqea sodir bo'ldi.

Kulrang amaki o'sha baqiroq xola bilan qanday topishib olgani noma'lum. Ehtimol ular oldindan tanish bo'lishgandir (bu ehtimolga yaqinroq, albatta), biroq o'sha kuni ko'chada uchrashib qolishdi. Ko'r ko'rni qorong'ida topadi, deganlaridek, bunaqangi odamlar bir-birini uzoqdanoq sezishadi. Ular uzoq suhbatlashishdi. Shunda Kulrang amakining qora quloqli it tishlaganidan aziyat chekayotgani oydinlashdi.

– Men o'sha itni bilaman! Xudo haqi, bilaman, – ingrab yubordi baqiroq xola. – U meni ham tishlagan.

Kulrang amaki bu ayol aldayotganini sezdi, shunga qaramay dedi:

– Uni tutib, yo'q qilishlari haqida ariza topshirdim. Vijdonim shunday qilishimni taqozo etyapti.

– To'ppa-to'g'ri qilibsiz! – uni qo'llab-quvvatladi xola.

– Siz ham ariza yozing... Agar rostgo'y odam bo'lsangiz, albatta.

– Menmi? Mayli, yozganim bo'lsin!

Xola o'sha kuniyoq ariza yozib, veterinariya kasalxonasiga topshirdi. Kulrang amaki ichida «Aldadingmi, endi shifokor qorningga igna sanchsin» deb o'yladi. U o'ziga yolg'on so'zlaganlarini yoqtirmas va bundan faxrlanardi. Shunday qilib, xola ham toza adabini yedi: baqir-chaqir ko'tardi, janjallashdi, yara unchalik katta bo'lmagani va allaqachon bitib ketganini aytib aldadi, qo'lidagi eski chandiqni ko'rsatdi, o'zining sho'ro ayoli ekanligini, ishning foydasi uchun ariza yozib kelgani-yu, evaziga qorniga igna sanchayotganlarini aytib, faryod ko'tardi.

Qizig'i, uni nima uchundir qo'yib yuborishmadi, aksincha manzilini yozib olib, ertaga vaziyatni oydinlashtirish uchun kirishlarini aytishdi. Shu tariqa, xolaning Bimni ko'rgani ko'zi qolmadi, o'ziga pand bergan Kulrang amakini esa unga nisbatan kamroq yomon ko'rardi.

Shunaqangi ikkita ariza oqibatida ikki kundan so'ng viloyat gazetasida e'lon paydo bo'ldi:

«Qora quloqli zotsiz setter it o'tkinchilarni tishlaydi deyishga to'liq asos bor. O'sha itni, shuningdek, u tishlagan odamlarning manzilini xabar qilishingizni so'raymiz. Bu o'sha itni tutib, ehtimoliy oqibatlarni bartaraf etish uchun kerak... Fuqarolar! Jim turmang – o'zingizning va boshqalarning salomatligini saqlang...»

Tez kunda o'quvchilardan maktublar yog'ilb ketdi. Ulardan birida shunday xabar qilingan edi:

«... Shu yilning falon oyi va sanasida... vokzal tomon bir it chopib borardi (zotsiz setter, qulog'i qora), u hech qayoqqa qaramas va maydonni to'g'ri yoki qiyalamasiga kesib o'tardi, zero sog'lom itlar bunday yugurishmaydi – yo'lda uchraydigan to'siqlarni aylanib o'tishadi. Itning dumi yerda sudralar, tumshug'i ham yerga osilgan edi. Eslatib o'tilgan it (zotsiz setter) xavfli bo'lishi, istalgan fuqaroni tishlab olishi mumkin, shu bois uni tutish va biz hurmat qiladigan gazetangizda eslatib o'tilganidek tekshirib ham o'tirmay yo'q qilish lozim».

Ushbu norozilik xatining tagida o'n ikki kishining imzosi turardi.

Boshqa xatlar ham bor edi (barini keltirishning iloji yo'q). Masalan, «... Xuddi shunaqangi, faqat qulog'i qora bo'lmagan it to'g'riga

chopib borardi» yoki «Shahar itlarga to'lib ketgan, ulardan qaysi biri quturganligini aniqlab ham bo'lmaydi», yoxud «O'sha it mutlaqo quturmagan, siz veterinarlarni o'zingiz quturgansiz» qabilidagi xatlar kelardi. «O'rtoq muharrir, agar viloyat ijroiya qo'mitasi itlarni yo'q qilishning yillik rejasini aniq amalga oshirolmas ekan, unda biz qayoqqa qarab boryapmiz? Reja qayerda qoldi? Amaliy tanqid qani va nega siz unga quloq tutmayapsiz? Non yopishni-ku uddalaymiz-a, lekin mehnatkash xalqning salomatligini saqlash qo'limizdan kelmaydimi? Men halol odamman va doimo rost so'zlayman. Hech kimdan qo'rqmayman ham. Siz esa mening gaplarim haqida o'ylab ko'ring. Sabr-toqatim qolmadi, yozasan, yozasan, natijadan darak yo'q» degan maktub ham keldi.

Maktublar shunaqangi ko'payib, bahs-munozara kuchaydiki, oqibatda tahririyat pedagogika instituti dotsentining maktublaridan parchalar qistirilgan umumiy maqola ham chop etdi. Bu dotsent itlarni yomon ko'ruvchilar toifasidan edi. Negaligini tushunish qiyin-ku, lekin uning fikri bolalar va o'smirlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega edi. Agar uning fikrini to'g'ri tushunishsa, u itlarni kuchukchalik paytidayoq bo'g'ib o'ldirib, mehnatkashlarning salomatligi haqida qayg'urish, uyida it boquvchilarga qarab ko'chalarda jamoaviy ravishda «Takasaltang!», «Iflos!» deb qichqirish (dotsent itlarni yaxshi ko'radiganlarni shunday deb atardi)ni taklif etardi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, barcha xatlarni keltirib o'tishning iloji yo'q, lekin eng oxirgisini ko'rmasa bo'lmaydi. Bu xat ikki satrdan iborat bo'lib, gazetxon shunchaki «Ikkala qulog'i ham qora bo'lsa urish kerakmi?» deb so'ragandi. U dunyoni mavhum idrok etishdan uzoq bo'lgan amaliyotchi-o'quvchi edi. Shunga qaramay, ushbu xat birontayam maqolaga kiritilmadi, chop etilmadi, hatto javob ham qaytarilmadi. Qarang-a! O'z xizmatlarini taklif etayotgan odamga nisbatan shunchalik hurmatsizlik ko'rsatilsa-ya...

Muharrir it tishlagan odam ko'targan bahs-munozaralarning nazoratdan chetga chiqib ketayotganini payqab qoldi. Va, judayam aqlli yo'l tutdi: yirik qora harflar bilan «It tutildi. Tahririyat bu mavzudagi bahslarni to'xtatishni iltimos qiladi. Qo'lyozmalar qaytarilmaydi» degan e'lon berdirtirdi, zero bunday yozuvlarni doimiy o'quvchilar aslo o'tkazib yuborishmaydi.

Bu e'lon yolg'on edi: Bimni hech kim tutmagandi. Shunchaki maktabda e'lon haqida eshitib qolgan Tolik kechqurun veterinarning uyini izlab topdi, eshik qo'ng'irog'ini chaldi. Eshikni ochishganida esa oddiygina qilib dedi:

– Men Qoraquloq Bimning nomidan keldim.

Masala zudlik bilan hal qilindi va ertasi kuni Tolik uch oyoqlab yurayotgan Bimni veterinariya kasalxonasiga olib keldi. Veterinar itni tekshirib ko'rib:

– Shuncha shov-shuv yolg'on ekan. It quturmagan, u shunchaki kasal. Uni urishgan va majruh qilishgan. Eh, odamlar-a! – dedi.

U itning shikastlangan panjasini tekshirdi, ichki a'zolarini eshitib ko'rdi. Panjasi uchun malham, ichki a'zolariga suyuq dori yozib berdi-da, do'stlarni – bolani va itni kuzatarkan, so'radi:

– Hoy qahramon, isming nima o'zi?

– Tolik.

– Sen yaxshi bolasan, Tolik. Barakalla!

Bim ketayotib shifokorga minnatdorlik bildirdi. Undan dorilarning hidi anqir, lekin o'zi aslo kasal emas, aksincha baland bo'yli, ko'zlari mehr ila boqadigan jasur kishi edi.

«Yaxshi odam, – dedi Bim dumi va nigohi yordamida. – Judayam yaxshi odam».

O'ninchi bob

BIM PULGA SOTIB YUBORILDI

Tolik va Stepanovnaning sa'y-harakatlari bilan Bim tuzala boshladi. Ikki haftadan so'ng panjasi ham tuzaldi, faqat boshqalariga nisbatan kengroqligicha qoldi. Bim shikastlangan panjasini bosib ko'rishga urindi, biroq hali bunga ertaligini tushundi. Tolik mo'ynasini tarab qo'ygani uchun ham Bimning ko'rinishi ancha yaxshilandi. Faqat boshining og'rig'i sira to'xtamas, xuddi kulrang amakining zarbasi tufayli nimadir joyidan ko'chib qolgan-ga o'xshardi. Ba'zan Bim boshi aylanayotganini payqar, shunda to'xtab, ajablanganicha endi nima bo'lishini kutib turar, lekin tezda bu holat o'tib ketardi.

... Faqat kech kuzda, sovuq tushganidan keyingina Bim to'rt oyoqlab yura boshladi. Negadir uning bir panjasi kaltaroq bo'lib qolgan, buning oqibatida cho'loqlanib yurishiga to'g'ri kelardi. Ha, Bim majruh bo'lib qolgan, lekin bosh aylanishlari to'xtagandi. Vaqt hamma narsani davolaydi.

Bu-ku mayli, negadir egasidan darak yo'q edi. U jo'natgan mak-tubdan ham allaqachon hech qanday hid chiqmay qolgan, burchakda befoyda qog'ozdek dumalab yotardi. Bim allaqachon do'stini izla-gani yo'l olmoqchi edi-ku, biroq Tolik u bilan sayr qilayotganida bo'yinbog'ini sira yechmasdi. Tolik hamon gazetadagi o'sha e'lon va Kulrang amakidan cho'chir, ba'zan o'tkinchilar ham «Bu qora quloqli quturgan it emasmi?» deb so'rab qolishardi. Tolik ularga ja-vob ham bermay, tezroq juftakni rostlardi. To'g'ri, u «Yo'q, o'sha it emas» desa olam guliston edi, biroq bola aldashni va o'zining hissi-yotlari (qo'rquv, xavotir, shubha va boshqa)ni yashirishni bilmasdi.

Shunday qilib, och-jigarrang kostum, kuzgi sport shimi, sariq boshmoq va yupqa paxmoq qalpoq kiygan bola har oqshom bitta yo'nalish bo'ylab cho'loq itni sayr qildirardi. U doimo ozoda va pokiza kiyinganidan, ko'rgan odam darhol «Bu bola madaniyatli oiladan ekanligi aniq» deb o'ylardi. Tolik sayr qiladigan joylardagi odamlar unga allaqachon ko'nikib qolishgan, ba'zilar hatto «Shu-naqangi yaxshi va yuvoshgina bola kimning o'g'li ekan-a?» deb o'ylardi.

Tolik Stepanovnaning o'zi bilan tengdosh, oppoqqina, yuvosh va kamtarin nabirasi Lyusya bilan allaqachon qattiq do'stlashib qol-ganiga qaramay, uni birga sayrga olib chiqishga uyalardi. To'g'ri, Ivan Ivanichning uyida ular Bim bilan rosa mazza qilib o'ynashardi. Stepanovna esa bolalarning yonida to'qib o'tirar va ularning quvnoq o'yinlarini ko'rib, bahri dili ochilardi.

Bir kuni Bimning oyoqlari va dumidagi junini tarab o'tirishganida, Lyusya so'rab qoldi:

- Sening dadang shu yerda, shahardami?
- Albatta. Faqat dadamni ertalab mashinada ishga olib ketisha-di, yarim tunda keltirib qo'yishadi. Dadam judayam charchaydilar. Aytishlaricha, «asablari chidab bo'lmas darajada qaqshab» ketgan-mish.

– Oying-chi?

– Oyim doimo band. Har doim. Bir qarasang kir yuvuvchi ayol, bir qarasang farroshlar keladi, telefon tinimsiz jiringlaydi – bir daqqa ham tinim bilmaydilar. Hatto ota-onalar yig'ilishiga borishga ham vaqtlari yo'q.

– Qiyin ekan, – xo'rsinib qo'ydi Lyusya, ko'zlari ma'yus tortib. U doimo o'zining ota-onasini o'ylagani uchun ham Tolikka shu savolni bergandi. U gapida davom etdi. – Mening dadam va oyim judayam uzoqda. Samolyotda uchib ketishgan. Biz buvim ikkovimiz yashaymiz... – keyin quvnoq ovozda qo'shib qo'ydi. – Bizning kuniga ikki so'm pulimiz bo'ladi.

– Xudoga shukur, yashashimizga yetyapti, – nabirasining gapini ma'qulladi Stepanovna. – Bu pulga o'nta oq non sotib olish mumkin. Bir vaqtlari qanaqangi zamonlar bo'lgandi-ki! Eslashgayam qo'rqasan. Erim, ya'ni Lyusyaning bobosini etigini bitta nonga almashganman...

– Bu qachon bo'lgandi? – hayratdan qoshini kerib so'radi Tolik.

– Fuqarolar urushi vaqtida. Ancha zamonlar burun. U paytda sizlar yo'q edingiz. Bunaqangi kunlarni sizlarga ko'rgilik qilmasin.

Tolik hayrat ila Lyusya va Stepanovnaga tikilardi. Dadalar va oyilar bolalari bilan birga yashamasliklarini, qachonlardir etikni bita nonga almashtirishganini u sirayam tushuna olmasdi.

Stepanovna bolaning nigohidan fikrlarini tushundi:

– Ha. Bizning ketishimiz mumkin emas: uyni qo'riqlash kerak... Aks holda olib qo'yishlari mumkin... Endi esa to Ivan Ivanich kelguniga qadar manavi bechorani ham asrab-avaylashimiz lozim. Axir biz Ivan Ivanich bilan qo'shnimiz-ku!

Bim Stepanovnaga tikilib, to'satdan tushunib yetdi: Ivan Ivanich bor! Faqat u qayerda hozir? Uni qidirish kerak....

Bim o'zini ko'chaga chiqarishlarini so'ray boshladi. Biroq niyati amalga oshmadi. U eshik yoniga yotib, kuta boshladi. Aftidan, bu yerdagilarning hech biriga uning keragi yo'q. Kutish! Uning hayotiy maqsadi shu. Qidirish va kutish.

Tolik «qo'shnilarmiz» deganida Stepanovna noto'g'ri gapirayotganini payqadi, biroq dastlabki uchrashuvlaridagidan farqli

ravishda bu haqda indamadi. Chunki u kampirni yaxshi ko'rib qolgan, lekin negaligini bilmasdi. Shunchaki, Lyusyaning mehribon buvisi bo'lgani uchun. Mana, Bim ham Stepanovnani yaxshi ko'radi-ku!

Tolik Bimdan so'radi:

– Bimka, sen Stepanovnani yaxshi ko'rasanmi?

Bim atrofida gilarlarning ismlarini yaxshi bilar, bolalar shippak keltirishni so'rashganida, buyruqlarini aniq bajarardi. Hozir ham u Tolikning nigohidan va Stepanovnaning tabassumidan gap kim haqida ketayotganini tushundi-da, asta kampirning oldiga borib, boshini uning tizzasiga qo'ydi.

Stepanovna ilgari itlarga befarq edi (it it-da!), Bim esa o'zining mehribonligi, ishonuvchanligi va sadoqati bilan insonning do'stini yaxshi ko'rishga majbur qildi.

Begona uydagi istarali va yoqimtoy to'rt mavjudot – uch nafar odam va bitta it. Stepanovnaning qalbi ham xotirjam va iliq edi. Qarigan chog'ida bundan boshqa nima kerak?

Oradan ko'p yillar o'tgach, Tolik osmon nastarin tusiga kirgan mana shunaqangi oqshomlarni ko'p eslaydi. Eslaydi... Biroq o'sha kuni u negadir shoshilib qoldi:

– Kechqurun soat to'qqizda uyda bo'lishim kerak. Aniqrog'i, soat to'qqizda uxlashga yotaman. Lyusya, ertaga senga rasm albomi va Chexiyadan keltirilgan rangli qalamlarni olib kelaman. Bunaqa qalamlarni bironta do'kondan, pul tugul, hatto etik evaziga ham topolmaysan! Xorijiy qalamlar!

– Rostdan-a? – quvonib ketdi Lyusya.

– Sen qayerga borishing haqida dadangga aytdingmi? – deb so'radi Stepanovna.

– Yo'q. Nimaydi?

– Aytish kerak. Bu qanaqasi, Tolik? Albatta aytgin.

– Dadam mendan so'ramaydilar. Oyim ham so'ramaydilar. Soat to'qqizda doim uyda bo'laman.

Tolik ketgach, Bim o'zini tashqariga chiqarishlarini judayam yalinib so'radi, biroq iltijosi javobsiz qoldi. Bim ularni yaxshi ko'rsa-da, lekin do'stini judayam sog'inayotganini va iztirob chekayotganini hisobga olmay, uni asrab-avaylashga urinishardi.

Ertasi kuni Tolik kelmadi. Lyusya esa u albom va pulga ham topib bo'lmaydigan qalamlarni olib kelishini rosa kutdi. Orziqib kutdi! U bir necha marta Bimga dedi:

– Tolik kelmayapti. Tolik kechikyapti.

Bim, turgan gapki, qizaloqning xavotirini tushunardi, chunki Tolikning keladigan vaqtidan ancha o'tib ketgandi. Ular Lyusya ikkovi derazadan ko'chaga qarab o'tirishar va bolaning kelishini orziqib kutishardi. Biroq Tolikdan darak yo'q edi.

«Otasiga aytgan, shekilli» deb o'yladi Stepanovna, lekin ovoz chiqarib dedi:

– Juda chatoq bo'ldi-ku... Toliksiz qiynalib qoladigan bo'ldik. Bimni kim sayrga olib chiqadi?

Lyusyaning yurakchasi siqilib ketdi, ko'ngli qandaydir noxushlikni sezgandek bo'ldi.

– Chatoq bo'ldi, – deb ma'qulladi u titroq tovushda.

Bim uning yoniga keldi, yuzini bokitgan kaftlariga qaradi, past ovozda ingillab qo'ydi (Qo'y, Lyusya, kuyinma). U Ivan Ivanich stol yonida o'tirib, tirsagini stolga tirashini, ba'zan kaftini yuziga bosishini esladi. Bim bunaqangi paytlarda doimo egasining yoniga kelar, u esa itning boshini silab: «Rahmat, Bim, rahmat», – derdi. Mana, Lyusya ham shunday qildi: qo'lini yuzidan olib, Bimning boshini siladi.

– Ana, bo'ldi, Lyusenka, bo'ldi. Nega yig'laysan-a? Tolik keladi. Xavotirlanma bolajonim, u albatta keladi. Tolik keladi, – nabirasiga tasalli berardi kampir.

Bim xuddi «Tolik keladi. Yur, uni qidiramiz» degandek cho'loqlanganicha eshik yoniga yaqinlashdi.

– Tashqariga chiqqisi kelyapti, – dedi Stepanovna. – Men uni tushuna boshladim. Tashqariga chiqarmaslik mumkin emas, axir u ham tirik jon...

Lyusya iyagini tepaga sal ko'tarib qo'ydi-da, o'ziga o'xshamagan qat'iy ovozda dedi:

– Bimni aylantirgani o'zim olib chiqaman.

Stepanovna to'satdan qizaloqning kun emas, soat sayin ulg'ayib borayotganini payqab qoldi. Tolikning kelmaganidan uning ham ko'ngli og'ridi.

...Ko'chada it yetaklagan qizaloq ketib borardi. Uning qarshisidan uch nafar bola chiqib qoldi.

– Hoy qiz, hoy qiz! – deb bidirladi sepkildor, mallasoch bola. – Iting o'g'il bolami yoki kapalakmi?

– Ahmoq! – qisqagina javob qaytardi Lyusya.

Bolalar Lyusya bilan Bimni o'rab olishdi, qizaloq umrida birinchi marta to'qnash kelgan bunaqangi surbetlikdan yig'lab yuborayozdi. Biroq shu payt Bim boshini egganini, yelkasida tuklari tikrayotganini sezib qoldi-yu, kutilmaganda dadillashib ketdi va ovozinig boricha o'shirdi:

– Yo'qolinglar bu yerdan!

Bim shunaqangi vovulladiki, bolalar boshi oqqan tomonga tiraqaylab qochishdi. Sepkildor bola esa xavfsiz masofaga borib olgach, o'zining qo'rqqani alam qilib, chinqirdi:

– Hoy! Hoy! It yetaklagan qiz! Vijdonsiz! Hoy!

Lyusya kuchining boricha uyi tomon yugurdi. Turgan gapki, Bim undan ortda qolmadi. U hayotida ilk bor yomon sepkildor bolani uchratgan edi.

Shu voqeadan so'ng yana oldingidek Bimning bir o'zini sayrga chiqara boshlashdi. Avvaliga Lyusya uning ortidan chiqar, muyulishda turar va o'g'il bolacha hushtak chalib, itning uzoqqa ketib qolmasligini nazorat qilardi. Keyin Stepanovna uning bir o'zini erta saharda chiqarib yubordi. Shundan so'ng u bir o'zi sayr qiladigan, kechqurun qaytib kelib, ishtaha bilan ovqatini yeydigan bo'ldi.

Buni qarang-a! Bir kuni chorrahada, tramvay izini kesib o'tadigan joyda kimdir uni chaqirib qoldi:

– Bim!

Bim atrofiga alangladi. Tramvay oynasidan haydovchi ayolning boshi ko'rindi:

– Salom, Bim!

Bim yugurib borib, ayolga panjasini uzatdi. Bu Bim bilan egasini ovga olib boradigan avtobus bekatigacha eltib qo'yadigan dunyodagi eng mehribon ayol edi. O'sha ayol!

– Bim, Ivan Ivanichni anchadan beri ko'rmayapman-a? Nima, egang kasal bo'lib qoldimi?

Bim titrab ketdi: balki bu ayol egasi qayerdaligini bilar, ehtimol uning oldiga ketayotgandir?

Tramvay joyidan qo'zg'alganida, Bim zinadan sakrab unga chiqib oldi. Yo'lovchi ayol ovozinig boricha chinqirib yubordi, bir erkak «Yo'qol!» deb o'shqirdi, kimlardir kulishdi, boshqalari Bimga hamdardlik bildirib, nimalardir deyishdi. Haydovchi ayol tramvayni to'xtatdi, kabinasidan chiqdi, yo'lovchilarni tinchlantirdi (Bim buni aniq tushundi) va Bimga dedi:

– Tush, Bim, tush. Mumkin emas, – uni yengilgina turtib, qo'shib qo'ydi. – Egangsiz mumkin emas. Ivan Ivanichsiz mumkin emas.

Nimayam qilsin, mumkin bo'lmasa, mumkinmas-da! Bim yerga cho'nqaydi, ozroq o'tirdi, keyin tramvay ketgan tomonga yugurib ketdi. Bu yerdan u egasi bilan birga o'tgan, bu yerdan ham, manavi minoraga qayriladigan, navbatchi militsioner turadigan joydan ham!

Bim tramvay izi yoqalab yugurib borar, lekin hatto muyulishlarda ham uni kesib o'tmasdi. Militsioner hushtak chaldi. Bim yugurib ketayotgan joyida o'girilib qaradi va yo'lida davom etdi. U militsionerlarni hurmat qilardi: bunaqangi odamlar uni biron marta ham ranjitishmagan. U o'zining ilk bor militsiya bo'linmasiga olib kelishganini eslardi. Hammasini eslardi. Aqlli it. U yerdan Dasha bilan birga uyiga ketishgan va hammasi yaxshilik bilan tugagandi. Bundan tashqari, u militsionerni qop-qora, judayam jiddiy ko'rinadigan it bilan birga uchratgan, bir safar piyodalar yo'lagida u bilan tanishgandi ham. Ivan Ivanich va militsioner itlarning bir-biriga yaqin kelishiga va to'yib suhbatlashib olishlariga yo'l qo'yib berishgandi.

«Undan o'rmon hidi kelyapti», – dedi qora it militsionerga qarab.

– Kecha ovga bordik, – tasdiqladi Ivan Ivanich.

«Judayam pokiza ekansan!» – dedi Bim, qora itni hidlab bo'lganidan keyin.

«Bo'lmasa-chi! Ishim shunaqa!» – cho'ltoq dumini likillatib qo'ydi qora it.

Ular do'stlashganlarining belgisi sifatida bitta daraxtning tagida dastxat ham qoldirishdi.

Yo'q, militsioner yaxshi odam, u itlarni yaxshi ko'radi, bu bora-da Bimni aldash mumkin emas.

Bim tramvay yo'li yoqalab yugurib ketar, chunki temir izlarni bosish mumkin emasligini, ular panjasini qisib qolishi mumkinligini unutmagandi.

Tramvay yo'li doira bo'lib tugadi va Bim bekat yonida turib qoldi. Atrofini kuzatib ancha o'tirdi: bu yerdagi odamlarning bari yaxshi edi. Shunday. Shuning o'ziyoq yaxshi. Bu yerda ular Ivan Ivanich bilan ko'chani kesib o'tishgan va taxtacha osilgan ustun-ning yonida turishgandi. Bim shoshilmaygina o'sha tomonga bordi va avtobus kutayotgan odamlarning yonida cho'nqayib o'tirdi. Atrofiga nazar soldi: yomon odamlar ko'rinmayapti.

Avtobus kelganida odamlar navbati bilan unga chiqishdi, Bim esa barcha kamtarin itlar singari hammadan keyin zinadan ko'tarildi.

– Hoy, qayoqqa? – qichqirdi haydovchi. U to'satdan Bimga tikilib, ming'irladi: – Shoshma-chi, sen ko'zimga tanish ko'rinyapsan.

Bim u egasining qo'lidan qog'ozcha olgan do'sti ekanligini tushundi. Dumini likillatib qo'ydi.

– Voy, itvachcha-ey, eslarkansan-a! – xitob qildi haydovchi, keyin o'ylab turib, Bimni kabinaga chaqirdi: – Yonimga kel!

Bim haydovchiga xalaqit bermaslik uchun kabina devoriga taqalib o'tirarkan, aynan shu haydovchi ularni o'rmongacha, ovga olib borganini eslab, hayajonini bosolmasdi.

Avtobus pishillaganicha yo'lda ketib borardi. Doimo Bim va Ivan Ivanich o'rmonda tushadigan bekatga yetgandagina, avtobusning ovozi o'chdi. Shu payt Bim qizishib ketdi! U xuddi «Meni chiqarib yuboring. Shu yerga borishim kerak» degandek asta ingillab, kabina eshigini tirnay boshladi.

– O'tir! – o'shqirdi haydovchi.

Bim bo'ysundi. Avtobus yana pishqirib yo'lga tushdi. Yo'lovchilardan biri haydovchining oldiga yaqinlashib, Bimga ishora qilib so'radi:

– Sening itingmi?

– Meniki, – javob berdi u.

– O'qiganmi?

– Unchalik emas... Biroq aqlli it. Ko'ryapsanmi? Qara. Yot!

Bim yotdi.

– Balki itingni sotarsan? Mening itim o'lib qoldi. Men cho'ponman, qo'ylaringa qaraydigan it kerak.

– Sotaman.

– Qancha so'raysan?

– Choraktalik.

–Voy-bo'! – dedi yo'lovchi va nari ketarkan, Bimning qulog'ini silab qo'ydi-da, dedi: – Yaxshi it!

Egasi aytadigan bu so'zlar Bimga yaxshi tanish edi. U notanish odamga dumini likillatib qo'ydi.

Bim endi qayoqqa ketayotganini bilmasdi. Biroq u avtobusning oldingi oynasidan qarab, yo'lni eslab qolardi. Itlar ilk bor yangi joydan yurishganida doim shunday qilishadi. Hech qachon ortga qaytadigan yo'lni unutma! Insonlardagi bunday qobiliyat asrlar davomida butunlay yoki qariyb yo'qolib ketgan.

Vujudidan giyohlarning hidi anqib turgan yaxshi odam bekatlarning birida avtobusdan tushdi. Haydovchi ham Bimni kabinada qoldirib, avtobusdan tushdi. Bim undan ko'zini uzmay kuzatib turardi. Mana, haydovchi Bim tomonga ishora qildi, qo'lini Yaxshi odamning yelkasiga tekkizdi. U esa jilmayib cho'ntagidan qog'ozchalar chiqardi, ularni haydovchiga uzatdi, keyin yo'lxaltasini yelkasiga ilib, avtobus kabinasiga ko'tarildi, kamarini yechib Bimning bo'yinbog'iga bog'ladi-da:

– Qani, ketdik, – dedi. Avtobusdan bir necha qadam uzoqlashganidan so'ng, ortiga o'girilib so'radi. – Hoy, itingni laqabi nima o'zi?

Haydovchi savolomuz nigoh bilan oldin Bimga, keyin xaridorga qaradi va shartta dedi:

– It.

– Bu it seniki emas-a? Rostini ayt!

– Meniki, meniki, rost aytyapman, – dedi haydovchi va avtobusini haydab ketdi.

Shu tariqa Bim pulga sotib yuborildi.

U qandaydir yomon ishlar bo'layotganini tushunib turardi.

Biroq vujudidan giyohlarning hidi anqiyotgan kimsa yaxshi odamligi aniq edi, shuning uchun Bim sarosimaga tushgan va ma'yus holda u bilan birga ketaverdi.

Ancha yurganlaridan so'ng o'sha odam kutilmaganda Bimga o'girilib, dedi:

– Yo'q, sening laqabing It emas. Itni bunday chaqirishmaydi. Mayli, egang topilib qolsa, senga to'lagan o'n besh so'mimni qaytarib berar, to'g'rimi?

Bim xuddi «Hoy odam, gapingni tushunmayapman» degandek boshini yonga solintirgancha, yaxshi odamga tikildi.

– Sen, og'ayni, judayam aqlli, yaxshi itsan.

Mana, u egasi tez-tez qaytaradigan so'zlarni aytdi. Endi Bim erkalatgani uchun minnatdorlik ramzi sifatida dumini likillatib qo'ydi.

– Mayli, nimayam qilarding, men bilan yashayver, – xulosa chiqardi yaxshi odam.

Ular yana yo'lda davom etishdi. Yo'lda Bim ikki marta oyog'ini yerga tirab, bo'yinbog'ini tortdi va nigohi bilan orqaga ishora qildi («Qo'yib yubor, mening yo'lim bu yoqqa emas»).

Yaxshi odam to'xtadi, itni siladi, ko'ndirishga urindi:

– Ozgina qoldi... Ozgina qoldi...

Bim esa bo'yinbog'iga bog'langan kamardan qutulolmasligini tushunib, iltimos qilishni to'xtatdi.

Ular oldin o'rmon ichidan ketishdi. Yalang'och, sovuq, ayozdan tinchib qolgan daraxtlar o'ychan va jim turishar, o'rmondagi o'tlar sarg'aygan, qurigan, yerga yotib qolgan, zerikarli edi. Bimning vujudini sog'inch qamrab oldi.

Keyin yerni xuddi gilamdek qoplab olgan, yumshoq va quvnoq kuzgi bug'doy maysalari oralab ketishdi. Bu yerda Bimga sal yengillashdi: kenglik, sarhadsiz osmon, yonida ketayotgan odamning quvnoq hushtak chalishi – bular bari Ivan Ivanich borligida yaxshi edi.

Yo'l bilqildoq qumlar orasidan o'ta boshlaganida, yana zerikarli bo'lib qoldi. Bu yerlarda tuproq qoramtir-kulrang bo'r donachalari aralash changdan iborat, jonsiz, zaif bo'lib, bilqillab turardi.

Yaxshi odam yo'l chetiga chiqdi, poshnasi bilan bilqildoq tuproqni tepkiladi va xo'rsinib qo'ydi.

– Ish chatoq, og'ayni, – dedi u Bimga. – Yana bir-ikki marta qora bo'ron o'tsa, bu yerlar adoyi tamom bo'ladi. Ish chatoq, og'ayni...

«Ish chatoq, og'ayni» degan so'z Bimga yaxshi tanish edi. Ivan Ivanich ko'pincha shunday der, bu tushkunlik, chorasizlikni yoki «nimadir noto'g'ri ekanligi»ni bildirardi, «qora bo'ron» so'zini esa o'ziga noma'lum bo'lgan mavhum xavf sifatida qabul qildi. Biroq buning yerga nima daxli borligini Bim tushuna olmadi. Yaxshi odam buni tushunib qoldi.

– To'g'ri, sen – itsan, bunaqa narsalarni tushunmaysan. Biroq bularni kimgayam aytardim? Mana, senga, qoraquloqqa hasrat qilyapman... Shoshma-chi! – U Bimga tikilib qoldi, keyin qo'shib qo'ydi. – Mayli, sen Qoraquloq bo'laqolgin. Qoraquloq degani itlarga yarashadi. Oting ham o'z-o'zidan paydo bo'ldi.

Nima bo'libdi? Hali qishloqqa yetmasdan turib, Bim o'zining endi Qoraquloq ekanligini tushundi. Yaxshi odam erkalatgan ohangda bir necha marta «Qoraquloq, bu yaxshi» yoki «Barakalla, Qoraquloq, yaxshi ketyapsan» deb takrorladi.

Shu tariqa, odamlar pul evaziga Bimning nomini ham sotib yuborishdi. Yaxshiki, Bim buni bilmas, o'sha qog'ozchalar evaziga or-nomusi va yuragini ham qo'shib sotib yuborishlaridan bexabar edi. Buni bilmagani itning baxti, albatta!

Biroq Bim endi o'zining laqabini unutishi kerak edi. Nimayam qilsin, shunday bo'lishi kerak ekan-da... Faqat u do'sti Ivan Ivanichni unutilmasdi. Garchi hayoti boshqacha tus olgan, o'tmishiga sira o'xshamasa-da, u yagona do'stini unutilmasdi.

O'n birinchi bob

QORAQULOQ QISHLOQDA

Bim o'zini olib kelishgan qishloqni ko'rib, hayratda qoldi. Bu yerda ham odamlar yashar, biroq hamma narsa u tug'ilib-o'sgan joydagidan farq qilardi. Shundoqqina yerda joylashgan uylar kichikkina, hech qanaqangi zinapoyalar, yo'laklar yo'q, eshiklarning

qulflari shiqirlamaydi. To'g'ri, tunda eshikni ichkaridan surma zulfin bilan qulflashadi. Barcha uylar oqish-kulrang tusli qovurg'ador taxtachalar bilan qoplangan. Ertalab ayni bir vaqtda barcha uychalarning mo'risidan osmonga tutun o'rlaydi. Biroq bu uylar hech qayerga ketishmaydi va uchishmaydi ham, balki qatorlashib turishadi va tinchgina, shovqin-suronsiz tutun purkashadi.

Bim (endi Qoraquloq) uchun eng hayratlanarlisi shu bo'ldiki, bu yerda odamlar bilan birga turli jonivorlar va parrandalar: sigirlar, tovuqlar, g'ozlar, qo'ylar, cho'chqalar yashar ekan. Odamlar yashaydigan har bir uyning orqa tarafida hayvonlarning mo'jaz uychalari joylashgan bo'lib, ular ba'zan somon bilan, ba'zan esa qamish bilan yopilgan va eshilgan shox-shabbalardan yasalgan pastakkina to'siq bilan o'ralgan bo'lardi. Hech kim hech kimga – na odamlar hayvonlarga, na jonivorlar insonlarga, – tegmaydi, hech kim miltiqdan o'q uzmaydi.

Birinchi kuni Bim uchun dahliz burchagiga pichan to'shab berishdi. Yaxshi odam uni arqonga bog'ladi, to'ydirib ovqatlantirdi va yomg'irpo'shini kiyib, qayergadir ketdi. Kunning qolgan yarmini Bim yolg'izlikda, sukunat va jimjitlikda o'tkazdi. Kechga yaqin u hovliga kirayotgan qo'ylarning tuyoqlari yerga urilayotganini eshitdi, bostirma ichidagi sigir cho'zib ma'radi. Tez orada yaxshi odam bir bolakay bilan birga keldi. Bola yomg'irpo'sh va etik kiygan, boshida qalpoq, qo'lida uzun tayoq, yuzlari esa yaxshi odamniki singari jigarrang tusli bo'lib, undan qo'ylarning hidi kelardi.

– Qani, Alyosha, yangi o'rtog'imiz bilan tanish, – dedi yaxshi odam bolaga.

Ular Bimga yaqinlashishdi.

– Ota, u tishlamaydimi?

– Yo'q, Alyosha, bunaqangi itlar tishlamaydi... Eh, Qoraquloq... Qoraquloq – yaxshi it!

Yaxshi odam Bimning yelkasiga qoqib qo'ydi. Bim yerda yotganicha bolani ehtiyotkorlik bilan kuzatardi. Bola uni siladi:

– Qoraquloq... Qoraquloq... – keyin katta kishiga o'girildi. – Ota, uni yechsak, qochib ketmaydimi?

– Hozircha yechmay turamiz.

Erkak uy ichkarisiga kirib ketdi. Bim o'rnidan turdi, cho'nqayib o'tirdi, bolaga panjasini uzatdi, bu bilan «Salom. Sen yaxshi odam-san», – dedi.

– Ota! – qichqirdi bola. – Ota, bu yoqqa qarang! U salomlash-yapti! Salom, Qoraquloq! – dedi bola qo'lini uzatib.

Bim yana salomlashdi. Ikkala odam ham uning xushmuomalaligini ma'qullagandek ko'rinardi. Tanishuvning mana shu dastlabki da-qiqalari Bim uchun judayam muhim edi: u o'zini bu yoqqa boshlab kelgan odamni «ota» deb chaqirishlarini, bolaning ismi esa Alyosha ekanligini bilib oldi. Hatto o'rtamiyona laychalar ham odamlarning ismini tezgina bilib olishadi, Bim esa... Unga gap bo'lishi mumkin emas. Axir u qanday it ekanligini biz bilamiz-ku!

Keyinroq, qosh qorayganda ayol kishi keldi. U juda g'alati ki-yingandi: boshiga ikkita ro'mol o'ragan, egnidagi paxtali po'stini shishib turibdi, paxtali shimi esa temiryo'lda ponamix qoqadigan mehribon ayolnikiga o'xshaydi. Faqat bu ayoldan tuproq va lavlagi hidi kelardi. Lavlagi shirin ildiz, Bim uni ba'zan xush ko'rib yerd.

Ayol uyga kirdi, erkaklar bilan nimanidir gaplashdi, keyin dar-rov qo'liga chelak olib, molxona tomon o'tib ketdi. Endi Bim yot-gan joyidan eshiklardan biri – ko'chaga, ikkinchisi – hayvonlar yashaydigan hovliga, uchinchisi esa uy ichiga ochilishini aniqladi. Biroq u eshikkacha yeta olmaydi – bo'yniga bog'langan arqon bun-ga yo'l qo'ymaydi. Hozircha Bim bilgan narsalar shugina bo'ldi, xolos.

U yana yotdi.

Hovli tomondan qo'y hidi kelardi. Qo'y nimaligini Bim allaqa-chon bilib olgan. Qo'ylar to'dalashib yashashadi, dalada yurishadi va hech qanday ish qilishmaydi, faqat ovqat yeyishadi va ba'rashadi. Ularning yonida, albatta qalin yomg'irpo'sh kiygan, uchi ilmoqli uzun tayoq tutgan odam bo'ladi. Shunaqa odamlardan biri pichan g'arami ustida dam olib o'tirgan Ivan Ivanich va Bimning yoniga kelgan, egasining qo'lini siqib, salomlashgandi. Uning yonida kat-takon, paxmoq junli iti ham bor edi. Bu it Bimni tajovuzkorona qarshilagan, u tomon shaxt bilan yugurib kelib, qattiq vovullagandi. O'shanda Bim chalqancha yotib, panjalarini tepaga ko'targan va «Nima gap? Men biron ayb ish qildimmi?» deb so'ragandi.

Uning adablliligi g'olib chiqqan, paxmoq it Bimni hidlab, qornini yalagan, keyin sal nariroqqa borib, tosh ustida dastxatini qoldirgandi. Bim ham shunday qilgandi. Bu esa tinchlik o'rnatilganini bildirardi. To Bimning egasi paxmoq itning egasi bilan gaplashib bo'lgunlariga qadar, ular quvlamachiq o'ynashgandi. O'ynayotganlarida Bim o'zining tezkor va chaqqonligini namoyish etib, yangi tanishining tahsiniga sazovor bo'lgandi. Ular ajrashishganda (egasining ortidan ketishlari kerak-ku!) esa o'sha toshni hidlab, bir-biriga qarab qo'yishgandi.

«Vaqt topib bu yerga kelgin», – dedi Bim va egasining ortidan yugurgilab ketdi.

«Eh, ishim ko'p-da...» dedi paxmoq it va boshini solintirgancha, qo'ylar suruvi tomon ketdi.

Shunday. Mana, yana qo'y hidi kelyapti. Bim xavotirga soluvchi bu hidlar orasida Ivan Ivanichni eslay olmadi. Begona uyda, begona dahlizda, nim qorong'ilikda odamlarsiz yotishdan yuragi siqilib ketdi.

Keyin u bir maromda eshtilayotgan «Shir-shir! Shir-shir!» degan tovushni ilg'adi. Bu «Shir-shir!» degan tovush nimaligini Bim bila olmadi. Notanish tovush tezgina tindi, keyin hovlidan chelak ko'targan ayol kirdi. Chelakdan sut hidi kelardi. Juda qattiq anqirdi! Bu butunlay o'zgacha bir hid bo'lib, shaharda Bim bunaqasini sira payqamagan, shunga qaramay, bu sutning hidi ekanligi aniq edi. Shahardagi sutdan inson qo'llarining hidi, turli yoqimli giyohlarning bo'yi va sigir isi kelmasdi. Bu yerda esa shularning bari qo'shilib, ko'ngillarga yoquvchi ajabtovur ifor paydo qilgandi. Bahslashib o'tirmaymiz: inson ba'zan sutni «sut»dan ajrata olganidan keyin, qanday qilib o'ta kuchli sezgiga ega bo'lgan Bim inson qo'llarining hidi gullar va giyohlarning isiga qorishib ketganini payqay olmasin? Shu sababli ham u o'rnidan sakrab turdi-da, ayolga dumini likillatib qo'ydi. To'g'ri, u Bimning zavq-shavqini tushunadigan holatda emasdi.

Uzoq to'rt yillik umri davomida u sigirni qanday sog'ishlarini ko'rishga muyassar bo'lmagandi. Sutdan esa sigir hidi kelardi. Bimda qandaydir mavhumlik qoldi: har holda u nimanidir bilmasa

kerak. Umuman olganda, itlar ko'p narsani bilishlari shartmi? Buning uyaladigan joyi yo'q. Agar uchragan it o'zining hamma narsani bilishiga, nimani qanday qilishni, qayoqqa yugurish kerakligini bilishiga ishonchi komil bo'lsa, unga hatto tovuq ham ishonmaydi. Vaholanki, shunaqangi itlar ham bo'ladi. Masalan, skoch-teryerni oling: u o'zining g'ishtdek keladigan boshini turli g'oyalarga to'ladek qilib ko'rsatadi (soqol, uzun mo'ylovlar va qoshlar! faylasuf!), aslida esa kaltafahm, hukmfarmo, kunuzukun egasini yomonlaydi, mug'ambirlik qiladi. Bundan nima foyda chiqadi? Hech qanday! Tashqi ko'rinishi yaltiroq, ichi esa qaltiroq!

Yo'q, Bim – boshqa gap: u samimiy va sadoqatli it. Nimanidir bilmasa, buni darrov anglatadi: bilmagan narsamni bilmayman-da! Kimnidir yoqtirmasa, buni ochiq aytadi: «Sen yomon odamsan! Yo'qol bu yerdan! Vov!» Ba'zan shunaqangi vovullaydiki, eshitganining o'takasi yoriladi!

Bim qayerdandir shunaqangi benazir sut topib keladigan ayolni hurmat qilmasligi mumkin emasdi. Shu sababli ham u ayol chelak ko'tarib kirib ketgan eshikdan ko'zini uzmay qarab yotardi.

Mana, kimdir ko'cha tarafdin keldi va eshikni lang ochdi.

«Kimsan? – shaxt bilan so'radi Bim. – Vov!».

Kirgan odam qo'rqib ketganidan dahlizdan hovliga qochib chiqdi. Uy ichidan bolakay chiqdi, chiroqni yoqdi va so'radi:

– Kimsiz?

– Men, brigadirman, – javob qildi notanish odam.

Keyin u dahlizga kirdi, ular bir-birining qo'lini qisishdi (demak, ular – do'stlar, vovullash mumkin emas) va Bimning yoniga yaqinlashishdi.

Ota cho'nqayib o'tirdi, Bimni siladi va dedi:

– Barakalla, Qoraquloq. O'z ishingni bilarkansan. Barakalla. Yaxshi it!

U Bimning arqonini yechdi va xonaga kiritdi.

Eng muhimi, xonada cho'loq tovuq ham bor edi. Bim uni nishonga oldi, old oyog'ini ko'targanicha qotib qoldi, biroq uning ishonchsizlik bilan boqayotgan nigohi «Bu qanday qush? Bunaqasini ilgari ko'rmaganman...» derdi.

– Brigadir, uni qara! – xitob qildi ota. – Qoraquloq hamma ishga mohir, tilla it ekan-kul!

Tovuq Bimga mutlaqo e'tibor bermagani bois u cho'nqayib o'tirdi, shundayam zimdan parrandaga qarab-qarab qo'yardi, bu itlar tilidagi qisqa va serma'no «Buni qara-ya... Kekkayishini-chi!.. Hali qarab tur!» deganini anglatardi. Keyin u xonada o'tirganlarga nigoh tashladi.

– Tovuqlarga ham tegmas ekan! – zavqlanib dedi Alyosha.

Bim bolaning yuziga diqqat bilan tikilardi.

– Ko'zlarini qarang! Oyijon, ko'zini ko'ring! Xuddi odamning ko'ziga o'xshaydi, – quvonchini yashirolmasdi Alyosha. – Qoraquloq, yonimga kel...

Samimiy quvonchni ko'rgan Bim unga javob qaytarolmaydimi? U Alyoshaga yaqinlashib, uning yoniga o'tirdi.

Dasturxon ustida suhbat qizidi. Ota shisha idishni ochdi, ayol ovqat keltirdi. Brigadir qadahdagi suyuqlikni oxirigacha ichdi. Ota ham. Ona ham. Alyosha negadir ichmas, faqat dudlangan cho'chqa go'shti bilan non yerd. U yerga bir burda non tashladi, biroq Bim joyidan qo'zg'almadi («Ol!» deyishi kerak edi).

– Non yemaydigan ziyoli it ekanmi? – luqma tashladi yuzlari qizarib ketgan brigadir.

Tovuq cho'loqlanib kelib, Bimga atalgan non bo'lagini olib qochdi. Hamma kulib yubordi, Bim esa Alyoshaga diqqat bilan tikildi: agar do'stona muhitda ham o'zaro tushunish bo'lmasa, kulgiga o'rin qolmaydi.

– Shoshma, Alyosha, – dedi ota, keyin bir bo'lak nonni yerga qo'yib, tovuqni haydab yubordi-da, Bimga dedi. – Qoraquloq, ol! Ol!

Garchi qorni to'q bo'lsa-da, Bim mazali nonni lazzatlanib yedi. Brigadir yerga dudlangan cho'chqa go'shti bo'lagini qo'ydi.

– Mumkin emas! – ogohlantirdi u.

Bim tegmadi. Tovuq cho'loqlana-cho'loqlana dudlangan cho'chqa go'shtiga yaqinlashgandi, Bim uni burni bilan turtgudek bo'lib pishqirib qo'ydi. Tovuq cho'loqlanganicha karavot ostiga kirib ketdi. Bu judayam kulgili manzara edi.

– Qoraquloq, ol! – ruxsat berdi brigadir.

Bim cho'chqa go'shtini yedi.

– Bas! – to'satdan qichqirdi ota. U qizarib ketgan, yanada mehribonlashib, qattiq-qattiq gapirardi. – Qoraquloq – tabiat mo'jizasi!

Shunday deb, u Bimni quchoqlab oldi. «Yaxshi odamlar» deb o'yladi Bim. Unga otaning yumshoq, mayin mo'ylovi ham juda yoqdi.

Odamlarning keyingi gap-so'zlaridan Bim faqat bittagina «qo'ylar» degan so'zni angladi, biroq ikki erkakning bahslashayotganini darrov tushundi.

– Xristian Andreyevich, kel, ishga o'taylik, – dedi brigadir qo'lini otaning yelkasiga qo'yib. – Qo'ylar ovqat yeyishni xohlashadimi yoki yo'qmi?

– Xohlashadi, – dedi ota. – Faqat mening ishlash muddatim tugadi. Men Pokrov kuni³gacha ishlashim kerak edi. Pokrov kuni esa o'tib ketdi.

– Bular shaxsiy qo'ylar, davlatniki emas va ular ovqat yeyishni xohlashadi. «Qor yoqqani yo'q, oyoqosti to'la ovqat, qo'ylar to qor tushgunicha dalada boqilishi kerak» deyaverib, odamlar quloq-miyamni yeb yuborishdi. To'g'ri aytishadi ham!

– «Qo'ylar to qor tushgunigacha dalada boqilishi kerakmi?» Nima, men senga temirdan yasalganmanmi? Alyosha ham temir odammi?

– Qor tushgunicha, Xristian Andreyevich, – ta'kidladi brigadir. – Ikki barobar haq to'laymiz. Tushunding-a?

– Boqmayman! – gapida turib oldi ota. – Lavlagizorda ishlayverib, xotinimning jigar-bag'ri ezilib ketyapti, sen bo'lsa «Qor tushgunicha» deysan!

Oxiri ular rozi qiyofada bir-birining qo'lini qisishdi va «qo'ylar qor tushgunicha boqiladi» deyishni bas qilishdi. Keyin Bim haqida unutishdi-yu, uchovlashib brigadirni eshik oldigacha kuzatib qo'yishdi.

Nimayam qilsin, u ham eshik oldiga chiqdi, hovlini gir aylanib yugurdi, shox-shabballardan to'qilgan to'siq yonida ozgina turdi, qo'ylarning hidini olib, ular bilan bog'liq yagona sevimli do'sti

³ Sharqiy slavyan xalqlari taqvimida 1(14)-oktabrga to'g'ri keladigan kun.

haqidagi xotiralarni esladi. Keyin taraddudlanganicha hovlida o'tirib qoldi.

Tun. Qishdan yashirinib qolgan, biroq uni qarshilashga tayyor qishloqda zim-ziyo kuz tuni edi. Bim bunday tunlar haqida bilmasdi. Itlar tunda sayr qilishni yoqtirishmaydi (odamlarga ishonchini yo'qotgan, ulardan o'zini olib qochadigan daydi itlar bundan istisno), Bim esa... Nimayam deyish mumkin! Bim hozircha shubhalanardi. Faqat Alyoshaning juda yaxshi mitti odamchaligini bilardi, xolos.

Uning shubhalarini Alyoshaning ovozi bo'ldi. U xavotirlanib, bor ovozida chaqirdi:

– Qoraquloq-q!

Bim yugurib kelib, dahlizga kirdi. Alyosha uni joyiga yotqizdi, biqini tagiga pichan tiqib qo'ydi, erkalatib siladi va uxlagani ketdi.

Hamma yoq sukunatga cho'mdi. Na tramvay, na trolleybuslarning shovqini, na avtomobillarning cho'ziq bibiplashlari eshitilmasdi.

Yangi hayot boshlandi.

Bugun Bim yaxshi odamni ham ota, ham Xristian Andreyevich deyishlarini, ayolning esa ham ona, ham Petrovna ekanligini, Alyosha bo'lsa shunchaki Alyoshaligini bilib oldi. Tovuqdan esa nafratlanmasa-da, uni hurmat qilmadi. Uning itlik dunyoqarashi bo'yicha qushlar, albatta, uchishlari lozim, bu esa faqat yerda yuradi, shuning uchun ham xuddi qanotsiz va nuqsonli parranda sifatida hurmat qilishga munosib emas. Biroq qo'ylar boshqa gap: ular Ivan Ivanichni eslatishadi, Alyoshadan ham qo'y hidi keladi... Petrovnadan – tuproq va lavlagi isi anqiydi... Bunday hidlar esa Bimni doimo hayajonga soladi. Balki Ivan Ivanich bu yoqqa kelar...

Issiq dahlizning dimligi elitgan Bim uxlab qoldi. Beixtiyor kayfiyat ko'tarilib ketadigan bunaqangi dahlizda hatto inson ham qotib uxlab qoladi. Yangi pichan hididan esa moviy tushlar ko'radi. Bimning sezgilari insonnikidan ancha kuchliroq edi, shu bois bu hidlarning har bir nozik ifori uni tinchlantirar, yuragidagi sog'inchni kamaytirardi.

Bim xo'roz qichqirishidan uyg'onib ketdi. U xo'rozning ovozini tanir, bir necha marta qulog'iga chalingan, biroq sirayam bunchalik

yaqindan eshitmagandi. Bu esa shundoqqina devor ortidan cho'zib, tantanavor ovozda «Qu-qu-qu!» deb qichqirardi. Unga qishloqdagi boshqa xo'rozlar jo'r bo'lishdi (birozdan keyin Bim u xo'rozlarning tonggi qo'shiqlarini boshlovchisi ekanligini bilib oldi, odatda bunday xo'rozlar judayam jahldor bo'lishadi). Bim qishloq uzra to'lqindek mavjlanayotgan, navbat kimga berilganiga qarab, goh uzoqlashib, goh yaqinlashayotgan bu ajoyib musiqani tinglab, cho'nqayib o'tirardi. Eng oxirida qandaydir zaifgina xo'roz qichqirig'iga ham o'xshamaydigan bo'g'iq ovozda qisqagina ququlab qo'ydi. Vaqti kelib, Bim bunaqangi xo'rozlar qo'rqoq bo'lishlarini, garchi parrandalar yotoqxonasining qoidasiga ko'ra o'ziga ishonib topshirilgan tovuqlarni himoya qilishi kerak bo'lsa-da, hovliga kirib qoladigan begona xo'rozlardan ham cho'chib qochib ketishlarini bilib oldi. O'takasi yorilib, qochib ketadi. Biroq aynan shunaqangi xo'rozlar begona jo'jalarga nisbatan shafqatsiz bo'lishadi va ayamay cho'qib tashlashadi. O'zini hurmat qiladigan har qanday xo'roz hech qachon adashib qolgan jo'jani cho'qimaydi.

Bim joyiga yotdi va mudrab ketdi. Kutilmaganda yana qishloq uzra xo'rozlarning qo'shiqlari yangradi. Bim yana turib o'tirdi va maroq bilan tinglay boshladi. Xo'rozlarning uchinchi qichqirishi yanada balandroq, jarangdorroq va tantanavorroq yangradi! Eh, zo'r qo'shiq aytishyapti-ya! Qoyilmaqom! Bim jo'r bo'lib kuylayotgan qo'shiqchilar qishloqdagi parrandachilik fermasida yashovchi, patlari qordek oppoq, o'ziga ishonchi baland ko'rkam xo'rozlar ekanligidan hozircha bexabar edi. Qaniydi, dahlizga qamab qo'yilgan bo'lmaganida, albatta, yugurib borib, bunday mo'jizani yaqindan tomosha qilgan va tinglab kelgan bo'lardi. Biroq dahliz uning qafasi edi.

Kulrang kuz tongining bir tutam yorug'i eshik tirqishidan sirg'alib kirdi. Bim o'rnidan turdi, dahlizni tekshirib chiqdi: bir burchakdagi yog'och qutiga don to'latilgan, narigi burchakka – jo'xori so'talari, uchinchisiga esa karam boshlari uyib qo'yilgan. Shu, xolos.

Petrovna chelak ko'tarib chiqdi. Bim u bilan salomlashdi. Ayol hovliga chiqdi, Bim unga ergashdi. Ayol sigir yoniga o'tirdi, Bim undan sal nariroqqa joylashdi. Sut oqimlari chelakka jaranglab uri-

lar, ajablangan Bim esa oldingi panjalarini silkitardi: sut! Nimandir tinmay chaynayotgan sigir qimirlamay turar, u xuddi jo'mraklari ochilib ketgan chiroyli va yoqimtoy sut idishiga o'xshardi.

Petrovna sog'ishni tugatdi, Bim (Qoraquloq)ni chaqirdi, uning yalog'iga sut quydi-da, «Mumkin emas» dedi. Keyin «Ol!» dedi-da, xandon otib kulganicha uyga kirib ketdi.

Oh, xudoyim-ey, bu qanday sut edi-ya! Iliqqina, xushbo'y, o't-o'lanlar, gullar va dalaning hidi mujassamlangan, bundan tashqari oddiy inson emas, balki Petrovnaning qo'llarini isi anqiydi! Bim sutni ichib, idishni yalab ham qo'ydi, keyin hovlini tekshirgani yo'naldi. Sigir uni to'liq ishonch bilan qarshiladi, hatto boshini yaladi. Bim tilini sigirning g'adir-budur, sut hidi anqiyotgan tumshug'iga tegizdi. To'siq ortidagi qo'ylar xuddi unga dag'dag'a qilayotgandek tuyoqlari bilan yer tepinishardi. Biroq Bimning tajovuzkorona niyati yo'qligini tushunganidan so'ng qo'ylar tinchib qolishdi. Cho'chqa va ikkita cho'chqacha dastavval unga e'tibor ham berishmadi, shunchaki o'zaro xurillab qo'yishdi, boshlarini Bim tomonga qilib panjara yonida cho'zilib yotgan bo'lishsa-da, qimirlashmadi ham. To'rtoyoqlilar uni shunday qarshilashdi. Biroq tovuqlar boshqa gap! Aniqrog'i, tovuqlar emas, balki qizil xo'roz. U jahl bilan «Qu-qu-qu!» deb qichqirganicha qanotlarini shapillatib qoqdi-da, qo'nog'idan o'qdek uchib tushdi va xuddi kalxatdek shaxt bilan Bimga otildi. Alvonrang tojli qizil xo'roz ko'ksi bilan itga urilib, tirnoqlarini ishga soldi (shunaqangi xo'rozlar ham bo'ladi). Bim unga javoban irilladi va panjasi bilan qattiq urdi. Xo'rozning qanotlari shalpayib osilib qoldi, u boshini egib, hovli chekkasida to'planib, tomoshabin bo'lib turgan tovuqlar tomon yugurdi. Xo'roz oldin Bim tomon xuddi qahramondek otilgan bo'lsa, endi xo'rlanib, kamsitilib qochib ketardi. Axir u «Hozir bir adabini beraman! Mana ko'rasizlar!» deb qichqirgandi. Tovular bir ovozdan xo'rozni maqtashardi. Endi nima bo'ldi, dersiz? Bim xo'rozga tikilarkan, unga hurmati oshayotganini sezdi. Nima bo'lganida ham, Bim shu paytgacha itga bunaqangi mardonavor hujum qila oladigan qushni ko'rmagandi. Shuning o'zi ham katta gap.

– Nima to‘polon?! – deb xitob qildi Xristian Andreyevich dahlizdan hovliga chiqarkan, keyin tovuqlarni haydadi. – Yo‘qolinglar! Itdan qo‘rqib o‘tiribsizlarmi, tovuqmiyalar?!

U Bimning bo‘yinbog‘idan ushlab tovuqlarning oldiga olib bordi, birpas o‘ylanib turdi-da, keyin itni qo‘yib yubordi.

Bim tovuqlarga orqa o‘girdi: ular bilan teng kelarmidi! O‘shandan beri xo‘roz va tovuqlar itga yaqinlashishmaydi. Ortiqcha qo‘rqishmaydi-ku, biroq yo‘llaridan Bim chiqib qolsa, qoqog‘lab, chetga burilib ketishadi. Bimga nima? Tovular shunchaki yurishadi, uchishmaydi, suzishmaydi ham, hech kim ularni ovlamaydi, demak ular qush emas, balki shunchaki kulgili mavjudotlar, xolos. Xo‘roz esa boshqa gap: tomga uchib chiqadi, begonalar kelganini Bimdan oldinroq xabar qiladi, tovuqxonani munosib boshqaradi – chuvalchangni o‘zi yemaydi, balki qo‘l ostidagilarini chaqiradi, hatto bo‘lib ham beradi. Demak, bu xo‘roz o‘zining nomiga judayam munosib.

Bimni bir hafta mobaynida hovlidan tashqariga chiqarishmagani bois, u o‘z-o‘zidan bu yerda boshliq bo‘lib qoldi. U hovlining o‘rtasida yotib, atrofni ko‘zlari bilan kuzatardi. To‘rtinchi kuniyoq u tovuqlarning hammasini ko‘rinishidan taniydigan bo‘lib qoldi. To‘siqdan begona tovuq uchib tushsa, uni shunaqangi tiraqaylatib quvardiki, bechora xalloslab, qayoqqa qochishini bilmay qolardi. Bu judayam kulgili bo‘lard!

Cho‘chqachaning o‘zi u bilan tanishgani keldi. U Bimga yaqinlashdi, xurilladi, nam tumshug‘i bilan itning bo‘yniga turti va oppoq kiprikli befarosatgina ko‘zlarini unga tikdi. Bim cho‘chqachaning tumshug‘ini yalab qo‘ydi. Bu cho‘chqachaga judayam yoqib tushdi: u quvonchidan sakradi-da, Bimning biqini tagidagi yerni kovlay boshladi. Bim bag‘rikenglik bilan boshqa joyga o‘tib yotdi, cho‘chqacha esa yana uning yoniga keldi, nimadir deb xurilladi (cho‘chqalar va itlar xuddi chet elliklar kabi bir-birini tushunishmaydi) va Bimning iliqqina, serjun biqiniga suyanib yotib oldi. Shu sababli sovuq kunlardan birida (dahliz eshigi kunduzi yopiq turardi) Bim ikki tarafidan isitayotgan cho‘chqachalarning o‘rtasida uxlaganiga hech kim ajablanmadi ham. Cho‘chqachalarning onasi

bunaqangi do'stlikka qarshilik qilmas, har safar Bim ularning boshpanasiga kirganida, do'stona xurillab qo'yardi. Bim cho'chqalarning tilini o'rgana olmasa-da, biroq til bilish unchalik muhim emasdi. It va cho'chqa har taraflama o'zgacha jonivorlar, lekin bu ularning ahil va inoq yashashlariga xalaqit bermaydi.

Bimni juda yaxshi boqishar, bundan tashqari anchagina bo'yi o'sib qolgan cho'chqachalar o'zlarining oxuridagi ovqatni tatib ko'rmoqchi bo'lgan itga e'tiroz bildirishmasdi. Har kuni ertalab Bimga bir litr sut berishadi, unga boshqa yana nima kerak? Biroq hovli to'siqlar bilan o'ralgan, darvoza va eshiklar bilan yopilgan qafasga o'xshaydi. «Yot!», «Tovuqlarni qo'riqla!», «Cho'chqachalarni tarbiyala!» degani ovchi itning, ayniqsa Bim kabi o'ta o'tkir sezgiga erga itning ishi emas-da, axir.

U hovliga, bu yerda yashovchilarga ko'nikib qolgan, to'kin-sochin hayotdan ajablanmasdi. Biroq o'tloqlar tomonidan shamol esganida, Bim bezovtalanib qolar, to'siqlararo tinimsiz yurar yoki orqa oyoqlarida ko'tarilib, old oyoqlarini devorga taqab turar va tepaga, erkin va ozod kabutarlar uchib yurgan osmonga qarardi. Ichida nimadir simillar, u esa bunaqangi to'q va yaxshi boqilishidan asosiy maqsad nimaligini bilolmasdi.

...Eh, kabutarlar, kabutarlar, tutqunlikdagi to'q itning hayoti haqida hech narsa bilmaysizlar-da!

Bim o'zini ko'chaga chiqarishmayotganidan unga hali ishonmayotganliklarini sezardi. Xristian Andreyevich har tongda yomg'irpo'sh kiygan, qo'liga tayoq ushlagan Alyosha bilan birga qo'ylarni haydab olib chiqib ketar, kun bo'yi ularni dalada boqardi. Bim qanchalik yalinmasin, uni birga olib ketishmasdi.

Bir kuni Bim burnini to'siqqa tirab yotganida, shamol xabar keltirdi: shu yaqin orada o'tloq va o'rmon bor ekan. Erkinlik yonginasida! U eshik tirqishidan bir it yugurib o'tganini ko'rdi. Shunda juda ahvoli yomonlashdi. Bim oldingi oyoqlari bilan to'siq tagidagi yerni kovlay boshladi. U tuproqni tagiga yig'ar, keyin orqa oyoqlari bilan uzoqroqqa uloqtirardi.

Shu ketishda davom etganida, oxiri nima bilan tugardi, bunisi noma'lum. Biroq Bim to'siq tagini kovlab bo'layozganida hovliga

qo'ylar kirib kelishdi. To'siq ostidan favvoradek tuproq otilayotganini ko'rgan qo'ylar hurkib, yana o'zlarini o'tloqdan haydab olib kelgan Alyosha turgan eshikcha tomon otilishdi. Qo'ylar Alyoshani yiqitib, xuddi esi og'ib qolgandek yugurgilagancha ko'chaga tarqalib ketishdi. Alyosha qo'ylarning ortidan yugurdi, Bim esa hamon kovlashdan to'xtamasdi.

Shu payt Xristian Andreyevich Bimning yoniga kelib, dumidan ushladi. Bim o'zi kovlagan kovak ichida jonsizdek qotib qoldi.

– Qoraquloq, sog'inyapsanmi? – deb so'radi Xristian Andreyevich, Bimning dumidan salgina tortib, shu bilan ortga qaytishga undarkan.

Bim kovakdan chiqdi. Dumingdan tortib turishganidan keyin niyamam qila olarding?

– Qoraquloq, senga nima bo'ldi?! – deb xitob qildi Xristian Andreyevich o'zini chetga olishga shoshilib. – Quturib ketmadingmi, ishqilib?

Xuddi hozirgina qizg'in ovni tugatgandek Bimning ko'zlari qonga to'lgan, tumshug'ini saraklatganicha asabiy titrar, tez-tez nafas olardi. U bezovtalanib hovli bo'ylab yugurib, keyin eshikni timdalaray boshladi, ora-sira Xristian Andreyevichga qarab ham qo'yardi.

U esa hovlining o'rtasida o'yg'a botib turardi. Bim uning yoniga keldi, cho'nqayib o'tirdi va ko'zlari bilan o'ta tushunarli qilib: «Men kengliklarga chiqishim kerak. Iltimos, meni qo'yib yubor!» – dedi. Bim qornini ichiga tortib, gavdasini cho'zdi va past ovozda o'tingansimon angillay boshladiki, Xristian Andreyevich chiday olmay, u tomon engashdi va erkalata boshladi:

– Eh, Qoraquloq, Qoraquloq... Hatto it ham ozodlikni xohlaydi-ya! Yo, tavgandan ketay!

Keyin u Bimni dahlizga chaqirdi, pichan ustiga yotqizdi, bo'yniga arqon bog'ladi va go'sht solingan yaloqni oldiga qo'ydi.

Shu, xolos. Ko'ngil g'ash. Erkinliksiz to'kin-sochin hayot Bimning joniga tegdi. U go'shtga qaramadi ham.

G'AYRIODDIY OV

Har kuni ertalab Xristian Andreyevichning uyidagi hayot birdek takrorlanadi: xo'rozlar uchinchi marta qichqirishganidan so'ng ish kuni boshlanadi, sigir ma'raydi, Petrovna uni sog'ib bo'lib, o'choqqa olov yoqishga shoshiladi. Alyosha dahlizga chiqib o'zining sevimli itiga aylangan Qoraquloqni erkalatadi, ota esa sigirga va cho'chqalarga yem beradi, tovuqlarga don sochadi, shundan so'ng hammalari dasturxon yoniga o'tirib, nonushta qilishadi. O'sha tongda Bim xushta'm sutga ham qaramadi, Alyosha qanchalik ko'ndirishga urinmasin, bir qultum ham ichmadi. Keyin ota-onasi uy yumushlariga unnab ketishdi, Alyosha suv olib keldi, sigirning oxurini tozaladi, Bimni ovqat yeyishga majburlab ko'rdi, hatto burnini yaloqqa tiqdi ham, biroq Qoraquloq kutilmaganda begona bo'lib qolgandi. Ishga ketish oldidan Xristian Andreyevich ulkan pichog'ini qayradi va uni eshik tepasiga suqib qo'ydi.

Quyosh chiqqanidan so'ng Petrovna o'zining qalin kiyimlarini kiydi, ro'mollarini o'radi va ota charxlab qo'ygan ulkan pichoqni olib, chiqib ketdi. Uning ortidan yomg'irpo'shini kiyib olgan Alyosha bilan otasi qo'ylarni ko'chaga haydab olib chiqib ketishdi.

Nahotki, Bimning yolg'iz o'zini nim qorong'i dahlizda, bog'langan holda qoldirgan bo'lishsa? Bim chiday olmadi – umidsizlik va alam to'la ovozda uvullab yubordi.

Mana, ko'cha tomondagi eshik ochildi, Xristian Andreyevich kirdi, Bimning arqonini yechib, zinaga olib chiqdi. Keyin eshikni tashqaridan qulflab, qo'ylarning yonida turgan Alyoshaga Bimning arqonini tutqazdi va qichqirdi:

– Ketdik, ketdi-i-ik!

Qo'ylar ko'cha bo'ylab tizilib ketishdi. Har bir hovlidan goh beshta, goh o'nta qo'y chiqib, podaga qo'shilib borardi. Qishloq chekkasiga yetganda kattagina suruv yuzaga keldi. Xristian Andreyevich oldinda, itni yetaklagan Alyosha uning ortidan yurib borishardi.

Kun sovuq, quruq edi, oyoq ostidagi o'nqir-cho'nqir yer xuddi shahardagi asfalt kabi taraqlardi. Bir vaqt oz muddatga osmonni

qor parchalari to'ldirib, shusiz ham sovuqqina quyoshning yuzini yashirdi, biroq tezda qor to'xtab qoldi.

Qo'ylar tuyoqchalari bilan yerni tarsillatib bosgancha tez yurishar va o'zlarining cho'ziq qo'y tilida nimalarnidir so'zlashardilar. Bim tikilib qarab, suruvning eng oldida, Xristian Andreyevich bilan izma-iz shoxlari buralgan ulkan qo'chqor ketayotganini, hammadan orqada, Alyoshaning oldida cho'loq qo'zichoq asta yurib borayotganini payqadi. Alyosha uzoqdan turib qo'zichoqni tayog'ining ilmog'i bilan turtib qo'yar va:

– Ota, sal sekinlashing! Cho'loqvoy yetib yurolmayapti! – deb qichqirib qo'yardi.

Otasi o'girilib ham qaramay, qadamini sal sekinlatar, u bilan birga butun suruvning harakati sekinlashardi.

Bim bo'yniga arqon bog'langan holda borardi. U ota suruvning oldida mag'rur yurib borishini, qo'ylar uning har bir harakatiga bo'ysunishlarini, jiddiy qiyofali Alyosha esa orqadagi va yon tarafdagi qo'ylarni kuzatib borishini ko'rardi. Mana, qo'ylardan biri sarg'aygan barglarni chimdib yeyishga berilib ketib, suruvdan ajralib qoldi. Alyosha Bimni qo'lidan qo'yib yubormay, o'sha tomonga yugurdi va:

– Qayoqqa ketyapsan? – deb qichqirdi-da, qo'yga tayog'ini otdi.

Qo'y ortiga qaytdi. Chap tomonda birdaniga uchta qo'yning mustaqil bo'lgisi kelib qoldi va ko'zlariga yashilroq bo'lib ko'ringan tomonga yo'nalishdi, biroq Alyosha yugurib borib, ularni ortga qaytardi. Bim bironta ham qo'y to'dadan ajralmasligi kerakligini tushunib yetdi. U navbatdagi Alyosha bilan birga chopishida tartibni buzayotgan qo'yga qarab vovullab qo'ydi. «Vov-vov-vov!» beg'arazgina vovullab qo'ydi u tartib buzuvchiga qarab, bu «Qayoqqa ketyapsan?!» deganini anglatardi.

– Ota! Eshitdingizmi? – deb qichqirdi Alyosha.

Xristian Andreyevich o'girilib qaradi va ma'qullagan ohangda qichqirdi:

– Barakalla, Qoraquloq!

Yonbag'irga chiqqanda, u tayog'ini boshi uzra ko'tardi va yanada balandroq ovozda hayqirdi:

– Tarqat-t!

Alyosha otasining harakatlarini takrorlashga urinar, faqat bu yerda – orqa tarafda u shoshilib, ba'zan yugurib yurar, qo'ylarni Xristian Andreyevich tomon siqib borardi. Shunda suruv asta-sekin kengroq yoyilar, va, nihoyat, o't chimdishdan to'xtamagani holda uch-to'rtta qo'ydan iborat safga tizilib qolishardi. Endi Xristian Andreyevich qo'ylarga yuzini o'girib turib oldi va safni ko'zdan kechira boshladi, sardor qo'chqor esa uning yonginasida turardi. Cho'pon xaltasidan non chiqardi, qattiq sirtini kesdi va negadir uni o'sha qo'chqorga berdi. Bim sardor qo'chqor cho'pondan nafaqat qo'rqishi, balki uni yaxshi ko'rishi lozimligini bilmasdi, shu tufayli ham bu voqeani Otaning mehribon insonligiga yo'ydi, xolos. Ros-tini aytganda, Ota ayyor odam edi – qo'chqor uning ortidan itdek ergashib yurar, chaqirganida, darrov yetib kelardi. Turgan gapki, Bim cho'ponning barcha omilkorliklarini bilmasdi, albatta. Xristian Andreyevich esa ba'zan charchoqdan yoki oftob elitib mudroq bo-sib qolganida, kichikroq, boz ustiga iti ham bo'lmagan suruvdan ajralib qolgan tentak qo'y boshqalarini ergashtirib ketib qolishini yaxshi bilardi. Shu tufayli u Bimni xuddi qadrdonidek qabul qildi.

Xristian Andreyevich tamakisini tutatib, Alyoshaga dedi:

– Nima desang ham, bu yerlarda ovqat yaxshi-da!

...Muhtaram o'quvchim, siz nima deysiz? Kech kuzda qo'ylarni dalada boqish haqiqatan ham murakkab bo'ladi. Ishning ko'zini bilmay qilinsa, bir hafta o'tiboq suruvning teng yarmi qirilib ketadi, yaxshi ovqatni qo'ylar tuyog'i bilan toptab tashlashadi va och qolishadi. Omilkorona yo'l tutilsa, qo'ylar to'q va semiz bo'ladi. Xristian Andreyevich esa qo'ylarni yaydoq yerlar, dalalar-ning chetlarida, hatto kuzgi shudgor uchun yer haydayotgan trak-torlarning yonginasida boqishni uddalardiki, buning uchun muayyan qobiliyat, ishtiyoq va jonivorlarga nisbatan mehr bo'lishi kerak. Qo'y boqish – qiyin ish. Shu bilan birga chiroyli ish ham, chunki cho'pon inson o'zini ba'zan tabiatning ajralmas bir qismi, uning egasi va valine'mati deb his etishi haqida o'ylamaydi ham. Hamma gap mana shunda.

Xullas, qo'ylar maysalarni bir maromda shitirlatib yeb borishar-kan, ularning shovqini yagona tovushga aylanib, tinchlantiruvchi,

mamnunlashtiruvchi ta'sir qilardi. Endi ota va Alyosha bir-biriga yaqin joyda turishar va ilgorigidek baqirib gaplashishmasdi.

– Ota, Qoraquloqni yechib yuborsammikan? – deb so'radi Alyosha.

– Mayli, sinab ko'r-chi! Endi qochib ketmasa kerak. Erkinlikdan qochishmaydi. Yecha qol. Faqat u bilan oz-oz o'ynab turgin, tag'in qo'ylarni hurkitib yubormasin.

Alyosha qo'ylar suruvi sal nari ketishini kutib turdi, keyin arqonni yechdi va shodon ovozda chaqirdi:

– Qoraquloq! Yugurdik!

Bola o'sha zahotiyoq etikchalarini tapillatib, toshlar ustidan sakrab o'tib, tog'dan pastlikdagi soy tomon yugurib ketdi. Bim judayam quvonib ketdi. U ham sakrar, yugurayotib Alyoshaning yuzini yalab olishga urinar, bir chekkaga yugurib ketar, keyin o'qdek uchib ortiga qaytar, xullas to'liq erkinlikdan lazzatlanardi. U qandaydir tayoqchani topib oldi-yu, uni tishlab Alyoshaning oldiga olib kelib qo'ydi va cho'nqayib o'tirdi. Alyosha tayoqchani olib, bir chekkaga uloqtirdi va qichqirdi:

– Qoraquloq, olib kel!

Bim tayoqchani keltirib berdi. Alyosha yana bir marta tayoqchani uloqtirdi, Bim olib kelganida uni itning og'zidan olmay, tepalikka ko'tarila boshladi, yo'l-yo'lakay buyurdi:

– Qoraquloq, ushla. Olib kel!

Bim tayoqchani ko'targanicha, uning ortidan yurdi. Tepaga chiqishganidan so'ng Alyosha tayoqchani olib, o'rniga qalpog'ini Bimning og'ziga tutdi. Bim uning qalpog'ini ham bajon-u dil ko'tarib yurdi. Alyosha sakrab-sakrab yugurar va tinmay qaytarardi:

– Qoraquloq, olib kel! Olib kel! Barakalla. Juda yaxshi. Judayam yaxshi!

Ular suruvdagi qo'ylarni hurkitib yubormaslik uchun sekingina yaqinlashishdi.

– Otamga ber! – buyurdi Alyosha.

Xristian Andreyevich qo'lini uzatdi. Bim berdi. Uning yangi fazilati cho'ponlar uchun kutilmaganda namoyon bo'ldi. Uchovlon xursand edilar.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas Bim uning vazifasi o'zboshimcha qo'ylarni suruvga qaytarib kelib, saf bo'lib tizilib yurishlarini kuza-tib turish, biroq kechqurun uyga qaytayotgan paytlarida to'dalashib bemalol yurishlariga xalaqit bermaslikdan iborat ekanligini o'z aqli bilan tushunib yetdi.

Bim jamoa xo'jaligining yomg'irpo'sh kiygan uch nafar katta yoshli cho'ponlari boqadigan ulkan suruvini qo'riqlovchi ikkita it bilan tanishdi. Xo'jalikning qo'ylari va qishloq ahlining podasi bir-biriga yaqinlashtirilmas va aralashtirilmas edi. Shunga qaramay, qisqagina to'xtash joylarida Alyosha xo'jalik suruvining cho'ponlari tomon yugurar, Bim unga ergashardi. Xo'jalikning suruvini mal-larang tusli, serjun, bahaybat, biroq yuvosh va mo'mingina yaxshi itlar qo'riqlardi. Ular Bim bilan xotirjam va iltifotli o'ynashar, suruv ortidan shoshilmaygina, asta yurishar, Bimga o'xshab shataloq otib chopishmasdi. Bu itlar Bimga juda yoqardi. Qo'ylar ham yaxshi edi.

Bimning ham erkin mehnat qiladigan hayoti boshlandi. Garchi kechqurunlari ota, Alyosha va Bim uchovlon xorib-charchaganidan ortiqcha nafas ololmaydigan ahvolda qaytishsa-da, biroq bu o'zaro ishonch va erkinlik edi. Bunday hayotdan itlarning qochib ketmas-liklari aniq edi.

Biroq bir kuni kutilmaganda qor bo'ralab yog'a boshladi, shamol uvullab, yeru-ko'kni qor parchalariga to'ldirdi. Xristian Andreyevich, Alyosha va Bim qo'ylarni doira qilib to'pladilar, bi-roz kutgach, kuppa-kunduz kuni qo'ylarni qishloqqa qaytarib olib kelishdi. Qo'ylarning juni qorga belangan, odamlarning yelkasida qor uyumi, yer oppoq qor ko'rpaga o'rangandi. Qayoqqa qaramang, faqatgina oppoq qor ko'zga tashlanadi. Qish kutilmaganda tashrif buyurgan edi.

Xristian Andreyevich Bimga o'xshagan it cho'chqachalar ora-sida uxlashga yoki dahlizda arqonga bog'langan holda yotishga munosib emas deb o'yladimi yoxud boshqa biron sababga ko'rami, endi Bim dahlizning bir burchagiga o'rnatilgan va ichiga yumshoq pichan to'shalgan issiqqina uychada yashay boshladi. Kechqurunlari u oila a'zosi sifatida uyga kirar va to kechki ovqat tanovul qilib bo'lingunicha shu yerda bo'lardi.

– Qish boshlanishiga hali erta, – dedi Xristian Andreyevich Petrovnaga.

So‘zlashayotganda ular tez-tez «qish» so‘zini tilga olishar, nimadandir xavotirlanishardi. Zero, Bim «qish» degani oppoq sovuq qor ekanligini juda yaxshi bilardi.

O‘sha oqshom Petrovna boshdan oyoq oppoq qorga belangan, usti-boshi ho‘l, yuzlari sovuqdan sho‘ralab va qizarib ketgan holda keldi. Bim ayolning yechinayotib, qo‘llarini siltaganini va ingraganini ko‘rdi. Uning qo‘llari qizarib, yorilib ketgan, tuproqrang dog‘lar bilan qoplangan edi. Keyin u qo‘llarini iliq suvga botirdi, yaxshilab yuvdi, malham surib, oh-vohlab uzoq o‘tirdi. Bim Petrovnaga tikilayotgan Xristian Andreyevichning yuziga qarab, uning nimadandir qayg‘urayotganini payqadi.

Ertasi kuni ertalab ota pichoqlarini charxladi va to‘rtovlon – Petrovna, Xristian Andreyevich, Alyosha va Bim uydan chiqishdi. Oldiniga mayda qor bilan qoplangan tekis, oppoq daladan ketishdi. Qor qalin emas, Bimning panjasi yarmigacha botib ketar, shuning uchun yurishga qiynalmasdi. Atrof tinch, biroq sovuq edi.

Mana, ular lavlagilar to‘p-to‘p qilib uyulgan dalaga yetishdi. Lavlagilarning bargi tepaga qilib uyulgan, ustidan yana barglar bilan yopib qo‘yilgandi. Har bir lavlagi uyumi yonida xuddi Petrovna kabi kiyingan ayollar o‘tirishar va jimgina, diqqat bilan nimalardir qilishardi.

To‘rtovlon shunaqangi uyumlardan biri yoniga kelib o‘tirishdi va Bim diqqat bilan ularning ishlashlarini kuzata boshladi. Petrovna lavlagini bargidan ushlab, uyumdan sug‘urib oldi, chaqqonlik bilan uning ildizini o‘ziga qaratdi va pichog‘ini bir siltagandi, barglar yerga sochilib tushdi. Pichoq yana bir-ikki marta lavlagining boshi atrofida raqs tushdi va u top-toza bo‘lib qoldi. Petrovna tozalangan lavlagini yoniga qo‘ydi. Xristian Andreyevich xotinining harakatlari takrorladi. Alyosha esa hatto otasidan-da chaqqonroq ishlardi. Shu tariqa rosa ishlashdi. «Shir-shir!». Barglar yo‘q. «Shir-shir!» – lavlagi boshi top-toza. «Shap!» Lavlagi yon tarafdagi tozalangan sheriklarining yonida yotardi.

Sal nariroqdagi lavlagi uyumi oldida yolg‘iz bir ayol o‘tirib, boshqalar kabi ishga berilgandi. Keyingi uyum oldida esa ikki-uch

kishi ahil ishlashardi. Butun dalada shu ahvol edi: tog'dek uyilgan lavlagilar, qalin kiyimlarga burkanib olgan ayollar va sovuqdan shishib ketgan yuzlar. Ayollarning ba'zilari yupqa brezent qo'lqop kiygan, boshqalari esa quruq qo'l bilan ishlashardi.

«Shir-shir!». Lavlagi barglari yo'q. «Shir-shir!». Lavlagi barglari yo'q. «Sharaq!» Odam pichoqni tashlaydi, qo'llariga puflaydi, kaftlarini bir-biriga ishqalaydi, keyin yana boshidan boshlanadi. «Shir-shir!» – lavlagi boshi top-toza. Qo'llar xuddi soatdek aniq ishlaydi.

Judayam sovuq edi. Pichoqlarning harakatlanishini kuzatib o'tirgan Bim sovuq qotib ketdi, qaddini rostlab silkindi va yaqin-atrofni tekshirgani yo'l oldi. Yura-yura isinib olgach, yana o'zinikilarning oldiga qaytib keldi. Yo'l-yo'lakay ayollar uni chaqirishardi, chunki hozir Qoraquloqni qishloqda hamma tanirdi.

Keyin bir chekkada yolg'iz ishlab o'tirgan judayam ozg'in, yoshgina ayol ularning yoniga yaqinlashdi. U nimadandir shikoyat qildi, yerga tufladi, Petrovnaning yoniga o'tirib, unga qo'llarini ko'rsatdi. Petrovna ham ayolga o'zining qo'llarini ko'rsatdi. Ayol achinib bosh chayqadi, yo'taldi, brezent qo'lqop kiygan qo'lini ko'ksiga bosib, jimib qoldi. Bu ayolning ismi Natalya edi.

Petrovna – «Shir-shir!» Xristian Andreyevich – «Shir-shir!» Alyosha – «Shir-shir!» Qo'llariga puflashadi, yuzlarini ishqalashadi. Petrovna – «Shir-shir!» To'satdan – «Ship!»

Kuyinib turgan bechora ayolning ko'zidan dumalagan ko'z yoshi qo'lidagi lavlagi bargiga oqib tushdi. U qo'lqopi bilan yuzini yashirgancha, o'zining lavlagi uyumi tomon ketdi.

– Xudo ko'rsatmasin, tag'in sen ham shamollab qolmagin, – dedi Petrovna Alyoshaga.

U o'g'lining yoniga kelib, qalpog'i ostidagi issiq ro'molning uchlarini yoqasi tagiga qistirib qo'ydi, egnidagi kanop belbog'ini yechib, Alyoshaning qo'y terisidan tikilgan po'stini ustidan bog'ladi.

Bim ham burnini Alyoshaning po'stiniga tirab, Petrovnaga yordam berdi. Biroq Bimning tushunishicha, Alyosha unchalik sovuq qotmagan, aksincha bolaning badani otasi va Petrovnanikiga nisbatan anchagina issiqroq edi (axir Bim buni odamlarga nisbatan yaxshiroq sezadi-da!)

– Menga qara, Alyosha, – dedi Xristian Andreyevich pichoqni tez-tez ishlatarkan (Bim qulog‘ini ding qildi). – Qoraquloq bilan birga biroz chopib, o‘ynab kelgin, badaning sal isiydi.

Mana, Bim lavlagizor bo‘ylab boladan oldinda chopib borardi. Dalani kesib o‘tgunlaricha Alyosha isib ketdi. U qalpog‘ini yechdi, keyin ro‘molni yechib, qo‘yniga tiqib oldi-da, yana qalpog‘ini kiyib, quloqchinlarini tepaga ko‘tarib qo‘ydi. Dalaga ulanib ketgan siyrak o‘rmonzor chekkasidagi quyuq o‘tlar orasida Bim to‘xtadi, havoni hidladi, g‘izillab yugura boshladi va Alyosha uchun kutilmaganda turgan joyida qotib qoldi.

Alyosha uning yoniga yugurib keldi:

– Qoraquloq, nima bor ekan bu yerda?

Bim qimirlamay, buyruqni kutardi. Alyosha nihoyat gap nima-daligini tushunib yetdi-da:

– Hurkit! Hurkit! – deb qichqirdi.

Bim sehrli «Olg‘a!» degan so‘zni kutardi, biroq Alyosha yanada balandroq ovozda qichqirdi:

– Hurkit!

Bim olg‘a otildi, oyoqlari ostidan bir to‘da kakliklar potirlab havoga ko‘tarildi.

Alyosha uzoq o‘ylab o‘tirmay, Bim bilan birga orqaga chopib ketdi. Bim ular orasida o‘zaro hamjihatlik yo‘qligini tushundi. Alyosha Ivan Ivanichning so‘zlarini bilmas, shunga qaramay Bim u bilan yonma-yon yugurib kelardi. To‘lqinlanib, yuzlari qizarib ketgan bola ota-onasiga Qoraquloq kakliklarni izlab topgani va ularni «hurkitgani» haqida so‘zlab berdi.

– Qoraquloq tozi it, u ov qilishga o‘rgatilgan, – ma’qullagan ovozda dedi Xristian Andreyevich. – Eh, Alyosha, bizga miltiq kerak! Balki ovga chiqarmidik, nima deysan?

Miltiq? Ov? Bim uchun qanchalar tanish va qadrli so‘zlar! Bular nima ekanligini u yaxshi biladi.

Bim dumini likillatib, Alyoshaga, Xristian Andreyevichga, Petrovnaga erkalandi. U o‘zining itlar tilida aniq va tushunarli qilib gapirardi. Biroq bu yerda uni hech kim tushunmadi. Hech kim miltiq

olib kelgani ketmadi, hatto miltiqsiz ham u bilan birga ovga chiqmadi. Bim Alyoshaning orqa tarafida, uning po'stiniga suyanganча o'tirar va o'yga tolgandi – har holda, o'ylayotgandek tuyulardi.

Qosh qoraygandagina ular charchagan va sovqotgan holda uyga qaytishdi. Oradan bir necha kun o'tgach, lavlagi tozalashga bormay qo'yishdi – o'zlarining ulushini tugatishgan edi.

Endi Petrovna hech qayoqqa bormas va bundan judayam xursand edi. U kun bo'yi biron ish bilan band bo'lardi: sigirini qashlog'ich bilan tozalar, kir yuvar, uy yig'ishtirar, karam to'g'rar, o'choqqa o't yoqar, ovqat pishirar, tikuv mashinasida kiyim tikar, kiyim-kechaklarni yamar, tog'orada sigirga yem tayyorlar, xullas qiladigan ishlarining son-sanog'i yo'q edi. Bim ayolning ishlashini kuzatardi.

Kitob ko'targan, orastagina ayol Alyoshani so'rab keldi, Petrovnani koyidi (Bimning tushunishicha, beozorgina tanbeh berdi), ikkovlari ham «Alyosha», «qo'ylar», «lavlagi» degan so'zlarni rosa takrorlashdi.

Hamma to'planib, ovqatlanib o'tirgan oddiy oqshomlardan birida baland bo'yli, gavdali, dumaloq yuzli, mitti ko'zlari ayyorona boqadigan, tulki mo'ynasidan telpak kiygan erkak kirib keldi. Bim kirib kelgan erkakka qaragan Xristian Andreyevichning yuzida tabassumdan asar yo'qligini, odatdagidek mehmonni qarshilash uchun dasturxon yonidan turmaganini, hatto salomlashish uchun qo'l ham uzatmaganini sezdi.

– Salomatmisizlar? – befarq ohangda dedi mehmon, telpagini ham yechmay.

– Salom, Klim, – dedi Xristian Andreyevich. – O'tir.

Klim kursiga o'tirdi, qalin qilib tamaki o'radi, keyin Bimni ko'zdan kechirib, dedi:

– Demak, Qoraquloq deganlari shu ekan-da? (Bim qulog'ini ding qildi). It ovga chiqmasa tamom bo'ladi. Yoki qochib ketadi. Uni menga sot, yigirma besh so'm beraman.

– It sotilmaydi, – dedi ovqatlanishni tugatgan Xristian Andreyevich dasturxon yonidan turarkan.

Bim mehmondan uch qadam narida turib, undan anqiyotgan quyon hidini sezdi. U mehmonga yaqinlashdi, egnini hidladi, du-

mini likillatdi va tulki telpak ostidagi yuziga tikildi, bu Bimning tilida, «Tushundim, sen ovchisan» degani edi.

– Ko‘rdingmi? – so‘radi Klim. – Qoraquloq kim bilan gaplashayotganini sezyapti. Uni menga sot, deyapman!

– Sotmayman, Klim, sotmayman. Bo‘lmagan gapni gapirma. Agar bilsang, men viloyat gazetasiga uch so‘m jo‘natib, «Oppoq, qulog‘i qora ovchi it topib oldim» degan e‘lon chiqarib berishlarini so‘radim. Unga javoban «Iltimos, e‘lon bermang. Mayli, tinchgina yashayversin» degan xat oldim. Gap nimadaligini bilmadim-u, lekin bu tengi yo‘q itligini sezyapman. Uni ehtiyotlash kerak.

– Itni tamom qilasan. Yaxshisi, sot! – talab qildi jahli chiqa boshlagan Klim.

– Gapni ko‘paytirma! – mehmonning gapini bo‘ldi Xristian Andreyevich. – Xohlasang, uni ovga olib chiqaver, faqat o‘sha kuniyoq qaytarib olib kelasan. Mayli, Qoraquloq tabiatan o‘z zotiga buyurilgan ish bilan ham shug‘ullansin.

– Mening itimni sotmaymiz! – luqma tashladi Alyosha.

– Mayli, zorim bor-u, zo‘rim yo‘q, – norozi to‘ng‘illadi Klim, Bimning yelkasini silab qo‘ydi va chiqib ketdi.

Kechki ovqatdan keyin Xristian Andreyevich bo‘rdoqiga boqilayotgan qo‘chqorni so‘ydi, uni orqa oyoqlaridan xariga osib qo‘yib, terisini shildi, ichak-chavoqlarini tozaladi, yaxshilab yuvdi va ertalabgacha shu osilgan ko‘yi qoldirdi.

Petrovna butun oqshom savatga tuxumlarni taxladi. Shisha idishlarga sariyog‘ va eritilgan moy to‘ldirib, bozordan sotib olingan, oppoq xivichlardan to‘qilgan chiroyli savatga joyladi.

Mana, nihoyat Bim bu narsalar (terisi shilingan qo‘y nimtasi, tuxum, yog‘lar, savatlar)dan bozor hidi anqiyotganini sezib qoldi. Yanayam bilmasinmi! U Ivan Ivanichni qidirgan paytlarida butun shaharni yaxshilab o‘rganib olgandi. Bim hayajonlanib ketdi: bozor, shahar, savatlar, o‘zining uyi – bularning bari Ivan Ivanich o‘sha yerdaligidan darak berardi. U tuni bilan uxlay olmadi.

Erta saharda Xristian Andreyevich toshdek qotib qolgan qo‘chqor tanasini toza qopga o‘radi, tizimcha bilan bog‘ladi va yelkasiga ko‘tarib oldi. Petrovna obkashning ikki uchiga ikkita savat osdi va

uni yelkasiga qo'ydi. Bim o'zini birga olib ketishlarini shunaqangi o'tindi-ki! U aniq va tushunarli gapirar, talab qilardi: «Men sizlar bilan birga borishim kerak. Meni olib ketinglar! Iltimos!»

Uning kuyinishlarini hech kim tushunmasdi. Qo'shimchasiga, Xristian Andreyevich yelkasidagi qo'chqor go'shtini to'g'rilay turib, o'g'liga buyurdi:

– Alyosha, Qoraquloqni ushlab tur, tag'in ortimizdan chopib qolmasin.

Alyosha uy oldida Bimning bo'yinbog'idan mahkam ushlab turdi. Otasi va onasi esa og'ir yuklarini ko'targancha, avtobus bekati tomon sekin yurib ketishdi. Bim ular to ko'zdan ko'rinmay qolgunlaricha nigohi bilan kuzatib turdi, Alyoshaning erkalash va ko'ndirishlariga e'tibor ham bermasdi.

Tez orada miltiq va yuk xalta ko'targan Klim keldi. Unda ovchilar xaltasi va o'qdon yo'q edi (kerakli anjomlar yetishmayotganini Bim darrov payqadi). Shunga qaramay, miltiqning borligi katta gap edi! Bim ishonch bilan ovchi tomon intildi va shu zahoti u o'qlarni cho'ntagiga solganini aniqladi. Bu ham katta betartiblik edi. Asosiysi – miltiq. Miltiq ko'targan odamning ortidan u qayoqqa desayam borishga tayyor. Uzoq muddatgami yoki yo'qmi, baribir boradi. Tozi itlarning tabiati shunday bo'ladi, Bim ham bundan istisno emas. So'nggi paytlarda paydo bo'lgan sog'inch hissi bir zumda yo'qoldi. Bim miltiqqa oddiy tozi itdek munosabatda bo'lardi. Uni mantiqsizlikda ayblash kerak emas, garchi itlar ichida eng aqllisi bo'lsa-da, u faqat amaliyot yordamidagina haqiqatni tushunib yetardi.

– Qoraquloq, yur, ovga boramiz, – dedi Klim.

Bim uning oldida sakray boshladi: «Ovga boramiz, ovga boramiz!»

Klim itning arqonidan ushladi, Alyosha esa ogohlantirdi:

– Klim amaki, Qoraquloq to'xtab, bo'ynini cho'zgancha qotib qolsa, o'sha yerda kakliklar bo'ladi. Agar unga «Hurkit!» deb qichqirmasangiz, joyidan qimirlamaydi.

– Rostdan-a?

– Bo'lmasa-chi! Buni aniq bilaman, – salmoq bilan dedi Alyosha. – Men dars qilishim kerak-da, bo'lmasa o'zim birga borib ko'rsatardim.

– Biz ham uncha-muncha narsalarni bilamiz. Birinchi marta ov qilishimiz emas, – ta’kidladi Klim.

Shunday qilib, katta tanaffus va sog’inishdan so’ng Bim ovga chiqdi. Avvaliga hech qandqy jonzotni uchratishmadi.

Tushga borib, kun isib ketdi. Quyosh qizdirib, yupqa qor qatlami erib ketdi, oyoq ostida loyqa suv shalpillay boshladi, Bimning oyoqlaridagi junlari jiqqa ho’l bo’lib, loyga belanganidan u ozg’in va xunuk ko’rina boshladi. Shunga qaramay, Bim Klimdan oldinda g’izillab yugurib ketar, gohida atroflarni aylanib qaytardi. Butazorlar orasidagi yaydoq joyda Bim kakliklarning hidini oldi.

Klim qichqirdi:

– Hurkit!

Bim uning gumburlagan ovozidan bir cho’chib tushdi va qushlarni havoga ko’tardi, biroq miltiq ovozi yangramadi. Bim ortiga o’girildi. Ovchi bir og’izli miltig’iga o’q joylashga urinardi-yu, sira uddalolmasdi. Keyin u o’qni chiqarib olishga harakat qildi, lekin buniyam eplolmadi. Bim kakliklar ko’tarilgan joydan uzoqlashmay, yerga o’tirdi-da, ovchini uzoqdan kuzata boshladi. Klim esa oqshomlari piyodalar yo’lakchasida gandiraklab yurgancha, bir-birini yoki qorong’i tunni so’kadigan piyonistalar kabi og’zidan bodi kirib-shodi chiqa boshladi. Qiziq, u mast emas, shunga qaramay so’kinyapti. Va, nihoyat, Klim o’qni chiqarib oldi, boshqasini joyladi va miltiqni yopdi, bu vaqtda u shunaqangi g’azabga to’lgandiki, nimasi bilandir Kulrangni eslatardi.

– Qidir! – buyurdi u Bimga. – Qoraquloq, qidir!

Bim unga orqa o’girib, g’izillab yugura boshladi:

«Nimayam derdim, qidirsam qidiraman-da!».

Bimda loqaydlik paydo bo’ldi, u endi kakliklarni havoga ko’tarishidan oldingidek g’ayrat bilan sal cho’loqlanib chopmasdi. Klim bu holatni itning jismoniy zaifligiga yo’ydi, zero bu Bimda insonga nisbatan shubha paydo bo’lganini bildirardi. U insonga yaqinlashmas, yugurishdan to’xtamagan holda ancha uzoqdan turib zimdan kuzatardi. U qidirmas, balki ovchini kuzatardi. Toki tozi itlar bor ekan, ado bo’lmaydigan kuchli ishtiyoq yengadi. Ochig’ini aytganda, Bim ovchiga emas, balki miltiqqa ergashib kelgandi.

Kutilmaganda u quyonning hidini oldi. Garchi Bim bir necha marta bu hayvonchalarning oldida panjasini ko'targanicha qotib turgan bo'lsa-da, Ivan Ivanich ularni sirayam ovlamagandi. Bu quyonlarning oldida qotib turib bo'lmaydi ham, to'xtadingmi, juftakni rostlab qolishadi. Ularni quvish mumkin emas – egasi ruxsat bermaydi. To'g'ri, yozda ularni qimirlatmay ushlab tura olardi, biroq Ivan Ivanich doimo Bimni chaqirib olardi. Hatto bir safar kaftdekkinna keladigan quyonchani Bimning panjasidan tortib olib, qo'yib yuborgandi ham. Shunday ekan, quyon – parranda emas. Biroq Bim burniga urilayotgan quyon hidini olib, panjasini ko'targanicha qotib qoldi. Jiqqa ho'l, majruh oyog'i tomonga sal qiyshaygan itning turishi havas qiladigan darajada chiroyli emasdi.

– Hurki-it! – o'kirdi Klim.

Aytib o'tish joizki, iliq havoda, ayniqsa, erigan qor orasida quyon qimirlamay biqinib yotadi, Bim esa xuddi «Noto'g'ri qichqiryapsan» degandek hamon joyidan qimir etmasdi.

– Hurkit-t, cho'loq shayton! – o'shqirdi Klim.

Bim quyonni joyidan turg'azdi-da, o'q uzilishi oldidan qilinadigandek yerga yotib oldi. Klum xuddi to'pdek gumburlatib o'q uzdi. Quyon hamon chopar, biroq harakatlari tobora sekinlashardi. Mana, quyon o'tirib qoldi, keyin jo'yak orasiga yashirindi va ko'rinmay qoldi. Klim jon-jahdi bilan:

– Tut uni, tut! Hoy-hoy-hoy-hoy! Tut! – deb qichqirar va quyon yashiringan tomonga qarab yugurardi.

Garchi Bim Klim bilan yonma-yon lo'killab chopayotgan bo'lsa-da, bu yerda qoida buzilayotganini aniq tushunib turardi. Ovchi iti bilan birga chopmasligi lozim, quyonni Bimning o'ziyoq topib keladi.

Klim to'xtadi, hansiraganicha ovozining boricha o'shqirdi:

– Qidir, qovoqbosh! Qidir, cho'loq shayton!

Bim ranjigan qiyofada borardi. Shusiz ham ilgaridan quyonning hidi uni qiziqtirmasdi, hozir bo'lsa ortida Qovoqbosh xo'mrayib kelyapti. Shunga qaramay, Bim quyonning hidini oldi, panjasini ko'targanicha qimirlamay, «Hurkit!» degan buyruqni kutib, quyonning otilib chiqishini kutib turdi. Biroq quyon shundoqqina

jo'yakdan emaklab chiqdi va xuddi kasaldek gandaraklab keta boshladi. Klim o'q uzdi, quyon yugurib ketdi. Yana o'q uzildi, quyon to'xtab-to'xtab, sekinroq yura boshladi. Bim esa loy yerda cho'zilib yotganicha buyruqni kutardi.

– Tut uni, yaramas! Tut, qovoqbosh! – deb o'shqirdi Klim va quyonga ishora qildi.

Bim yana yashirib olgan o'ljani topdi va uning tepasida toshdek qotdi. Uchinchisi! Yana Qovoqbosh nishonga tekkizolmadi. Yana quyon qochib ketdi.

G'azabi qaynab ketgan Klim Qoraquloq o'ljasi bo'g'ib o'ldirishga o'rgatilmaganini, bu ziyoli setterning obro'siga to'g'ri kelmasligini, setterlar unga o'xshash ovchilarni ko'rgani ko'zi yo'qligini tushunmasdi ham. So'nggi marta quyon qo'ldan chiqib qochganidan so'ng (aftidan yarasi ochiq edi, shekilli, quyon anchagina tetik yugurib borardi), Klim g'azabini jilovlay olmay qoldi. U Bimning yoniga kelib rosa baqirdi, nafrat to'la ovozda nuqul «ona» so'zini qaytarayotganidan uning so'kinayotgani aniq edi.

Bim miltiqdan uzoqlashish uchun o'tirgan joyida orqasiga o'girildi. Shu paytda Klim ulkan etigining uchi bilan pastdan itning ko'ksiga qattiq tepdi...

Bim oh tortib yubordi. Xuddi odamdek oh tortdi.

«Oh-h-h! – cho'ziq ingradi Bim va yerga quladi. – Voy, voy! – endi insoniy tilda gapirardi Bim. – Voy... Nima uchun?!» U hech narsani tushunmay va dahshatga tushgancha iztirobli mo'ltiragan nigohi bilan qarshisidagi odamga tikilardi.

Keyin u bazo'r oyoqqa turdi-yu, chayqalib ketdi va yana yerga qulab, oyoqlarini tipirlatganicha yotib qoldi.

– Nimalar qilib qo'ydim?! – boshini changallab qoldi Klim. – Endi o'n besh so'm berishimga to'g'ri keladi. Pulim kuydi!

U Bimdan ko'zlarini yashirganicha, tez-tez yugurib ketdi.

O'sha kuni Klim qishloqqa bormadi, yarim tunga qadar qayerlardadir sanqib yurdi. Tun oqqanidan so'nggina u tomorqalar oralab, qishloqning chekkasida joylashgan uyi tomon ketdi.

Bim-chi? U qayerda qoldi?

U zax, sovuq yerda, bir o'zi yotardi. Ovchining zarbasidan ichida nimadir uzilgandek bo'ldi va o'sha «nimadir» qiziy boshladi,

nafasi bo'g'ildi, shundan hushini yo'qotdi. Yo'q, mana u yo'taldi, ko'ngli aynidi. Nafas olgandi, ko'kragida qattiq og'riq turdi. Yana og'zini ochib nafas oldi va yo'talib yubordi. Boshini ko'tardi: dala xuddi Bim toshqin paytida suzib ketayotgan paytdagidek chayqalardi. U bir amallab qaddini rostlab o'tirdi: dala chayqalar, quyosh ham xuddi arqonda osilib turgandek silkinardi.

Bugun Bimdan u bajara olishidan ko'proq narsani – uning itlik obro'si va vijdoniga xilof keladigan ishni talab qilishdi. Bajarmagani uchun shafqatsizlarcha kaltaklashdi. Bim esa yarador hayvonni bo'g'ib o'ldirishga yo'l qo'ymaydi.

«Nima uchun-n-n... Nima uchun-n-n... – sekingina ingillardi Bim. – Mehribon do'stim, qayerlardasan?... Qayerdasan? Qayerdasan?...» Bim borgan sari sekinroq zorlanardi. Mana, nihoyat, uning ovozi butunlay o'chib qoldi.

Tashqaridan qaraganda, shilta, loy dalada o'lik it cho'zilib yotgandek ko'rinardi. Aslida bunday emasdi.

Bim asta qaddini ko'tardi, oyoqqa turdi – yiqilib tushmadi. Bir qadam bosdi – yiqilmadi. Ozgina turdi. Ikkinchi qadamni bosdi. Shu tariqa oyog'ini sudragancha butun dalani kesib o'tdi.

... Oh, itlarning ulkan sabr-toqati va mardligi! Qanday kuchlar sizni shunchalar qudratli va yo'qotib bo'lmaydigan qilib yaratganki, hatto o'lim oldidan ham tanangizni olg'a jildirasiz? Sal bo'lsa-da, oldinga yurasiz. Pok yurakli yolg'iz, baxtsiz, unutilgan itga nisbatan ishonch va mehr topiladigan oldinga qarab intilasiz.

Bim ketib borardi. Zo'rg'a qadam bossa-da, baribir yurishdan to'xtamasdi. Og'zi qonga to'ldi, biroq u to'xtamadi. Qon aralash yo'talar, biroq yurishda davom etardi. U cho'nqayib qolar, lekin olg'a yuraverardi. Madori qurib muzdek yerga yotib qolar, qoqilar, lekin baribir turar va yana olg'a intilardi.

Irmoqchaniy oldiga yetgach, yutoqib suv icha boshladi. Ichki sezgisi uning suvdan uzoqlashmasligi kerakligini aytib turardi. U yaqin oradagi g'aramga yetdi, bir amallab yergacha osilib tushgan somonlar orasiga suqilib kirdi va jimib qoldi.

Bim qancha vaqt behush yotganini bilmasdi, biroq o'ziga kelganidan so'ng ko'ksida qattiq og'riqni his qildi, boshi aylanib

ketdi. Ich-ichidan hozir o'ziga nimadir bo'lishini sezdi-yu, somon orasidan emaklab tashqariga chiqdi. Ochiq havoda ozgina yotdi. Yungi qurib qolganini sezdi. O'tirdi. Sarg'aygan kuzgi o't-o'lanlar endi chayqalmas, g'aram ham chayqalmas, quyosh ham silkinmas va iliqqina bo'lib, biroz isitardi ham. Bim irmoqchagacha emaklab bordi, yana suv ichdi, ichaverdi. Sal nafasini rosladi-da, keyin yana oz-ozdan ho'plab ichdi. U irmoqdan sal nariroqda o'sib turgan bug'doyiqqa o'xshab ketuvchi, pastak bo'yli va hamon yam-yashil bo'lib yashnab turgan dasht qiyog'ini ko'rdi (bu o't uncha-muncha sovuqqa bo'y bermaydi). Bim qiyoqni yeya boshladi. Ichki sezgisi bu o'tni yeyishi kerakligini aytib turardi. Odatda insonlarda bunday bo'lmaydi, lekin Bim shu o'tni, albatta, yeyishi kerakligini bilardi. Va, yedi ham. Keyin qurib qolgan kuzgi gullar orasidagi kechikib ochilgan moychechakka ko'zi tushdi. U moychechakni ham yedi. Yana irmoqqa qaytib, suv ichdi va qishloq tomon yo'naldi. U faqat oldinga intilardi.

U tun kirganidagina qishloqqa yetib bordi. Biroq Bim qishloqqa kirmadi. Bo'lmasa-chi! Axir Klim o'sha tomonga yugurib ketdiku... Yo'q, uning ortidan bormaydi. Klim yana uning bo'yinbog'idan ushlab oladi va o'shanda... Yo'q, bunaqasi ketmaydi.

Bim pichan qoldig'i ustiga yotib, biroz tin oldi. Yonginasidagi qariqiz bargini sezib, uni tatib ko'rgandi, qurib qolgan ekan. U qariqizning barglarini tagigacha tishlab uzib tashladi-da, ildizini asta g'ajiy boshladi. Kasal bo'lganda qariqizning ildizini yeyish kerakligini ham u bilar edi.

Itlarning davolanish haqidagi bilimlari cheksiz va ko'p qirralidir. Quturish endi boshlangan itni o'rmonga qo'yib yuborsangiz, u ikki-uch haftadan so'ng yurolmaydigan darajada ozib-to'zigan, biroq soppa-sog' holda qaytib keladi. Itning oshqozoni buzilsa, uni o'rmonga yoki dashtga olib borib, bir necha kun o'sha yerda yashang, ko'rasiz, u o'zini gilyohlar bilan davolaydi. Itni qanday davolashni aynan uning o'zidan o'rganish kerak. Tabiat itlarga shunaqangi boy «bilim» berganki, insonlar bu mo'jizani ko'rib, hayratdan o'zini to'xtatisholmaydi.

... Tun o'tdi. Kuzning uzun, sovuq tuni.

Xo'rozlarning birinchi qichqirig'i yangradi. Bim xo'rozlarning ikkinchi va tong otganidan darak beruvchi uchinchi qichqirig'ini kutib turmadi. U o'rnidan turdi, biroq ko'ksidagi qattiq og'riqdan yura olmadi. Biroq zo'r berib sudraldi, ikki marta yotib qoldi, yana turdi va asta uy tomon ketdi.

U Xristian Andreyevichning uyiga yetdi, ikkita zinadan ko'tarildi-yu, yotib qoldi. Uy ichi jimjit edi.

Agar shu paytda uning yonidan xuddi o'g'ridek pisib Klim o'tib qolmaganida, bugun u ketib qolmagan bo'lardi. Bim titrab ketdi. U so'nggi nafasi qolgunicha himoyalanihga tayyor edi. Bimda xuddi yo'qotadigan narsasi qolmagan mahkumdagi kabi g'urur paydo bo'lgandi. Biroq Klim zina panjarasidan egildi-yu, asta shivirladi:

– Qoraquloq, kelibsan-da...

Shunday deb u qo'rqoqlardek shosha-pisha nari ketdi, ovozidan biroz quvonib ketgani sezildi.

Kutilmaganda etigi bilan makkorona zarba bergan shafqatsiz ovchini quvib yetib, o'ch olish uchun Bimning kuchi qolmagan, u hatto vovullay olmasdi, chunki shikastlangan ko'ksidan xirillashdan boshqa ovoz chiqmasdi. Biroq Bim Klimning to'satdan qaytib kelib, o'zini olib ketib qolishini ham xohlamasdi. Shu bois u o'rnidan turdi, asta hovlini aylandi, cho'chqachalarni, sigirni, qo'ylarni hidladi, ozgina o'tirdi, keyin qishloqdan chiqib ketdi. Shu paytda do'stlari bo'lgan cho'chqachalarning yonida yotib judayam dam olgisi keldi! ...Xo'rozlar uchinchi marta qichqirishdi. Tong otdi.

Katta yo'l tomon bir it ketib borardi: boshi egilgan, dumi jon-sizdek osilgan. Tashqaridan qaraganda, u quturishning so'nggi bosqichidagi kasal itga o'xshar, yo'lida duch kelgan biror narsaga qoqilib yerga yiqilib tushadigandek va shu zahotiyoq jon taslim qiladigandek tuyulardi Bu bizning Bim – mehribon va sadoqatli Bim edi. U o'zining egasini izlab ketardi. Uni bu yoqqa olib kelishgan eski yo'llardan yurardi.

Qishloqdan avtobus bekatigacha besh-olti kilometr kelardi, lekin yarim yo'lda Bimning madori qurib qoldi, u pichan g'aramigacha zo'rg'a yetib bordi. Kimdir tunda o'g'irlab, pichan g'aramida kattagina teshik paydo qilgan ekan, Bim o'sha joyga kirib oldi. U uzoq, kuni bo'yi yotdi, quyosh bota boshlagandagina boshpanasidan chiqdi.

Uni tashnalik qiynar, biroq suv yo‘q edi. Ko‘ksini hamon og‘riq iskanjaga olar, biroq nafas olishi ancha yengillashgan, boshi aylani-shi to‘xtagan edi. Atrofiga alanglab, bo‘znochning savatsimon gulini ko‘rdi. U gullashni boshlaganidan to yetilguniga qadar, keyin qish-dan to bahorgacha ham rangini o‘zgartirmaydigan sap-sariq, qurib qolgan gullarni yedi. Moychechak gullarini ham uzib edi-yu, lekin uning gullari allaqachon yetilib, qurib qolgani bois og‘zida sochilib ketdi va tomog‘ini qichishtirdi, bundan yanada battar suv ichgisi kela boshladi. U dala yo‘llaridan birini kesib o‘tayotganida, arava izida erigan qordan hosil bo‘lgan ko‘lmakka duch keldi. Yo‘l Bim uchun shu tarzda suv tayyorlab qo‘ygandi. U to‘yib suv ichdi-da, yana yo‘lida davom etdi.

Kech kirganida u katta yo‘lga yetib keldi. Ozgina o‘tirdi, ko‘zni qamashtiruvchi nur sochib o‘tayotgan bir nechta avtomobillarni nigohi bilan kuzatib qoldi. U endi qayoqqa borishini bilardi. Biroq tunda bormaydi! To‘satdan Klim uchrab qolsa-chi? Yoki kulrang amakimi? Yoxud bo‘rimi?

Bim avtomobil yo‘lidan uzoqlashmaslikka va uning yaqinrog‘ida yashirib olishga qaror qildi. U avtobus bekatiga yetib keldi. Bu yerda bitta devori yo‘q, lekin ichiga keng-keng o‘rindiqlar o‘rnatil-gan kichkinagina uycha bor. Bim burchakdagi o‘rindiqlarning tagiga kirib oldi-da, kuta boshladi.

O‘ta madorsizligiga qaramay, u tuni bo‘yi ko‘z yummadi. Uning yonidan tinimsiz avtomobillar g‘izillab o‘tar – yo‘l tunda ham yashardi. Avtobus Bim yotgan bekatga yaqinlashgan tezlikni pasaytirar, lekin unga chiqadigan birorta yo‘lovchi yo‘qligi tufayli to‘xtamay o‘tib ketardi.

Garchi tun bezovta va og‘riqli bo‘lsa-da, Bimning baxtiga iliq-qina edi – kuz yana bir marta qishni haydab solgandi.

Bim yo‘q bo‘lgan shu kunlarda qishloqda nimalar sodir bo‘ldi?

Qosh qorayib qolganida bozordan qaytgan Xristian Andreyevich bilan Petrovna uy qulflanganini, Alyosha uyda yo‘qligini ko‘rishdi. Ular uyga kirishdi, shahardagi savdodan tushgan pullarni sanashdi, ularni ertasi kuni omonat kassaga olib borishni mo‘ljallab, sandiqqa solib qo‘yishdi. Shu paytda Alyosha kirib keldi.

- Qayoqlarda yuribsan? – so‘radi otasi.
- Klim amakinikiga borgandim.
- Nima, haliyam Qoraquloqni olib kelmadimi?
- Hali ovdan qaytmaganmish.

– Xavotirlanma. Klim itni albatta olib keladi. Olib kelmay qayoqqayam borardi? – deb Alyoshani yupatdi Petrovna o‘g‘liga keltirgan yangi sviterini kiydirib ko‘rishga shoshilib.

– Shundayku-ya, – ikkilanibroq dedi Xristian Andreyevich, – faqat bu yaramas Klimning juda qo‘li egri-da... Agar u faqat davlatnikini olganida mayli edi, uning egasi yo‘q, lekin qishloq ahlining narsasini ham o‘marib ketaveradi. Undan uzoqroq yurgin, ko‘ngil tinch bo‘ladi. Hamma undan cho‘chidi. Mayli, jin urgur Klimga indama, Qoraquloqni ovga olib chiqaversin!

– Egasi yo‘q, deganingiz nimasi? – deb so‘radi Alyosha. – Bizniki-ku, axir?

– Shunaqalikka shunday-ku, men... Sal noto‘g‘ri gapirdim... Bizniki deb to‘g‘ri aytding... Biroq... Buni senga qanday qilib tushuntirsam ekan? U yerdagi – bizniki, bu yerdagisi esa – o‘zimizniki. Misol uchun maktabni olsak, u bizniki, barcha o‘quvchilar ham bizning bolalarimiz, sen esa – mening bolamsan. Yoki boshqachasiga aytsak, dalalar – bizniki, uyimiz esa o‘zimizniki... Mollar bora-sida ham shunday: bizniki bor, faqat o‘zimizniki bor. Tushundingmi?

– Bo‘lmasa-chi, tushunmay bo‘ladimi?.. Siz esa hech kimnikisiz...

– Buni to‘g‘ri aytding: butunlay hech kimniki bo‘lish mumkin emas.

Otasi doimo Alyosha bilan xuddi kattalardek gaplashardi. Alyosha jiddiy javob qaytardi:

– Klim amaki ham shunday-da: menikidan emas, biznikidan olsa bo‘laveradi.

– Umuman olganda, sen haqsan, – xulosa qildi otasi. – Biz ham olamiz. Pichan yoki sigir uchun lavlagi olamizmi? Olamiz. Raisga bildirmay, oz-ozdan olamiz. Ochig‘i, rais ham, brigadir ham, boshqalar ham buni bilishadi. Buni tan olmay ilojing yo‘q: biznikidan olamiz. To‘g‘ri, vijdonni yo‘qotmagan holda o‘tgan yilgi

g'aramlardan yoki lavlagi qoldiqlaridan oz-ozdan olamiz. Boshqa ilojimiz bormi? Axir molimizni boqishimiz kerak-ku!

– Umuman olganda, siz haqsiz, – deb otasining gapini tasdiqladi allaqachon podani boqadigan, «o'zining» mollarini parvarishlay oladigan, onasiga yordamlashish uchun kuvda yog' pishiradigan, agar bo'sh vaqt topsa sovuqda borib, «bizning» lavlagini tozalaydigan va «o'zining» kartoshkasini kovlaydigan o'n uch yoshli yigitcha.

Xristian Andreyevich esa tushuntirishda davom etdi:

– Nizomga ko'ra, hammamiz shunday ishlaymiz: u yerdagisi – bizniki, bu yerdagisi – meniki. Mana, men qo'chqorni shaharga olib bordim. Nima qilay? Xalqni yedirib-ichirish kerak – biz shuning uchun ishlayapmiz. Oying tuxum va yog' olib bordi. Hammasi rejaga, nizomga ko'ra qilindi. Alyosha, hayot yaxshilandi, biz o'qituvchi yoki raislardan yomon kiyinmaymiz, televizorimiz ham, boshqa narsalarimiz ham bor, pulimiz ham yetarli. Uydan tashqarida ko'p ishlasak, buning zararli joyi yo'q. Faqat araq ichmaslik kerak, – nasihatga o'tdi Xristian Andreyevich.

– O'zingiz ichasiz-ku, – mantiqli luqma tashladi Alyosha. – Ichmaslik kerakmi, demak ichmang. Ichgandan foyda yo'q!

– To'g'ri aytasan, – uning gapiga qo'shildi otasi. – Faqat brigadirni hurmat qilish kerak, qoidasi shunday... Klim kim? Klim – o'g'ri. Qo'shnisinikiga kirib tovug'ini o'g'irlash ham ish bo'libdimi? Butunlay vijdotsiz odam shu ishni qiladi. Ey, tavba! U adoyi tamom bo'lgan odam...

Alyosha va Xristian Andreyevich to tungi soat o'n birlarga qadar Qoraquloqni kutib gaplashib o'tirishdi. Keyin hovlini aylanib kelishdi. Cho'chqachalarning yoniga kirishdi, zina tagini qarashdi (ehtimol, Klimdan qochib ketib, bekinib yotgandir?). Nihoyat, Xristian Andreyevichning o'zi Klimning uyiga ketdi.

Lavlagizorda barglarga ko'z yoshini oqizib o'tirgan Natalya Klimning xotini bo'lib, eridan kaltak yeyaverganidan yurak oldirib qo'ygan yuvoshgina ayol edi. U kuyinib dedi:

– Sanqi erim hali uyga kelgani yo'q. Yaramas, biron joyda uxlab qolgandir-da! Oting o'chgur, qayerdadir mast bo'lib, duma-lab yotibdimi? Voy, sho'rim-ey! Endi birato'la ertaga qaytsa kerak. U itingizni hech qayerda qoldirmaydi. Albatta, olib keladi.

Xristian Andreyevich uyiga qaytdi, xotinini uyg'otib yubor-
maslik uchun shivirlab eshitganlarini o'g'liga aytdi, keyin Alyo-
sha ikkovlari uxlashga yotishdi. Ular qotib uxlab qolishganidan
Qoraquloqning zinaga kelib yotganini, Klimning pisib kelib, keyin
qochib ketganini, mehribon yangi do'stlari yovuz odamning dasti-
dan qochib ketganini ham eshitishmadi.

Ertalab otasi Alyoshani uyg'otdi:

– Tura qol. Zinada yangi izlar paydo bo'libdi. Qoraquloq kelibdi.

Ular ikkovlashib itni izlay boshlashdi, chaqirishdi, hushtak cha-
lishdi, biroq endi Qoraquloq ularni eshitmadi. Xristian Andreyevich
Klimning uyiga yugurib borib, uxlab yotgan joyidan turg'azdi.

– Itingni olib kelganman, – bo'g'i q ovozda norozilanib do'rilladi
Klim. – Yarim tundan oshganida qaytdim, seni uyg'otgim kelmadi...
Xohlasang... Senga izlarini ko'rsataman... Sen esa meni uyg'otib,
tinchimni buzyapsan. Nima deb o'ylaysan, mana shu qilayotgan
ishing insofdanmi o'zi? Umuman olganda, iting ovga yaroqsiz
ekan. Uning menga keragi yo'q, qaytib ovga olib ketmayman!

Xristian Andreyevich bahslashib o'tirmadi: bu o'g'rivachcha
bilan gap talashgandan foyda chiqmaydi!

U Alyosha bilan birga qishloqni, tomorqalarni tekshirib chiqdi,
lekin hech qayerdan Qoraquloqning izini topa olishmadi. Qoraquloq
izsiz g'oyib bo'lgandi.

– Klim uni urgan, shekilli, – tushunib yetdi Xristian Andre-
yevich. – Shunga Qoraquloq qochib ketgan.

Achinish va alamdand Alyoshaning yuragi siqilib ketdi. U zi-
napoyani ko'zdan kechira boshladi. Izlar allaqachon qurib qolgan,
biroq Qoraquloq yotgan joy aniq ko'zga tashlanib turardi. Alyosha
o'sha yerga egildi, keyin qichqirganicha uyga otildi:

– Otajon! Qon!

Otasi yugurib chiqdi. Qoraquloq boshini qo'yib yotgan joyda
qon aralash so'lakning qurib qolgan dog'i ko'zga tashlanardi.

– Hayvon! – xitob qildi Xristian Andreyevich, bir zum o'ylanib
turdi-da, keyin Alyoshani ogohlantirdi. – O'g'lim, tag'in bu odam
bilan teng kelaman deb, boshingga balo orttirib yurmagin. Endi esa
Qoraquloqning izidan boramiz, uning bekatdan boshqa boradigan
joyi yo'q.

Ular avtobus bekatiga yetguncha yo'l-yo'lakay Qoraquloqni izlashdi, chaqirishdi. Bekatga borgach, uni uzoq kutishdi, keyin uyga qaytishdi. Agar bu yoqqacha kelolgan bo'lsa, demak hozir uzoq-uzoqlarga yetgan bo'lishi kerak, deb o'ylashdi. O'sha kuni ular o'zlarining Qoraqulog'i bo'lgan Bim ichida dam olib yotgan g'aramning yonginasidan o'tishdi.

Kechqurun Alyosha bir necha marta zinaga chiqdi, kutdi, chaqirdi. Keyin sekingina dahlizga kirdi, ichiga pichan to'shalkan it uychasi yonida o'tirdi va bolalarcha baralla, qo'llari bilan ko'z yoshlarini yuzlariga surkab, piqillab yig'ladi.

Xristian Andreyevich uning yig'isini eshitdi. Dahlizga chiqib, chiroqni yoqdi.

– E-e, sen haliginday... – ajablendi u.

– Ha, – dedi Alyosha titrog'ini bosolmay.

Otasi g'adir-budur, qadoqlarga to'lgan qo'li bilan o'g'lining sochlarini silab, dedi:

– Alyosha, bu yaxshi... Demak, senda qalb bor ekan, o'g'lim... Petrovna ham dahlizga chiqdi:

– Qoraquloqqa iching achiyaptimi?

– Achiyapti, oyijon... Judayam...

– Otasi, bu qanday kulfat bo'ldi-ya? – piqillab yig'lab yubordi ayol. – Alyoshenka, endi nima qilasan, bolam... Shunaqayam bo'larkan-da... Afsus...

... Bu vaqtda Bim avtobus bekatidagi o'rindiqning tagida yotardi.

U yotar va kutardi. U faqat bir narsani – tong otishini kutardi.

O'n uchinchi bob

O'RMON SHIFOXONASI

Tong otgan zahoti Bim o'rnidan turishga urindi, biroq buning deyarli iloji yo'q edi. Asosiysi g'ujanak bo'lib yotgan holatidan chiqib olish bo'ldi, chunki ichida nimadir yelimlanib, qotib qolgandek tuyulardi. U bir amallab bitta oyog'ini tagidan sug'urib oldi, keyin – ikkinchisini chiqarib, u bilan devorga tiraldi va o'rindiq

tagidan emaklab chiqdi. Ozigina yotdi va uychadan nariga emakladi. Qaddini rostladi. Uvushib qolgan oyoqlari yozila boshladi. U og'riqqa chidashga urinib asta angillaganicha qadam bosdi. Avvaliga oyoqlarini yerda sudrab yurish qiyin bo'ldi, keyin dadilroq odimlay boshladi.

Lo'killabroq yurishga harakat qilgandi, ko'ksidagi og'riq sal bosildi. Mana, u lo'killaganicha olg'a yurib ketdi. Tashqaridan qaranganda, bu it na yurayotganga, na yugurayotganga o'xshamas, badanini deyarli qimirlatmay, oyoqlarini sudrab ketardi. Shunday yurish Bim uchun qulay edi. U giyohlarni yeyish va harakatlanishdan keyin sal yengil tortganini sezdi. Shu bois katta yo'l bo'ylab tinmay ketaverdi.

U yo'lning chap tomonidan, ro'parasidan kelayotgan avtomobillarga qarshi yo'nalishda ketardi. Turgan gapki, Bim «Yo'l harakati qoidolari»dan bexabar, yurishi mutlaqo mantiqqa zid bo'lsa-da, unga ichki sezgisi yo'l ko'rsatardi. U «Meni shu tomondan olib kelishdimi, demak shu yoqdan ortga qaytib boraman» deb ishonardi. Avtomobillarning oynalaridan ko'zga tashlanayotgan odamlar uni ko'rib, «Qanday aqlli it ekan-a, yo'l qoidasiga amal qilyapti. Biroq o'zi kasalga o'xshaydi» deb o'ylashardi. Aslida esa yo'l harakati qoidalarining tegishli moddasi xavfsizlik talablariga javob berishini isbotlash uchun alohida aql-idrok kerak bo'lmasdi.

Bim uzoq, uch, ehtimol, to'rt soatcha (to'xtashlar va dam olib yotishlar bilan birga, albatta) yurdi. Uning tezligi piyoda yo'lovchilarnikidek, balki sal tezroq bo'lishi mumkin edi. Shuning o'zi ham yaxshi!

U o'zi ham kutmagan holda Ivan Ivanovich bilan birga ovga chiqqanlarida avtobusdan tushadigan bekatni tanib qoldi. Tanidi!

Bekatdagi uycha yonida odamlar avtobus kutib turishardi. Bim odamlardan sal nariroqda to'xtadi, keyin chap tomonga, o'zi ovga boradigan yo'l tomonga burildi. Kimdir uning ortidan hushtak chaldi, boshqasi mazahlab qichqirdi, yana birov «Quturgan it!» deb baqirdi. Bim ularga e'tibor bermadi. U hatto tezlikni oshirishga ham urinib ko'rdi. Yurishi-ku tezlashmadi-ya, faqat ahvoli yanada og'irlashdi.

Muhimi, o'sha yoqqa yetib olish kerak. U yerga yaqindagina Ivan Ivanich kelgandir yoki kelishi mumkin. O'sha tomonga olg'a!

Bim o'rmon tomon ketardi. O'rmon chekkasida u to'xtadi, atrofiga alangladi va daraxtlar orasiga kirib ketdi. Tez orada o'rmon ichidagi tanish yalanglikni topdi va to'nkachaning oldida to'xtab qoldi. Ozgina turdi, joyidan qimirlamay burni bilan atrofni tekshirdi, to'nkachani to'yergacha egilib hidlab chiqdi. To'satdan u to'nkachaning atrofidagi xazonlar ustiga yotib oldi: Ivan Ivanich doimo ov boshlashdan oldin mana shu yerda o'tirardi. Bim boshini cho'zib, bir vaqtlari do'stining oyoqlari turgan joydagi za'faron barglarga tumshug'ini surkadi, lekin bu yerdagi hidlar allaqachon uchib ketgandi.

O'sha kun iliqqina edi!

Ba'zan kech kuzda, hatto qishning ilk nafasi yelib qolgan paytlarda ham yoz qaytib keladi va olovli dumi bilan ketayotgan kuzni o'rab oladi. Shunda kuz erib ketadi, taltayib, xuddi bekasi boshini silayotgan kuchukchadek jimib qoladi. Shunda o'rmondan za'faron tusli xazonlar, na'matakning yoqutdek va zirkning kahrabo tusli mevalari, hech kimning qo'li tegmagan, yetilib o'tib ketayotgan, suvga to'yingan oq qo'ziqorinlarning o'tgan ob-havo haqida eslatuvchi isi qo'shilgan vidolashuv ifori anqiydi, o'rmon bo'ylab qarag'aydan – qayinga, qayindan esa emanga tomon tabassumga to'liq ezgu kayfiyat oqib boradi, u esa o'rmon jipsligi va abadiyligi, qudratli kuch hidi bilan javob beradi. O'rmon hidlarida mangu va tuganmas nimadir bor, buni ayniqsa ketayotgan kuzning iliq, yumshoq va mayin so'nggi kunlarida aniq his etish mumkin. U allaqachon jonga teguvchi mijg'ov yomg'irlardan, to'satdan bostirib kelib qoladigan ilk qish tashriflaridan va qirovning hamma narsani o'rab oluvchi noxush ignachalaridan qutulgan, ularning bari o'tmishda qolgan. Go'yo kuz uxlayotib, yoz haqida tush ko'radi, bizga esa o'zining ilhombaxsh go'zallikka to'yingan ilohiy manzaralarini va yerning hayotbaxsh iforlarini namoyish etadi. Bularning barini bolalikdan o'ziga singdirib olgan va tabiat tomonidan hadya etilgan ruhni qutqaruvchi idishning bir tomchisini ham to'kmay, butun hayoti mobaynida olib o'tolganlar baxtlidirlar!

Shunday kunlari o'rmonda yurak hamma narsani kechiruvchi, biroq o'ziga nisbatan talabchan bo'lib qoladi. Siz tinchlanasiz, tabiatga singib ketasiz. Kuzgi tushlarning bunday tantanavor damlarida

yer yuzasida yolg'on va yovuzlik bo'lmasligini istab qolasiz. Ketayotgan kuzning sukunatida uning nafis mudrog'iga o'rangan holda yaqinlashib kelayotgan qishning qisqagina unutilish onlarida bir narsani tushunib yetasiz: faqat haqiqat, faqat nomus, faqat sof vijdon va shularning bari haqidagi so'z. Keyinchalik katta bo'ladigan kichik odamchalarga so'z, kattalarga esa qachonlardir bola bo'lganliklarini unutmashliklari uchun so'z...

Ehtimol, shu sababli ham men itning taqdiri, uning sadoqati, uning nomusi va fidoyiligi haqida yozayotgandirman. O'sha iliqqina kuz kunida o'rmondagi to'nkacha yonida yotgan va do'stini sog'inayotgan it haqida...

Shunday qilib, tabiatning baxtli kunlaridan birida baxtsiz it Bim o'rmonda yotardi. Kun esa shunchalar iliqqina edi-ki!

Biroq yer sovuq edi. Shu sababli ham Bim to'nkachaning yonida xuddi egasining oyog'i yonida yotgandek g'ujanak bo'lib oldi, ozgina hordiq chiqardi va nimanidir izlagancha asta o'rmon bo'ylab ketdi. Uning judayam ovqat yegisi kelardi. Bim yaqindagina qulab tushgan qoraterakning bug'ular juda yoqtiradigan sersuv po'stlog'ini g'ajiy boshladi. Bu po'stloq o'zi uchun shifobaxsh ekanligi Bimning xayoliga kelganmidi?

Itlarning nozik sezgisi foydali hidlarni zararlilaridan farqlay olishini odamlar bilishmas, ehtimol. Axir Bim zaharli tuyoqo'tni yemadi, lekin valeriana ildizi oldida to'xtab qoldi. Nima uchun itlar va mushuklar uning hidini yoqtirishadi? Bu ham noma'lum. Biroq Bim paxtadek yumshoq tuproqni bir-ikki kovlab, valeriana ildizini tortib chiqarib, uni yeb oldi. Yana bittasini yedi. U keragicha ildiz yegach, uxlash uchun o'ziga joy tayyorlamoqchidek turgan joyida chir aylandi, biroq bu yer unga ma'qul tushmadi (buning sababi noma'lum). U kichikroq doira yasab aylandi. Keyin doirani toraytirdi, urush paytida qazilgan va tepasigacha xazonlar bilan to'lgan eski xandaqqa duch keldi, uning ichiga tushib, yana joyida aylana boshladi. Oqibatda o'ziga qalin va yumshoq to'shak hozirladi, biroq uyqu bilan kurashib, yotishni xohlamadi. Kutilmaganda u xazonli to'shagiga yiqilib tushdi-yu, o'sha zahoti qotib uxlab qoldi.

Valeriana kuchini ko'rsatdi. Bu giyohni Tambov viloyatida «kupir» deb atashadi. Biroq hech qayerda sog'lom itlar uning ildizini

yeyishmagan va yeyishmaydi ham, ba'zan tumshug'ini ishqab qolishadi, xolos. Kasal itlar esa bu ildizni yeyishadi. Bim garchi ziyoli it bo'lsa-da, bu borada boshqa itlardan yomonroq emasdi. Mana, u ildizni yeyapti. Shu bois iltimos qilaman, tinchlik saqlang. Jim. Bu chuqurcha ichida bizning mehribon Bim uxlayapti.

Uch kecha-kunduzdan beri giyohlardan boshqa narsa yemagan, og'riq va xavotirdan uxlay olmagan Bim anchadan beri bunchalik qotib uxlamagandi. Chuqurchaning ichi issiq va tinchgina edi. O'rmon uni giyohlar va shifobaxsh havosi bilan davolayotgandi. Rahmat senga, o'rmon!

Bim kechga tomon uyg'ondi. Tepaga chiqdi. Yurishga hamon qiynalsa-da, ahvoli ertalabkiga qaraganda anchagina yaxshilangandi. Ichining tortishishlari yumshab qolgandi. Faqat hamon madori yo'q edi. U qadrdon to'nkachaning yoniga bordi, ozgina o'tirdi, keyin yana o'zining to'shagiga qaytib bordi. Yana o'tirdi. Yana atrofni hidladi: hamma yoq tinch edi. U iliqqina, shinam chuqurchaga yotib oldi. Bim yaxshi tush ko'rdi, shekilli. Aniqrog'i ko'rdi, chunki uyqusida dumini sal likillatib qo'ydi.

Shu tariqa, u tuni bo'yi uxladi. Sovuq qotmadi.

Erta tongda uni asta shitirlagan tovush uyg'otib yubordi. Bim boshini ko'tarib quloq soldi: kimdir xazonni kovlayapti. U xazon ichidan chiqdi, burni tiq etgan shabada bo'lmagan havodagi hidni aniq belgiladi: yakantovuq!

Chidab bo'lmas ovchilik ishtiyoqi zaifgina tanani taranglashtirdi va ichidan ezayotgan og'riqni bosdi. Yakantovuq undan besh qadamcha narida edi. U panjalari bilan xazonni sochib, tumshug'ini yumshoq tuproqqa botirdi, chuvalchangning kovagini aniq nishonga oldi, keyin chuvalchangni tortib chiqardi va maza qilib yeb oldi. Qushning qanoti yerda sudralib yotardi. Noshud ovchilarning das-tidan yarador bo'lib qoladigan jonivorlar qishgacha bir amallab qiynalib kun ko'rishadi, keyin yo tulkiga yem bo'lishadi, yoki qahraton qish ayozlaridan nobud bo'lishadi.

Bim panjalarining o'rnini almashtirdi, biroq ishga berilib ketgan yakantovuq uni eshitmadi. Boshqa panjasini qo'ydi – yakantovuq yana eshitmadi. Chunki yakantovuq vaqtni boy berishi mumkin emas: issiqni sezgan chuvalchang yer sathiga yaqinroqqa

ko'tariladi, hatto xazonlar tagida yotadi ham. Bim shu tariqa pisib, unga yaqinlashdi va panjasini ko'targancha qimirlamay qoldi. Hech kim «Olg'a!» deb qichqirmadi, balki uning o'zi harakat boshladi. Avvaliga qushning ustiga sakrab, uni panjalari bilan yerga bosmoqchi bo'lgandi, biroq sakrashni uddalay olmadi. U shunchaki yakan-tovuqning ustiga qulab tushdi va uni tishlari bilan qattiq tishlab oldi. Yonboshlaganicha qushni tishlab yotdi, keyin qorin tarafiga o'girildi va... o'ljasini pok-pokiza tushirdi. Butunlay yeb tugatdi. Qushning faqat patlarigina qoldi. Yakantovuqning hatto tumshug'i ham yumshoqligini ko'rgach, Bim uni ham yeb tashladi.

Tajribali ovchi o'rgatib, tarbiyalagan Bimdek aqlli it qanday qilib o'zining obro'sini to'kdi – o'ljasini yeb qo'ydi? Hamma gap ana shunda, deb o'ylayman men. Hatto it ham yashashni xohlaydi, shu sababli ham bu ish sodir bo'ldi. Bu borada boshqacha taxmin qilish mumkin emas.

Eng muhimi, uning kuchiga kuch qo'shildi. Chanqadi. Bim mehmondo'st o'rmonlarning har qadamida uchraydigan ko'lmaklardan birini topib, tashnaligini qondirdi. Qaytishda sichqonning hidini oldi va uni oldingi tanovuliga qo'shimcha qildi. Keyin Bim shifobaxsh giyohlarni izlay boshladi. Dastlab yovvoyi sarimsoqni topib, uning qurigan barglarini chaynab uzib tashladi, keyin boshchasini kovlab oldi. Bir amallab uni yedi (nima bo'lsayam, sarimsoq-da!). O'rmonda sandiroqlab yurib, o'ziga kerakli narsalarni izlab topdi. Sarimsoqda yigirma yoki o'ttiz foizcha yod moddasi bo'lishini qayerdan bilgani faqat Xudoga ayon. Buni hech kim aniq aytolmaydi. Ikki kun muqaddam, o'ta og'ir, o'limoldi vaziyatida yotganida uzoq ajdodlarining ko'plab asrlar davomida dasturlashtirilgan tajribalari unga vahiy sifatida kelganmikan, deb taxmin qilish mumkin, xolos. Bu ham bo'lsa tabiatning bir mo'jizasi!

Bim yana besh kun davolandi. Nimalar bilan ovqatlangani ni xudo biladi, lekin qat'iyat bilan davolandi. Vaqtinchalik uyiga aylanib qolgan chuqurchada uxladi. Bir kuni hatto uxlab yotgan quyonchaga ham duch keldi, biroq uni tatib ko'rish nasib qilmadi. Quyoncha darrov shataloq otib qochib ketdi. Bim uning ortidan quvishni xohlamadi ham. Sog'lom setter quyonni quvib yetolmaydiku, u orzu qilmasa ham bo'laveradi. Faqatgina quyonni nigohi bi-

lan kuzatib, labini yalab qo'ydi, xolos. To'g'ri, o'rmon Bimni xafa qilmadi, juda ko'ngildagidek bo'lmasa-da, har holda boqdi. Bim judayam ozib-to'zib ketdi, kasallik va to'yib ovqat yemaslikdan qoq suyakka aylandi, biroq shifobaxsh gilyohlar o'z kuchini ko'rsatdi – Bim nafaqat tirik qoldi, balki inson do'stini izlab topishni davom ettirishning yo'lini ham topdi. Bu yana alohida aql-idrok ishtirokisiz, shunchaki yurakdan, sadoqat va vafodorlik tufayli sodir bo'ldi.

Yalanglikka navbatdagi tashrifida Bim to'nkachaning yoniga yotdi, o'rnidan turdi, yana yotdi, yana turdi. Ehtimol, u Ivan Ivanichni bu yerda kutib bo'lmaydi, degan qarorga kelgandir. Keyin u o'zining boshpanasiga aylangan chuqurchaga bordi, undan esa yana to'nkacha yoniga qaytdi. Bu yerda bir daqiqacha aylanib yurdi-da, yana ortiga qaytdi. Bimning u yoqdan-bu yoqqa yugurib yurishida juda kuchli toqatsizlik aks etardi. Xavotirligi tobora oshardi. Va, nihoyat, u to'nkachaning yonida to'xtamay o'tib ketdi va lo'killab yugurganicha katta yo'l tomon yo'naldi. Bu quyosh dam olishga shaylanib, qosh qoraya boshlagan paytda yuz berdi.

Bim shaharga tunda yetib keldi. O'rmondan farqli o'laroq shahar yop-yorug' edi, lekin aynan shu yorug'lik Bimni xavotirga solardi. Bunaqasini u hech qachon his etmagandi. U ehtiyotkorlik bilan, sog'ligi yo'l berganicha tez yurar, turgan gapki o'zining uyiga – egasi, Stepanovna, Lyusya, Tolik tomon ketardi. Ularning bari hozir uyda bo'lislari kerak. Biroq o'zi kutmagan holda chekka tuman-dagi yangi qurilgan egizak-uylar orasiga kelib qolgan Bim xavfli hududdagi Kulrang amakining uyini aylanib o'tishga qaror qildi. U aylanib o'tish uchun yon tomondagi ko'chaga burilgan edi, devorga duch keldi. Devorni aylanib o'tayotganida esa to'satdan eshik oldida qotib qoldi: Tolikning izi. Bim judayam yaxshi ko'radigan bola bu yerdan o'tgandi. U hozirgina o'tgan, iz yangigina edi. Eshik yopiq edi, biroq Bim uzoq o'ylab o'tirmay uning tagidagi keng tirqishdan sudralib hovliga kirdi va kichik do'stining izidan ketdi. Ha, aniq, bola hozirgina shu yerdan o'tgan! Bu yer kichkinagina bog' bo'lib, uning o'rtasida ixchamgina ikki qavatli uy joylashgandi. Bolaning izi o'sha uy tomon olib borardi.

Bim yaqindagina Tolik kirgan eshik yoniga keldi. Kuchukchaligidan har qanday eshikka ishonch bilan yondashishga o'rgatilgani

uchun ham eshikni dadil tirnadi. Javob bo'lmadi. Bim o'zining hozirgi ishini insonlar surbetlik deb hisoblashlari mumkinligidan butkul bexabar edi. U yana bir marta, bu safar qattiqroq eshikni tirnadi.

Eshik ortidan ayol kishining ovozi eshitildi:

– Kim?

«Men, – javob qaytardi Bim. – Vov!»

– Bu yana qanaqasi bo'ldi? Tolik! Kimdir sening oldingga iti bilan kelibdi. Shu yetmay turuvdi o'zi!

«Bu men! – dedi Bim. – Vov!»

– Bim! Bim! – qichqirib yubordi Tolik va eshikni ochdi. – Bim! Qadrdonim Bim! Bimka!

Bola itni quchoqlab oldi.

Bim bolaning qo'lini, kiyimini, shippaklarini yaladi va ko'ziga tikildi. Shuncha sinovlardan o'tgan itning bu nigohida qanchalar umid, ishonch va mehr bor edi-ki!

– Oyi, oyijon, uning ko'zlariga bir qarang! Xuddi odamnikiga o'xshaydi! Bimka, aqli Bimka, o'zi meni topib kelibdi. Oyijon, uning o'zi meni topibdi...

Biroq bolaning onasi do'stlar uchrashuvdan quvonchini ichiga sig'dirolmayotganlarini miq etmay kuzatardi. Quvonchlari biroz bosilgach, onasi so'radi:

– Bu o'sha itmi?

– Ha, – dedi Tolik. – Bu Bim. U aqli it.

– Hoziroq haydab yubor.

– Oyijon!

– Hoziroq, dedim!

Tolik Bimni bag'riga bosdi:

– Oyijon, unday qilmang. Iltimos! – yig'lab yubordi bola.

Eshik qo'ng'irog'i jarangladi. Erkak kishi kirdi. U mehribon, biroq xorg'in ovozda so'radi:

– Nega baqir-chaqir qilyapsizlar? Tolik, nima, yig'layapsanmi? – u paltosini va poyabzalini yechdi, shippagini olib kiydi, keyin bola bilan itga yaqinlashib, so'radi. – Voy, jinnivoy-ey, nega yig'laysan? – u Tolikning boshini siladi, Bimning qulog'ini tortqilab qo'ydi. – Yo, tavba! It. Qanday it degin-a... Biram ozg'in!

– Dadajon... Dada, bu Bim, u yaxshi it. Iltimos, uni haydamang.

Onasi endi qichqira boshladi:

– Har doim shu! Men unga bir narsani aytaman, sen boshqacha gapirasan. Shu ham tarbiya bo‘ldimi? Bolaning tarbiyasini buzyapsan! – keyin u «siz»lashga o‘tdi. – Semyon Petrovich, bu ketishda bir kunmas-bir kuni barmog‘ingizni tishlab qolasiz, lekin unda kech bo‘ladi.

– Shoshma, shoshma, baqiraverma. Tinchlan, – dedi Semyon Petrovich va xotinini ichkari xonaga olib kirib ketdi.

Uzoqdagi xonadan ayolning yanada qattiqroq baqirgani, erining uni ko‘ndirishga urinishlari eshitilardi.

Bo‘layotgan ishlardan Bim o‘zining bu yerda bo‘lishiga Ona qarshi, Ota esa rozi ekanligini va u hozircha Tolikning uyida qolishini tushundi. Hatto inson uchun ham ularning so‘zlarini tushunish shart emas, quloqlarini yopib olsa ham, hammasini tushunib yetgan bo‘lardi. Itning esa quloqlari ochiq va ko‘zlari aqlli edi, qanday ham tushunmasin! Rostdan ham Tolik Bimni o‘zining alohida xonasiga olib kirib ketdi (bu yerdan faqatgina Tolikning hidi anqib turardi).

Na Bim, na Tolik Ota bilan Onaning keyingi gaplarini eshitishmadi.

O‘sha uzoqdagi xonada quyidagicha suhbat bo‘lib o‘tardi:

– Nega Tolikning oldida «Bolaning tarbiyasini buzyapsan»ga o‘xshagan gaplarni aytyapsan? Bu bolaga yomon ta’sir qilishi mumkin.

– Ha-a, demak, kasalligi shundoqqina ko‘rinib turgan daydi itni chinni-chiroqdek toza uyimizga kiritish yomon ta’sir qilmaydimi? Nima, esingni yeb qo‘ydingmi? Bolamiz ertagayoq bu itdan biron kasallikni yuqtirib olishi mumkin. Men bunga yo‘l qo‘ymayman. Hoziroq itni haydab yubor!

– Eh, onasi, onasi! – xo‘rsindi Semyon Petrovich. – Maqsadingga erishish uchun oqilona yo‘l tutishni bilmaysan-a!

– Semyon Petrovich, o‘sha oqilona usulingiz bilan qo‘shmozor bo‘ling!

– Obbo, yana o‘zinikini ma’qullaydi-ya... Bu yerda aql bilan ish ko‘rish, ya’ni Tolikning ham ko‘nglini sindirmaslik, itni ham haydash kerak. – u xotiniga tikilib qo‘shib qo‘ydi. – Gap shu: itni haydaymiz

– Oldinroq shunday desang bo‘lmasmidi? – ancha tinchlandi Ota.

– Buni Tolikning oldida aytolmasdim-da... Sen esa tentakka o‘xshab, nuqul «Hayda!» deb qichqirasan!

Ular Tolikning xonasiga kirishdi.

– Mayli, yashab tura qolsin... – dedi Ota.

– Albatta, albatta, – ma’qulladi Ota.

Tolik quvonib ketdi. U minnatdorlik ila ota-onasiga tikildi, Bim haqida so‘zlab berdi, u nimalarni bilishini ko‘rsatdi.

Bu hamma hayotdan mamnun yashaydigan baxtli oila edi.

– Tolik, faqat bitta sharti bor. Bim dahlizda yotadi va sening xonangga mutlaqo kirmaydi, – xulosa qildi Ota.

– Mayli, mayli! – darrov rozi bo‘ldi Tolik. – Bim judayam poki-za it. Men uni yaxshi bilaman.

Bim, turgan gapki, Otaning yaxshi, bosiq, dadil va xotirjam odam ekanligini darrov payqadi. Tolik sal keyinroq Bimni xonalarni aylantirib, o‘zlari yashaydigan uy bilan tanishtirdi. Shunda Bim Otaning qo‘lida gazeta ushlagancha bir o‘zi xotirjamgina o‘tirganini ko‘rdi. Semyon Petrovich ismli Ota yaxshi odam ekan.

Tolik yarim tungacha Bim bilan ovora bo‘ldi: junlarini taradi, ozgina ovqat berdi (Ota «Och itga ko‘p ovqat berish mumkin emas, nobud bo‘lishi mumkin» dedi), onasidan kichkina to‘shakcha (yangigina!) so‘rab oldi-da, uni dahlizga yoyib qo‘ydi va dedi:

– Bim, bu sening joying. Joyingga yot!

Bim darrov to‘shakchaga yotdi. U hozircha shu yerda yashashini tushungan edi. Kichkina odamchanning erkalashlari va e’tiboridan yuragida iliq to‘lqin paydo bo‘ldi.

– Tolik, uxlaydigan vaqt bo‘ldi. Soat o‘n yarim bo‘libdi. Uxlashga yot, – dedi otasi.

Tolik o‘rniga yotdi. Ko‘zi uyquga ketarkan, u: «Ertaga Stepanovnaning oldiga boraman-da, to Ivan Ivanich qaytguniga qadar Bim biznikida yashab tursin, deb aytaman» – deb o‘yladi. U Stepanovnaning uyiga borayotganini, u yerda Lyusya borligini, o‘zi Bimni sayrga olib chiqishini aytganida, onasi rosa qichqirdi, otasi esa: «U yoqqa qaytib bormaysan!» – dedi. Tolik yig‘lab yuborganidan keyin, otasi onasiga qarab: «Biz oqilona usulni unutib qo‘ydik», –

dedi. Keyin Tolikning boshini silab: «Nimayam qilarding? Sen ulg'ayishing, katta odam bo'lishing kerak. It boqib, qandaydir kampirlarning vaysashini eshitib yuraversang, hech narsaga erisholmaysan!», – dedi. Endi esa Bim ularning uyida yashaydi, «qandaydir kampirlar»ga borish ham shart emas... U faqat bo'lgan voqealarni aytib berish uchun bir marta Stepanovnanikiga borib keladi... Lyusyani ham ko'radi... Lyusya judayam ajoyib qiz-da... Bim uxlayotgan bo'lsa kerak. Bim yaxshi it...

Shuni o'ylaganidan so'ng, Tolik xotirjam tortib, ichi quvonchga to'ldi va qotib uxlab qoldi.

... Tun yarmidan og'ganida Bim qadam tovushlarini eshitdi. U ko'zini ochdi, boshini ko'tarmay, ovoz kelgan tomonga qaradi. Ota sekingina telefonga yaqinlashdi, bir zum indamay turdi, atrofiga quloq soldi, keyin go'shakni ko'tarib, shivirlab ikkita so'z aytdi:

– Mashina... Hoziroq...

Turgan gapki, Bim uning so'zlarini tushunmadi. Biroq ota xavotirli nigoh bilan Tolikning eshigiga qarab qo'yanini sezdi. Ota oshxona tomon ketdi, u yerdan arqon va qandaydir tuguncha ko'targanicha oyoq uchida yurib chiqdi.

Bim nimalardir bo'layotganini, Ota o'zgarib qolganini, hozir u mutlaqo o'ziga o'xshamasligini angladi. Ichki sezgisi unga vovullab, Tolikning xonasi tomon qochish kerakligini uqtirdi! Bim shunday qilishga shaylandi ham, biroq shu paytda uning yoniga kelgan Ota uning boshini siladi (demak, hammasi yaxshi). Keyin Ota itning bo'yinbog'iga arqon bog'ladi, paltosini kiydi, eshikni sekingina ochdi va Bimni tashqariga olib chiqdi.

Yo'lak oldida yangigina avtomobil yurishga shay bo'lib turardi.

Mana, Bim orqa o'rindiqla o'tiribdi. Oldindagi o'rindiqla bir kishi mashinani haydab ketyapti, Semyon Petrovich uning yoniga joylashib olgan. Bimning yonida turgan xaltachadan go'sht hidi kelyapti. Bimning bo'yniga arqon bog'langan. Odamlar miq etishmaydi. Bim ham. Tun. Zim-ziyo qorong'i osmon. Osmonni xuddi Xristian Andreyevichning uyidagi cho'yan qozonga o'xshash qop-qora bulutlar qoplab olgan. Bunaqangi tunda avtomobilda ketayotgan itning oynadan qarab, ketayotgan yo'lini eslab qolishi imkonsiz. Bim o'zini qayerga olib ketishayotganini ham bilmasdi. Itning nima ishi

bor? Olib ketishyaptimi, bo'ldi-da... Faqat arqonning nima keragi bor? O'rmonga yetib kelib, to'xtashganida Bimni kuchli xavotirlik hissi qamrab oldi.

Semyon Petrovich miltig'ini oldi-da, bo'yniga arqon bog'langan Bimni o'rmon ichiga boshlab ketdi. Ular fonuscha yordamida yosh nihollarni yoritib, pastdagi soylik tomon tushib ketishdi. So'qmoq ulkan emanlar bilan o'ralgan ixchamgina yalanglikka borib taqaldi. Shu yerda Semyon Petrovich Bimning arqonini daraxtga bog'ladi, tugunchani ochib, undan go'sht solingan yaloqni oldi va miq etmay itning oldiga qo'ydi. Keyin ortiga qaytib keta boshladi. Biroq bir necha qadam bosgach, orqasiga o'girildi, fonuschaning shu'lası bilan Bimning ko'zini qamashtirib:

– Mayli, xayr. Shunday bo'lsin, – dedi.

Hayratda qolgan, mavhumlikdan qovrilgan va qattiq ko'ngli og'rigan Bim uzoqlashayotgan fonus chirog'ini jimgina, faqat ko'zlari bilan kuzatardi. U hech narsani tushunmagandi. Garchi havo kuz uchun notabiiy ravishda iliq bo'lsa-da, u hayajondan xuddi ayozda qolgandek qattiq qaltirardi.

Avtomobil ketdi. «O'sha yoqqa ketdi» – deb o'yladi Bim borgan sari uzoqlashib, oxiri butunlay eshitilmay qolgan mashina ovozi-ga quloq tutarkan. Bu ovoz xuddi kerak bo'lib qolganida qayoqqa yurish kerakligini ko'rsatayotgandek edi.

O'rmon miq etmasdi.

Zim-ziyo kuz tunida arqoni o'rmondagi ulkan daraxtga bog'langan it esankirab o'tirardi.

Aynan shu tunda shunaqa bo'lganini qarang! Noyabr oyining oxirida, shunaqangi g'ayrioddiy iliq havo hukm surganida, uzoq-uzoqlarda momaqaldiroq ovozi gumburlashi kamdan kam bo'ladi, lekin shu tunda bu mo'jiza yuz berdi!

Bim oldin daraxt tagida, sezgisi yetganicha atrofni tekshirib, quloq solib o'tirdi. It bir marta o'rmonga kelgan bo'lsa, uni tanishi qiyin emas. Bim bir vaqtlari egasi bilan birga bo'ri oviga chiqishgan joyda o'tirganini tezgina aniqladi. O'sha o'rmon. Lekin hozircha yaqin-atrofdan bo'ri hidi kelmayapti. O'zi hech qanday yomonlik qilmagan inson tomonidan tashlab ketilgan, himoyasiz, yolg'iz qolgan Bim tun zulmatiga tikilgancha, biqinini daraxtga tirab yotdi.

Bim ichki sezgisi yordamida endi Tolikning uyiga bormasligini, faqatgina o'zining qadrdon eshigi yoniga qaytishi lozimligini tushundi. U yoqqa shunaqangi borgisi kelib ketdiki, hatto o'zini daraxtga bog'lab turgan arqonni ham unutib, sakrab turib yo'lga otildi va yerga quladi: ko'ksida turgan qattiq og'riq butun tanasiga tarqalib, uni qulatdi. Endi Bim to'rttala oyoqlarini cho'zganicha, qimirlayolmay yotardi. Biroq bu hol uzoq cho'zilmadi, u o'rnidan turdi va xuddi taqdiriga tan bergandek, yana daraxt yoniga o'tirdi.

Qorong'i tunda yana momaqaldiroq gumburladi. Uning gulduri endi ancha yaqindan eshitilib, o'rmon uzra keng va og'ir dumalab o'tdi. Shamol esib, daraxt shoxlari qarsillab ingray boshladi, keyin barcha tovushlar yagona qo'rqinchli qora shovqinga aylandiki, uning orasida yarim qurib qolgan tog'terakning g'irchillashi aniq eshitalardi. Juda qarib ketgan, ildiziga yaqin joydan sinishga ulgur-gan-u, lekin hali qulab tushmagan tog'terak bir maromda g'irchillar, uning qo'rqinchli bo'g'iq tovushi butun o'rmonning shovqinidan-da kuchliroq qo'rqitardi.

O'rmon shovqin solgandan solardi. Shamol esa hamon kuchay-gandan kuchayar, zulmataro yagona hukmdorga aylanganidan qu-vonib shunaqangi o'kirardiki, hatto qudratli eman daraxtlari ham ingrab yuborishardi.

Bimning nazarida qudratli emanlar, jon taslim etayotgan tog'terak va shafqatsiz kimsalararo tushkunlikda qolgan itning tepa-sida qandaydir ulkan, qop-qora narsa yonboshlab yotgandek tuyular-di. O'sha qora narsa tim qora choponining etaklari bilan o'rmonning tepasini sharaqlatib urar, daraxtlarni quchoqlab olib, yovvoyilarcha raqsga tushishga majburlar, ildizi bilan sug'urib olib, havoda chirpi-rak qilib aylantirar va yuzlarcha dahshatli ovozda o'kirardi.

Bim shunaqangi dahshatga tushdiki, hatto tanasidagi og'riqni ham bir muddat unutdi. U daraxt tanasiga mahkam yopishib oldi. Shamol o'rmonga sovuqlik olib keldi, shu bois pastdagi jarlikdan badanni junjiktiruvchi sovuq o'rmalab chiqdi. Bim sovuq qotgani-dan qaltiray boshladi. Kech kuzdagi iliqlik doimo shu tarzda keskin izg'irinlar bilan almashinadi. Bim shamoldan himoyalanish uchun daraxt tanasining boshqa tarafiga surildi. Biroq oldinda zim-ziyo zulmat hukmron edi. Bim sovuqdan tinmay qaltirardi.

Kutilmaganda uzun olovli pichoqqa o'xshab ketadigan chaqmoq zim-ziyo osmon bag'rini tilib o'tdi, uning ortidan qudratli gulduros yangradi, qaldirab nimagadir urildi, nimadir qarsilladi, gursil-lagancha pastga quladi va o'rmon uzra har tarafga dumalab keldi. Momaqaldiraq va chaqmoq o'rmon uzra shamol qanotida raqs tushayotgan ko'rinmas xilqatni cho'chitib yubordi shekilli, u qochib ketdi, atrofga sukunat cho'kdi va to'satdan yomg'ir tomchilari shatirlab tusha boshladi. Sovuq yomg'ir sharros quydi-yu, lekin tezgina to'xtadi.

O'rmon xuddi kuchli jangdan keyin o'zini o'nglay boshlagan-dek asta ovoz chiqarib, to'ng'illay boshladi. Shu payt kutilmaganda tog'terak qarsillab sindi, xuddi qo'shnilari bilan vidolashayotgandek bir zum atrofidagi daraxtlarga ilinib turdi-da, keyin o'lim talvasa-sida shox-shabbalarini shatirlatib sindirgancha yerga quladi: so'nggi jangga dosh berdi-yu, jon taslim qildi. Tog'terak Bim bog'langan emanning yonginasida o'sgandi, shu sababli ham daraxtning o'limini eshitish unga qo'rqinchli tuyuldi, ayniqsa, tog'terak o'zining ustiga qulab tushayotgandek tuyulganida qattiq dahshatga tushdi. U mash'um eman daraxtidan uzoqlashishga urindi, biroq bo'ynidan bog'langan arqon bunga yo'l bermadi.

Kasal, holdan toygan Bim ertalabgacha sovuqdan dildirab o'tirdi. Oldidagi yaloqqa solingan go'shtga qayrilib ham qaramadi.

Tong saharda uzoq-uzoqlarda bo'ri uvulladi. Bo'ri yolg'iz edi, chunki o'rmonda unga javob qaytargan ovoz eshitilmadi. Bu o'sha bo'ri ovi paytida qochib qolishni uddalagan ayyor bo'ri edi. Bimning yelkasidagi junlari tikrayib ketdi, tishlari takillay boshladi. U havoni zo'r berib hidlaganicha, bo'rining qanchalar uzoqdaligini aniqlashga urinardi. U qahramonlikka tenglashtirishga arziydigan o'z-o'zini himoya qilish qobiliyati borligini mutlaqo bilmagan holda bo'ri bilan uchrashuvga shaylanardi (axir o'shanda Kulrang amakini tishlab, yerga yiqitishiga sal qolgandi-ku!). Biroq bu safar bo'ri kelmadi. Shamol tingan, shu sababli uzoqdagi yirtqich Bimning hidini ololmasdi, o'z hududini tekshiradigan vaqti esa aftidan hali kelmagandi. Biroq vahima ila kutayotgan Bim o'zi sezmagan holda arqonini torta boshladi, bundan bo'yinbog'i tomog'ini bo'g'ib, ovozi xirillab qoldi. Shunda Bim daraxtga yaqinlashdi, yelkasi bilan

emanga tiraldi, qoziq tishlarini arqonga botirdi va... uni g'ajiy boshladi. Pichoqdek o'tkir tishlari arqonni uzib tashladi.

Uddaladi!

Endi Bim ulkan o'rmon ichra yolg'iz bo'lsa-da, biroq ozod edi.

Itlar qanday zotga mansub bo'lishmasin, ertami-kechmi shunday yo'l tutishadi. Zanjirband o'tiradigan qo'riqchi itlar zudlik bilan arqonni uzib tashlashadi, chunki ular faqat mustahkam zanjirni yoq-tirishadi. Mops zotli itlar garchi arqonni g'ajiy olmasa-da, bog'lab qo'yilganida o'zini har tarafga urib, tipirchilaydi, shovqin soladi, hatto bo'g'ilib qolishi ham mumkin. Tozi itlar uzoq o'ylashadi-yu, keyin arqonni g'ajib, uzib tashlashadi. Faqat parranda ovlashda ishlaydigan ziyoli itlar egasini uzoq kutib o'tirishi mumkin, biroq xavfni sezsa yoki hech kim yordamga kelmasligini tushunib, tushkunlikka tushsa, arqonni uzib tashlashadi. Bim bilan ham shunday bo'ldi: vaqti-soati yetdi va u o'zi qilishi kerak bo'lgan ishni amalga oshirdi.

Bim atrofiga alanglab va o'rmon tovushlariga quloq tutib, ehtiyotkorlik bilan daraxtdan uzoqlashdi. Kutilmaganda yonginasida zag'izg'on sayrab qoldi. «Bu yerda kimdir bor! Kimdir bor, kimdir bor, kimdir bor!» Bir asrdan oshiq umr ko'rgan ulkan keksa emanni qurshab olgan yoshgina niholchalarning orasidan ketayotgan Bim zag'izg'onning birinchi ogohlantirishi yangraganidayoq taqqa to'xtadi. Hozir u og'riqni deyarli his qilmasdi. Nazarida og'riq uning ich-ichiga yashirinib olgandek tuyulardi. Bim xazonlarning ustiga yotib, bo'ynini cho'zdi va boshini yerga bosdi. Zag'izg'on yonginasida shaqilladi. Bim baland daraxt shoxidagi qushni ko'rdi. Turgan gapki, u bir daqiqani ham boy bermay bu yerdan ketishi kerak edi-ku, lekin zag'izg'on Bim ketayotgan tomonda xavf borligidan darak berayotgandi. U yuragi o'ynab, ayni paytda qat'iyat bilan va o'z vaqtida dushmani haqida xabar bergan zag'izg'ondan minnatdor bo'lgan holda kutib o'tirardi. Rahmat senga, zag'izg'on!

Faqat yirtqich hayvonlar ajoyib xabarchi, tug'ma dumli telegraf, tinch o'rmon ahli uchun ko'ngilli xizmatchi bo'lgan bu qushni yomon ko'rishadi. Agar zag'izg'on bo'lmaganida edi, yuguruvchi va uchuvchi o'rmon ahli o'rmon hayoti haqidagi ma'lumotlardan butunlay bexabar qolishgan bo'lardi.

Yalanglik chekkasiga chiqqan urg'ochi bo'ri to'xtab qoldi. Uning oldingi oyog'i qiyshiq (demak, qachonlardir uni inson yaralagan) edi. U cho'loqlanganicha yana bir qadam bosdi, boshini to'g'ri Bim tomonga burdi va shiddat bilan... u tomonga otildi. Biroq mo'ljaliga yetolmadi – qiyshaygan oyog'i xalaqit berdi. So'nggi daqiqada Bim yon tomonga sakrab, bo'riga chap berib qoldi. Yirtqich o'girildi va uch oyoqlab sakraganicha yana Bimga otildi. Biroq Bim o'qdek uchib, eman tomon qochdi-yu, kutilmaganda yelkasi daraxt tanasidagi kovakka tegib ketganini sezdi. Bu urg'ochi bo'rining ikkinchi omadsizligi bo'ldi, chunki Bim bir soniyada kovakka kirib oldi, tishlarini irjaytirgancha ovozi boricha irilladi va shunaqangi vovullay boshladiki, bunaqasi umrida bo'lmagan edi. Bimning ovozi o'rmondagi hammaga tushunarli bo'lgan yagona so'zni anglatib, jaranglay boshladi: «Falokat-t! Falokat-t!» O'rmon esa uning ovozini ilib olib aks-sado berib yordamlashdi: «Falokat-t! Falokat-t!»

Rahmat senga, o'rmon!

Zag'izg'onlar bu tashvishli xabarni telegrafdan-da tezroq bir-biriga uzata boshlashdi: «Kimdir kimnidir yeyapti... Kimdir kimnidir yeyapti... kimdir kimnidir... kimdir kimnidir...» Qorovulxonada o'tirgan o'rmonchi itning jon-jahdi bilan vovullashi va zag'izg'onlarning tinimsiz shaqillashlarini eshitib, bu holat yaxshilikdan darak bermasligini tushundi. U miltig'ini olib, sochma o'q joyladi-da, o'rmon ichkarisiga – shovqin eshitalayotgan tomonga qarab ketdi. Inson shaxdam odimlar, chunki o'rmon uning deyarli uyiga aylanib qolgan, o'rmon ahlining bari uni yuzidan tanirdi. Uning o'zi ham o'rmon jonivorlarining barini bilar, hatto urg'ochi bo'rini ham tanir, biroq negadir uni o'ldirmasdi. «Yosh ovchilardan birortasi bo'rining qonuniy hududiga kirib qolib, qo'rqqanidan daraxt ustiga chiqib olgan, itini esa bo'rining changaliga tashlagan, shekilli-yov?» deb o'yladi ovchi qadamini tezlashtirarkan. Itning jon-jahdi bilan hurishi ancha uzoqdan – Bo'rijarning oxirroq'idan eshitilardi. Negadir to'satdan itning hurishi to'xtab qoldi. «Tayyor bo'ldi!» degan xulosaga keldi o'rmonchi va qadamini sekinlashtirib, o'sha tomonga ketaverdi. Eh, u tezroq yurganida yaxshiroq bo'lardi. Shoshilishi kerak edi!

O'sha paytda asriy emanning oldida nima hodisa yuz berayotgandi?

Urg'ochi bo'ri «pixini yorgan» edi. Bimning ovozi o'chishi uchun u kovakdan nari ketdi, chunki it vovullaganidan keyin mil-tiq ko'targan odam, albatta, kelishini yaxshi bilardi. Bo'ri hujum qilishdan to'xtagani uchun Bim ham vovullamay qo'ydi. Oradan biroz vaqt o'tgach, bo'ri yaqinroq surildi va Bimdan ko'zini uzmay o'tiraverdi. Shu tariqa ikkita it – Bimning uzoq qarindoshi va insonning ashaddiy dushmani bo'lgan yovvoyi it va inson mehrisiz yashay olmaydigan ziyoli it, – bir-biri bilan ko'z urishtirib o'tirishaverdi. Bo'ri barcha odamlarni yomon ko'rar, Bim esa o'ziga yaxshi munosabatda bo'lgan barcha insonlarni yaxshi ko'rardi. Insonning do'sti bo'lgan it va odamlarning dushmani bo'lgan it bir-birining ko'ziga tikilishardi.

Urg'ochi bo'ri emanning kovagiga kira olmasligini bilardi, shunga qaramay unga yaqinroq keldi, tumshug'ini cho'zdi. Bim ichkariroqqa tisarilib, tishlarini irjaytirdi, lekin vovullamadi, chunki o'zining qal'asida unga dushmanning kuchi yetmasdi.

Bu holat qancha vaqt davom etardi, bunisi noma'lum-ku, lekin kutilmaganda bo'ri burnini cho'zib atrofiga alangladi, keskin sakrab kovakdan nari ketdi va xuddi xavf qarshisida turgandek qaddini bukkanicha qadam-baqadam Bim bog'lab qo'yilgan eman daraxti o'sgan yalanglik tomon tisarila boshladi. U negadir qo'rqib, dumini yerga osiltirgancha yurib ketardi.

Bimni ovlash ishtiyoqida bo'lganidan bu joyni u nazardan qochirgan, chunki tungi yomg'ir hidlarni yuvib ketgandi. Hozir, shamol esa boshlagan paytda u daraxtga bog'langan arqonni va yaloqqa solingan go'sht hidini payqab qoldi. Ha, bular nimani anglatishini urg'ochi bo'ri juda yaxshi bilardi. Bu yerda odam bo'lgan! Arqondan odam isi anqir, dumaloq idishdan temir hidi kelar, yerda inson izlari qolgandi. Go'sht esa, turgan gapki, qopqonga qo'yilgan xo'rak! Bo'ri qadamini sekinlatdi, yon tarafga sakradi va xuddi ulkan balodan qochgandek justakni rostlab qoldi. Noshud ovchilar tashqi ko'rinishini va hidini niqoblamagan qopqonni ko'rganida, bo'rilar shunday qochib qolishadi.

Jasur va mag'rur urg'ochi bo'ri shu tariqa Bimdan qochib ketdi.

... Yer yuzidagi bo'ri yomon ko'radigan yagona mavjudot, bu – inson. Olamda so'nggi bo'rilar yurishibdi, sen – inson esa o'rmonlardagi ozodlikni yaxshi ko'radigan, yerni nopokliklardan, o'laksalardan, kasal jonivorlardan tozalaydigan va o'rmon hayotini faqat sog'lom nasl qoladigan qilib boshqarib turadigan o'rmon sanitarlarini o'ldiraverasan. So'nggi bo'rilar yurishibdi... Ular qo'tir tulkilar kasalini boshqalarga yuqtirmasligi, exinokokk⁴dan zaiflashib qolgan quyonlar o'rmon va dalalarda kasallik tarqatmasliklari, zaif va kasalmand nasl qoldirmasliklari uchun, tulyaremiya⁵ bilan kasallangan sichqonlar ko'payib ketgan yillarda ularni ko'plab qirib tashlash uchun yurishadi. Yer yuzida so'nggi bo'rilar yashashyapti.

Ular oydin tunlarda hasrat to'la ovozda uzoq-uzoq uv tortganlarida, butun atrofga ochiqdan ochiq va bevosita «Men borma-a-n! Men borman!» deb berayotgan xabarlarini eshitib, sen – insonning yuraging ortga tortib ketadi. Axir sen – inson urg'ochi bo'ri itning endigina ko'zi ochilgan kuchukchasiga tegmasligini, uni o'z bolasidek qabul qilishini, odamning chaqaloq bolasiga hujum qilmasligini, balki uyasiga olib kirib ketib, uni o'z suti bilan emizib boqishga harakat qilishini bilmaysan-da! Bo'rilar inson bolasini boqib katta qilganlari haqidagi voqealar qanchalar ko'p! Chiyabo'rilar bunday ishga qodir emas. Hatto itlar ham bunday qilishmaydi. Bo'ri o'zi yashaydigan hududdagi qo'ylarga tegadimi? Aslo. Biroq sen, inson baribir bo'ridan qo'rqaverasan. Chunki nafrat aqlingni xiralashtirib qo'yadi (jonivorlardan farqli o'laroq), ba'zan vujudingni shunchalik qamrab oladiki, hatto foydali narsani zararli, zararli narsalarni esa foydali deb bilasan.

Biroq so'nggi bo'rilar ham yer yuzasida yurishibdi.

Ulardan biri Bimdan emas, balki insonning jirkanch va xavfli hididan qo'rqib qochib ketdi. Ularning uchrashuvi nima bilan tugashini va urg'ochi bo'ri kovak oldida qancha vaqt o'tirishi mumkinligini biz bilmaymiz. Balki ular iskashib qolisharmidi (axir u yagona urg'ochi bo'ri, Bim esa – erkak it edi). Biz sodir bo'lmagan ish haqida gapirmaymiz, shunchaki odamlar yuzlab marta bo'rilar

⁴ Exinokokk – gijjaning bir turi.

⁵ Tulyaremiya – kasal kemiruvchilardan odamlarga yuqadigan og'ir kasallik.

to'dasida yurgan itlarni ko'rganlarini eslatib o'tmoqchimiz, xolos. Biroq bunday taqdir Bimni chetlab o'tdi.

Urg'ochi bo'ri qochib ketganidan so'ng, turgan gapki, Bimning qattiq vovullagan paytida yana qayta shikastlangan ko'ksi og'riy boshladi. Uning nafasi siqdi va kovakdan emaklab chiqishga urin-gan edi, yerga yiqilib tushdi. Mayli, nima bo'lsa bo'ldi endi! U ancha vaqt yotib, nihoyat o'ziga kelganidan so'ng ham yaloqda turgan go'shtni yemadi. Uning kuchi yetganicha olg'a yurishdan boshqa iloji qolmagandi.

Bim oldinga intildi. U bir chaqirimcha keladigan ulkan, tik jar-lik yonbag'ridan uzoq va juda qiynalib ko'tarildi. Yonbag'irning o'rtalarida urg'ochi bo'rining iziga duch keldi, uni kesib o'tishga botinolmadi (axir u shu tomondan kelgandi!), shu bois yon to-mondagi changalzorga aylanib ketgan tikanli butalar tomon qayrildi va... bo'rini ko'rdi. U shundoqqina qarshisida o'lib yotardi. Bu bo'ri ovi vaqtida ovchilar doirasi ichiga tushib qolib, o'ladigan darajada yaralangan bo'ri edi. Urg'ochi bo'ri hamon uning atrofida gir ay-lanib, insonni dahshatga soluvchi qayg'usi haqida tevarak-atrofga xabar berib turardi. O'lik bo'ri. Uning mo'ynasi parcha-parcha bo'lib osilib tushgan, tanasi erib ketgandek kichrayib ketgandi. Faqatgina tirnoqlari yanada uzayib, top-toza va dahshatli bo'lib qol-gandi. Bim hatto o'lib, chirib ketgan bo'rining tirnoqlari saqlanib qolishini ko'rdi. Bu tirnoqlar vahimaga solardi.

Bim kuchi boricha tezroq ortiga burilib, o'zini bu tomonga burib yuborgan iz bor so'qmoqqa qaytishga shoshildi.

Va, nihoyat u tepaga chiqdi, kecha avtomobil turgan joyda to'xtadi, atrofga alangladi va o'ziga kerak bo'lgan tomonga – uyi tarafga qarab ketdi. Yana madori qurigan paytlari goh g'aramlar ichida, goh qarag'ayning to'kilgan ignabarglari ustida yotib dam oldi, yana yo'l-yo'lakay giyohlarni izlab topib yedi.

Katta yo'l yoqalab ozg'in, cho'loq it yugurib borardi. U qiyna-lib, sekingina, lekin faqat oldinga intilardi. U mehr mavjud bo'lgan, eshigi oldida yotib egasini kuta oladigan, ishonch va oddiygina insoniy erkalashga umid qilsa bo'ladigan eshik tomon intilardi.

... Tolik-chi? U ertalab uyg'onganidan so'ng nima bo'ldi?

Bola uygʻongan zahoti tungi kiyimda Bimdan xabar olgani yugurdi va toʻsatdan qichqirib yubordi:

– Oyi! Bim qani-i?! Qani?!

Onasi unga taskin berishga shoshildi:

– Bimning yozilgisi kelgan ekan, dadang uni koʻchaga chiqarib yubordi, lekin u qaytib kelmadi. Qochib ketdi. Dadang rosa chaqirdi, it esa qochib ketdi.

– Dada! – yigʻlab yubordi Tolik. – Bu yolgʻon-a, toʻgʻrimi? – tungi kiyimdagi bolakay oʻzini oʻrniga tashladi, taʼna, oʻtinch va umid toʻla ovozda qichqirdi. – Bu yolgʻon! Sizlar aldayapsiz!

Endi Semyon Petrovich uni yupata boshladi:

– Iting keladi. Albatta, keladi. Agar qaytib kelmasa, oʻzimiz uni izlab topamiz va uyga olib kelamiz. Albatta, oʻzimiz boqamiz. It igna emas-ku, topamiz.

Tolik yigʻlashdan toʻxtab, bitta nuqtaga tikilib qoldi. Keyin ota-onasiga oʻgirilib, koʻz yoshlarini artди-da, qatʼiy ohangda dedi:

– Uni baribir topaman!

Bola bu soʻzlarni shunaqangi qatʼiyat bilan aytdiki, ota-onasi xavfsirab bir-biriga qarab qoʻyishdi. Ularning koʻzlarida «Bolaning oʻz fikri bor» degan bir xil fikr aks etib turardi.

Oʻsha kundan boshlab Tolik uyda ham, maktabda ham ogʻziga talqon solib yuradigan, mahdud kayfiyatli, yaqinlariga ehtiyotkorlik bilan muomala qiladigan boʻlib qoldi.

U Bimni izlardi. Madaniyatli oilaning bolasi ekanligi koʻrinib turgan, sarishta kiyingan bolakayning shahar koʻchalarida oʻtkinchilarni toʻxtatib, «Amakijon, mabodo qora quloqli oppoq itni koʻrmadingizmi?» deb soʻrab yurganini koʻp koʻrish mumkin edi.

Oʻn toʻrtinchi bob

YANA QADRDON ESHIK TOMON

Bim shaharga yetib kelganida, oyoqlari oʻziga boʻysunmay qolgandi. Chunki u yana och edi. Axir katta yoʻlning yoqasida nimani ham yeyish mumkin? Hech narsani. Uloqtirib yuborilgan tarvuz poʻchogʻini topish mumkin, lekin bu ovqat emas-da! Bunaqangi itga goʻsht, yaxshi suyuq boʻtqa, non toʻgʻralgan karam shoʻrva (agar

dasturxondan ortib qolsa), xullas, oddiy odamlar tanovul qiladigan ovqatlar kerak. Bim esa ikki haftadan beri ochdan och yuribdi. Etik ko'krak qafasini shikastlagan bir paytda och qolishi – asta-sekin o'limga eltishi aniq edi. Bunga temir iz qisib, shikastlagan orqa oyog'i urg'ochi bo'ri bilan olishuv paytida yana qattiq shikastlanganini va uch oyoqlab hakkalab yurayotganini ham hisobga olsak, Bimning qadrdon shahriga kirib kelgan paytidagi ahvolini tasavvur qilish mumkin...

Biroq dunyo yaxshi odamlardan xoli emas. Shahar chekkasida u bittagina eshigi va bitta derazasi bor kichkinagina uycha yonida to'xtadi. Uychaning atrofiga g'ishtlar, toshtaxtalar, yog'och xodalar, temirlar va boshqa narsalar tog'dek uyilib yotar, uning qarama-qarshi tarafida esa chala-yarim qurilgan, hali eshik va derazalari o'rnatilmagan, tomi ham yopilmagan ulkan yangi uy qad rostlagandi. Shamol deraza o'yiqlari orasida zir aylanar, yo'lga yotqizilgan chaqirtoshlarni shiqirlatib dumalatar, taxtalar orasida qo'shiq kuyalar, qurilish kranining tepasida uv tortar, hamma joyda uning ovozi turlicha chiqardi. Bunday manzara Bimni ajablantirmadi (hamma joyda tinimsiz qurilishlar ketardi), vijdonan aytganda, u daydib yurgan paytlari quruvchilarning oldida ko'p marotaba to'xtab: «Yigitlar, ozgina ovqat beringlar» – deb iltimos qilgandi. Quruvchilar uning tilini tushunishar, doimo biror yegulik berishardi. Bir safar qandaydir hazilkash yigit konserva idishiga bir qoshiq aroq quyib, Bimga tutdi:

– Qani, kuchukcha, o'g'irlamaydigan odamlarning sog'lig'i uchun ko'tar-chi!

Bim xafa bo'lib, teskari o'girilib oldi.

– Aqlingga qoyil! – deb xitob qildi hazilkash. – Bunaqa odamlarning o'zi yo'q-ku, axir! Buni men aniq bilaman.

To'planganlar kulib yuborishdi. Hazilkash yigitni Shurik deb chaqirishardi. Shurik pichog'i bilan kolbasadan – chiqindixonadan topilmagan, balki do'kondan sotib olingan haqiqiy kolbasa! – katta bo'lak kesdi-da, Bimning oldiga qo'ydi:

– Bu rost gapirganing uchun. Ol, ye, donishmand it!

Kir-chir jomakor kiygan odamlar yana kulib yuborishdi. Shurik esa aftidan yana kulgili gap gapirdi:

— Eh, og‘ayni, shu tunda taxtalarning uchdan bir qismi «qurigani»ni bilganingda edi!

Garchi yigitning o‘zi jiddiy tursa-da, atrofidagilar yana qah-qah otib yuborishdi.

Bim Shurikning gaplarini o‘zicha tushundi: birinchidan, araq itlar uchun zararli, agar uni ichmasang, senga kolbasa berishadi, ikkinchidan, g‘isht, taxta va sement hidi kelib turadigan bu yigitlarning bari yaxshi odamlar. Bimning nazarida, Shurik ham doimo shu haqda gapirardi.

Tinka-madori qurib, butkul kuchdan qolgan Bim shunaqangi voqealarni eslab, o‘tmishdagi, aniqrog‘i xotirasidagi tanish hidlarga tayangan holda o‘sha uy oldidagi qorovulxonaning eshigi oldiga cho‘zilib yotib qoldi.

Erta tong edi. Atrofda shamoldan boshqa hech kim yo‘q. Birozdan so‘ng qorovulxonada kimdir yo‘taldi va o‘z-o‘zi bilan gaplashdi. Bim qaddini rosladi va eshikni asta tirnadi. Odatdagidek, eshik ochildi. Ostonada telpagining bitta quloqchini pastga tushirilgan, ikkinchisi tepaga tikrayib turgan, qo‘y teri po‘stini ustidan yomg‘irpo‘sh tashlab olgan soqoldor odam paydo bo‘ldi. U Bimga ishonsa bo‘ladigan odamdek tuyuldi.

— Eh-he, mehmon kelibdi-ku! Qayerlardan qora tortib kelding, bechora daydi? Mayli, keldingmi, unda ichkariga kir.

Bim qorovulxonaga kirdi va ostonadan o‘tiboq yerga yiqilib, yotib qoldi. Qorovul bir bo‘lak non kesib, uni chelakdagi suvga botirdi-da, keyin Bimning oldiga qo‘ydi. U minnatdorlik bilan nonni yeb oldi, keyin boshini panjasiga qo‘ygancha boboga tikildi.

So‘ngra hayot haqida suhbat boshlandi.

Qorovul qayerda ishlamasin, judayam zerikadi. Bu yerda esa iztirobli va qiyin hayotni boshdan kechirgani ochiq ko‘rinib turgan tirik jonzot hayratga soladigan darajada insonnikiga o‘xshab ketuvchi ko‘zlari bilan unga mo‘ltirab tikiladi.

— Ko‘rinib turibdi, hayoting judayam rasvo, shekilli... Xo‘sh, uy olish uchun ruxsatnoma qog‘oziga navbating keldimi yoki yo‘qmi? — birinchi navbatda surishtirdi qorovul. — Og‘ayni, menda ham shu tashvish: navbat kelaveradi-ketaveradi, Mixey esa qolaveradi.

Qanchadan qancha uylar qurib bitirildi, men esa manavi qorovulxonam bilan bir joydan boshqasiga ko'chaveraman. Masalan, sen hozir ketasan, lekin menga xat jo'natmoqchi bo'lsang, yozadigan manzil yo'q. Besh yildan beri manzilsiz, «QMB-12, Mixeyga» bo'lib yashayapman. Bor yozuvim shu. Bundan battar xo'rlik bo'ladimi? To'g'ri, yeb-ichishdan nolimayman, istagancha kiyim-kechak olishim mumkin, xohlasam bo'yinbog' taqib, boshimga shlapa qo'ndiraman, lekin hamon yashaydigan joyim yo'q, tushunyapsanmi? Lekin nimayam qila olardim? Vaqtinchalik qiyinchiliklar... Mening ismim Mixey. Men Mixeyman, – u barmog'i bilan o'zining ko'kragiga niqtadi va shishaning bo'g'zidan ozgina ho'plab oldi (u har safar nutqi uzilib qolganida, shunday qilardi).

Bim Mixeyning nutqini itlarga xos tarzda, ya'ni ovoz ohangi, samimiyligi va oddiyligiga qarab o'zicha tushundi va «Mixey – yaxshi odam» degan xulosaga keldi. Ochig'ini aytganda, so'zlarni emas, balki insonni tushunish muhim (it uchun esa bu mutlaqo kerak emas). Bim uni tushundi va bahsni qulog'ining bir chekkasidan o'tkazib, mudrab ketdi. Biroq suhbatdoshiga hurmati yuzasidan u uyqusini yengishga urinib, ko'zini bir ochar, bir yopib yotardi.

Mixey esa bir ohangda gapirishda davom etardi:

– Mana sen uxlab qolyapsan. Menga esa uxlash mumkin emas. Tekshiruvchi kelib qolishi mumkin. «Mixey qani? Yo'q. Mixey ishdan bo'shatilsin! Zudlik bilan», – deydi u. Shunaqa. Joyingda emasmisan yoki uxlab qoldingmi, darrov to'ng'illashadi: «Mixey qani? Yo'q. Mixey ishdan bo'shatilsin!». Tamom-vassalom.

Bim mudroq aralash faqatgina «Mixey... Mixey... Mixey... Tamom-vassalom» degan so'zlarnigina eshitardi.

Mixey esa yana bir-ikki ho'plam ichib oldi, mo'ylovini artди, nonga tuz sepди, hidladi va uni yeb, Bimga gapirishda davom etди:

– Senga aytsam, Qoraquloqjon, itga ko'nglingni ochish hatto yaxshiroq ham. Chunki it pand bermaydi – siringni hech kimga aytmaydi, o'zingning yuraging bo'shaydi... Mana, men Mixey qorovulman. Miltig'im bor. Endi savol: o'g'rilar bitta bo'lmasa-chi? Mixey nima qiladi? U hech nima qila olmaydi. Shu tarzda ketaveradi... Qonun deyishadi. Qonun yaxshi: itvachchalar qo'lga tushsa-ku yaxshi,

besh yilga qamaladi! Ha-a! Faqat uni tutish kerak-da, hamma gap ana shunda! Qanday tutasan? Gap shunda! Mana sen – itsan. Qopga yigirmata quyonni solsam-da, keyin ularni birdaniga chiqarib yuborsam va seni ularni tutishga majbur qilsam, nima deysan? Quyonlar har tomonga tiraqaylab qochib qolishadi. Sen esa bittasini tutishing mumkin. Qolganlari-chi? Qochib ketishadi!

Mixey shunaqangi xandon otib kuldiki, Bim hatto boshini ko'tardi, o'zining ham kulib yuborgisi keldi.

Biroq Bim kuladigan ahvolda emasdi.

Eshik ochildi. Yana bir qorovul kirdi va:

– Mixey, navbating tugadi. Borib uxlay qol, – dedi.

Mixey bazo'r to'shagiga yetib bordi-yu, darhol qotib uxlab qoldi. Navbatchi qorovul stol yoniga, hozirgina Mixey o'tirgan kursiga o'tirdi va shundagina Bimni payqadi.

– Bu yana qanaqangi ukki bo'ldi? – deb so'radi u, aftidan Bimning katta-katta ko'zlariga e'tibor qaratib.

Bim xushmuomalalik bilan qaddini rostladi, dumini xorg'in likillatib qo'ydi («Men kasalman. Egamni qidirypaman»). Navbatchi qorovul xuddi ko'pchilik odamlar kabi itning gapini tushunmadi, javob o'rniga eshikni ochdi va oyog'i bilan Bimni tashqariga itardi:

– Hoy tasqara, bu yerdan qorangni o'chir!

Bim navbatchi qorovul yomon odam ekan degan ishonch bilan chiqib ketdi. Biroq uzoqqa ketolmadi. Mixeyning ivitilgan nonini to'yib yeganidan so'ng u o'zini battar madorsiz his qilar, uyqusi kelganidan yura olmay qolgandi. Bim bosib kelayotgan uyqu bilan kurashgancha, yangi qurilayotgan uyning ichiga kirdi, qarag'ay hidi anqib turgan taxta qirindisi uyumining ichiga kirib oldi va qotib uxlab qoldi.

Kuni bo'yi uni hech kim bezovta qilmadi. U kechgacha uxlab yotdi. Qosh qoraygandagina o'rnidan turib, pastki qavatni tekshirib chiqdi. Tokchalardan biridan yarimta bo'lka non topdi, uning yarimidan ko'prog'ini yeb oldi. Qorni to'ygach, nonning qolganini uydin tashqariga olib chiqdi-da, xandaq yonidagi yumshoq tuproqqa ko'mib qo'ydi. Bu ishlarni u tartibi bilan bajardi: garchi madori yo'q bo'lsa-da, «qora kunga atab bir bo'lak ko'mib qo'y» degan

itlar qonuniga amal qilish shart. U endi yo'lida davom etishi mumkinligini his etdi. Va, o'zining qadrdon eshigi tomon ketdi.

Hayotining dastlabki kunlaridanoq o'ziga tanish bo'lib qolgan, qadrdon eshigi. Uning ortida kutadigan ishonch, ilohiy sodda haqiqat, mehr-shafqat, do'stlik va hamdardlik shu darajada tabiiy va sof ediki, bu tushunchalarni aniqlashdan ham ma'no yo'q edi. Ochig'i, bularni o'ylash Bimga kerakmikan? U, birinchidan, itlar vakili sifatida buni qila olmaydi, ikkinchidan esa o'zining aql darajasiga mos bo'lmagan bu mohiyatni tushunishga uringanida ham, insonlar uning bu ishini g'ayrioddiylik va hatto jinoyat deb qabul qilishlaridan halok bo'lardi. Aslida Bim o'sha kuni yaramas qo'rqqoqni va aldoqchini sira o'ylanib o'tirmasdan va ikkilanmasdan qopib olgan, qog'ozbozni esa qiymalab, yeb tashlagan bo'lardi. Illo, buni u Kulrang amaki shafqatsizlarcha boshiga urganidan so'nggina uni tishlaganidek emas, balki ongli ravishda, o'z vazifasini ado etgan holda qilgan bo'lardi. Yo'q, bu eshik Bimning vujudini bir qismi, uning hayotidir. Shu, xolos. Zero, dunyodagi birona ham it oddiy sadoqatini g'ayritabiiy narsa demaydi. Odamlar itlarning bu fazilatini shuning uchun qahramonlikka tenglashadi, chunki ularning o'zlari ko'pincha do'stiga nisbatan qalb softligi o'z-o'zidan tushunarli holat bo'ladigan, mavjudlikning tabiiy asosi hayot ildiziga aylanadigan darajada sodiq va fidoyi bo'la olmaydilar.

Bim kelayotgan eshik – do'stining eshigi, demak u Bimniki ham. U ishonch va hayot eshigi tomon kelardi. Bim unga yetishni va do'stini kutishni yoki o'lishni istardi. Uni shahar bo'ylab qidirishga kuchi qolmagandi. U endi faqat kuta olardi. Faqat kutadi...

Lekin o'sha tunda Bim o'z uyiga yetib kelolmagan bo'lsa, biz nimayam qila olardik?

Eng avvalo Kulrang amakining hududini aylanib o'tish lozim. Buning uchun esa, albatta, Tolikning uyi yonidan ham o'tishiga to'g'ri keladi. Shunday bo'ldi ham. Bim kichkina do'stining eshigi oldiga yetganida, uning yonidan xuddi begonadek o'tib ketolmadi. U baland g'ishtin devor yonida g'ujanak bo'lib, boshini yoniga burib yotib oldi, o'tkinchilar uni yarador yoki jon berayotgan, lekin hali tirik it deb o'ylashardi.

Yo‘q, yo‘q, Bim endi bu uyning eshigiga yaqin yo‘lamaydi. U faqat devor yonida yotib, sog‘inch va og‘riqlaridan dam oladi, keyin uyiga ketadi. Ehtimol... Ehtimol, Tolikning o‘zi u yerga borib qolar... Axir mantiq ilmini o‘rganish imkoniyati bo‘lmasa, Bimni mantiqsizlikda ayblay olamizmi? U hech qanday mantiq haqida o‘ylamay, ma‘yus holda devor yonida yotardi.

Zim-ziyo qorong‘i tun edi.

Avtomobil kelib to‘xtadi. Uning ko‘z qamashtiruvchi ikkita chirog‘i tun zulmati orasidan devorning bir qismini yulib oldi, keyin Bimga qarab chaqchayib qoldi. Bim boshini ko‘tardi va ko‘zlarini pirpiratmay o‘sha tomonga qaradi. Avtomobil sekingina g‘ulduradi, undan kimdir tushdi. Tutun hidi orasidan Bim tomonga kelayotgan odamning isini olish qiyin edi. Biroq avtomobilning ko‘zlari o‘zi tomon kelayotgan odamni yoritganida, Bim o‘rnidan turib o‘tirdi. U tomonga kelayotgan odam Semyon Petrovich edi. U itga yaqinlashdi, uning haqiqatan Bim ekanligiga ishonch hosil qilgach, dedi:

– Qutulib qaytibsan-da! Qoyil-e!

Avtomobildan yana bir odam tushdi (u kecha momaqaldiroq oldidan Bimni o‘rmonga olib borgan odam edi), itga tikildi va muloyimgina dedi:

– Aqlli it. Bunday it nobud bo‘lmaydi.

Semyon Petrovich Bimga qarab, kamarini yecha boshladi:

– Bimka, Bimka... Bimka, sen yaxshi itsan... Qani, menga kelchi...

E, yo‘-o‘q! Bim unga ishonmadi. Bim bu odamga bo‘lgan ishonchini yo‘qotgandi, uning hatto niyati yaxshi bo‘lganida ham, yoniga yaqin yo‘lamaydi. Ehtimol, Semyon Petrovich Bimni Tolikka qaytarish niyatida bo‘lgandir. Biroq Bim undan nariga qochib ketdi.

Semyon Petrovich uning ortidan yugurdi. Ikkinchi odam itning yo‘lini kesib chiqishga shoshildi. Bim yorug‘dan qorong‘ilik qo‘yniga kirib ketdi, emaklab xandaqqa tushdi va oyoqlarini zo‘rg‘a sudrab, kuchi boricha tezroq yurishga urindi. Biroq Bim yorug‘lik tushayotganida xandaqdan yurgan tomonga emas, teskari tomonga qarab ketardi.

Yana xavf tug‘ilgan paytda, Bimga ajdodlaridan vahiy keldi: izingni chalg‘it! Quyonlar, tulkilar, bo‘rilar va boshqa jonivorlar

shunday qilishadi va bu ta'qibchilarni chalg'itadigan oddiy hiyla hisoblanadi. Tulki va bo'ri bunday vaziyatlarda shunaqangi mohirlik bilan o'zining izidan yurishlari mumkin. Faqat tajribali ovchigina, o'shanda ham tirnoqlarning iziga qarab, o'ziga pand berishganini tushunib yetadi. Ikkinchi hiyla, bu – egri chiziqli (chapga ketasan, o'ngdan kelasan) yoki uddaburonlik (o'zingning ortga qaytgan izingdan yon tomonga sakrash), uchinchi hiyla esa yotish: izingni chalg'itib, ovloqroq joyda yotish va quloq solish (agar o'tib ketishsa yotaverasan, mabodo topib kelishsa, hammasini qaytadan boshlab, chalg'itasan). Jonivorlarning shu uchta hiylasini haqiqiy ovchilar yaxshi bilishadi, biroq Semyon Petrovich garchi qo'lida miltiq ko'tarib yursa-da va hatto har yili ov mavsumi ochilishiga borishni kanda qilmasa-da, hech qachon ovchi bo'lmagan.

Xullas, Semyon Petrovich yo'lini chiroqchasi bilan yoritgancha bir tomonga yugurdi, Bim esa najotkor xandaqning soyasida boshqa tomonga chopdi.

Mana, ariq tugadi va Bim yon tomonida ekskavatorning cho'michi osilib turgan devorga borib taqaldi. Aftidan, u tuzoqdan chiqa olmaydigan ko'rinadi: pastga tushishga tushib oldi-ku, biroq tepaga chiqishga madori qolmagandi. Aksiga olib, old tarafidan ham, yon tomonlaridan ham tik devor o'rab turardi. O'zi ham, to'rt oyog'i ham sog' bo'lganida boshqa gap edi, hozir esa bu yerdan sakrab chiqolmaydi, faqat bir amallab emaklab chiqishi mumkin, xolos.

Bim bechora tepada osilib turgan cho'michga qarab o'tiraverdi, o'tiraverdi. Keyin orqa oyoqlariga tayanib, old oyoqlarini devorga tiragancha bir amallab o'rnidan turdi, tuproq uyumiga qaradi va yana o'tirdi. U o'ylayotganga o'xshar, aslida esa ta'qib qilishmayptimikan deb quloq solardi. Keyin u qarama-qarshi tarafdagi tuproq uyumi yo'q devordan tepaga chiqdi va chiroqchanning nuri u yoqdan bu yoqqa sakragancha bir joyda raqs tushayotganini, biroq tez orada o'chib qolganini ko'rdi. U avtomobil sekin yurib ketganini va boshqa tarafdin unga yaqinlashayotganini ko'rdi. Bim ariq burchagiga tiqildi va titraganicha ovozlarga quloq tutdi. Avtomobil uning yonginasidan o'tib ketdi.

Atrofga sukunat cho'kdi. Keyin esa avtomobillarning past ovozda gurullashlari, tramvayning g'ijirlashi eshitildi – bu tovushlar unga tanish, xavfsiz edi.

Zim-ziyo kuz tunida ariq ichida it o'tirardi. Dunyodagi hech kim hozir unga yordam berolmasdi. U esa o'zining eshigi yoniga bori-shi judayam zarur. Bim sakrashga urinib ko'rdi, lekin qayoqda?! U o'zining izi bo'ylab sekin, ehtiyotkorlik bilan atrofiga quloq tutib, vaqti-vaqti bilan devorlarni paypaslab ortiga qayta boshladi. Bir joyda tuproq uyumini ko'rdi, uning tepasiga chiqib, orqa oyoqlarida tikka turdi, shunda oldingi oyoqlari ariq chekkasiga yetdi. Shunda Bim tepadagi tuproqni kovlab, o'zining tagiga uya boshladi: u qanchalik ko'p ishlasa, tuproq uyumi shunchalik balandlashardi. Bim dam olar, keyin yana ishlashga tutinardi. Va, nihoyat, uning ko'ksi ariq chekkasiga yetdi, biroq endi ariqdan tuproq ololmasdi. Shunda u o'zining tog'chasidan pastga tushdi, biroz yotdi. Uning butun shahar eshitadigan qilib ovozin boricha uvullagisi, egasini yoki Tolikni yordamga chaqirgisi keldi! Biroq Bim ovozin chiqar-maslikka majbur, axir u izini chalkashtirib, berkinib yotibdi-ku! Kutilmaganda u qat'iyat bilan o'rnidan turdi, o'zi uygan tepalikdan chetga tisarildi. Keyin og'riqni ham unutib, jon-jahdi bilan tepalikka otilib chiqdi, orqa oyoqlarida tepaga sakradi va ariq chekkasidagi hozirgina o'zi kovlagan chuqurchaga yiqilib tushdi.

U chidab bo'lmas og'riq va madorsizlikni qanday yengdi ekan-a? Kim bilsin... xuddi bo'ri qopqonga tushib qolgan panjasini g'ajib tashlagani kabimi? O'zining tishlari bilan oyog'ini qanday qilib g'ajib tashlash mumkinligini hech kim ayta olmaydi. Buni bo'ri tabiatan ozodlikka intilishi tufayli qilsa, Bim o'zining ishonch va mehr mavjud bo'lgan uyiga borishni judayam istagani tufayli uddaladi deb taxmin qilish mumkin.

Nima bo'lganida ham, Bim tuzoqdan qutulgan va endi tepadagi chuqurcha ichida yotardi.

Tun judayam sovuq edi. Tunda ham, hatto tushlarida asta-sekin g'ichirlovchi tosh-temir shahar uyquda edi. Bim atrofiga quloq sol-ganicha ancha yotdi. Juda sovuq o'tib ketgan, o'rnidan turib, yo'lga tushdi.

Yo'l-yo'lakay u bir uyning ochiq qolgan yo'lagiga kirib qoldi. Chunki u judayam holdan toygan, oz muddatga bo'lsa-da qayerdadir yotishi kerak edi. Ko'chaning o'zida yotish mumkin emas, halok bo'lasan (u avtomobil bosib ketgan itlarni ko'p marotaba ko'rgan). Bundan tashqari, asfaltning usti sovuq bo'ladi. Yo'lakda esa isitish quvuriga yopishib oldi-yu, uyquga ketdi.

Yarim tunda yo'lakda begona it uxlardi.

Shunaqasiyam bo'ladi.

Bunday itni xafa qilmang.

O'n beshinchi bob

TEMIR FURGONNING SIRI

Bim tong otmasidan uyg'ondi. Hech kim uyqusiga xalaqit bermaydigan shunaqangi mehmondo'st, iliqqina joydan ketgisi kelmasdi. Nazarida kuchiga kuch qo'shilgandek tuyuldi, o'rnidan turishga harakat qildi, biroq buni darrov uddalay olmadi. Shunda u cho'nqayib o'tirib oldi. Buni uddaladi, biroq boshi aylanib ketdi (xuddi ko'ksiga qattiq tepki olgan paytidagidek bo'ldi): devorlar bir tarafga og'ib ketdi, zinalarning panjaralari titradi, ostonalar esa yagona tepalikka qo'shib, xuddi garmondek cho'zila boshlashdi, chiroq shift bilan birga chayqaldi. Bim boshini egganicha, endi nima bo'lishini kutib o'tirardi.

Bosh aylanishi qanday kutilmaganda boshlangan bo'lsa, xuddi shunday to'xtadi. Bim qornida emaklab, pastdagi ostonalardan o'tdi. Yo'lak eshigi ochiq ekan, bemalol emaklab tashqariga chiqdi-da, tetiklantiruvchi salqinda biroz yotgach, nihoyat oyoqqa turdi. Og'riqni ham deyarli sezmayotgan va hushidan ketay-ketay deyayotgan alfozdagi Bim insonlar bilmaydigan itlik irodasiga bo'ysungan holda, xuddi o'latga chalingandek asta chayqalganicha yurib ketardi.

Agar Bim kichkinagina kuchukcha kuymalanayotgan chiqindixonani uchratib qolmaganida, o'zining uyiga yetib borishi amri mahol edi. Bim uning yoniga yetgach, yerga o'tirdi. Uzun junlari paxmoq bo'lib ketgan, kir-chir kuchukcha uni hidlab, dumini likillatdi. Bu bilan Paxmoq: «Qayoqqa ketyapsan?» – deb so'ragandi.

Bim Paxmoqni darrov tanidi. U bilan o'tloqda qamish ildizini g'ajib yurgan paytida tanishgan edi. Shuning uchun ham faqat ma'yus mo'ltiragan ko'zlari yordamida dardini ochdi: «Ahvolim chatoq, do'stim».

Kuchukcha darrov chiqindixonaga qaytdi, go'yo Bimni meh-monga chaqirayotgandek boshini u tomon o'girib, dumini likillatdi. Go'yo: «Bu yerda yegulik bor. Kela qol», – dedi.

Xo'sh, nima deb o'ylaysiz? Baliq boshidan, yana boshqa undan-bundan bir bo'lakdan yegach, nihoyat Bim qorni to'yanini his qildi. Asta-sekin tanasiga quvvat kirdi, tez orada ust-boshini yalab, yuvinib oldi va Paxmoqqa minnatdorchilik bildirib, yo'lida dadil davom etdi.

Ha, hayotdagi og'ir daqiqalarda chiqindixona najot joyi bo'larkan! Shu ondan boshlab Bim bunaqangi joylarga hurmat bilan qaray boshladi. Agarda...

Bu haqda so'zlab berish ham og'ir.

Kechagi tutunning qoldiqlari yer uzra yengil zangoritob-shaffof pardadek osilib qolgan kulrang tusli erta tongda Bim nihoyat o'zining uyiga yetib bordi... Ana u! U Ivan Ivanich bilan birga anavi derazalardan quyosh chiqishini tomosha qilardi. Balki hozir egasi derazadan qarab qolar? Bim ko'chaning qarama-qarshi tarafida o'tirib, quvonch va umid bilan derazaga tikilardi. Uning ahvoli tez yaxshilandi. U shoshilmay, boshini baland ko'tarib, xuddi hozir qadrdon do'stini uchratadigandek mamnun holda ko'chadan keta boshladi. Bu baxtga intqlik lahzalari edi. Ochig'i, qaysi tirik jonzot kutish onlarida baxtning o'ziga erishgandan-da ko'ra baxtiyorroq bo'lmagan, deysiz?

Shu tariqa, qadrdon uyining eshigi oldida Bim yana qaytgan umiddan baxtiyor bo'lib turardi.

Shu payt u dahshatli holatni ko'rdi: uy ravog'i ichidan haligi baqiroq xola chiqib keldi! Butun tanasiga titroq kirgan Bim dahshatdan ko'zlarini katta-katta ochganicha o'tirib qoldi. Xola unga g'isht parchasini otdi. Bim piyodalar yo'lakchasining boshqa tomoniga qochib o'tdi.

Bunaqangi erta tongda ko'chada odam yo'q, hatto ko'cha supuruvchilar ham supurgisini ko'tarib chiqishmagandi. Faqat

baqiroq xola va Bim bir-biriga tikilib turishardi. Aftidan ayol itni yo'lakka kiritmaslikka qat'iy qaror qildi, shekilli, ravoqning o'rtasida qo'llarini biqinlariga tiragancha haykaldek qotib turib oldi. U o'zining Bimni oldida ustunligini, afzalligini va haqligini his qilgancha itga kibrli, nafrat to'la nigohlari bilan yeb yuborgudek bo'lib tikilardi. Bim esa ojiz edi, uning faqatgina tishlari ishonchli bo'lib, o'lim oldi olishuvida dahshatli qurolga aylanishi mumkin edi. Buni Bim bilardi, buni unutmagandi, shu sababli biroz gavdasini bukdi-da, yuqori labini ko'tarib, o'tkir tishlarini ko'rsatdi. Inson va it bir-biridan ko'z uzmay qarab turishardi. Bu lahzalar Bimga juda uzoq bo'lib tuyulib ketdi.

...Inson va jonivor bir-birining har qanday harakatini ko'zdan qochirmay tikilib turishar ekan, biz Bim bilan oldin sodir bo'lgan voqealardagi ishtiroki tufayli tanish bo'lib qolgan baqiroq xola haqida ozroq so'zlab o'tamiz. Xola mutlaqo ozod ayol edi. U boyvachchalar uning mehnatidan foydalanishidan ham, o'zining sotsializm qarshisidagi majburiyati haqidagi mavhum tushunchalardan ham, mehnat qilishdan ham ozod edi. To'g'ri, uning o'ziga xos majburiyatlari bor edi, albatta. Masalan, u erta saharda, ko'p qavatli uyning barcha yashovchilaridan-da vaqtlitroq uyqudan uyg'onardi. U erta tongda biron-bir yo'lakdan begonalar chiqayotganini kuza-tishni, hamma qotib uxlayotgan paytda kimning derazasida chiroq yonib turishini, qaysi odam kim bilan baliq oviga yoki ovga ketayotganini poylashni o'zining birinchi majburiyati deb hisoblardi. Kim qorong'ida birinchi bo'lib qolgan ovqatlarni olib chiqishini poylar-di. Keyin qoldiq ovqatlarni titkilab, uydagi ahvolni baholardi: shi-sha bo'lsa, demak xotinidan yashirib ichgan. Eski palto bo'lsa, de-mak bu odam – xasis, uyida keraksiz latta-puttalarni saqlaydi. Aynib qolgan go'shtni tashlashibdimi, demak uy bekasi lapashang ayol va hokazo. Agar biron-bir qiz erta tongda uyiga qaytsa, bu xola uchun tantanavor vaziyat bo'lardi. Itlarni va ularning egalarini ko'rgani ko'zi yo'q edi, shuning uchun ham ularning ortidan kuzatuv tash-kil qilgan, ularni orqavarotdan kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqoratlar, zero xotirasi va zakovati ancha kuchli bo'lganidan tilga olib bo'lmas so'zlarni burab-burab ishlatishga usta edi.

Xola o'ziga o'xshagan bir nechta ozod ayollar bilan yaxshilab bo'yalgan o'rindiqlarda soatlab o'tirib, kim nima qilishi haqida hisobot berganida ushbu kundalik ma'lumotlar judayam katta foyda berar, u hech kimni va hech narsani unutmasdi. Iqtidor! Bunaqangi yozilmaydigan ma'lumotnomani u har kuni chiqarib turardi. Buni u o'zining jamiyat qarshisidagi ikkinchi majburiyati deb hisoblardi. Uning bunaqangi bilimdonligi hatto xalqaro voqealarga ham daxldor bo'lardi (o'zim eshitdim, yaqinda urush boshlanarmish, yeguliklar va tuzni g'amlab qo'yish kerak). Mishmishlar uning o'ziga o'xshagan ayollar tomonidan tarqatilishda davom etar, faqat endi «falonchi dotsent» o'zi «eshitgani» ro'kach qilinardi.

Xola o'zini «sho'ro ayoli» deb aytishni yaxshi ko'rishini, mudroq vijdoni taqlid qilish uchun namuna bo'lishga arzishini ta'kidlab, bundan to'liq faxrlanishi haqida xabarimiz bor. Agar uning farzandi bo'lganida edi, qanday odam bo'lib ulg'ayardi, bunisi noma'lum!

Biroq haftasiga ikki kun xola uchun dam olish kuni bo'lardi. Yakshanba kuni u bozordan arzon-garov xarid qilib kelar, dushanba kuni o'sha narsalarni olib chiqib, qimmatiga sotardi. Shu sababli ham na tovuq boqmay, na tomorqa qilmay, na baliq tutuvchi to'ri bo'lmagani holda u bozorda tuxum, tovuq, pomidor, yangi tutilgan baliq va iste'mol uchun zarur boshqa oziq-ovqatlarni sotib o'tirardi. Uchinchi majburiyati (dam olish kunlaridagi!)ning sharofati bilan xola omonat daftarchasiga pullar qo'yar va hech qayerda ishlamasa-da, to'kin-sochin yashardi. Uning uyida o'zining yuqori madaniyatiga mos holda barcha qulayliklar (ikkita kiyim javoni, uchta toshoy-na, bozordan sotib olingan «Qiz va oqqush» nomli surat, kattakon sopol burgut va qirindilardan yasalgan «o'lmas» gullar, muzlatgich, televizor) muhayyo edi. Unda kerakli hamma narsa bor, keraksiz hech narsa yo'q edi...

Xullas, xola ravoqning o'rtasida turar, Bim uni cheklab o'tib ketolmasdi. U ketishi kerak edi, biroq qadrdon uyidan nari ketishga o'zida kuch topa olmasdi. U endi tishlarini irjaytirib, to dushmani ketgunicha qancha vaqt kerak bo'lsa, shuncha kutishga majbur edi. Kim kimni yengarkin?

Aksiga olib, kulrang sovuq tuman pardasi ichra xola va Bimning o'rtasida usti yopiq avtofurgon paydo bo'ldi. To'q kulrang tusli fur-

gon tunuka bilan qoplangan, derazalari yo‘q edi. Undan ikki kishi tushib, xola tomon yurishdi. Bim joyidan qo‘zg‘olmas, ularni diqqat bilan kuzatardi.

– Bu kimning iti? – deb so‘radi mo‘ylovdor erkak Bimni ko‘rsatib.

– Meniki, – dimog‘dorlik bilan dedi xola o‘ylab ham o‘tirmay.

– Nega uni bog‘lab qo‘ymagansiz? – deb so‘radi yoshroq ikkinchi yigit.

– Eplasang, bog‘lab ol. Ko‘rmayapsanmi, bo‘ynidagi arqonni g‘ajib uzib tashlabdi. Uchragan odamni qopyapti. Quturibdi, yaramas. Quturgani aniq!

– Bog‘lab qo‘ying, – horg‘in ovozda dedi mo‘ylovdor. – Aks holda olib ketamiz.

– Men o‘zim olib ketishingizni so‘rab, ariza yozib berganman. Qancha bordim, yalinib-yolvordim. Olib ketishmadi! Hammasi qog‘ozboz-da! – u endi qichqira boshladi. – He, o‘rgildim, bu qog‘ozbozlardan!

– Ushla, – dedi mo‘ylovdor yosh sherigiga.

Yosh yigit avtomobildan kichik kalibrli miltiqni oldi, mo‘ylovdor esa furgonning yon tomonidan uchiga kattaligi xuddi qo‘ydek keladigan kapalakni tutishga moslangandek ulkan to‘rli chambar o‘rnatilgan uzun temir tayoqni oldi. Birinchi bo‘lib miltiq ushlagan yigit, uning ortidan matrapni mahkam tutgan mo‘ylovdor Bimga yaqinlashdi.

Bim miltiqni ko‘rdi. Go‘yo «Miltiq! Miltiq! Miltiq nimaligini bilaman!» degandek dumini likillatib qo‘ydi.

– Erkalanyapti, – dedi yigit. – Demak, bu it quturmagan.

– Yondan kir.

Mo‘ylovdor oldinga yurdi. Bim undan it hidi kelayotganini payqadi.

«Bo‘lmasa-chi, bular yaxshi odamlar!» deb o‘ylardi u.

Biroq shu payt kutilmaganda furgon ichidan bir it umidsizlik va alam to‘la ovozda uvullab qoldi. Bim tushundi: bu aldov! Hatto miltiq ham aldov. Hammasi aldov! U o‘zini yon tomonga otdi-yu, biroq... Endi kech edi: matrapning chambari uning ustiga tushdi. Bim tepaga sakradi va to‘rga o‘ralib, tipirchilab qoldi...

Bim arqonni g'ajishga urinib, tishlarini irjaytirar, tinmay xirillar va o'zini har tarafga urardi. Biroq tez orada uning qolgan-qutgan kuchi ham tugadi-yu, darrovgina tinchib qoldi. Daydi itlarni tutuvchilar matrapni avtofurgon eshigidan ichkariga uzatib, Bimni to'rdan chiqarishdi.

Eshik yopildi.

Mo'ylovdor kutilmaganda yuzlari quvonchdan yorishgan xolaga o'girildi:

– Nega tirjayasan? It boqishni bilmasang, bechorani qiynamagin edi! O'zing yeyaverib basharang qurbaqanikidek bo'lib ketibdi-yu, itingni ahvolini ko'r: quruq eti va suyagi qolibdi. Itgayam o'xshamaydi, qaragani qo'rqadi odam!

Mo'ylovdor juda kuzatuvchan odam ekan. Xolaning pastga osilib tushgan yuqori labi, yapasqi burni va baqrayib turadigan ko'zlari haqiqatan ham qurbaqaning basharasini eslatardi.

– Hoy, sassiq it tutuvchi, sen hali mendek sho'ro ayolini haqorat qilyapsanmi? Voy, gazanda-ey! – odatdagidek haqorat so'zlarining farqiga bormay, marjondek tera ketdi baqiroq xola.

Qog'ozga tushirib bo'lmaydigan so'zlar uning og'zidan oson va yengilgina sakrab chiqar, zero bu so'zlar oldindan dasturlashtirilgan bo'lib shundoqqina tugmachasini bosish kifoya edi.

– Hoy, og'zingni sasitma! – qichqirdi yosh yigit unga javoban. – Hoziroq ovozingni o'chirmasang, seniyam matrapda tutib, temir qutiga solib qo'yaman. Aslida senga o'xshaganlarning o'zini yiliga bir marta bo'lsayam manavi furgonga qamab qo'yish kerak edi-ya!

Yigit xuddi dag'dag'asini amalga oshirmoqchidek qo'liga matrapni olib, qat'iyat bilan ayol tomon yurdi. Xola o'zini haqorat qilganlari uchun ariza yozishga shoshilib, uyga kirib ketdi. U haqiqatan ham shahar kengashi raisi nomiga ariza yozdi. Arizada esa raisning o'zini ham it tutuvchilardan kamroq ayblamadi. Xola hech narsaga javobgar emasdi, jamiyat qarshisida hech qanday majburiyati yo'q edi, shunga qaramay barchadan mas'uliyat talab qilardi. Bu esa har qanday jamiyatdagi tekinxo'r singari uning majburiyatlardan biri edi.

... O'sha tongda otgan quyosh kattakon, sap-sariq, xuddi qishdagidek sovuq va g'amgin edi. U ertalabki tutun aralash tumanni

shunaqangi istar-istamas va lanjlik bilan tarqatardiki, ba'zi joylarda kulrang tuman xuddi yirtiq parda singari osilib qolaverardi. Shu sababli ba'zi ko'chalar nurafshon bo'lsa, boshqalari kulrang nim yorug'lik qo'yniga cho'mgandi.

To'q kulrang tusli, tunuka bilan qoplangan avtofurgon shahar chekkasiga chiqdi va baland devor bilan o'ralgan yolg'iz binon-ing hovlisiga kirib ketdi. Darvoza ustida «Begonalarning kirishi taqiqlanadi – hayot uchun xavfli!» degan yozuv osig'liq turardi. Bu karantin joyi bo'lib, quturgan itlarni shu yerga keltirib, yoqib yuborishardi. Tutilgan daydi itlarni ham kasallik tarqatuvchilar sifatida shu yerga keltirishar, lekin ularni yoqishmas, balki tajriba o'tkazish uchun tibbiyotchi olimlarga berib yuborishar yoki terisini shilib olishardi. Yuqumli kasalligi bor hayvonlarni ham shu yerda davolashardi (agar ular shunga arzisa, albatta). Masalan, otlarga so'nggi nafasiga qadar dori-darmonlar berishar, faqat o'ta yuqumli manqa kasalligi bo'lsagina, ularni yo'q qilishardi. Hozirgi vaqtda manqa noyob kasallik hisoblanadi, chunki otlarning o'zi sanoqli qolganligi tufayli kasal bo'ladigan jonivorlar yo'q edi.

Bimni tutgan erkaklar shu joyning oddiy ishchilari edilar. Ular aslida yomon odamlar emasdi. Bundan tashqari, ular quturgan it tishlashi yoki kasal jonivorlardan yuqumli kasallik yuqtirishdek xavf ostida ishlashardi. Ular vaqti-vaqti bilan shaharni daydi itlardan tozalashar yoki egasining arizasiga ko'ra itlarni olib ketishardi. Gar-chi har birtta tutilgan it uchun maoshdan tashqari qo'shimcha haq olishsa-da, ular o'zining ishini yoqimsiz va og'ir deb hisoblashardi.

Bim temir furgon hovliga qanday kirganini, ikki erkak kabina-dan tushganini va qayergadir ketishganini eshitmadi. U hushidan ketib qolgandi.

Bim ikki-uch soatlardan so'ng hushiga keldi. Uning yonida er-talab chiqindixona yonida uchratgan eski tanishi Paxmoq o'tirardi. U Bimning burni va quloqlarini sidqidildan yalardi...

Itlar ajoyib mavjudot-da! Ona itning bitta kuchukchasi nobud bo'lsa, u bolasining burnini, quloqchalarini yalayveradi, yalay-veradi, qorinchasini uzoq-uzoq uqalaydi. Ba'zan shunaqa paytda kuchukcha hayotga qaytadi ham. Uqalash itlarda yangi tug'ilgan

kuchukchalarni parvarish qilishning majburiy sharti hisoblanadi. Bu juda g'alati va ajoyib holat.

Paxmoq ham tabiiy sezgisining amri bilan Bimni tinimsiz yalardi. Kim bilsin, ehtimol u tinimsiz sandiroqlashlari davomida ko'p narsani ko'rgan, ehtimol bu yerga birinchi marta tushmayotgandir ham...

Eshik tirqishidan kirgan ingichka quyosh nuri Bimning ustiga tushdi. U boshini ko'tardi. Temir qafasda ular ikkovlon edilar: Bim va Paxmoq. Ko'ksidagi qattiq og'riqqa qaramay, Bim tana holatini o'zgartirmoqchi bo'ldi, biroq birinchi urinishda buni uddalay olmadi. Biroq ikkinchi urinishda to'rttala oyog'ini tagiga yig'ib olib, biqinini o'zi yotgan sovuq temirdan tepaga ko'tardi. Judayam sovqotib ketgan Paxmoq uning pinjiga kirib, g'ujanak bo'lib oldi. Ikkovlon bo'lishganidan keyin tanalariga sal iliq o'tdi.

Ikkala it temir qafasda yotib, taqdirlari nima bo'lishini kutishardi.

Bim faqat eshikka tikilar, yorug'likning yagona xabarchisi bo'lgan ingichka quyosh nuriga qarab yotardi. Mana, qayerdadir qarsillagan o'q ovozi yangradi. Bim silkinib tushdi. Oh, bu tovush unga qanchalar tanish! O'q ovozi unga egasi Ivan Ivanich haqida eslatdi. Bu – ov, bu – o'rmon, bu – ozodlik, bu – adashib qolgan va parranda yoki quyonning izini olishga berilib ketgan itni chaqirish... O'q ovozidan keyin o'rnidan turishga va asta chayqalganicha eshik yoniga borishga, burnini tirqishga tirab, ozodlik havosidan nafas olishga Bim qayerdan kuch topdi ekan? Biroq u oyoqda tik turar, xuddi qayta tirilganga o'xshardi. Keyin u xuddi devor soatning kagiri kabi furgon ichida u burchakdan bu burchakka borib kela boshladi. So'ngra yana eshik yoniga keldi, yana tirqishdan tashqaridagi havoni hidladi. U hidlarga qarab, hovlida qandaydir xavotirli narsa sodir bo'layotganini aniqladi. Yana tirnoqlari bilan oyoqostidagi tunukani tirnagancha u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. U xuddi nimagadir tayyorlanayotgandek, badanini qizdirib, oyoqlarining chigalini yozayotganga o'xshardi.

Shu tariqa qancha vaqt o'tdi, buni aytish qiyin. Biroq Bim... eshikni tirnay boshladi.

Bu eshik Bim shu paytgacha ko'rgan boshqa eshiklarga mutlaqo o'xshamas, qalin tunuka bilan qoplangan, ba'zi joylari o'tkir yirtiq-lar va dog'lar bilan qoplangandi. Biroq u yordam va shafqat so'rash mumkin bo'lgan yagona eshik edi.

Tun kirdi. Havo sovib, izg'irin avjiga chiqdi.

Paxmoq uvullab yubordi.

Bim hamon eshikni tirnardi. U endi yotib olganicha tishlari bilan tunukaning yirtiq joylarini tishlar va tinmay tirnardi. Cha-qirardi. O'tinardi.

Ertalabga yaqin furgon ichi tinchib qoldi: Paxmoq uvullamas, Bim ham tinchib qolgan, faqat onda-sondagina panjasi bilan tunu-kani asta tirnab qo'yardi, xolos. U butunlay holdan toydimi yoki umididan butunlay ayrilib, taqdiriga tan berib, kutishga qaror qildimi, buni biz bilolmaymiz. Bu temir furgonning siriligicha qoldi.

O'n oltinchi bob

QIDIRUVDAGI UCHRASHUVLAR

Shaharda yakshanba kunlari begim kunlariga nisbatan odam ko'proq bo'ladi: ular qayergadir borishadi, shoshilishadi, yugurishadi, xarid qilishadi, sotishadi, poyezdlarga, avtobuslarga, trolleybuslarga, tramvaylarga tiqilib olishadi, jon-jahdi bilan shahardan tezroq ketishga harakat qilishadi. Tushga yaqin tiqilinch kamayadi, kechqurun yana boshlanadi. Kimlardir qishloq va o'rmondan shaharga qaytishadi, boshqalari esa shahardan o'zining qishlog'iga va o'rmoniga ketishadi.

Shuning uchun ham yakshanba kunlaridan birida Xristian Andreyevich o'g'li Alyoshani shaharga olib kelganidan ajablanmasa ham bo'ladi. Otasi to o'zi bozorga olib kelgan mahsulotlarini sotgunicha, Alyosha Qoraquloqni izlashi haqida kelishib olishgandi. Xristian Andreyevich ilgarilari ham o'g'lini shaharga olib kelar va qo'rqmay uni aylanib kelishga jo'natib yuborardi. Nima bo'pti, bola o'zi chiqadigan tramvayning raqamini biladi, tushadigan av-tobus bekatini ko'zini yumib topadi, behuda ishlar bilan esa aslo shug'ullanmaydi. Bunday vaqtlarda Alyosha uch so'm pul olib

ketar, unga istagan narsasini sotib olishi va shahardagi xohlagan joyiga (kinogami yoki sirkkami) borishi mumkin edi. Bu safar Xristian Andreyevich Alyoshaning «ichki cho'ntagi»ga o'n besh so'm solib qo'ydi-da, uqtirdi:

– Agar Qoraquloqni topsang-u, uni senga berishmasa, o'n so'm taklif qilgin. Rozi bo'lishmasa, o'n ikki so'm ber. Shundayam yo'q deyishsa, mayli, o'n besh so'm taklif qilaqol. Shu pulga ham ko'nishmasa, manzilini yozib olgin-da, uchib oldimga kelgin, o'zim borib gaplashaman. Kech kirgunicha sandiroqlab yurma, kechki soat to'rtidagi avtobusga ulgurishimiz kerak. Kun qisqarib qolgan, uyga qorong'i tushganda yetamiz. Aytgancha, Qoraquloq haqida surishtirishdan oldin, «O'rtoq, bir narsani so'rasam maylimi?» degin. Shundan keyin gapingni aytasan. Qishloqdan kelganimizni, cho'pon ekanligimizni, itsiz ishlay olmasligimiz, itimiz esa yo'qolib qolgani aytasan. Shaharga qochib ketdi, degin. Yaxshi odamlar ko'p, sen so'rayver, bilganlar, albatta, aytishadi.

... Baquvvatgina bolakay shahar bo'ylab yurib borar va ko'ziga ishonchli odamdek ko'ringan o'tkinchilarga murojaat qilardi:

– O'rtoq, bir narsani so'rasam maylimi? Bilasizmi, biz cho'ponlarmiz...

U semiz odamlarni, ayniqsa ayollarni ko'p uchratar, lekin bundaylarga murojaat qilmasdi (aftidan, ular ishlashmasa kerak, shuning uchun ham semirib ketishgan). Biroq aynan bir semiz odam bolaning kimgadir bergan savolini eshitib, to'xtadi-da, uning vokzalga borishini maslahat berdi. «Vokzal darvozalaridan kun bo'yi yoshlar kirib-chiqib yurishadi, biri bo'lmasa boshqasi, albatta, nimadir bilishi mumkin», dedi u. Alyosha bolalarning birontasini qoldirmay, to'xtatib so'rardi.

Ayni shu vaqtda Tolik ham yana Bimni qidirish uchun uyidan chiqdi. U uch kundan beri maktabdan qaytgach Bimni qidirardi, bugun esa yakshanba ekanligi sababli ertalabdan izlagani yo'l oldi.

Madaniyatli oilaning bolasi bo'lgan orastagina bolakay shahar ko'chalarida yurib borar va o'tkinchilarning yuziga tikilib, tanlagan odamidan asta so'rardi:

– Amakijon, ayting-chi, mabodo qora quloqli oppoq itni ko'rmadingizmi?.. O'zi oppoq, faqat sariq xollari bor.. Ha, ko'rmadingizmi? Afsus. Kechirasiz...

Ota-onasining taqiqlashiga qaramay, Tolik bir marta Stepanovnaning uyiga borib keldi, Chexiyadan keltirilgan va birontayam do'kondan topilmaydigan qalamlarini va rasm chizadigan albomini Lyusyaga berdi, Bim unikida tunaganini, keyin esa yo'qolib qolgani aytdi, Stepanovnadan o'zi hech qachon ko'rmagan Ivan Ivanich yaqinda kelishi haqida maktub jo'natganini eshitdi. Bugun kechqurun Tolik, albatta, yana kampirning uyiga kirib, Bimning daragi bor-yo'qligini aniqlaydi, bundan tashqari Lyusya o'zi chizgan «Bizning Bim» degan suratni unga sovg'a qilishga va'da bergan...

Vokzal yaqinidagi ko'chalardan birida Tolikning yoniga oftobda qoraygan, baquvvat, kattalarnikiga o'xshatib tikilgan yangi kostum kiygan o'n uch yoshlardagi bola yaqinlashib, so'radi:

– O'rtoq, bir narsani so'rasam maylimi?

Bolaning bunaqangi murojaati Tolikka juda xush yoqib tushdi va u mamnuniyat bilan javob berdi:

– Mumkin, albatta, – keyin o'z navbatida so'radi. – Nimani so'ramoqchi eding?

– Biz cho'ponlarmiz. Itimiz yo'qolib qoldi – shaharga qochib ketibdi. Mabodo ko'zing tushmadimi? Oppoq it, sariq xollari bor, qolog'i esa qop-qora... Oyog'i ham...

– Itingni nomi nima? – qichqirib yubordi Tolik.

– Qoraquloq, – dedi Alyosha.

– Bim, – dedi Tolik. – O'sha!

Bolalar voqeani osongina oydinlashtirib olishdi. Tolik Bim qayerda va qachon sotib olinganini, qishloqqa olib borilganini aniqladi. Alyosha esa Tolikning uyiga boshqa it emas, balki aynan Qoraquloq kelganini tushundi. Endi Bimning shaharda ekanligi aniq bo'ldi. Bolalar Bim hatto topilgan taqdirda ham kim bilan birga qolishini o'ylashmasdi. Muhimi, uni tezroq izlab topish kerak edi.

– Oldin vokzaldan surishtiraylik, – dedi Alyosha. – Bir kishi menga shunday maslahat berdi.

– Ha, bu yerda odam ko'p, biron kishi ko'rgan bo'lishi mumkin, – uning gapini ma'qulladi Tolik.

Bu judayam sodda qidiruv usuli bo'lsa-da, lekin Alyosha va Tolikka bunday tuyulmasdi. Ular o'rtoqlik kayfiyatini his etishgan, birgina istak va Bimga bo'lgan mehr bilan birlashishgan, uni albatta

topishlariga ishonishardi. Tasavvurlarida esa Bimning o'zi oyoqlari ostidan chiqib qoladigandek tuyulardi.

– Keyin sen aytgan Stepanovnaning uyiga boramiz, – yo'l-yo'lakay qaror qildi Alyosha. – Bim unikiga bormasligi mumkin emas. Ochig'ini aytganda, u albatta o'sha yerga boradi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Axir u yer o'zining uyi-ku!

– Ha, albatta, kiramiz, – rozi bo'ldi Tolik.

Alyosha o'zining bosiqlik ovozida so'zlashi, ayni vaqtda soddaligi va sipoligi bilan Tolikka judayam yoqib qolgandi. Bunaqangi tani-shuvlar bir umrga qoladi. Ko'cha bolaga bironta tovlamachini emas, balki mehribon do'stni hadya qilishining o'ziyoq xayrlidir.

Bolalar kamida yuztacha odamdanda so'rashgan bo'lsa-da, hamon qidiruvdanda to'xtashmasdi.

O'sha kuni gavjum vokzalga kelib to'xtagan tezyurar poyezddan jigarrang palto kiygan hassali odam tushdi. U vokzalni kesib o'tib, atrofiga alangladi. Uzoq vaqtdan beri qadrdon joylaridan uzoqda bo'lgan bu odam qaytganidan so'ng hamma narsa joyidamikin, hech narsa o'zgarmadimikin degandek atrofini sinchiklab kuzatardi. Ayni shu paytda uning yoniga ikki nafar notanish bolakaylar kelishdi. Ulardan biri – qishloqdan kelgani aniq sezilib turgan bola so'radi:

– O'rtoq, bir narsani so'rasak maylimi?

Oqsoch kishi boshini yoniga egib, tabassumini yashirgancha dedi:

– Albatta, mumkin, o'rtoq.

Shaharlik ekanligi ko'rinib turgan ikkinchi bola savolni davom ettirdi:

– Iltimos, ayting-chi, mabodo qora quloqli oppoq itni ko'r-madingizmi? Sariq xollari...

Oqsoch kishi qattiq hayajonini yashirolmay, bolaning yelkasini changallab oldi:

– Bimmi?!

– Ha, Bim. Uni ko'rdingizmi? Qayerda?

Uchovlon vokzal yonidagi xiyobonga qo'yilgan o'rindiqqa o'tirishdi. Garchi bolalar bu keksa odamni tanishmasa-da, u Bim-

ning egasi Ivan Ivanich ekanligini, uning o'zi bu haqda aytmaganida, xayollariga ham kelmagan bo'lsa-da, uchovlari bir-birlariga mutlaqo ishonishardi.

Ochig'i, hatto Ivan Ivanichni qo'qqisdan ko'rgan tanishlari ham uni tanimagan bo'lishardi. U bukchayib qolgan, yuzlari ich-ichi-ga kirib ketgan, ajinlari ancha-muncha ko'paygandi (axir yurakda o'tkaziladigan jarrohlik operatsiyasi kurortda dam olish emas-da!), biroq ko'zlari hamon ilgarigidek diqqat bilan, xuddi qarshisidagi odamning ichini ko'rayotgandek tikilib boqardi. Faqat shu to'q qo'ng'ir tusli ko'zlariga boqibgina bu odamning bir vaqtlari qora-soch odam bo'lganini bilish mumkin edi. Hozir esa uning sochlari qordek oppoq tusga kirgandi.

Tolik Bim haqida bilganlari, uning kasal va cho'loq ekanligini aytdi. Alyosha esa Qoraquloqning qishloqdagi qisqa muddatli hayoti haqida qisqa va lo'nda so'zlab berdi.

Ivan Ivanich bolalarga judayam yoqib qoldi. U bolalar bilan xuddi kattalardek gaplashishi, ba'zan kaftini suhbatdoshining yelkasiga qo'yishi, ularning so'zini bo'lmay, diqqat bilan tinglashi, sochlarining oppoq ekanligi, ayniqsa qarshisidagi notanish bolalarni yaxshi ko'rishi aniq-tiniq sezilib turganligi ularga judayam yoqib tushgandi. Ivan Ivanich so'zining oxirida:

– Judayam yaxshi bolalar ekansiz, – dedi. – Sizlar bilan haqiqiy do'st bo'lib qolamiz... Endi esa menikiga yuringlar. Nazarimda, Bim uyga yetib borgan bo'lishi kerak.

Yo'l-yo'lakay u ehtiyotkorlik bilan bolalarni gapga solib, kim ekanliklarini, qayerdan kelganliklarini, qanday oilada yashashlarini, kim nima bilan shug'ullanishini, kimga nima yoqishini bilib oldi.

– Alyosha, qo'y boqishing yaxshi ish. Maktabda ham o'qiysanmi, ishqilib? Qiynalmaysanmi?

– Qo'yni boqishni bilish kerak, – xuddi otasidek salmoqlab dedi Alyosha. – Bu qiyin ish. Suruvni safga tizib boqish, oyog'i ostidagi ovqatni toptab tashlashiga yo'l qo'ymaslik oson ish emas. Shunaqangi charchaysanki, kechga borib oyoqlaring zirillab qoladi. To'yib uxlab, dam ololmaysan ham, chunki tong yorishar-yorishmas uyg'onishing kerak. Bu qiyin ish. It bilan sal ish yengillashadi,

garchi u hech narsani tushunmasa ham, odamdan ko'ra yaxshiroq yordamlashadi. Biz itsiz ishlay olmaymiz. Biz cho'ponlarmiz. Boshqa ilojimiz ham yo'q.

– Tolik, sen nima ish qilasan? – deb so'radi Ivan Ivanich.

– Menmi? – ajablendi Tolik. – Men maktabda o'qiyman.

– Uyingizda mol boqasizmi? – so'radi Alyosha Tolikdan.

– Hech qanaqangi molimiz yo'q, – dedi u. – Dengiz cho'chqachalari bor edi, ularni boqishni oyim taqiqladilar... Hidi badbo'y emish...

– Menikiga mehmonga borsang, senga mollarimizni ko'rsataman. Sigirimiz Milka tengi yo'q yuvosh, qorning tagiga kirib ketsang ham, oyog'ini qimirlatmaydi. Qo'shimchasiga qalpog'ingni yalab qo'yadi. Qo'llaringni ham... Xo'rozimiz esa qishloqdagi hamma xo'rozlarning boshlovchisi hisoblanadi, tongda birinchi bo'lib qichqiradi, boshqalari unga jo'r bo'lishadi. Bunaqangi xo'rozlar kam bo'ladi... Faqat itimiz yo'q. Bor edi, ammo o'lib qoldi. Qoraquloq bor edi, u qochib ketdi. – Alyosha xo'rsinib qo'ydi. – Afsus, juda yoqimtoy it edi-da...

Ivan Ivanich Stepanovnaning eshigi qo'ng'irog'ini chaldi. Kam-pir Lyusya bilan birga chiqdi-yu, bidirlab ketdi:

– Voy, Ivan Ivanich! Endi sizga nimayam deyman-a? Bim yo'q. Uch kun oldin Toliknikida bo'lgan ekan, lekin uyga qaytib kelmadi.

– Kelmabdi-da, – o'ychan holda dedi Ivan Ivanich, keyin bolalarga dalda berib, dedi. – Hechqisi yo'q, uni albatta topamiz.

Stepanovna uy kalitini egasiga berdi, beshovlashib Ivan Ivanich-nikiga kirishdi. Uyda hamma narsa Ivan Ivanich ketgan paytdagidek turardi. Butun boshli devorni egallagan kitoblar Alyoshani hayratga soldi, yozuv stoli ancha toza bo'lib qolgandi (Stepanovnaning g'amxo'rligidan), biroq uy Bim yo'qligidan huvullab turardi. Bim yotadigan to'shakcha ustida toza yozuv qog'ozi – Ivan Ivanich-ning maktubi yotardi. Stepanovna hatto uniyam saqlab qo'ygandi. Ivan Ivanich mehmonlariga orqa o'girib, qovoq uygancha derazaga qaradi. Stepanovnaning nazarida, u sekingina ingragandek bo'lib tuyuldi.

– Ivan Ivanich, yo'ldan keldingiz, dam olsangiz bo'lardi, – maslahat berdi kampir.

Ivan Ivanich o'rniga yonboshlab, shiftga tikildi. Stepanovna xonaga cho'kkan sukunatni buzdi:

– Demak, jarrohlik yaxshi o'tibdi-da? O'zingiz yurib kela olgan bo'lsangiz, demak bu yog'i yaxshi bo'ladi.

– Hammasi yaxshi, Stepanovna, hammasi yaxshi. Azizam, hamma yaxshiliklaringiz uchun rahmat. Qaniydi hamma odamlar yaqinlariga siz begonalarga qilgandek munosabatda bo'lishganida edi!

– Voy, bu nima deganingiz? Ahmoqona gaplarni gapirmang. Qo'shnisiga yordam berish ham ish bo'libdimi? Bu oddiygina ko'mak, xolos (Stepanovna hatto o'zini maqtashganida ham xijolat tortardi).

Oradan bir necha daqiqa o'tgach, Ivan Ivanich o'rnidan turdi, bolalarga qarab dedi:

– Bolajonlarim, bu yog'iga rejamiz shunday: sizlar bizning tumanimizda bemalol surishtiraveringlar, chunki Bim shu yaqin-atrofdagi yurgan bo'lishi kerak. Men esa... – u bir zum o'ylanib qoldi. – Men bir joyga borib kelishim kerak... Bim biron joyda... qo'riqchi itlarga duch kelib qolmadimikan, deb o'ylayapman.

Uydan chiqishayotganda, Lyusya Tolikka «Bizning Bim» degan suratni tutqazdi. Tolik suratni Alyoshaga ko'rsatdi, u esa rosa ajablandi:

– O'zing chizdingmi?

– O'zim, – dedi Lyusya.

– Sen rassommisan?

– Yo'-o'q, – kulib yubordi Lyusya. – Men endi beshinchi sinfga o'tdim.

Suratdagi Bim asliga judayam o'xshardi: oyoqlari qora, oppoq badanida sariq dog'lari bor, ko'zlari katta-katta. Faqat bitta qulog'i sal uzunroq bo'lib qolgandi, lekin bu unchalik muhim emas.

Shu tariqa Alyosha va Tolik yana qidiruvni boshlashdi. Ular hamon o'tkinchilarning yuziga qarab (oldindan puxta maslahatlashib olgach), bitta savolni berishar va Bimning belgilarini tushuntirishardi.

Hamon o'rnida yotgan Ivan Ivanich esa «Tezroq karantin joyiga borish kerak!» degan xulosaga keldi. It tutuvchilarni ogohlantirish, itining belgilarini tushuntirish, mabodo ko'rib qolishsa,

uni ogohlantirishlari uchun pul berish lozim. Balki Bim o'sha yerdadir. Tolikning uyidan payshanba kuni tunda ketgan bo'lsa... Uch kun o'tibdi. Tezroq borish lozim!

U taksiga chiqib, tezgina karantin joyiga yetib bordi. Dam olish kuni bo'lgani uchun ham bu yerda qorovuldan boshqa hech kim yo'q edi. U Ivan Ivanichning savollariga bajon-u dil va batafsil javob qaytarardi:

– Payshanba va juma kuni itlarni tutmadik, kechagilari esa bor – furgonda o'tirishibdi. Ular nechtaligini xudo biladi, lekin borligi aniq. Ertaga shifokor kelib, qaysi birini tajriba o'tkazuvchi olimlarga berishni, qaysinisini uxlatib terisini shilib olishni aytadi. Ehtimol, teri-merisi bilan ko'mib tashlashar ham... Shifokor nima desa, shu bo'ladi-da... Nimayam qilardik! Ba'zan ularni yoqib yuborishadi.

– Tozi itlar ham uchrab turadimi? – so'radi Ivan Ivanich.

– Kamdan kam. Bunaqalarni o'ldirishmaydi va tilkalashlari uchun tajribachilarga berishmaydi, balki egasini kutishadi yoki ovchilar uyushmasiga qo'ng'iroq qilishadi, «Sizniki bo'lsa, olib ketinglar!» deyishadi. Nimayam deysiz, barini shifokor hal qiladi! Hozir bitta shunaqa tozi it bor. Ivanning aytishicha, egasi yo'q ekan, bekasining o'zi topshirib yuboribdi. Nimayam qilsin, balki eri o'lgandir-da bechora ayolning...

«Bimmikan u yoki boshqamikan?» deb o'yladi Ivan Ivanich va iltimos qila boshladi:

– Iltimos, meni furgonga kiriting. Men yo'qolib qolgan ajoyib itimni izlayapman. Balki itim shu yerdadir... Iltimos, uni bir ko'rsating.

Qorovul rozi bo'lmadi:

– Ajoyib itlarni bu yerga qamashmaydi. Kasal yuqtirmasligi uchun zararli itlarni qamashadi, – shu onda qorovulning yuzi o'zgardi: iyagini baland ko'tardi va tashrifchini darvoza oldidan nari ketishga undayotgandek qo'lini palaxsa qildi, qat'iy ovozda dedi: – Anavini ko'ryapsanmi? «Kirish taqiqlangan». O'qib, uqib ol!

Qorovul oyna ostiga qistirilgan qog'ozdagi zarhal harflar bilan yozilgan «Kirish taqiqlangan – hayot uchun xavfli» degan yozuvni ko'rsatdi.

Ivan Ivanich ichkariga kiritilishidan umidini uzgan bo'lsa-da, astagina so'z qotdi:

– Eh, seni qara-yu! Qanday odamsan-a! Men jarrohlik operatsiyasiga ketgandim. Urushda o'q parchasi manavi yerimga qadalib qolgandi... Davolanib kelsam, itim Bim yo'qolib qolibdi.

– Yo, tavba! Yigirma yildan beri o'q parchasini ko'tarib yurib-sizmi? Shu yerda-ya? – qorovul kutilmaganda uchrashuv boshidagidek samimiy bo'lib qoldi. – Buni qarang-a! Birovga aysangiz, ishonmaydi. Obbo sizni-ey... U gapini shart uzib, eshikni ochdi va yarashuv ohangida dedi. – Kiring. Faqat birovga ayta ko'rmang.

Bimni arqonidan ushlab yayov olib ketishga umid qilgan Ivan Ivanich taksiga javob berib yubordi-da, furgon tomon yurdi. U haqiqatan ham katta umid bilan kelgandi: agar Bim shu yerda bo'lsa, hozir uni ko'radi, erkalatadi. Bim bu yerda bo'lmasa, demak u tirik, tez orada topiladi.

– Bim, mening yoqimtoy Bimkam... Mittivoyim... Tentakvoyim Bimka, – deb shivirlardi u hovlidan o'tib borarkan.

Mana, qorovul furgonning eshigini ochdi.

Ivan Ivanich gandraklab ketdi-yu, toshdek qotib qoldi.

Bim burnini eshikka taqab yotardi. Uning lablari va milklari tunukaning yirtilgan chetlaridan tilka-pora bo'lib ketgan, oldingi oyoqlarining panjasi qora qoniga belangan edi...

U so'nggi eshikni uzoqdan uzoq tirnagandi. So'nggi nafasigacha tirnagandi. U qanchalar oz narsa so'ragandi. Ozodlik va ishonch – bori shu, xolos.

Burchakka tiqilib olgan Paxmoq uvullab yubordi.

Ivan Ivanich sadoqatli, vafodor, mehribon do'sti Bimning bo-shiga qo'lini qo'ydi.

Havoda siyrak qor parchalari pirpirab qoldi. Ikkita qor parchasi Bimning burniga qo'ndi va... erib ketmadi.

Bu vaqtda yanada qalinroq do'stlashib qolgan Alyosha va Tolik shahar bo'ylab ketishardi. Ular uchragan odamlardan so'ray-so'ray, oxiri Tolik bir vaqtlari Bimni olib borgan veterinariya kasalxonasiga yetishdi. Navbatchidan bu yerda itlar yo'qligini, agar it yo'qolgan bo'lsa, uni birinchi navbatda karantin joyidan izlash kerakligini bilib olishdi.

Bu ikki bola «Qishloqdagi bobomga» deb xat yozadiganlardan emasdilar. Shu sababli ham bir soat o'tar-o'tmas ular avtobus bekati yonidagi yalanglikdan o'tib, karantin joyi tomon yugurib kelishardi.

Ayni shu vaqtda darvozadan Ivan Ivanich chiqib keldi. Bolalarni ko'rib, u shoshib qoldi, faqat yaqin kelganlaridan so'nggina so'radi:

– Sizlar ham shu yerga keldingizmi?

– Bizni shu yoqqa jo'natishdi, – dedi Alyosha.

– Bu yerda Bim yo'q ekanmi? – deb so'radi Tolik.

– ...

– Bu yerda Bim yo'q ekanmi? – qayta so'radi Alyosha.

– Yo'q, bolalarim... Bu yerda Bim yo'q... Bu yerda bo'lmagan ham...

Ivan Ivanich yuragidagi og'riq va og'irlikni yashirishga urinardi. Uning vaziyatida bu judayam qiyin edi.

Tolik kutilmaganda qalin qora qoshlarini chimirib, lablarini bujmaytirdi:

– Ivan Ivanich... Bizni aldamang... Iltimos.

– Bolalar, bu yerda Bim yo'q, – endi nisbatan qat'iy va aniq qilib qaytardi Ivan Ivanich. – Uni izlash kerak. Izlash.

Qor yog'a boshladi. Sokin qor.

Oppoq qor.

To kelgusi bahorda hayot uyg'onguniga qadar yer yuzasini ko'rpadek o'rab yotadigan sovuq qor.

Oppoq yalanglikdan o'tib borayotgan sochlari qordek oqargan qariya va uning yonidagi qo'l ushlab olgan ikki bolakay o'zlarining umumiy do'stlarini topgani o'tlanishgandi. Ularning umidi bor edi.

Yolg'on ham haqiqatdek muqaddas bo'lishi mumkin. Xuddi jon berayotgan odam o'zi yaxshi ko'rgan insonlariga qarab, «Mening ahvolim judayam yaxshi» deganidek... Xuddi ona bedavo dardga uchragan xasta bolasiga quvnoq qo'shiqlar kuylab, jilmayib boqqani kabi...

Hayot esa o'zanidan ketaveradi. Ketishining sababi shundaki, unda umid bo'ladi. Umid bo'lmaganida esa tushkunlik har qanday hayotni yo'q qiladi.

Bolalar kun bo'yi Bimni izlashdi. Kechqurun, qosh qoraya boshlaganida Tolik Alyoshani tramvayda «o'zlarining» avtobus bekatigacha kuzatib qo'ydi.

– Bu mening otam, – deb tanishtirdi Alyosha.

U ketayotganida otasi bergan o'n besh so'mni Xristian Andreyevichga topshirdi.

– Pullarni ishlatmadim.

– Tushunarli, – ma'yus tortib dedi otasi.

Tolik yo'lga tushgan avtobusning ortidan qo'l silkitib qoldi. U yangi do'sti bilan ajrashayotganidan xafa, lekin uni topganidan xursand edi. Endi Tolik Alyosha bilan qayta uchrashuvini kutib yashaydi. Zero, Bim yer yuzasida shunaqangi aniq iz qoldirdi...

Uyiga borgach, Tolik otasiga qat'iy ovozda dedi:

– Bimni shaharning biron joyidan albatta topamiz. Biz uni topamiz.

– «Biz» deganing kim bo'ldi yana?

– Alyosha, Ivan Ivanich va men...

– Alyosha kim-u, Ivan Ivanich kim? – deb so'radi onasi.

– Alyosha – qishloqdan kelgan bola, uning otasi Xristian amaki, Ivan Ivanichning kimligini bilmayman... U yaxshi odam... Bimning egasi.

– Egasi topilgan bo'lsa, Bimni boshingga urasanmi? – deb so'radi otasi.

Tolik javob bermadi, u o'ta murakkab va kutilmagan bu savolni tushunmagandi.

– Bilmadim, – sekingina dedi u.

Kechasi, qotib uxlab qolgan Tolik tushida Alyoshaning sigiri o'zini telpagini yalayotganini ko'rayotgan bir vaqtda, uning onasi va otasi uzoqroqdagi xonada bahslashib o'tirishardi.

– Bolang nazoratsiz o'syapti-da, – ta'na qildi ota.

– Sen qayerdasan? – qarshi hujumga o'tdi ona.

– Men davlat ishidaman.

– Men esa yanayam rasvoroq ishdaman. Sen uydan chiqib ketasan-u, bo'ldi, boshqasi bilan ishing yo'q. Men esa... Birgina uy tozalashning o'ziyoq tamom qiladi.

– Kim qayerda ishlamasin, uning sidqidildan bajaradigan majburiyatlari bo‘ladi. Men boshqa narsa haqida gapiryapman. Tolikni kim tarbiya qilishi kerak? Senmi yoki menmi? Yoxud ikkovimizmi? Unday bo‘lsa, gapimiz bir yerdan chiqishi kerak.

– Balki sen ham, men ham emasdirmiz.

– Unda kim? – yelka qisdi ota.

– Butun umid maktabdan, – sal xotirjamroq ovozda dedi ona.

– Va, ko‘chadan, – qo‘shib qo‘ydi ota.

– Mayli, ko‘chadan bo‘laqolsin. Buning nimasi yomon? Barcha bolalar ko‘chada ulg‘ayishadi.

– Xo‘sh, halollik-chi, uni kim tarbiyalaydi? – endi ovozini bir parda ko‘tardi ota.

– Mana, o‘qi. Yo‘q, yaxshisi o‘zim o‘qiyman. Eshit. – ona gazetadan yulib olingan alohida gaplarni o‘qiy boshladi. – Tinimsiz nazorat, qat‘iy tartib, talabchanlik – mana shular odamlarda halollikni tarbiyalaydi. Halol odamni qalqonga ko‘tarish kerak! Eshit-yapsanmi, qalqonga! E, hammangizni jin ursin!

Ona o‘zini o‘ringa tashladi, otaning esa bahsni kuchaytirgisi kelmasdi. U onani yaxshi ko‘rar, ayol ham erini sevar, shuning uchun ham eri birinchi bo‘lib yarashishga shoshilardi. Ochig‘i, uzoq arazlab yurishlar ularda sirayam bo‘lmasdi. Bu safar ham u yarashuv ohangida so‘z qotdi:

– Nimayam qilarding, bu ishni bir yoqli qilishga to‘g‘ri keladi. Men Bimni topishga urinib ko‘raman. Urinib ko‘raman. Itning egasi topilgan bo‘lsa, demak Tolik uni uyga sudrab kelmaydi. Agar biz itni topib bersak, Tolikning oldida obro‘yimiz oshadi.

Yo‘q, u xayolida aylanayotgan so‘zlarni aytmadi. O‘sha oqshom Semyon Petrovich xotirjam va dadil emasdi: o‘g‘li ulg‘ayyapti va otasining yonidan o‘tib ketyapti, otasi esa hayot chop-choplari orasida buni sezmay ham qolyapti. Semyon Petrovich o‘ylardi. U bir kuni daryo sohilidagi pivoxonada hali mo‘ylovi sabza urmagan yigitchani ko‘rganini esladi. U devor yonida oyoqlarini chalishtirgancha qichqirar va ovozining boricha o‘kirib yig‘lardi...

Bu xotiradan Semyon Petrovichning yuragi orqaga tortib ketdi. U yana besh yildan so‘ng o‘zining o‘g‘li Tolik o‘sha pivoxonada

o'tirishini dahshat ila tasavvur qilarkan, nafasi qaytib ketdi. U xotiniga yaqinlashdi, uning yoniga o'tirdi va kutilmaganda past, yalinchoq ovozda dedi:

– Balki Tolikka yaxshi kuchukcha olib berarmiz-a?.. Balki Bimni egasidan so'rab olib berarmiz? Yaxshi pul to'lasak, beradi. Sen nima deysan?

– Oh, Semyon, bilmadim. Mayli, it sotib olib bera qolaylik.

To'g'ri, Semyon Petrovich bitta kichik narsani – do'stlik va ishonchni pulga sotib olib bo'lmasligini hisobga olmagandi. U xohlagan taqdirida ham Bimni endi sirayam topolmasligini bilmasdi. Bizning Bim, mehribon Bimkamiz hatto Tolikning otasini qalbidam ham iz qoldirgandi. Ehtimol, uning vijdoni qiynayotgandir, kim bilsin... Zero, vijdon qiynog'idan hech kim qochib qutulolmaydi. Biroq Bim haqidagi o'ylar Semyon Petrovichni tunda ham bezovta qilaverardi.

O'sha tunda Bim hali tunuka qoplangan furgonda yotgandi. Ertesi kuni esa Tolikning otasi qidiruv tashkil qildi. U temir furgonning sirini ocha olarmikan, Bimning yorug'lik va ozodlikka, do'stlik va ishonchga intilishi qanchalar kuchli va yengib bo'lmas ekanligini tushunarmikan?

Yo'q, oddiy sababga ko'ra bu voqea yuz bermadi. Ertasiga, dushanba kuni ertalab Ivan Ivanich g'ilofga solingan miltig'ini oldi va karantin joyiga ketdi. Bu yerda ikki nafar it tutuvchilar bilan uchrashdi, Bimni uyining yonginasida tutishganini eshitib, qayg'ualamga botdi. Ikkala it tutuvchilarning xoladan qattiq jahli chiqib, uni kurakda turmaydigan so'zlar bilan rosa so'kishdi. Bim xiyonat va yovuzlikning qurboni bo'lganini eshitib, Ivan Ivanichning dardunyosi qorong'i bo'lib ketdi. U o'zining vazifasini bajarayotgan it tutuvchilarni aslo ayblamasdi, shunga qaramay yosh yigit juda bo'lmaganda xolaga ishongani uchun ham o'zini aybdor his etardi.

– Eh, buni bilganimda edi... – u gapini tugatmay, mushtumi bilan avtofurgon kapotiga gursullatib urdi. – Shunaqangi gazanda xotinlarga ishonganning o'zi ahmoq!

Ivan Ivanich ulardan Bimni o'rmonga eltib berishlarini iltimos qildi va buning uchun besh so'm to'lashini aytdi. Ishchilar darrov

rozi bo'lishdi. Ular uchovlashib o'sha furgonning kabinasida ketishdi.

Ivan Ivanich har doim ov oldidan to'nkachada o'rmonni tinglab o'tiradigan, sog'inchdan yuragi tilka-pora bo'lgan Bim tumshug'ini xazonlarga ishqalagan o'sha yalanglikdagi to'nkachadan bir necha qadam nariga Bimni dafn etishdi, qabri ustiga qor aralashgan xazonlarni yupqa qatlam qilib sepib qo'yishdi.

O'rmon bir maromda sekingina g'uvullardi.

Ivan Ivanich miltig'ini g'ilofidan chiqardi, o'q joyladi, bir zum o'ylanib turgach, osmonga qarata o'q uzdi.

Shu zahoti o'rmon kuzga xos bo'g'i ovozda qayg'uli aks-sado berib, g'uvullab qo'ydi. Uning ovozi uzoq-uzoqlarda qisqa ingroqdek osilib qoldi.

Ivan Ivanich yana osmonga qarata o'q uzdi. Yana o'rmonning ingrog'i tinishini kutib turdi.

Ivan Ivanichning ikkala hamrohi hayrat ila unga tikilishardi. Biroq u joyidan qimirlamagani holda miltiqqa yana ikkita o'q joyladi va shunaqangi bir maromdagi ovozlar uzoqda tinishini kutib, mutlaqo teng vaqt oralig'ida yana ikki marta o'q uzdi. Keyin miltig'ini g'ilofiga solib, to'nkacha tomon yurdi.

It tutuvchilarning kattasi so'radi:

– Nima uchun to'rt marta o'q uzdingiz?

– Qoidasi shunday, – javob qaytardi Ivan Ivanich. – It necha yoshga kirgan bo'lsa, shuncha marta o'q uziladi. Bim... to'rt yoshga to'lgandi. Har qanday ovchi bunday vaqtda bosh kiyimini yechib, sukut saqlaydi.

– Buni qara-ya! – past ovozda hayratlanib dedi yosh yigit. – Xuddi falokat paytidagidek... kulfatda qolgandagidek... – u furgon tomon ketdi, kabinaga chiqib o'tirdi-da, eshikni yopib oldi.

Ivan Ivanich o'zining to'nkachasiga o'tirdi.

O'rmon bir maromda, xuddi qishdagidek sovuq, yalang'och va noqulay shovqin solardi. Qor ozginagina yoqqandi, xolos. Qor negadir ancha kechikdi, allaqachon gupullatib, qalin yog'ishi kerak edi. Balki shu sababli ham o'rmonning shovqini vaysaqi, zeriktiradigan, uyquga tortadigan bo'lib qolgandek, shunchalik umidsizlikdan keyin qish ham, bahor ham bo'lmaydigandek tuyulardi.

To'satdan Ivan Ivanich do'stini yo'qotganidan so'ng qalbida paydo bo'lgan bo'shliqni ilqlik to'ldirganini his etdi. Avvaliga buning nimaligini tushunib yetmadi. Bu Bim o'zi sezmagani holda uning yoniga boshlab kelgan ikkita bolakaylar edi. Ular hali yana kelishadi. Ko'p marotaba kelishadi.

Ivan Ivanich furgonning kabinasiga chiqib o'tirganidan so'ng xuddi o'z-o'ziga gapirayotgandek bir ohangda:

– Yolg'on. Bahor, albatta, keladi. Boychechaklar ham ochiladi. Bu yerlarda shunaqangi shukuhli qishlar va tarovatli bahorlar bo'ladi-ki... – deganida, ikki nafar it tutuvchilar unga judayam ajablanib boqishdi.

Qaytishda yosh yigit katta yo'ldan sal nariroqda joylashgan qishloqning ro'parasida to'satdan furgonni to'xtatdi, eshikni ochdi va Paxmoqni chiqarib yubordi.

– Xohlamayman! Istamayman! – xitob qildi u. – Hoy, kuchukcha, tezroq qishloq tomonga qoch, joningni saqla. U yerda omon qolasan!

– Hoy, bu nimasi? Nimalar qilyapsan? Ikkita it bo'lganini bilishadi-ku! – deb qichqirdi yoshi kattasi.

– Bittasi o'ldi, ikkinchisi qochib ketdi, bori shu, xolos. Istamayman. Hech narsani istamayman! Bori shu!

Paxmoq furgonni ajablangan nazar bilan kuzatib turdi-da, keyin atrofiga alangladi va o'zi sezmagani holda katta yo'ldan nariga, qishloq tomonga, odamlar huzuriga yugurib ketdi. Aqlli it.

O'rmonda ekanligidayoq, Ivan Ivanich yosh yigitning ham, katta yoshdagisining ham ismi Ivan ekanligini bilib olgandi. Uchalasi Ivan bo'lib chiqishi noyob tasodif edi. Bu ularni yanada yaqinlashtirdi va ular yaqin do'st bo'lib ajralishdi. Aslida esa ularni birgina narsa birlashtirib turardi: uchchovlashib itlar qamoqxonasiga bardosh berolmagan bir itni ko'mishdi. Ba'zan odamlar katta ishlarni birgalashib bajarishadi-yu, keyin bir umrga yuz ko'rishmay ketishadi. Ba'zan esa kichikkina ishni birga qilishadi va bir umrga bog'lanib qolishadi.

Ivan Ivanich kabinadan tushib, va'da qilingan besh so'mni yosh Ivanga uzatganida, u qariyaning qo'lini nari itardi va yuqoridagi so'zlarini takrorladi:

– Istamayman. Xohlamayman! Bori shu!

Bimning o'limida u o'zini ham aybdor sanayotgani uzil-kesil ma'lum bo'ldi. Aftidan, uni vijdoni qiynardi. Nimayam derdik, vijdon qiynog'i – eng dahshatli qiynoq, undan na kechirim so'rash, na afsus-pushaymon, na yomonlik sodir etgan gunohkorga achinish xalos etolmaydi.

Ha, yosh Ivan o'zining kichkina xatosini judayam yuragiga yaqin olgandi. Bu uning fazilati edi. Bu mehribon, sadoqatli va vafodor itning yer yuzida qoldirgan yana bitta izi edi. Aytgancha, katta Ivan alohida ruhiy noqulaylikni his etmasdi, shu bois uzatgan besh so'mni indamay oldi-da, minnatdorlik ila cho'ntagiga solib qo'ydi. Uni ayblashga hojat yo'q, chunki mehnati uchun va'da qilingan haqni oldi, Bimni tutganida esa shunchaki o'z vazifasini ado etgandi, xolos.

... O'sha kuni Semyon Petrovich qidiruv tashkil etdi. Birinchidan, gazetalarda «Setter zotiga mansub bo'lgan it yo'qoldi: laqabi Bim, o'zi oq, qulog'i qora, misli ko'rilmagan aqlli it». Uning qayerdaligini quyidagi manzilga xabar qilganlarga yaxshigina mukofot va'da qilinadi» degan e'lon paydo bo'ldi.

Katta shahar Bim haqida gapira boshladi. Telefonlar tinmay jiringlar, o'quvchilardan hamdardlik bildirilgan maktublar kelar, ko'ngillilar har tomonda yo'qolgan itni izlashardi.

Shu tariqa, Bim ikki marta: bir marta hayotligida – quturgan it sifatida, ikkinchi marta o'limidan keyin – «misli ko'rilmagan aqlli it» sifatida mashhurlikka erishdi. Bimning oxirgi shuhrat qozonishi-da Semyon Petrovichning xizmati katta bo'ldi, albatta.

Biroq butun qish davomida, undan keyin ham Bimning izini topisholmadi. Buni kim ham bilardi, deysiz? Yosh Ivan karantin joyidan bo'shab ketgan va o'zimizga ayon sabablarga ko'ra e'longa javob qaytarmagandi. Katta Ivanni esa Ivan Ivanich bu haqda og'iz ochmasligi haqida ogohlantirib qo'ygandi! Shu uch kishidan boshqa biron zot Bimning o'rmonda, qor tagidagi muzlagan tuproq ostida yotganini, uni endi hech kim ko'rmasligini bilmasdi.

O'sha yili qish judayam sovuq keldi, ikki marta qora bo'ron turdi. Bu bo'ron dan keyin dalalardagi oppoq qor qop-qora bo'lib qolardi. Biroq bizga tanish bo'lib qolgan yalanglikdagi qor oppoqligicha qolgandi. Uni o'rmon himoya qilgandi.

O'n yettinchi bob

O'RMON XO'RSINDI

(Xotima o'rnida)

Yana bahor keldi.

Quyosh qishni haydab yubordi. Xafa bo'lgan qish yarim erigan va zaif oyoqlarini zo'rg'a sudrab bosganicha ketarkan, uning ortidan qolmay izma-iz kelayotgan va tobora ko'payib borayotgan iliq kunlar kampirsho qishni kuydirib, dog'lar paydo qilishar, uni iflos oq parchalarga bo'lib tashlashardi. Bahor doimo jon berayotgan qishga nisbatan shafqatsiz bo'ladi.

Mana, daryolar tinchlanishdi, endi shoshmay oqishmoqda, borgan sari kichrayib, sayozlashib ketishmoqda, tunlari esa deyarli to'xtab qolishadi ham. Bahor kechikib, bir maromda keldi.

– Bunday bahor yaxshi hosilning darakchisi, – dedi bir kuni Alyosha bilan birga Ivan Ivanichning uyida tunab qolgan Xristian Andreyevich.

Tez orada ular qo'ylarni dalada o'tlatishga olib chiqishadi, biroq Alyosha to ta'tilga qadar ertalablari otasi bilan birga podani «kuza-tib» qo'yadi, kechqurunlari esa qishloq boshlanishida «kutib» oladi.

Alyosha bir necha marta yolg'iz o'zi kelib ketdi. Bunday kunlarda ular Tolik bilan ajralishmas va ajoyib bolakaylar birgalashib yana Bimni izlashardi. Biroq bir kuni Ivan Ivanichnikida choy ichishayotganda, Xristian Andreyevich mulohaza yuritib, dedi:

– Agarki gazetalarda e'lon berilganidan keyin ham topilmagan bo'lsa, demak uni kimdir uzoq-uzoqlarga olib ketgan. Agar u nobud bo'lgan bo'lsa, kimdir gazetadan chiqib, «Itingiz o'lgan, kimdir qayerdadir ko'rgan» degan bo'lardi. Eng muhimi, u – tirik, hamma gap shunda. Hamma ham o'zining itini topavermaydi. Bu borada qo'limizdan hech narsa kelmaydi, – dedi, keyin hamdardlik bilan Ivan Ivanichga tikilib, qo'shib qo'ydi. – Shunday ekan, bolalar, endi Bimni izlash befoyda. To'g'ri aytyapmanmi, Ivan Ivanich?

U bosh irg'ab ma'qulladi.

O'sha kundan keyin Bimni izlash to'xtatildi. Undan faqat xotira qoldi. Bu xotirani bolalar umrining oxiriga qadar ardoqlab saqlashdi.

Ehtimol, oradan ko'p yillar o'tgach, bu bolakaylar o'zlarining farzandlariga Bim haqida so'zlab berishar. Chunki yoshligida it bilan do'st tutingan ota yoki bobolar u bilan yuz bergan kulgili yoki qayg'uli voqealar haqida farzandlariga yoki nabiralarga so'zlab berishdan o'zini tiya olmaydi. Shunda o'smir o'zining iti bo'lishini xohlab qoladi.

Xristian Andreyevich ketayotib, Ivan Ivanovichning sovg'asini – bir oylik ovcharka zotli kuchukchani qo'yniga solib oldi. Alyoshaning quvonchi cheksiz edi.

...Xonada yangi kuchukcha eski boshmoqni o'ynardi. Tusi haqiqiy ingliz setteri zotiga xos bo'lgan bu kuchukchanning ham laqabi Bim edi. Uni Ivan Ivanich «ikki kishiga», ya'ni o'zi va Tolik uchun sotib olgandi.

Biroq u eski do'stini hech qachon unutmaydi. Bim sovg'a qilgan ov tonglarini ham, uning mehribonligini va hamma narsani kechira oladigan do'stligini ham unuta olmaydi. Sodiqlik do'sti, uning qayg'uli taqdiri haqidagi xotira qariyaga tinchlik bermaydi. Aynan shu bois ham u yana o'sha yalanglikka borib, o'sha to'nkachaga o'tirdi. Atrofga alangladi. U o'rmonni tinglagani kelgandi.

Ajabtovur sokin bahor kuni edi.

Osmon yalanglikka sanoqsiz boychechaklarni sepkan (yerdagi osmon tomchilari!). Ivan Ivanichning hayotida ko'p marotaba shunaqangi mo'jiza takrorlangan. Mana, yana astagina, oddiyligi bilan ham qudratli bo'lgan va har safar hayot tug'ilishining betakror yangiligi bilan hayratlantiruvchi bahor keldi.

Osmon tomchilari sachragan, kurtaklar ichidagi hali til chiqarmagan yaltiroq bargchalarga tinchlik bermayotgan iliq quyosh nurlarining dastidan erinibgina uyqudan uyg'onayotgan o'rmon miq etmasdi.

Ivan Ivanichning nazarida eri ham, gumbazlari ham osmon tusida bo'lgan, ustunlari tirik emanlardan tiklangan ulug'vor ibodatxonada o'tirgandek tuyuldi. Bu xuddi tushga o'xshardi.

Biroq to'satdan... Bu nima bo'lsa ekan-a? O'rmon uzra qisqa shovqin – chuqur xo'rsiniq yangradi. Bu xuddi daraxtlarning hayotni juda uzoq kutganidan keyin kurtaklar ochila boshlaganidan yengil

tortib, xo'rsinganiga o'xshardi. Bo'lmasa nega shoxlar silkinib ketdi, ortidan chittak chirqilladi, qizilishton esa daraxtni do'mbiradek gumburlatib chalib, mahbubasini chaqirdi va muhabbat qaytib kelgani haqida butun o'rmonga jar soldi? U ham o'rmon loyxo'ragiga o'xshab bahorning tantanavor musiqasi haqida birinchilardan bo'lib darak beradi. Farqi Loyxo'rak qosh qoraygan paytda, tepadan turib ehtiyotkorlik bilan chaqirganicha, «Xo'r-Xo'r! Xo'r-Xo'r!», ya'ni «Yaxshi, yaxshi!» deb xo'rillab qo'yadi. Qizilishton esa o'ziga yoqqan shoxdagi qup-quruq kovakni topadi-da, ibtidoiy quvonch asbobida baland, dadil, qat'iy xabar tarqatadi: «Go'-zal-lik!».

Mo'jiza va umidlar amalga oshadigan vaqt boshlangani tushunarli, shuning uchun ham o'rmon yengil tortib xo'rsindi.

Boshqa qushlar ham qudratli pahlavon va najotkorga javob qaytarishadi. Ivan Ivanich buni aniq eshitdi. Axir bu yerga u o'rmon va unda yashovchilarning ovozi eshitish uchun kelgan-ku!

Agar yalanglikning bir chekkasidagi yalang'och, osmonrang gullar bilan qoplanmagan, faqatgina o'tgan yilgi xazonlar aralash yangi tuproq to'kilgan dog' ajralib turmaganida edi, u har yili shunaqangi vaqtlarda o'zini his qilganidek baxtiyor bo'lardi.

Bahorda, tevarak-atrof quvonchga to'lib, tantana qilayotgan bir pallada bunaqangi dog'ni ko'rish yurakda mahzunlik uyg'otadi.

Yangi Bim o'zining mehribon, sodda, yoqimtoy va sofdil ko'zchalarini pastdan tepaga ko'tarib, Ivan Ivanichga mo'ltirab turadi. Kichkintoy Bimka allaqachon Tolikning qalbini zabt etib bo'lgandi.

«Uning taqdiri qanday kecharkin? – deb o'yladi Ivan Ivanich. – Yo'q, kerakmas, endigina hayoti boshlanayotgan yangi Bim mening do'stimning taqdirini takrorlashini xohlamayman. Buni aslo istamayman. Kerak emas».

Ivan Ivanich o'rnidan turdi, qaddini rostlab, hayqirdi:
– Kerak emas!

O'rmon uning so'zlarini qisqa aks-sado qilib qaytardi: «Kerak emas... Kerak emas... Kerak emas...» Va, jim bo'lib qoldi.

Bahor esa avjiga chiqardi.

Yerdagi osmon tomchilari qulf urardi.

Atrof sokin edi.

Shunaqangi sokin ediki, go'yo hech qayerda hech qanaqangi yovuzlik yo'qdek tuyulardi.

Biroq... Kutilmaganda o'rmonda kimdir... o'q uzdi. Uch marta o'q uzildi.

Kim? Nega? Kimga?


Ehtimol, yovuz odam o'sha chiroyli qizilishtonni yaralagan va ikkita o'q bilan urib tushirgandir...

Balki bironta ovchi endigina uch yoshga kirgan itini tuproqqa topshirgandir...

«Yo'q, tirik emanlar ustun bo'lgan bu zangori ibodatxonada ham osoyishtalik yo'q ekan» deb o'yladi qalpog'ini yechib, nigo-hini ko'kka qadagan oppoq sochli Ivan Ivanich. Bu xuddi ko'klam ibodatiga o'xshardi.

O'rmon sukutda edi.







QO'SHNILAR

Makar Petrovich Luchkov deb so'rasangiz, qishloq ahlining ko'pchiligi uni tanimaydi. Lekin «Makar Xantal» desangiz, hatto yosh bola ham uning uyini ko'rsatib yuboradi. Nima uchun unga bunaqangi laqab qo'yishgani noma'lum, lekin u o'zi har taraflama ko'zga tashlanib turadigan odam. Eng muhimi, halol ishlaydi. Ichkilik ichib yurganini hech kim ko'rmagan, biroq yil bayramlarini yaxshi nishonlaydi, ya'ni yuz gramm ichib olsa, tili buralib chuldirab qolmaydi. Ichadi. Masalan, may bayramining birinchi-ikkinchi kunlarida ikki-uch litr qo'lbola araqni ko'rdim demaydi. Ichayotib esa: «To militsioner isini sezib qolmasidan, bu la'natini tezroq ichib tugatish kerak», – deb qo'yadi. Haqiqatan ham hammasini ichib qo'yadi. Biroq Makar Petrovichning o'zi hech qachon qo'lbola araq tayyorlamas, pulga ham sotib olmas, balki lavlagiga ayirboshlardi. Ko'pincha ulfatchilikka qo'shnisi Pavel Yefimich Ptaxinni chaqirardi. Shunday paytlarda u xotini Sofya Sergeyevnaga qarab:

– Sergeyevna! Pashka Pomidorni chaqirgin, – deb qo'yardi.

Xotini ortiqcha qarshilik qilmas, gap bayramga borib taqalganida, Makar butun idishni «ichib tugatishi» shartligini yaxshi bilardi. Pavel Yefimich kelardi. U og'ziga xushbo'y toshcho'p o'ti yoki pichan tiqilib, toza matoga o'ralgan ko'zacha yoki shisha ko'tarib kelar, bosiq ovozda do'rillab:

– Makar Petrovich, bayram muborak! – derdi.

U ko'zachani tokchaga qo'yar, qalpog'ini yechar va o'tirishdan avval ikkala qo'lining kaftlari bilan oqimtir sochlarini silar, ukraincha mo'ylovini tepaga burab qo'yardi.

– Bayram muborak, Pal Yefimich! – derdi unga javoban Makar Petrovich. – Pal Yefimich, nima bu? – deb so'rardi keyin ko'zachaga ishora qilib.

Unga javoban Pavel Yefimovich o'zining tomog'iga chertib qo'yar va samimiy jilmayganicha derdi:

– O'zimning mahsulotimdan.

– Shundaymi? Qani, dasturxonga marhamat!

Shundan so'ng Pavel Yefimich dasturxon yoniga o'tirardi. Ular sekin, uzoq ichishardi. Bu holat ikki kungacha davom etardi. Uxlagani yotishar, turishar va yana ichishardi. Bu odatda ularning ikkovi ham mutlaqo hushyor holda boradigan tantanali yig'ilishdan qaytishganidan so'ng boshlanardi. Yig'ilishda ular doimo hushyor holda yonma-yon o'tirishar, bo'layotgan gap-so'zlarni diqqat bilan kuzatishar, ijro etilayotgan qo'shiqlarni mazza qilib tinglashar, spektaklni tomosha qilishar, keyin bayramona kayfiyatda uyga jo'nashardi.

Shuni ham e'tirof etish joizki, ularni hech kim mast holda ko'rmasdi. Sal shirakayf bo'lib qolganini sezishsa, ozgina kutishar, suhbatlashishar, keyin ozgina ichishar, shu tariqa davom etaverardi. Lekin bunday kunlari ular katta siyosat haqida gapirishdan o'zini olib qochishar, hatto gap shunga borib taqalsa-da, darrov mavzuni o'zgartirishardi. Ba'zan Makar Petrovich qaynab qolardi:

– Pal Yefimich, men o'n besh yildan beri otboqar bo'lib ishlayman. Tushunyapsanmi, o'n besh yil! – barmog'ini tepaga ko'taradi, quyuq qoshlarini uchiradi, xuddi ajablanayotgandek boshini egadi-da, g'azabli ohangda davom etadi. – Bu davr mobaynida qanday raislarni ko'rmadim, deysan. Pal Yefimich, ishimizni o'zing tushunasana, yo'lda kanop topa olmayman, qiyoyoq o'tdan arqon eshib olaman. Xo'sh? Uch kunga chidamay, uzilib ketadi. Minglab, son-sanoqsiz marta qiyoyodan arqon to'qiyman. Iltimos ham qildim, majlislarda ham gapirdim, «Nega tushunmaysizlar, otni tunda tushovlab qo'yilmasa, oddiy moldan farqi bo'lmaydi. Daladagi hamma ekinlarni payhonlab tashlashi mumkin», – dedim. Qayoyoda?! Quloq ham solishmaydi.

– Quloq solishmaydi, degin? Voy, noinsoflar-ey! – bosh chayqaydi Pavel Yefimich.

– Masalan men markazga xat yozsam, – qizishib ketadi Makar Petrovich, – shunday, shunday desam, bilasanmi, unga nima bo'ladi?

– Kinga?

– Raisga-da!

– E, Makar Petrovich, unga nimayam bo'lardi? U aslida yomon odam emas.

– Sengayam qiyodan arqon to'qittirganida, bilarding-a...

– Makar Petrovich, qo'ysang-chi! Axir sen bilan ichkilik icha-yotganda siyosat haqida gaplashmaslikka kelishgandik-ku, axir! Sen bo'lsa nuqul markazni gapirasan. Bu haqda hushyor bo'lgan vaqtda gapirish kerak.

– To'g'ri aytasan, – ancha tinchlanib qolardi Makar Petrovich.

Bir so'z bilan aytganda, ular orasida so'z qochmasdi. Hatto ba'zan bahslashib qolishsa ham (bunga ko'pincha Makar Petrovich sabab bo'lardi), darrov tinib qolardi.

– Xo'sh, Makar Petrovich, nima haqda gapiryapsan? – derdi Pavel Yefimich. – Shunaqangi bayramda gap talashib o'tirsak, qanday bo'larkin-a?

Shunda Makar Petrovich to'satdan boshini silkir, ko'zlarini yumar va darrov baland ovozda qo'shiq boshlardi:

– *Qa-mish sho-vul-lay-di, da...* (shu yerda u qisqa tanaffus qiladi-da, o'pkasini havoga to'ldirib chuqur nafas oladi)... *raxt-lar e-gila-di!*

Pavel Yefimich esa boshini yonga egib, jo'r bo'ladi:

– *...da-raxt-lar e-gi-la-di!*

Ularning ovozini eshitgan odamlar o'zaro: «Bu qo'shnilarning ahil yashashlarini ko'ring. Makar Xantal va Pashka Pomidor judayam mehribon qo'shni. Ular judayam ahil!» – deb qo'yishadi.

Nima deganda, bu hayotning faqat bitta tomoni. Umuman olganda, u bilan Pavel Yefimichning orasida farq bor. Bu farq judayam katta: fe'l-atvori bo'yicha ham, xo'jalik bo'yicha ham. Xo'jalik raisiga ham ular turlicha munosabatda bo'lishadi, buni ichib o'tirganlarida o'zaro gaplashib qolganlaridan ham ko'ramiz.

Ularning yuz qiyofasi ham o'xshamaydi.

Makar Petrovich mo'ylov qo'ymaydi. Uning burni uzun, ko'zlari tiniq, och moviy, sodda, qoshlari esa quyuq. Uni birinchi marta ko'rganda, qoshini ko'rib, qattiqqo'l odam bo'lsa kerak,

deb o'ylaysiz. Ko'zlariga tikilib qarasangiz, «Sofdil odam» degan xulosaga kelasiz. Buni oyoq kiyimidan ham bilsa bo'ladi. U doimo qirq beshinchi o'lchamli etik kiyib yuradi, chunki boshmoq va kigiz etik kiysa, otxonada yoki tunda ishlab bo'lmaydi. Uning bo'yi baland, yelkasini sal bukiyroq yuradi, ozg'inligidan suyaklari tur-tib turadi, lekin suyaklari mustahkam, baquvvatligi darrov seziladi. Bunday suyaklar har qanday narsani ham ko'taradi. To'g'ri, agar Makar Petrovichning bir yilda ikki kungina to'yib ichib, boshqa ish kunlarining hissasini chiqarib olishini hisoblamasa, uning boshqa uyaladigan joyi yo'q edi.

Pavel Yefimich esa, aksincha, ukraincha shop mo'ylov qo'yadi, soqolini esa silliq qirib yuradi. Uning ko'zlari o'tkir, kulrang, ayyorona boqadi, qoshlari siyrak, dumaloq yuzi qip-qizil. Shu qiyofasi uchun ham u yoshligida «Pomidor» degan laqabga mu-yas-sar bo'lgan.

U har tomonlama dumaloqqina edi. Agar yelkasiga qop qo'y-sang, sirg'alib tushadigandek ko'rinadi. Uning qo'llari ham Ma-kar Petrovichniki singari katta-katta emas. Poyabzali ham Makar Perovichnikiga o'xshamaydi: yozda – askarcha rusumdagi qayish bilan tortilgan boshmoqda yuradi, qishda kigiz etik kiyadi.

Bundan tashqari, Pavel Yefimich mutlaqo chekmaydi, Makar Petrovich esa tamakini ketma-ket ulab chekadi.

Endi xo'jalikka kelsak, asosiysi – sigir. Unisining ham, buni-sining ham sigiri bo'lsa-da, ular bir-biriga mutlaqo o'xshamasdi.

Makar Petrovichning sigiri oddiygina edi. Kattaligi g'unajindek, junlari uzun-uzun, qorindor, boshqalarga sirayam o'xshamaydi. Suti emas, balki fe'li bo'yicha o'xshamaydi. Ba'zan uyilgan tezak tepaning ustidan yurib o'tib, molxonaning tomiga chiqib oladi va atrofni tomosha qilganicha tugamas «saqich»ini chaynab tura-veradi. Ba'zan quritish uchun uyib qo'yilgan iliq tezaklarning usti-ga cho'ziladi, ko'zlarini yumib, pishillab yotaveradi. Agar kimdir qo'rqitsa – baqirsa yoki hushtak chalsa, – jon-jahdi bilan joyidan sakrab turadi-yu, dumini ko'targanicha tiraqaylab qochib qoladi. Umuman olganda, asabiy, xuddi buzoqchaga o'xshagan fe'lli sigir-lar onda-sonda bo'lsa-da uchrab turadi. Sergeyevna faqat sigirining

oyog'ini bog'labgina sog'ib olardi. Bo'lmasa, sigir bir tepib, chelagini uchirib yuborar, sog'ilgan sut yerga to'kilardi.

Pavel Yefimichning sigiri oddiygina bo'lib, ko'p sut berar, tezak uyumining ustiga chiqmas, yonida miltiq otilsa, hatto dumini silkitib qo'ymasdi. Oddiygina sigir, gapirishga arziydigan jihati faqat sut berishi edi, xolos. Balki kimdir, sigirning asosiy vazifasi sut berishi bo'lishi kerak, deyar ham. Shundayku-ya, lekin doim ham bunday bo'lavermaydi. Bundan tashqari, bu borada qo'shnilarning qarashlari mutlaqo ayricha edi.

Bir kuni mehribon qo'shnilar kungay joyda yonma-yon o'tirishgandi. Yakshanba kuni edi. Bunday vaqtda ular nafaqat kundalik tashvishlar, sigirlar va sigirning asosiy fazilati nimadan iborat bo'lishi kerakligi haqida gaplashardilar. Suhbat juda maroqli bo'lardi. O'sha kuni ham shunday bo'ldi. Makar Petrovich Pavel Yefimichning uyiga kelib, dedi:

– O'tiribsanmi?

– Ha, o'tiribman. Sen ham o'tir.

– To'g'ri aytasan, dam olishim kerak, – u o'tirdi-da, sarxonaga tamaki to'ldira boshladi.

– Makar Petrovich, haliyam shu rasvo narsani so'ryapsanmi? – deb so'radi Pavel Yefimich. – Undan ko'ra tamakini qog'ozga o'rab cheksang bo'lardi. Shuyam ishmi, xuddi mo'ridek tutun burqiratasan!

Rostdan ham Makar Petrovich trubkasini so'rganida, u «tutay» boshlardi. Biroq u qo'shnisiga e'tiroz bildirdi:

– Nima bo'пти? Buning hamma mazasi shu pishillashida-da! (u ba'zan o'zining nazarida o'tkir bo'lib tuyuladigan gaplarni gapirishni yoqtirardi). Qog'ozga o'rab chekishga kelsak, shuni bilginki, bunday chekkanda to'ymayman.

– Baribir emasmi?

– E, yo'q! Qog'ozga o'rab chekilgan tamaki tashqarida qolib ketadi. Sarxonadan tortganimda esa yetib borayotganini sezaman. Agar undan ozgina yutib yuborsang-ku, judayam ajoyib bo'ladi, yetib boradi! Trubkadan ayni vitamin yetib borishini sezaman.

– Mayli, chekaver, – rozi bo‘ldi Pavel Yefimich. – Yuraging talab qilyaptimi, unda chekaver. To‘g‘ri-da, hamma o‘ziga nima yoqishini o‘zi biladi. Mana, bizning «moliyaviy agenti»miz ham sarxonani tutatgani-tutatgan.

«Moliyaviy agent» so‘zi darrov hamsuhbatlarni mulohazaga undadi. Makar Petrovich bir tomchi yutib yubordi-da, xuddi allaqachon boshlab qo‘yilgan suhbatni davom ettirayotgan ohangda gapira ketdi:

– Men sigirlar haqida gapiryapman. Bu noto‘g‘ri-da, axir... Ularning fikricha, mening sigirim ham, seniki ham uch ming so‘m daromad keltirarmish. Men ham sigirim uchun to‘rt yuz so‘m soliq to‘lashim kerak ekan, sen ham. Men bunga qarshiman. Bu siyosiy jihatdan noto‘g‘ri.

– Unda menikiga o‘xshagan yaroslavl zotli sigir sotib olgin.

– E, yo‘q, Pal Yefimich. Men isbot qilaman. Sigirim talabga munosib emasligini o‘zim ham tushunaman. Shunday. Faqat shunisi borki, men erta saharda otixonaga ketaman, tun oqqanida uyga qaytaman. Agar tungi navbatchilikda qoladigan bo‘lsam, ovqatlanish uchungina yugurib kelib ketaman. Sergeyevna ham shu ahvol: erta-lab vaqtli jamoa xo‘jaligiga ketadi, kechqurun poda bilan birga uyga qaytadi. Yaxshi sigirni kim parvarish qiladi? Hech kim. Qizim turmushga chiqib ketgan, o‘g‘lim harbiy muddatini o‘tab, qo‘shimcha xizmatga qolgan.

– Nima, seningcha men jamoa xo‘jaligida ishlamaymanmi? – xo‘mraydi Pavel Yefimich.

– Ishlashingga gap yo‘q. Faqat sen, Pal Yefimich, hatto otda yuradigan lavozimdan bosh tortding – ishga ot minmay borasan.

– Nima qilay, axir? Mening xo‘jaligim katta: sigir, qo‘ylar, tovuqlar, cho‘chqacha, asalarilarim bor. Shuncha jonivorni kim parvarish qiladi?

– Yo‘q, Pal Yefimich, bu mutlaqo noto‘g‘ri. Alyonkang – tirkovchi, Volodka – g‘alla omborida ishlaydi, maosh oladi, o‘zing xohlasang ishga borasan, istamasang – yo‘q. Uy yumushlarida ayollarni ham yo‘lda qoldirasan.

– Bu nima deganing?

– Ya’ni, ro‘zg‘or ishlarini yaxshiroq tushunasan. Shaxsiy ishingni yaxshiroq bajarasan.

– Agar mening mehnat kunimga o‘n so‘m to‘lasang, ehtimol men...

– Shuncha pulni qayerdan olaman senga? – biroz qizisha boshladi Makar Petrovich.

– Sen emas, ular to‘lashsin.

– «Ular» deganing kim?

– Haligi, idora-da... Ya’ni, rais.

– Hamma gap o‘zimizda! – xitob qildi Makar Petrovich va sarxonasini yanada kuchliroq so‘rib, bilqillata boshladi. – Agar hammamiz to‘planishib ishga chiqsak, balki mehnat kunimizga tuzukroq haq to‘lagan bo‘lisharmidi?

– To‘lashadi. Cho‘ntagingni kattaroq ochaver, – mazahladi Pavel Yefimich. – Bu yerda esa, – u barmog‘i bilan yelkasi uzra hovlini ko‘rsatdi, – ishonchli ish bor. Soliq nima bo‘libdi? Yaxshi sigir sotib olsang, xarajatlarini qoplaydi. To‘g‘ri, lekin soliq haqiqatan ham juda katta.

– Ochig‘i, men uchun kuniga to‘rt litrdan oshiq sut kerak ham emas. Zero, mening sigirim chidamlilikda tillaga teng. Kerak bo‘lib qolsa, o‘zi daryoga tushadi, tashnaligini qondirgach, yana tepaga chiqadi va hovliga kiradi. Sening sigiringni sug‘orish uchun esa yarim chaqirim yo‘l bosish kerak.

Makar Petrovich aytishi kerak bo‘lmagan gaplarni gapirayotgani tushunar, bundan yanada qattiq qizishardi. Biroq qo‘shnisining gaplarini inkor etish uchun to‘g‘ri so‘zni topa olmasdi. Aksiga olib shu paytda moliyaviy agent Slepushkin kelib qoldi.

– Salomat bo‘linglar, qo‘shnilar! – deb salomlashdi u va darrov yon daftarini ochdi. – Makar Petrovich, seni yo‘qlab kelgandim. Soliqdan uch yuz qarzing bor ekan.

Makar Petrovichning shusiz ham jahli bo‘g‘ziga kelib bo‘lgandi.

– Sen mening sigirimni ko‘rganmisan? – g‘azablanib so‘radi u. – Nima uchun shuncha soliq to‘lashim kerak? Sigirimning o‘zi etti yuz so‘m turadi-ku, uning uchun to‘rt yuz soliq to‘laymanmi? Nima, asl masalani tushunmayapsizlarmi?

– Siyosatni o'zgartirish bizning vakolatimizga kirmaydi. Sigir kerak emasmi, unda sotib yubor. Biz shaxsiy xo'jalikni haligi... nishablashtirishimiz kerak. Shunda soliqlar ham kamayadi.

– Soliq-da! – xo'rsindi Pavel Yefimich. – Qiyin, albatta. Men-ku, to'lab qo'yganman.

– Men noroziman! – qichqirdi Makar Petrovich. – O'rtoq Slepushkin, senda tushuncha degan narsa yo'q.

– Menga nima... Mening vazifam – undirish!

– Ha-a, undirish! Qani, undir, undir! Shuncha pulni senga qayerdan olaman?

– Bu mening emas, sening muammoing.

– Men ham bilmayman. Nima uchun mehnat kuniga shunaqangi kam haq to'lashadi? Men kun-u tun jamoa xo'jaligida ishlayman. O'n besh yildan beri otlarning yonida yashayman.

– Men ham shuni aytaman-da! – gapga aralashdi Pavel Yefimich. – Agar mehnat kunlari uchun to'lanadigan maoshga umid yo'q ekan, unda shaxsiy xo'jaliksiz yashab bo'lmaydi.

– Nega endi umid bo'lmas ekan? – g'azabi qaynadi Makar Petrovichning. – Gap bunda emas. Bizning raisimiz zamonaviy sharoitga mos kelmaydi. Haqiqiy rais saylash lozim.

– Hoy, sen judayam chuqurlashib ketding! – e'tiroz bildirdi Pavel Yefimich, ayni paytda Slepushkinga qarab. Bu vaqtda u: «Bizning gap-so'zlarimizni raisga yetkazsa, keyin boshing balodan chiqmay qoladi, munosabatlarimiz ham buzilishi mumkin», – deb o'ylardi.

– Yo'-o'q, chuqurlashib ketmadim, ayni tobida gapiryapman. O'rtoq Slepushkin, tushunyapsanmi, oddiy tushov – baxtiqaro tushovni tashkil qilib berisholmaydi, uni qiyoqdan to'qib o'tiraman. Shu bilan mehnat kuni qilib bo'larmidi! – Makar sarxonani kaftiga urib, yanada qizishib gapirardi. – Men istalgan ulovga qarab – u hatto yuz kilometr masofadan kelgan bo'lsa ham, – raisi qandayligini bilib olaman. Yugani zo'r, egar-jabdug'i qoyilmaqom, tushovi egarga puxta mahkamlanganmi, demak o'sha jamoa xo'jaligining raisi omilkor odam. Men esa otlarimizni latta arqonlar va qiyoqdan to'qilgan tushov bilan bog'layotganimda, yurak-bag'rim ezilib ketadi. Endiyam bunday davom etishi mumkinmas! – xitob qildi u. – Slepushkin, men pulni qayerdan olaman? Hech qayerdan!

Makar kutilmaganda jim bo'lib qoldi va sarxonani silkitdi. Slepushman Makar pulni to'lashini bilar, shuning uchun uni majburlamay, ajabtovur bir xotirjamlik ila kutardi. Pavel Yefimich pishillaganicha biqinini ishqalardi. Kutilmaganda Makar Petrovich luqma tashladi:

– To'layman. O'zing bilasan, to'lama bo'lmaydi.

– Pulni qayerdan olaman, deyapsan-ku? – endi tabassum bilan dedi Slepushman.

– Sening ishing bo'lmasin, bu mening muammoim, – xo'mrayib dedi Makar Petrovich.

– To'g'ri aytasan, Makar, faqat shuncha pulni qayerdan topasan? – hamdardlik ohangida so'radi Pavel Yefimich.

– Men o'zimning majburiyatimni ich-ichimdan sezyapman. Pulni topishim kerak.

– To'ppa-to'g'ri. Mixni qayerga qoqishni xo'jayinning o'zi biladi, – ma'qulladi qo'shnisi.

– Bilaman. Albatta, bilaman. Faqat... – u qaddini rostladi, sarxonani tizzasiga shunday urdiki, uchqunlar aralash kul sachrab ketdi, – faqat bu noto'g'ri. Mutlaqo noto'g'ri: mening sigirimga to'rt yuz, senikiga ham shuncha, ustiga-ustak tomorqangni ham qo'sh. Sen, Pal Yefimich xafa bo'lma. Biroq bu masala sigirga bo'lgan asosiy qiziqishning o'zginasi.

Pavel Yefimich rostdan ham o'ylanib qoldi. Jim turdi, turdi-da, keyin dedi:

– Kim bilsin... Balki rostdan ham noto'g'ridir. Biroq sen Oliy Kengash emassan-ku?

– Nega Oliy bo'lmas ekanman? Men – xalqman. Biz buni tushunamiz. U yerda tushunishadi. – shunday deb Makar Petrovich sarxona bilan tepaga ishora qildi. – Ular to'g'ri chiziqni o'ylab topishlari lozim. U yerda boshi qanaqangi odamlar o'tirishibdiki! – u qo'llarini boshi tepasida yoydi va qo'shib qo'ydi: – Aql! O'rtoq Slepushman, agar shu gaplarni u yoqqa yozilsa, xudo haqi, tushunishadi!

Biroq Slepushman o'rnidan turdi, xayrlashdi va bir og'iz ham so'z aytmay ketib qoldi. U masala o'ta chuqurlashib ketib qolishi-

dan xavfsirardi. «Makar Xantal vaysab qo'yishi mumkin, – deb o'yladi u. – Makar viloyat qo'mitasi kotibiga ham istaganini ayta oladi. U bilan boshing baloga qolishi hech gap emas».

Makar Petrovich esa hamon o'z bilganidan qolmasdi:

– Agar uzilgan arqonlar va qiyofli tushovlar haqida qo'shib qo'ysang ham tushunishadi.

Pavel Yefimich ochiqdan ochiq Makar Petrovichga ishonmasdi, shu sababli darrov fikrini aytdi:

– Hozircha u yoq-bu yoqqa qarab turaveray, har holda o'zimning xo'jaligim ishonchliroq... U yog'ini ko'ramiz.

– Ko'raver, ko'raver! – dedi Makar Petrovich jahl bilan. U qoshini chimirdi-da, to'ng'illadi. – Bo'pti, xayr.

U ketib qoldi. Qo'shnilar shu tarzda bahslashishdi va ajralishdi. Turgan gapki, suhbat katta, kelishmovchiliklar ko'p bo'ldi.

Odatda bunaqangi vaziyatlarda oradan bir necha kun o'tmayoq qo'shnilar yana yarashib, bahslashib va muhokama qilishga tushib ketishardi. Biroq bu safar Makar Petrovich idoradan ikki kunga javob oldi-yu, hech kimga hech narsa demay, tunda qayergadir jo'nab ketdi. Qo'shni o'smoqchilab so'radi:

– Ering ko'rinmaydimi?

– Sigirni sotgani shaharga olib ketdi.

– Sigirni-ya? – dahshatga tushdi qo'shni. – Sotmoqchimi?

– Sotmoqchi.

– Sen bunga yo'l qo'ydingmi?

– Ikkalamiz shunday xulosaga keldik.

– Endi nima qilasizlar?

– Bir gap bo'lar, – javobdan o'zini olib qochdi ayol.

Pavel Yefimich bosh chayqab turdi-da, keyin o'yg'a tolib, o'z-o'zi bilan gaplashganicha uyiga qarab ketdi:

– Sigirni sotish... Sigirni sotish... Sigirsiz yashash aqlga sig'adigan ishmi? Balki yaxshirog'ini sotib olsa-chi?.. E, bunga pulni qayerdan olsin!.. E, sigirni sotish nima degani-ya?

Bu vaqtda Makar Petrovich bozorda sigirini sotardi. Bitta bozorga bordi – sigirni hech kim olmadi. Ikkinchi bozorga olib bordi. U sigirni artistona tarzda sotardi.

– Sen bir o‘ylab ko‘r, – dedi u o‘zi kabi qoqsuyak, biroq ixchamgina soqol qo‘ygan ishchisifat xaridorga, – bu sigir emas, xazinaning o‘zginasi! Bir xovuchgina yem yeydi, iliq suv berishing shart emas – daryodan yoki shundoqqina quduqmi yoki buloqning o‘zidanmi ichaveradi, sovuqdan qo‘rqmaydi. Bunaqangi sigiring bo‘lsa, butun oilang bilan jamoa xo‘jaligida ishlayverasan, uyingda kuniga kamida to‘rt-besh litr sut bo‘ladi. Suti serqaymoq... Chiroyli dumiga, baquvvat qovurg‘alariga qara. Judayam yoqimtoy, yuvosh sigir: hovlisini taniydi, sandiroqlab yurishni yoqtirmaydi. Yelini ham qattiq emas, ayollarning nozik barmoqlarini charchatmaydi. Har taraflama yaxshi sigir. Uni o‘lsam ham sotmasdim-ku, lekin moliyaviy ahvolim chatoq bo‘lib qoldi, hozir menga pul kerak!

Xaridor esa sigirning atrofidan aylanar, paypaslar, silardi. U nari ketar, yana qaytar, yana paypaslar va nuqul bitta so‘zni qaytarardi:

– Aldamasang, sotolmaysan... Aldamasang, sotolmaysan.

Makar Petrovich bunaqangi bozor haqiqatiga norozilik bildirmas va derdi:

– O‘zing ko‘r! Ko‘zing bilan ko‘r, qo‘ling bilan ushlab bil! Qo‘ling bilan ushlamasang, ko‘zlaring bilan ko‘rmasang, sut icha olmaysan.

Uning so‘zlari xaridorga ta’sir qildi. U, nihoyat, sigir sotib olishning eng asosiy shartini bajarishga – uni sog‘ib ko‘rishga qaror qildi. Bu ish go‘yo avtomobil sotib olinganda hujjatlarni cho‘ntakka solib, jo‘nab qolishga mutlaqo o‘xshamaydi. Unaqasi ketmaydi! Jonivorning o‘ziga yarasha fe‘l-atvori bor, u xaridorning talablariga mutlaqo mos kelmasligi mumkin. Makar Petrovich buni judayam yaxshi tushunardi. Sigirining fe‘lini yaxshi bilgani uchun ham xaridordan so‘radi:

– Balki oyog‘ini bog‘larmiz-a? Har ehtimolga qarshi.

U qiyodan to‘qilmagan, balki haqiqiy kanop arqonga ishora qildi.

– Nega? – ajablangan bo‘ldi xaridor. – Nima, sigiring tepong‘ichmi?

– Yo‘g‘-e, tepong‘ich emas, shunchaki hamma narsa bo‘lishi mumkin-da... Sen yangi odamsan, asosiysi ayol kishi emassan.

Sigirlar ayolga o'rgangan bo'lishadi. O'zing bilasan, sen bilan menda sigirlarga xush kelmaydigan ruh mavjud.

– Balki bog'lash shartmasdir?..

Makar Petrovich unga javob bermay, kimningdir cho'chqasini yaxshi ko'rib qolgandek unga tikilib turaverdi. Xaridor uzoq o'ylagach, dedi:

– To'g'ri, erkak – ayol emas, ruhi ham boshqacha, – to'satdan uning xayoliga qandaydir fikr kelib qoldi, qornini qattiq-qattiq qashidi, keyin dedi. – Aldamasang, sota olmaysan. Kel, oyog'ini bog'lamay sog'ib ko'ramiz. Narxi menga ma'qul, lekin har ehtimolga qarshi sog'ib ko'rishim kerak-ku!

Makar Petrovich sigirini siladi, erkalatdi, ko'zlariga tikildi. U sog'ishning hal qiluvchi lahzalarida sigiri pand berishini ham, kayfiyatiga qarab indamay turib berishi mumkinligini ham bilardi. Yeliniga qo'l tekkizilgan zahoti boplab tepishini ham...

– Balki sigiring tepong'ichdir-a? – kesatdi xaridor.

– Salgina, – xijolatomuz dedi Makar, qo'llarini osiltirib.

U endi faqat xaridorning fikriga qarab qolgan, boshqa gapiradigan gapi qolmagandi.

Sigir yeliniga qo'l tekkizishlariga yo'l qo'ymadi.

– Bo'pti, oyog'ini bog'lay qol, – dedi xaridor.

Sigirning orqa oyoqlarini bog'lashganidan so'ng, xaridor sog'a boshladi. Bu ajoyibotni ko'ring-ki, sigir qimir etmay turardi, chunki oyoqlari bog'lanishiga o'rganib qolgandi. Sut chelakka tizillab otilardi. Makar Petrovich tinglardi. Sut oqimi «Shir-shir! Shir-shir!» degan ovoz chiqarib, chelakka urilardi. Makar Petrovichning yuragi siqilib ketdi. «Shir-shir! Shir-shir!» degan ovoz jon joyiga borib urildi. U xo'rsindi va teskari o'girilib, o't o'chiruvchilarning minorasiga tikildi.

Xaridor sog'ilgan sutni asta-asta ho'plab ichib, sinab ko'rardi. U chelakdan og'zini uzganida yerga qarar, go'yo ta'mini tekshirayotganga o'xshardi. Kashandalar ham bozorda o'lchab sotiladigan tamakini shunday sinab ko'rishadi: bir marta tortadi-da, ko'zini yumib, «olish kerakmi yoki yo'qligi»ni o'ylab turaveradi.

– Xo'sh, qalay? – deb so'radi Makar Petrovich.

– Sog‘ish borasida chatoqroq ekan-u, lekin suti... judayam mazali ekan!

– Sut emas, qaymoqning o‘zginasi deyaver, – ichi yorishib tasdiqladi Makar Petrovich. – Xo‘sh, haligi... oyog‘ini bog‘lash borasida nima deysan? Olmasang kerak-a? – tushkun ohangda so‘radi u.

– Bilasanmi, nima, – bidirladi xaridor, – senga rostini aytaman. Mening sigirim bor edi. O‘ziyam naq dahshat edi: shunaqangi tepardiki! Chelak bir yoqqa uchardi, xotinim ikkinchi tomonga dumlardi, sutni-ku ko‘rmaysan ham! Shunaqa sigir edi! Sening sigiring oyog‘i bog‘lansa indamay turarkan. Uni olsam bo‘ladi. Bemalol eplash mumkin. Asosiysi, narxi ham yomonmas. Agar yuzta tushib bersang, sigiringni olaman.

Biroq Makar Petrovich faqat yigirma besh so‘m tushishga rozi bo‘ldi. Ular yetti yuz so‘m va har qaysilaridan yetti yarim-tadan shirinkomaga kelishishdi. Makar Petrovich shirinkomaga pul sarflashni xohlamasdi-ku, biroq qoida shuni talab qilardi va ular bir yuz ellik grammdan araq ichishdi.

Sigirning shoxiga ilingan arqonning uchi yangi egasining qo‘liga o‘tdi. Mana, u sigirni bozordan olib chiqib ketyapti. Tez orada u olomon orasida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Biroq Makar Petrovich pul solingan cho‘ntagini ushlaganicha, hamon gavjum bozorga tikilib turardi. Bozor g‘uvullardi. Avtomobillar guvullar, sigirlar ma‘rar, qo‘ylar ba‘rar, cho‘chqalar xurillar, shahar olibsoarlari baqiribchaqirib bahslashardilar. Sotuvchilar va xaridorlar goh ishtiyoq bilan baland ovozda savdolashishar, goh esa indamay, bir-ikki og‘iz luqma bilan kifoyalanishardi. Bu ovozlarning bari yagona umumiy guldurosiga aylanib ketardi. Kutilmaganda umumiy shovqin-suron ichida cho‘chqachaning chiyillagani yangradi, to yangi xo‘jayini cho‘chqachani qopga tiqquniga qadar quloqni qomatga keltiruvchi chinqiriq olomon ustida osilib turdi. Zero, chinqiriqning o‘rniga garmonning ovozi yangray boshladi. Odamlar orasida ko‘zga ko‘rinmayotgan garmonchi «Barinya»⁶ kuyini boshlab yuborgan, odamlarni raqsga undab, yer tepinib aylana boshlagan edi. Aftidan, savdosi omadli tugagan va biroz shirakayf bo‘lib olgan bir erkak bir

⁶ «Barinya» – ruscha raqs va uning kuyi nomi.

qo'lining kaftini bo'yniga bosib, ikkinchi qo'lini oldinga cho'zib, poshnalarini yerga urgancha shunaqangi raqsga tusha ketdiki, oyoqlari ostidan chiqqan chang atrofni qopladi! Garchi raqqosning yonginasida turgan bo'lsa-da, Makar Petrovich unga o'girilib ham qaramadi. Keyin garmon ovozi tindi. Bozor esa hamon qaynagandan qaynardi. Qudratli ovoz kuchaytirgich moslamalaridan chiqayotgan tovush umumiy shovqinni bosib ketardi. Kutilmaganda o'sha ovoz kuchaytirgichdan yoqimli, dilkash musiqa yangradi. Makar Petrovich esa hamon sigirini olib ketishgan tomonga tikilardi. U odamlar, otlar, avtomobillar aralashib ketgan ulkan olomonni ko'rdi... Makar Petrovich sigirini sotgani bilan kimning necha pullik ishi bor? Hech kimning...

Bozor hamon g'uvullardi. Makar Petrovich boshini solintirgancha turardi. Kimdir uni qop bilan turti. U boshini ko'tarib qaradi. Yangigina paxtalik po'stin kiygan novcha, baquvvat yigit Makar Petrovichga jahl bilan tikilib, so'kinib qo'ydi, keyin so'radi:

– Nega yo'lda turibsan? Bozordaligingni unutdingmi? Yoki kayfing oshib qoldimi?

Biroq Makar Petrovich mutlaqo hushyor edi. U o'zining muloym, zangori ko'zlari bilan yigitga tikildi, quyuq qoshlarini chimirdi-da, hasratli ohangda dedi:

– Og'ayni, men... sigirimni sotdim...

– Obbo, shunaqa ish bo'ldimi, a? – hamdardlik bilan dedi yigit, yelkasidagi qopni yerga qo'yarkan. – Joningga tegdimi? Yoki yangisini olmoqchimisani?

– Nima desam ekan... Moliyaviy ahvolim sigir boqishni ko'tarmay qoldi.

– Nima, jamoa xo'jaligingiz kambag'almi?

– Rostini aytsam, judayam rasvo.

– Tushunarli! «Moliyaviy masala» ana shundan chiqadi-da!

– Sen o'zing qayerdansen? – deb so'radi Makar Petrovich, yigitning dastlabki so'kinganiga parvo ham qilmay.

– Alyoshinodanman. «Chapayev» jamoa xo'jaligini eshitganmisan?

– Eshitganman. Sizlarda bir mehnat kuniga yetti so'm to'lashadimi?

– Ha. Yana uch kilogrammdan bug‘doy ham berishadi. O‘zing qayerdansen?

– E, og‘ayni, so‘rab nima qilasan? Qayerdanligimni sen ham bilishingni xohlamayman. Bizda ahvol yomon, chunki raisimiz chatoq...

– Jilla qursa mehnat kuniga qanchadan to‘lashlarini ayt?

– Qirq tiyindan... to‘lashdi, – xijolatomuz dedi Makar Petrovich.

Yigit butun bozorni boshiga ko‘tarib xandon otib yubordi. Keyin qopining ustiga o‘tirib, kulgi aralash dedi:

– O‘zingiz nega anqayib o‘tiribsiz?! Ehtimol, shaxsiy xo‘jaligingizga tish-tirnog‘ingiz bilan yopishib, uydan chiqmay o‘tirgandirsizlar-da! Pulni sizlarga kim keltirib beradi? Haqiqiy jamoa xo‘jaligisiz adoyi tamom bo‘lasizlar.

– Og‘ayni, menga bunaqangi gaplarni gapirma. Agar bilsang, men o‘n besh yildan beri otboqar bo‘lib ishlayman. Har kuni ishlayman. Odamni bunday xafa qilma...

Makar Petrovichning ichini yorgisi kelardi. Biroq yigit qopini yelkasiga ko‘tardi-da, ketayotib, jiddiy ohangda dedi:

– O‘n kishi ishlab, yuztangiz derazaga tikilib o‘tiraversangiz, qo‘lingizdan hech narsa kelmaydi.

– Hoy, to‘xta, shoshma!

– Sendek... qirq tiyinlik bilan gap sotishga vaqtim yo‘q. Sen si-giringni sotding, men esa bug‘doyni to‘rt mingga baholadim, mana oxirgi qopni taroziga olib ketyapman.

– Rostdan-a?

– Balki senga pulimdan bersammikan-a? – hazillashdi yigit. – Yo‘q, bermayman. O‘zing ishlab topgin. Biz senga o‘xshagan og‘aynilarimiz uchun to‘rt yillik ta‘minotni bajarganmiz. – Keyin unga o‘girilib, samimiylik bilan qo‘shib qo‘ydi. – Mayli, xafa bo‘lma. Hali hammasi iziga tushib ketadi.

Makar Petrovich uning ortidan qolmay, dedi:

– Esingda bo‘lsin, menga katta ishni aytding. Bilasanmi, men...

Biroq yigit olomon orasiga kirib ketdi va tezda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Makar Petrovich endi olomonga tikilarkan, har bir odamni ajrata boshladi. Aravalar orasida g'imirlayotgan yoki nimalarnidir sotayotgan odamlar endi uning uchun qiyofasiz olomon emasdi. Mana, yirtiq-yamoq qo'y teri po'stindagi, qari ko'rinsa-da, hali unchalik kekxa bo'lmagan erkak sotayotgan ikki tovug'ini qo'ltiqlab turibdi. «Qirq tiyinlik» deb o'yladi Makar Petrovich. Manavi qalpog'ini chakkasiga surib qo'ygan, yuzlari qip-qizil erkak bir talay buyumlarni va ikki juft yangigina etikni ko'targanicha, atrofiga xotirjam nazar soladi. «Yetti so'mlik, – deb o'yladi u. – Xuddi... (u fikran mos keladigan so'zni topa olmasdi) huquqshunosdek sotib olibdi», xulosa qildi Makar Petrovich.

O'sha kuni kechqurun u yo'lovchi avtomobilda uyiga qaytdi va og'ilxonaga kirdi. Tunlari og'ilxonada na sigir, na qo'ylarning nafas olgani eshitilmasa, kayfiyat tushib ketadi. Uning yuragi bo'm-bo'sh edi, qovurg'asi osti simillar, quloqlari ostida yoqimli tovush yangrardi: «Shir-shir! Shir-shir!».

Makar Petrovich ertalabdan beri og'ziga tuz olmaganini endigina payqadi. Shu zahoti: «Och odam quvnoq bo'lishi mumkin emas», – deb o'yladi.

U uyiga kirdi.

Sergeyevna quvonib, xitob qildi:

– Besh kundan beri qayerlarda yuribsan?

U darhol javob qaytarmadi. Yechindi, qalpog'ini mixga osdi, uyni ko'zdan kechirdi, stol yoniga o'tirdi, faqat shundan keyin javob qaytardi:

– Ikkita bozorga bordim.

– Xo'sh, qalay bo'ldi?

– Biznikidaqa sigirni istagan joyda sotish mumkin.

– Qanchaga sotding?

– Yetti yuzga.

– Arzon ketmabdimi?

– O'zi qanday bo'lsa, narxiyam shunday bo'ladi-da! Bozorda narxni sen belgilamaysan. Xaridorning o'zi ko'zi pishib ketgan bo'ladi.

Sergeyevna darrov dasturxonga ovqat qo'ydi. Makar Petrovich bir tovoq karam sho'rvani ichib, ustidan bo'tqani yeb oldi. Shundan so'nggina odati bo'yicha qo'lini stol tepasiga osilgan tokchaga uzatdi. Bu yerda doimo bir litrlik shisha idishga solingan, kechqurun sog'ilgan sut uning ichishiga mo'ljallab qo'yilgan bo'lardi. Makar Petrovich beixtiyor shisha idishni olib, dasturxonga qo'ydi. Idish bo'sh edi. U shosha-pisha shishani yana tokchaga qo'yib qo'ydi.

Sergeyevna unga qarab o'tirdi-o'tirdi-da, kutilmaganda peshbandini ko'ziga bosganicha yig'lab yubordi.

Makar Petrovich tomog'ini qirdi, o'rnidan turdi. Yerga qarab bir zum o'ylanib turdi-da, keyin ko'zini xotiniga ko'tarib, dedi:

– Menga qara, Sergeyevna... Mana buni... tashla. Menga qara, bir gap aytmoqchiman.

Sergeyevna boshini ko'tarib unga qaradi. U Makarning butun qalbi aks etib turadigan samimiy ko'zlarini yaxshi ko'rardi.

– Sergeyevna, biz bir amallaymiz, – taskin berdi u. – Men buni senga isbotlayman. Bugun «Chapayev»dan kelgan bir yigitni uchratdim. Alyoshinoni bilasan-ku?

– Bilaman.

– O'sha yerlik ekan. Bug'doyning o'zini to'rt mingga baholashdi. Qoyilmisan? Ularda bir mehnat kuniga yetti so'm va uch kilo bug'doy berilarkan. Eshityapsanmi, Sergeyevna? Bir o'ylab ko'rgin-a! Yo'lda kelayotib, men hisoblab ko'rdim. Agar ikkovmizning sakkiz yuz mehnat kunimizga yetti so'm va uch kilogramm bug'doydan haq to'lansa, besh ming olti yuz so'm pul bo'ladi, bundan tashqari o'n ikki sentner bug'doy sotish mumkin. Mayli, tariq ham bo'laqoslin. Biz uni bug'doyga ayirboshlab olamiz... U kamida qirq pud bug'doy yoki to'rt ming so'm bo'ladi. Unga besh ming olti yuzni qo'shasan. Bu qancha bo'ladi? Salkam o'n ming. Qalay, Sergeyevna, qoyilmisan?

– E, bu «Chapayev»da-ku! Biz sen bilan o'tgan yili butun yil uchun uch yuz yigirma so'm oldik.

– Ha-a, tushundingmi? Bizning jamoa xo'jaligimiz qirq tiynilik-da! Haqiqiy jamoa xo'jaligisiz adoyi tamom bo'lamiz. Bizning ildizimiz jamoa xo'jaligida.

– To‘g‘ri aytasan, Makar. Ildizimiz jamoa xo‘jaligida.

Ular qandaydir o‘ylar quchog‘ida uyquga yotishdi. Makar uzoq vaqt uxlayolmay, vaqti-vaqti bilan gapirib yotdi:

– Bu itvachchalarni shunday sharmanda qilay-ki!

Yoki:

– Har kuni araq simirishni senga ko‘rsatib qo‘yaman... Bayramlarni tushunmaydi, qari iblis...

Biroz jim yotadi-yotadi-da, yana gapiradi:

– Aql bovar qilmaydi, bug‘doyning o‘ziga to‘rt ming-a! Demak, u yerda hamma narsa haqiqatga mos keladi.

– Hoy, tinchimagan, uxla endi! – dakki berdi ko‘zi uyquga tolayotgan Sergeevna.

U hamon o‘zinikini ma‘qullardi:

– Eh, o‘sha yigitdan tushovlar haqida so‘ramabman. Ot abzalari haqida ham so‘rash kerak edi... Mendan qochib ketdi... «Qirq tiyinlik»...

U shunaqangi xayollar, aniqrog‘i, miyasiga mixdek qoqilib qolgan bitta fikr bilan uyquga ketdi.

Makar Petrovich ertasi kuni, odatdagidek erta saharda otxonaga keldi. U bir necha soat davomida tinimsiz to‘ng‘illab, kimlargadir dakki berdi, butun jahlini otboqarlarga sochdi:

– Doim shunaqasizlar: ikki kunga ketsam, hamma yoqni tezaka to‘ldirasizlar. Eshik oldiga tezak uyilgan, oxurlar nam bir ahvol bo‘lib ketibdi. Nima, tartib haqida mutlaqo bilmaysizlarmi? Yaxshilab tozala!

U hovlida turgan jamoa xo‘jaligi raisi Cherepkovni ko‘rdi. Past bo‘yli, qorindor rais hovli o‘rtasida turib, sog‘uvchi ayolni koyirdi:

– Sen hech bo‘lmasa bitta sigirdan rekord o‘rnatgin. Boshqalarning miqdorini kamaytirgin-da, Milkadan besh ming litr sut topshir! Bu qanday rasvogarchilik! Boshqa xo‘jaliklarda ikki-uchta sigirdan rekord topshirishyapti, sen bo‘lsa bittayam...

– Bizning molxonalarimiz bosib tushay deyapti-yu, lekordga yo‘l bo‘lsin! – e‘tiroz bildirdi sog‘uvchi ayol.

– Molxona haqida og‘iz ocha ko‘rma... Men tumanda ko‘zga ko‘rinishga uyalyapman. «Lekord»mish-a! Shu so‘zning o‘zini to‘g‘ri aytishniyam uddalolmay-san-u, besh ming litr sut sog‘ish yo‘l bo‘lsin senga!

Shu payt Makar Petrovich uning yoniga keldi-da, otxonaga ishora qilib, dedi:

– Qishga ham shunday kiramizmi? Tom bukchayib qoldi, bosib qolmasidan qayta yopish kerak!

– Kerak, – dedi u otboqarga kibr va takabburona nigoh bilan boqib.

Biroq raisdan anqib turgan araq hidini sezgan Makar Petrovich-ning g‘azabi qaynab ketdi.

– Nima bu? – deb so‘radi u qiyodan to‘qilgan uzuq tushovni raisga ko‘rsatib. – O‘rtoq Cherepkov, nima bu deb so‘rayapman?

– O‘t, – dedi u pinagini ham buzmay.

– Bu jamoa xo‘jaligi uchun sharmandalik. Butun tuman uchun sharmandalik! – u uzilgan yuganni ko‘rsatdi.

– Nima, endi sen uchun tushov va yugan ham topib berishim kerakmi? Sensiz ham ishim boshimdan oshib yotibdi: taxta keltirish kerak, mix topish lozim, dalalarni tekshirish shart... Sizlarga ko‘z-quloq bo‘lib turmasa bo‘ladimi?

– To‘g‘ri, – dedi Makar Petrovich. – Taxta keltirasiz, mix topasiz... Araq ham topasiz.

– Nima deding? Nima deding? – qaynab ketdi rais.

– Nima degan bo‘lsam, aytib bo‘ldim... So‘z chumchuq emas, uni tuta olmaysan. Endi basharamni urib yorsang ham, aytadiganimni aytib bo‘ldim.

Rais nimalarnidir mulohaza qilganicha miq etmay turardi. Makar Petrovich tez, uzuq-yuluq ovozda gapira boshladi:

– Odamlar... bir mehnat kuniga yetti so‘m olishadi, biz esa... Biz esa o‘tgan kuzda barcha sabzavotimizni sovuqqa oldirib qo‘ydik. Odamlarga kuniga uch kilogrammdan bug‘doy to‘lashdi, bizning kungaboqarlarimiz qurib qoldi. Sen tinmay araq ichganing-ichgan. Rais, senga nisbatan ishonch yo‘q... Chunki senda iymon degan narsa yo‘q... Bu esa mening ildizim, – Makar gapidan chalg‘iy

boshlaganini sezib, ovozi pasaytirdi. – Biz bu tarzda yashay olmaymiz... Sen araq ichaversang...

Cherepkov kutilmaganda qaynab ketdi:

– Bekorga senga Xantal deb laqab qo'yishmagan, qip-qizil xantalning o'zisan! Aql o'rgatadiganlaringiz ko'p, ish qilishga keldanda, o'ntadan bittasi qoladi! Buni qara-ya! Sen o'zingcha nimalarni tushunib qo'yding? Men yog'-moy kombinatida direktor bo'lganman! «Iymon»mish! Seni ikki kunga ishdan ozod qilgandik, naq besh kun sandiroqlab yurding. «Iymon» nimaligini senga ko'rsatib qo'yaman!

Makar indamay, Cherepkovdan ko'zini uzmay turardi. Uzilgan yuganning suvlug'i Makar kabi asta titrab, shildirardi. U kutilmaganda boshini egdi va past ovozda dedi:

– Og'ayni, men... sigirimni sotdim... Sen araq deysan...

U to'satdan keskin qayrildi-yu, otxonaga qarab ketdi. Ot tura-digan joyga kirib, ko'ksini xodaga taqadi. Ot boshini Makar tomon o'girdi va baxmaldek yumshoq lablarini uning yuziga bosdi. Makar otga o'girildi, siladi, uni aylanib o'tdi va titrayotgan qo'llari bilan yollarini siladi.

Tez orada idorada majlis o'tkazildi. Majlisda Makar Petrovich Luchkovni sababsiz ish qoldirganligi uchun otboqarlikdan bo'shatish masalasi ko'rildi. Makar Petrovich bir to'da tushov va yuganlarni ushlaganicha, burchakda o'tirardi. Nim qorong'i burchakdan uning yuzi yaxshi ko'rinmasdi. Cherepkov otboqar Luchkov masalasini ko'targanida ham, u qimirlamadi. Kutilmaganda o'tirganlar orasidan ovozlari yangradi:

– Kimni bo'shatishmoqchi? Makar Petrovichnimi?

– Axir u o'n besh yildan beri...

– Jamoa xo'jaligimizda undan yaxshiroq ishchi yo'q!

– Qanday qilib Makarni bo'shatish mumkin...

Xonada o'tirganlar shovqin solib, bir-birining gapini bo'lib, jahl bilan gapira ketishdi. Kimdir bor ovozi bilan qichqirdi:

– Bu odam sigirini sotdi!

Cherepkov o'zini judayam noqulay his eta boshladi. U raislik qilayotganiga bir yildan oshgan bo'lishiga qaramay, Makar Luch-

kovni shu paytgacha tanimaganini nihoyat tushunib yetdi. Bu odam kun-u tun otxonada ter to'kadi, qiyοqdan o'rilgan tushovlarini hammaning burni ostiga suqadi, xolos. Aslida qanday odam ekanligini xudo biladi! Uning uyida nima gap? Qanday muamolari bor? Shu paytgacha Cherepkov bu haqda mutlaqo o'ylamagandi. U xonada shovqin solayotganlarni tinchlantirib, Makar Petrovichga murojaat qildi:

- Luchkov, o'zing nima deysan?
- Hech narsa demayman, – javob berdi u.
- Agar seni ishdan bo'shatsak-chi?
- Men otxonadan ketmayman, – xo'mrayib dedi u. – Men otlarsiz yashay olmayman.

To'g'ri, Makar Petrovichni ishdan bo'shatishmadi. Bu masalani muhokama ham qilishmadi, shunchaki nomiga ozgina shovqin solishdi-yu, keyin uni jimgina kun tartibidan chiqarib tashlashdi. Biroq hamma tinchiganidan so'ng, Makar Petrovich o'rnidan turdi. Stol yoniga bordi, bir to'da uzilgan yuganlar va qiyοqli tushovlarni hisobchining oldiga qo'ydi va raisga qaramay dedi:

– Anjomlarni kirim daftaringga yozib qo'y. Keyinroq avlodlarimiz muzeylarda o'rganishar... Sizlarni uyaltiradigan ish qildim: o'zimga ajratilgan otlar uchun yangi yuganlar va tushov uchun arqonlar sotib olib keldim. Yangisi bir yuz sakson so'm turadi. Pulimni to'lab bersangiz – yaxshi, bermasangiz uyati o'zingizga!

Shunday deb, u burchakda turgan qopni ochdi va bir nechta qayishli no'xtalarni oldi, jimib qolgan xonada o'tirganlarga ko'rsatdi. Keyin hammasini yana qopiga soldi-da, uni qo'ltiqlaganicha xonadan chiqib ketdi.

Xonadagilar uzoq jim o'tirishdi. Kimlardir chekar, lekin miq etmasdi. Va, nihoyat, o'tirganlardan biri dedi:

- Bo'lmasa, tarqala qolaylik.
- To'g'ri, to'g'ri, – uni ma'qullagan bir nechta ovoz eshitildi.

Majlis o'z-o'zidan yopildi. Ish boshi berk ko'chaga kirib qolgan har qanday xo'jalikda shunday bo'ladi. Hisobchi – ko'zoynagini

peshonasiga chiqarib olgan, keksagina, kelishgan odam, – rais Cherepkovga qaramay, chiqib ketayotganlarga murojaat qildi:

– Anjomlarni... nima qilaman?

– Muzeyga topshirgin, deyildi-ku! – dedi keksa bir chol. – Yilini, sanasini va qaysi rais hukmronligi paytida topshirilganini yozib qo'ysan.

Cherepkov o'rnidan turmoqchi bo'ldi-yu, lekin negadir jur'ati yetmadi.

– Biz qayerdamiz? Siz qayerdasizlar, o'rtoq idorachilar? Bir tiyin topishni eplolmaymiz, topilganini esa tejay olmaymiz. Har bir yuz so'm uchun sizlar bilan jang qilishimga to'g'ri keladi, ish uchun esa doim pul yo'q, – dedi hisobchi raisga tik boqib. – Bizda eganing ko'zi yo'q, shuning uchun ham g'aznamiz g'alvirga o'xshab yotibdi!

– Haddingdan oshma, – uning gapini bo'ldi rais. – O'zingniyam qilg'iliqlaringni eshitganman. Sen xo'jalikda ham qayrilishga yo'l qo'ymaysan.

– Tashlab ketaman! Xudo haqi, tashlab ketaman! Qamasangiz ham mayli, tashlayman! – deb qichqirdi hisobchi va qo'lidagi daf-tarni stolga tarsillatib urdi-da, ochiq turgan g'aladonga tashladi va xonadan chiqib ketdi.

Cherepkovning bir o'zi qoldi. U qo'lidagi qalam bilan stolni asta tiqillatib o'tirardi.

Mana, o'rtoqlar, ko'rdingizmi, Makar Petrovichning sigiri nimalarga qodir ekan! Esingizdami, sigirdan asosiy manfaat – faqat sut, degandik. Aslida esa bunday bo'lib chiqdi. Agar Makar sigirini sotmaganida edi, majlisdagi shuncha ishlar bo'lib ketmasdi. Biroq bo'lar ish bo'ldi, sigir sotilib ketdi, uni endi qaytarib ololmaydi. Turgan gapki, Makar Petrovich soliqning qolganini – uch yuz so'mni to'ladi, qolgan pulni, shu jumladan, «anjomlar» uchun idoradan olingan pulni, jami to'rt yuz so'mni Sergeyevnaga topshirdi. Makar Petrovich bu pulning bir tiyini ham ichib qo'ymadi. Umu-man olganda, u araqqa pul sarflamas, mahalliy mahsulotni esa faqat o'ta tantanali bayramlardagina iste'mol qilardi, xolos.

Kuz yaqinlashardi. Otlarning juni qalinlashdi, shuning uchun ular qo'lni ko'proq ushlaydigan bo'lib qoldi, chunki faqat qashlog'ichda tozalashning o'ziga ikki-uch soat vaqt ketardi.

Tungi navbatchilikka chiqmay qo'yishdi, demak ishlari kuniga to'rt marta yem berish va ikki marta o'n ikki boshga qo'lda suv tortib chiqarishdan iborat bo'lib qoldi. Bu aytishgagina oson! Axir otxonani ertalab va kechqurun tozalash lozim. Jamoa xo'jaligi ot-boqarining ishi juda ko'p bo'ladi. Kunlar esa tobora qisqaryapti. Makar Petrovichning erta saharda uydan chiqishiga, yarim tunga yaqin qo'lida chiroqcha ushlab qaytishiga to'g'ri kelardi. Biroq kuz yaqinlashib, otxonada ish ko'paygani sari, u jonlanib borardi. Qo'shnisi Pavel Yefimich Ptaxinnikiga onda-sonda, o'shanda ham uning uy devori yonidagi supachada o'tirganini ko'rsagina kirardi.

– Makar Petrovich, kirsang bo'lardi! – deb chaqirdi u bir kuni.

– Salom, Pal Yefimich! Vaqtim yo'q. Mayli, ozgina chekib olguncha o'tira qolay.

– Rosa ter to'kyapsanmi?

Qo'shnisining sezilar-sezilmas tabassum bilan bergan bu savoli Makar Petrovichga sal mavhumroq tuyuldi.

– Ter to'kyapmiz. Ter to'kib ishlamasa bo'ladimi? Kuz yaqinlashib qoldi. Bu judayam muhim palla.

– Mehnat kuniga oldindan bir kilogramm ham don berishmadi.

– Berishlari kerak.

– Rostdan-a?

Makar javob o'rnida dedi:

– Hisobot majlisida raisni yangilash kerak. U bizga mos kelmayapti.

– Rais qandayligi bilan nima ishim bor? It ketsa, o'rniga eshak keladi. Bu-ku yomon, lekin fe'li ma'lum... Araq quysang bo'ldi, hammasi joyiga tushadi! Boshqasi kelsa... u hali yaxshi odam bo'lib chiqadimi, yoki yomonmi, bunisi noma'lum. Nechtasini ko'rdik o'zi? Kamida o'nta yoki o'n bittasini, shekilli.

– Pal Yefimich, sen boshqa tomonga qarab mulohaza yurityapsan. Haqiqiy jamoa xo'jaligisiz yashashimiz mumkin emas. Rais hammasiga bosh bo'lishi kerak.

– Nima, bunisi bosh bo‘lolmayaptimi? Araqni yaxshi ko‘rishi unchalik katta ayb emas. Kim araqni yaxshi ko‘rmaydi? Bu biz uchun qulayroq ham.

– Qanaqasiga? – ajablandi Makar Petrovich.

– Men, masalan, o‘rmonga bormoqchiman, – gapida davom etdi Pavel Yefimich. – Xo‘sh, nima qilishim kerak?

– Nima?

– Birinchi navbatda arava topishim kerak. Uni o‘lsang ham raisdan so‘rab ololmaysan, lekin oldiga «yarim litr» qo‘ysang bormi, ishing bitadi-qo‘yadi! Bu borada u oddiy odam, kelishuvchan... Shu yo‘l bilan ko‘proq pichan g‘amlab olish mumkin. Menimcha, u yomon odam emas.

– Menimcha, u – muttaham! – xitob qildi Makar Petrovich.

– Yana o‘zinikini ma‘qullaydi-ya! – qo‘llarini yozdi Pavel Yefimich. – Sen unga itoat qilgin. Bo‘yin eg, Makar Petrovich. Uyingga chaqir, ziyofat qil, yarashib ol. Nega unga qarshi tish qayrayverasan?

– Tushunsang-chi, bizning jamoa xo‘jaligimiz uchun pivo qozoni emas, balki boshqaruvchi kalla kerak. Bu ketishda adoyi tamom bo‘lamiz! Sen nima deb yuribsan-a!

Pavel Yefimich o‘zining fikrida qoldi, shekilli, javob qaytarmadi. U biroz jim turdi, o‘yladi, keyin dedi:

– Yana sovuq kelyapti, bu – yomon. Yomg‘ir yog‘ib qolsa, bu ham yomon bo‘ladi.

– Nima, sovuq ham, yomg‘ir ham yomon bo‘ladimi?

– Yomg‘ir yog‘sa – bug‘doy g‘aramda turib chirib ketadi, sovuq esa hamma sabzavotni tamom qiladi.

– Sen esa bunga yo‘l qo‘yma.

– Mening bunga nima daxlim bor?

– Yo‘l qo‘yma, – qaytardi Makar Petrovich. – Raisni hol-joniga qo‘yma, o‘zing sidqidildan ishla!

– Nima, mening uyda qiladigan ishim yo‘q deysanmi? – xotirjamgina e‘tiroz bildirdi Pavel Yefimich. – Shusiz ham jamoa xo‘jaligida kuchim yetgancha ishlayapman.

Shu soʻzlardan keyin Makar Petrovich oʻrnidan turdi. Chekishga ajratgan vaqti tugagan, qoʻshnisining gaplarini rad etmasa boʻlmas, aks holda uyiga ketolmas edi. U qoʻshnisiga qarab, kutilmaganda dedi:

– Pal Yefimich, qani, oʻrningdan tur-chi!

Pavel Efimovich hech narsani tushunmasa-da, baribir oʻrnidan turdi. Makar Petrovich hozirgina qoʻshnisi oʻtirgan joyning ustiga egilib, tikilib qaradi va dedi:

– Oʻn soʻmlik tilla pul yoʻq, Pal Yefimich, bosib chiqara olmab-san. Yana oʻtir. Qattiqroq bosib oʻtir, zora mehnat kuniga oʻn soʻm bosib chiqarsang!

Shunday dedi-yu, ketib qoldi. lol-karaxt boʻlib qolgan Ptaxin faqatgina:

– Xantalmisan, xantalligingcha qolasan-da! – dedi, keyin qor-nini qashib, qoʻshib qoʻydi. – Ogʻzingga bir tomchisini solgin, u burningdan ham, koʻzingdan ham teshib chiqadi.

U oxirgi gaplarini burni tagida, Makar Petrovich eshitmaydigan qilib aytdi. Makar esa ketayotib oʻzicha toʻngʻilladi:

– Pomidor baribir pomidor-da! Semirib oʻtiradi, faqat semiradi, itvachcha. Haftasiga uch kun dam oladi – ikki kun ishda, bir kun uyda...

Shundan soʻng ular anchagacha uy yonidagi supachada yonma-yon oʻtirishmadi. Uchrashib qolishsa, salomlashib, indamay yoʻliga ravona boʻlishadi. Qoʻshnilarning orasidan ola mushuk oʻtdi, ular orasidagi gʻayirlik tobora kuchayib boraverdi. Bundan tashqari, ularning xotinlari ham arzimagan narsani – xoʻroz begona qoʻnoqqa oʻtirganini bahona qilib janjallashib qolishdi.

Qaniydi, hammasi oʻsha xoʻroz bilan tugaganida edi... Xuddi ataylab qilgandek, Pavel Yefimichning xoʻrozi oʻlib qoldi. Makar-niing xoʻrozi esa doimo begona tovuqlarning oldiga yugurishni yaxshi koʻrardi, shu bois begona hovlida tunab qola boshladi. Xoʻroz-ku, «Tovuqlar xafa boʻlishmasin, bugun bu yerda qolaman, ertaga u yerda boʻlaman» deb oʻylar, kim bilsin. Balki u haqdir, buni aniqlash qiyin. Biroq bu arzimagan narsa-ku! Erlarining orasi-

dan ola mushuk o'tmaganida edi, xotinlar hayotda janjallashmagan bo'lishar, xo'rozning ustidan esa kulib qo'ya qolishardi. Makar Petrovich bularning barini tushunardi, shuning uchun ham bir kuni qo'shni ayollar janjallashayotganlarida:

– Xo'roz – surbet parranda. Tovuq – ahmoq parranda. Nima, xotinlar ham ularga o'xshashini aytishimni xohlayapsizlarmi? Sergeyevna, ahmoqona gaplaringni tez tugat! – deb baqirib qoldi.

Sergeyevna darhol simto'siqning oldidan nari ketdi. Biroq Ptaxinning xotini Stepanixa baqirishda davom etdi:

– Bugun biznikida falokat yuz bergan – xo'rozimiz o'lib qolgan bo'lsa, ertaga sizlarga ham balo boqib qolar! Yana qo'shni emish bular! Begona tovuqlarning xo'rozidan vaqtincha foydalanib turishini qizg'anishyapti! Xo'rozingizning bir joyi yeyilib qolmaydi-ku! Aslida xo'rozingizning o'zi noshud, shunaqa ham xo'roz bo'ladimi!

– Qani, qani, yana qalampirdan qo'shg'in-chi! – hazillashdi Makar Petrovich va qo'ndog'da o'tirgan xo'rozni qo'liga olib, qo'shnisining hovlisiga kirdi. U xo'rozni qo'shnisining qo'ndog'iga o'tqazdi-da, Stepanixaga dedi:

– Xo'roz sotib olganingizda, u meniki bilan jang qiladi-da, keyin o'zining tovuqlarini ajratib oladi. Gap tamom.

– Xo'rozingni boshimga uramanmi? Nega uni olib kelding? – tomog'ini cho'zishda davom etdi qo'shni ayol. – Sening xo'rozingdan foydalanishni xohlamayman!

– O'chir! – xotiniga o'shqirdi og'ilxonadan chiqib kelayotgan Pavel Yefimovich. – Qo'yaver, xo'roz qayerda o'tirsa o'tiraversin!

Qo'shnilar salomlashishdi, keyin ajralishdi. Yo'q! Ilgarigi do'stlik yo'q, faqatgina noxushlik qolgandi, xolos. Bu janjalning oxiri nima bilan tugashi mumkinligini oldindan aytish qiyin edi-ku, lekin shu vaqtda qishloqda katta ishlar amalga osha boshladiki, qo'shnilarning kelishmovchiligi esdan chiqdi.

Sentabrning yakshanba kunlaridan birida Makar Petrovich qo'ltig'iga gazeta qistirib olganicha, idoradan kelardi. U odatiga xilof ravishda tez yurib kelar, xuddi kechikishdan qo'rqayotganga o'xshardi. U o'zining uyidan o'tib ketib, Ptaxinning hovlisiga bu-

rildi. Hovlisida qandaydir qoziqni yo'nib o'tirgan qo'shnisi darrov o'girilib qaramadi. Makar Petrovich to'g'ri qo'shnisining yoniga borib, barmog'i bilan gazetaga niqtab dedi:

– Pal Yefimich, eshitdingmi?

– Nimani?

Pal Yefimich boltani to'nkaga sanchib, qaddini rostladi. Uning qiyofasidan «Xantal yana kelibdi-da!» deb o'ylayotgani sezilib turardi.

– Eh, og'ayni, hamma boshlar shu yerda! – dedi Makar Petrovich gazetani ochib va ovoz chiqarib o'qiy boshladi.

To'g'ri, u sekin, biroq hatto yosh bola ham tushuna oladigan darajada to'g'ri o'qirdi. Ptaxin hayratidan o'rnidan turib ketdi. Makar Petrovich ham ko'zini gazetadan uzmay, o'rnidan turdi.

– Ber-chi, o'zim o'qib ko'ray, – dedi Ptaxin.

Ular endi hovlining o'rtasidagi xodaga o'tirib olishdi. Ptaxin ham unchalik tez o'qimasdi. U vaqti-vaqti bilan to'xtar, barmog'ini tepaga ko'tarib mulohaza yuritardi. Keyin yana Makar Petrovich o'qidi. So'ngra o'qish navbati Pavel Yefimovichga o'tdi. Keyingi uch kun mobaynida qo'shnilar bir necha marta kech oqshomda uchrashib, yana qayta gazetani o'qishdi. Gazeta allaqachon buklangan joylaridan yirtilib ketgan, lekin uni yelimlab qo'yishgan va yelimlangan qog'oz ostida nimalar deb yozilganini aniq bilishardi. Uni qayta-qayta o'qib, mulohaza yuritishardi.

– Pal Yefimich, u yerdagilar o'ylab ko'rishadi, deb aytuvdim-ku senga!

– Aytgansan. To'g'ri, aytuvding. Buni inkor qilmayman.

– Yana ular mening qalbimni his etishadi degandim ham!

– Menikini ham! – ko'ksiga niqtadi Ptaxin.

– Senikini ham, – rozi bo'ldi quvonchdan o'zini bosolmayotgan Makar Petrovich. – Bu yerda sengayam yaxshi, mengayam yaxshi bo'ladi. Demak, endi yuzdan bir birlik yerga soliq to'laysan, tamom-vasaalom. Moling bormi-yo'qmi, sigiring yaxshimi yoki yo'qmi, bunisi muhim emas. Yering qancha ekanligi soliqni belgilaydi. Bu qanchalik to'g'ri o'ylab topilgan-a!

– Gap faqat bunda emas, Makar Petrovich. Qanaqangi soliqlar degin-a! Soliq ham, sut ham teng yarmiga kamaytirilgan. Umuman, hamma narsa yarmigacha kamaytirilgan.

Qo‘shnilarni nimadir yaqinlashtirdi. Bu – umumiy quvonch, yaxshilikka bo‘lgan umumiy ishonch edi. Ikkala qo‘shni birgalashib majlislarda qatnashishar, keyin esa uy yonidagi supachada yarim tungacha suhbatlashib o‘tirishardi. Kunduzlari ular birga bo‘lisholmasdi, chunki Makar Petrovich doimo otxonada bo‘lar va bosh ko‘tarmay ishlardi. Pavel Yefimich esa kutilmaganda shaharga tanda qo‘yib qoldi va nihoyat qandaydir temir quvurlar olib keldi. Tez orada Makar Petrovich shaharga ketdi va judayam zotli, yuvosh, yoqimtoy g‘unajin sotib olib keldi. Ushbu xaridi uchun u xo‘jalik jamoasidan mehnat kunlariga oldindan berilgan to‘rt ming so‘mni sarfladi. Bir qarashda, qo‘shnilar orasida tinchlik o‘rnatilganga o‘xshar, chunki asosiy bahsli masala yechimini topgandi. Biroq bunday emasligi tezda ma‘lum bo‘ldi.

Bir kuni kechqurun ular odatdagidek supachada tinchgina suhbatlashib o‘tirishardi. Ko‘chada qizlar va yigitlar garmon kuyiga jo‘r bo‘lib, hazil qo‘shiqlar kuylab yurishardi. Oldiniga suhbat bilan ovora bo‘lgan qo‘shnilar qo‘shiqni eshitishmadi (Makar Petrovich bebaho g‘unajinini maqtab, molning fe‘li ham juda katta boylik ekanligiga qo‘shnisini ishontirishga urinardi). Biroq yoshlar ularning yoniga yetib qolishganida jarangdor qiz ovozi garmon sadolari ostida yangrab qoldi:

– *Voy, o‘rtoq Cherepkov,*

Endi sigir boqamiz.

Pichan o‘rib bering deb,

Itimos ham qilamiz!

– Makar Petrovich, Alyonkam qanday kuylayotganini eshityapsanmi?

– Nega bunday deyapti? – darrov tushuna qolmadi Makar Petrovich.

– Bilasanmi, ular bizning gap-so‘zlarimizni qo‘shiqqa aylantirishadi. Masalan, men jon deb mol boqishimizni, biroq endi ko‘proq

yem kerak bo'lishini aytaman. Misol uchun o'zimni olaylik. Nizomga ko'ra, men sigir, g'unajin, qo'ylar boqishim mumkin... – shu yerda u ozgina o'ylanib oldi. – O'nta qo'y, aytaylik o'n beshtacha asallari uyasi, bo'rdoqiga boqilgan cho'chqa, yana bir cho'chqacha... Cho'chqani so'ygach, cho'chqachani bo'rdoqiga boqaman... Soliq esa shuncha molim bor-yo'qligidan qat'i nazar o'zgarmaydi. Demak, dalalarning yarmi jamoa xo'jaligiga, yarmi esa bizga ajratilishi kerak bo'ladi.

Makar sarxonasini silkitdi.

– O'hho'! Buni qara-ya! – u o'ylanib qoldi, keyin iljaydi. – Shuncha molga suv tashib yetkazolmaysan-ku!

– Men suv tashimayman, balki hovlimning o'zida quvurli quduq qazittiraman. Quvur va suv tortuvchi nasos sotib oldim. Axir xotinim shuncha suv tashib kelishini aql bovar qilmaydi-da! Shusiz ham endi u jamoa xo'jaligida ishlay olmaydi, chunki uy ishlaridan ortmaydi.

– Nega endi ishlamas ekan? – sapchib turdi Makar Petrovich.

– Shundoq. Hatto o'zim ham ishlasammikan yoki yo'qmi, deb o'ylab ko'rishimga to'g'ri kelyapti.

– U yerda nimalar yozilganini o'qidingmi? Jamoa xo'jaligida ishlamaydiganlar ellik foiz ko'proq soliq to'lashadi, deb aytilgan.

– Noto'g'ri yozilgan.

– Qanaqasiga noto'g'ri bo'larkan?

– Shunaqasiga noto'g'ri-da! U yoqda ham, bu yoqda ham ishlayman, deb ikkiga bo'linib ketmayman-ku!

– Ha-a, shunaqami?! – Makar qo'shnisining goh bir tomonidan, goh ikkinchi tomonidan yaqinlashar, u esa boshini u tomonga o'g'irsa-da, qorong'ida yuzini ko'ra olmasdi. – Ha-a! Buni qara-ya! Demak, jamoa xo'jaligi va hukumat senga hamma narsani beraver-sin-u, sen esa xo'jalikka hech narsa bermas ekansan-da! Shundaymi? – borgan sari qizishardi u. – Ular seni tushunishadi, degandingku! O'zing ularni tushunyapsanmi? Qayoqqa qarab ketyapsan, o'zi?

– Obbo, namuncha xuddi o't tushgandek qichqirmasang!

– Qichqiraman ham! Hatto majlisda ham qichqiraman! Pashka Pomidor jamoa xo‘jaligida emas, o‘zining uyida mol boqmoqchi, deyman!

– Hoy, qovoqkalla, tushunsang-chi bundoq! – kuyinib xitob qildi Pavel Yefimich. – Agar mehnat kunlariga yaxshi haq to‘lashsa, unda mollarimni kamaytiraman, ungacha esa ko‘paytirib turaveraman.

– Ha-a! Boshqalar mehnat kuniga kattaroq haq olishlarini kutarkansan-da! Yo‘-o‘q! Bunday bo‘lmaydi, men qichqiraveraman! Sening ichingda nimalar borligini ko‘rib oldim. Bor-yo‘g‘ingni ko‘rdim. Sening ildizing hovlingda, qurigan shoxlaring esa jamoa xo‘jaligida!

– Namuncha butun ko‘chaga eshittirib baqirmasang? – to‘satdan o‘shqirdi Pomidor. – Xoy, Xantal, namuncha qizishasan?

U Makarning yonginasiga keldi. U joyidan qimirlamay, xitob qildi:

– Yaramas Pomidor, jamoa xo‘jaligiga munosib vijdoning bormi?

– Xantal! – dedi Ptaxin.

– Chirigan Pomidor! – hayqirdi Makar Petrovich.

– Hali sendan xo‘rozimni ham undirib olaman. Yaramas xo‘rozing menikining boshini cho‘qib tashlabdi, endi yangisini sotib olishim kerak. Men yana...

– Mening xo‘rozimniyam olaqol, boshingda qolsin!

Makar bir-ikkita beparda so‘zlarni aytdi-yu, qo‘shnisi tomonga tupurdi va uyiga ketdi.

Ana shunday bo‘ldi. Bu qo‘shnilar bir-birining laqabini yuziga baqiradigan darajada sirayam urishmagandilar.

Bundan tashqari, Ptaxin o‘zi bilan quyuq munosabatda bo‘lgan jamoa xo‘jaligi raisi Cherepkovning yoniga borib, «Makar Xantal sentabr Plenumiga va mol yetishtirishga qarshi chiqayotgani» haqida chaqib bergani ham aniq. Shuningdek, Makar Petrovich jamoa xo‘jaligi partiya tashkilotiga borib, «Pashka Pomidor – jamoa xo‘jaligining chirigan a‘zosi ekanligi, unga munosib emasligi»ni aytdi.

Bularning bariga xalq og‘zida yurgan gap-so‘zlarni ham qo‘shsak, janjalning oqibati qanday tugashini tasavvur qilish ham qiyin. Xalq

esa o‘zaro xo‘jalik raisi va partiya tashkilotining kotibi o‘rtasida katta nizo yuz berganini, rais haqida tumanda noxush gap-so‘zlar yurganini, uni ichmaydigan yoki juda bo‘lmaganda me‘yori bilan ichadigan rahbarga almashtirishlari kerakligi haqida gapirib yurardi. Bundan tashqari, yana bir mishmish bor ediki, unga ko‘ra Makar Petrovich shaxsan o‘zi tuman partiya qo‘mitasi kotibining huzuriga borib, u bilan jamoa xo‘jaligi raisi haqida yarim soat gaplashibdi. U qo‘liga tayoq olib, yolg‘iz holda, o‘z ixtiyori bilan xuddi o‘zining idorasiga ketayotgandek kirib boribdi. Nimayam derdik, shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi-ku...

Oktabr bayramida Makar Petrovich qoidasiga amal qilgan holda ichdi – ikki kunda «hammasini ichib» bo‘ldi va jamoa xo‘jaligi maydonida o‘zining viloyatga ham yetib bora olishini, biroq bunga zarurat yo‘qligini, tumandagilar ham ahmoq emasligini, «Makar-ning siyosatini bilishlari va tushunishlari» haqida rosa baqirdi. Biroq u Pavel Yefimichni bayramda mehmonga taklif qilmadi, Pavel Yefimich ham Makar Petrovichni chaqirmadi. Hatto bir-biri bilan salomlashishni ham to‘xtatishdi. Janjal shu darajaga yetdi! To hisobot majlisiga qadar shu ahvol davom etdi.

Majlis ochilganida Ptaxin yonida kim o‘tirganiga qaradi. Yonida o‘tirgan kimsa Makar Petrovich ekan! Otxonada kechki tozalash ishlari cho‘zilib ketgani bois u majlis boshlanishiga sal qolganida yetib kelgan edi. Ular o‘zlarining joyiga shunaqangi o‘rganib qolishgandiki, beixtiyor ravishda yonma-yon o‘tirib qolishgandi.

Jamoa xo‘jaligi raisi Cherepkov hisobot berdi. Turgan gapki, barcha raqamlarni eslab qolish qiyin, biroq mehnat kunlariga qancha mablag‘ ajratilgani va joriy yil uchun yana qancha berishlari aniq edi. Har bir mehnat kuniga ikki yarim kilogramm bug‘doy va yetmish tiyindan pul to‘lanadi. Shuning o‘ziyoq yaxshi edi. Hisobotchi «jamoa xo‘jaligi ishchilarining hayotini yaxshilashni mo‘ljallagani», buning uchun bug‘doy hisobida yuqori haq to‘lashga erishganini ko‘pirtirib gapirdi. Biroq Makar Petrovich uning gapini bo‘lib, o‘tirgan joyidan qichqirdi:

– Hukumat yetkazib berish shartnomamizning yarmini qirqib tashladi-yu, sen «hayotimizni yaxshiladingmi»?

Turgan gapki, shu yerda hamma sal kulib qo'ydi, ko'pchilik faqat o'zi eshitadigan qilib «Makar Xantal rost gapirdi» deb qo'ydi. Keyin hisobotni muhokama qilishdi, idorani tanqidga tutishdi, endi qanday harakatga tushish haqida gapirishdi. Hammasini gaplashib bo'lgach, hech qanday tanqidsiz raisni ishdan olishdi. Shunchaki kimdir orqa qatordan «Almashtirish kerak» dedi va hamma bir ovozdan rozi bo'ldi. Cherepkov madad kutib Ptaxinga mo'ltiradi, biroq u miq etmadi.

Yangi rais saylanganida esa, unga savol juda ko'payib ketdi. Necha yoshga kirgani, nechta farzandi borligi, xotini bilan ajrashganmi-yo'qligi, maktabda necha sinfni tamomlagani, araqqa munosabati qandayligi (ertalabdan ichadimi yoki faqat dam olish vaqtidami), qayerlarda ishlagani, nega u yerdan ketgani va shunga o'xshash ko'plab narsalarni so'rashdi. Nomzod bir soat davomida savollarga javob qaytardi. U, kamtar odamga o'xshar, harbiy kiyim kiygan, ko'rinishidan quruqroq odamdek ko'rinsa-da, ovozi qat'iy yang-rardi. Makar Petrovichning nazarida, nomzodning ismi-sharifi ham munosib ko'rindi. Pyotr Ivanovich Telegin. Javoblardan ma'lum bo'lishicha, u yetti sinfni bitirgan, sakkiz yil brigadir bo'lib ishlagan, qishloq xo'jalik texnikumini sirtidan o'qib tugatgan, sohasi bo'yicha o'rta ma'lumotli agronom ekan.

– Men, – dedi Pyotr Ivanovich, – sizlardan unchalik uzoqda yashamayman. Men Alyoshinodanman...

Shunda Makar Petrovich o'rnidan sakrab turib so'radi:

– Alyoshinodanmi?

– Alyoshinodan.

– «Chapayev» xo'jaligidagimi?

– Ha, «Chapayev»dagi.

– Sizlarda mehnat kuniga yetti so'm pul va uch kilo bug'doy to'lanadimi? – davom etdi Makar Petrovich.

– Ha.

Hamma jim bo'lib nafasini ichiga yutganicha Makar Petrovichning savollari va Pyotr Ivanovichning javoblarini tinglardi.

– Agar to'g'ri tushungan bo'lsam, Sergeyevna ikkovimizning mehnat kunlarimizni birga olsak, salkam o'n ming chiqarkan-da?

Telegin uning gapini tasdiqladi va Chapayev nomli jamoa xo'jaligida aynan shunday ekanligini aytdi.

– Pal Yefimich, eshitdingmi? – deb so'radi Makar Petrovich. – Sen bo'lsang hovlingda quduq o'rnatmoqchisan! – oxirgi so'zlarini past ovozda faqat qo'shnisi eshitadigan qilib aytdi, chunki qizishib ketganidan u bilan urishganini unutib qo'ygandi.

Faqat Pavel Yefimich unga quloq ham solmadi, balki o'zi o'rnidan turib, savol berdi:

– Pyotr Ivanovich, Sentabr Plenumini qanday tushunasan?

– Bu juda katta masala, savolingizga darrov javob berib bo'lmaydi, – jilmaydi Telegin.

– Savolimni aniqlashtiraman, – dedi Ptaxin. – Jamoa xo'jaligi ishchilarining mol boqishi masalasi bo'yicha Sentabr Plenumini qanday tushunasan?

– Ha, gap bu yoqdami? – u o'rta cho'kkan sukunatda bir zum o'ylanib turdi, Makar Petrovich va Pavel Yefimich intiqqanidan hatto o'rnidan turib ketayozishdi. – Asosiysi, jamoa xo'jaligining hayotini yaxshilashdir.

– To'g'ri! – uning gapini bo'ldi Ptaxin.

– Birpas shoshmang. Sizga oddiyroq qilib tushuntiraman. Bizning «Chapayev»da xo'jalik ishchilari o'z daromadining to'qson foizini jamoa xo'jaligidan oladi... Bizning shaxsiy manfaatlarimiz jamoa xo'jaligiga va qismangina o'z xo'jaligimizga bog'liq. Jamoa xo'jaligi qanchalik boy bo'lsa, biz ham shunchalik boyiymiz. Jamoa xo'jaligi kambag'al bo'lsa, biz qashshoqlashaveramiz. Sentabr Plenumini barcha jamoa xo'jaliklarini boy qilish kerak degan ma'noda tushunmoq darkor. Agar bitta shaxsiy xo'jalikda mol yetishtirilsa, unda bu partiya qarorini buzish bo'ladi.

– Judayam to'g'ri! – dedi Makar Petrovich. – Bu haqiqatga mos keladi!

Ptaxin o'ylanib qoldi. U boshini egib o'tirar va miq etmasdi. Makar Petrovich tirsagi bilan uni sekingina turti va Telegin o'tirgan minbar tomon ishora qildi:

– Zo'r odam-a, nima deding?

Pavel Yefimich indamadi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, Makar Petrovich, peshonasidagi terni artib, dedi:

– Dimligini qara!

– Dim, – aks-sadodek qaytardi Pavel Yefimich, bu esa jim o'tirganidan-da yomonroq edi.

Makar Petrovich turli fikrlar va takliflarni tinglab o'tirar, biroq qo'shnisi u bilan gaplashishni istamayotganidan g'azabi qaynay boshlagan edi. «Indamaydi, – deb o'yladi u. – Bu yaramas Pomidor hatto gaplashishni ham xohlamayapti». Pavel Yefimich esa «Xantal meni gapga solmoqchi» deb o'ylardi.

Teleginga ovoz berilib, u o'ziga bildirilgan ishonchlari uchun minnatdorchilik izhor etganidan so'ng Makar Petrovich to'g'ri sahnaga ko'tarildi. U prezidium stoli yonida turib, yangi raisga murojaat qildi:

– Pyotr Ivanovich! Bizni to'g'ri boshqargin! – U xuddi so'z izlayotgandek bir zum jim bo'lib qoldi. Makar Petrovich hozir aytajak so'zlari muhimligini, ular har qanday uzun nutqdan-da salobatliroq bo'lishi shartligini bilar, shu bois o'ylab olish uchun to'xtagandi. – Agar bizni partiya ko'rsatganidek boshqarsang, seni qo'limizda ko'tarib yuramiz. Unday qilmasang – haydaymiz. To'g'risini aytyapman: haydaymiz. Iltimos, sen bizdan ishni talab qil, qilaver, faqat... hurmat qilishni ham bilgin. Biz juda yomon yashadik. Shu darajaga bordikki, oddiy tushov – bebaxt tushov! – topa olmadik. Tushunyapsanmi, oddiy tushov-a! Bittagina sigir bilan rekord o'rnatdik. Bilib qo'y, Pyotr Ivanovich, bizda chorva mollari yetishtirish ishlari chatoq, xo'jaligimizning Pal Yefimich Ptaxinga o'xshagan a'zolari esa mollarni jamoa xo'jaligida emas, balki uyida boqishmoqchi, – har doim bo'lganidek, Makar uzoq gapirishni eplolmadi, gapidan adashib ketdi va past ovozda so'zini tugatishga shoshildi. – Biz «qirqtiyinlik» bo'lganimizni, darrov «yetti

so'mlik» bo'lib qololmasligimizni ham bilib qo'yishing kerak. Senga judayam qiyin bo'ladi, – shu yerda u qalpog'ini ko'kragiga bosdi-da, baland ovozda hamma eshitadigan qilib so'radi. – Qilayotgan ishingga nisbatan ishonching bormi?

– Bor, – javob berdi Pyotr Ivanovich o'ylab o'tirmasdanoq.

– Unda gap tamom!

Makar Petrovich gulduros qarsaklar ostida sahnadan tushib ketdi.

Qo'shnilar majlisdan alohida-alohida chiqishdi. Makar Petrovich devor yoqalab yurdi, Pavel Yefimich esa xonani kesib o'tib, ikkinchi devor yonidan yurdi. Buni qarang-ki, ular yana eshik oldida to'qnashib qolishdi! Bu yerda ortga qaytolmaysan, faqat oldinga yurish kerak. Ular qo'y teri po'stinlarini g'ichirlatgancha ko'chaga chiqishdi. Beixtiyor bir qancha vaqt davomida yonma-yon yurishdi. Ular og'ziga tolqon solgandek miq etmay ketishardi.

– Oy chiqibdi, – dedi Makar Petrovich.

– Oy, – qaytardi Pal Yefimich.

– Bu sovuqdan darak.

– Sovuqdan...

Yana indamay ketishdi.

– Bu yil qor zo'r yog'di-da! Hosil zo'r bo'ladi, – dedi Makar Petrovich.

– Hosil zo'r bo'ladi, – qovog'ini ochmay qaytardi Pavel Yefimich.

Ular chin dildan suhbatlasholmasdilar. Ularning janjali judayam chuqurlashib ketgandi.

Bir umr yonma-yon yashagan odamning yonida indamay ketish qiyin. Judayam qiyin. Ikkovlari ham buni his etishardi. Biroq yoqtirmaslik bor joyda nimayam qila olarding!

«Demak, oramiz buzilibdi» deb o'yladi Makar Petrovich.

«Qo'shniga ham o'xshamaymiz» deb o'yladi Pavel Yefimich va to'satdan shaxdam qadamlar bilan ko'chaning boshqa tarafiga o'tib ketdi.

Makar Petrovich to'xtadi, bir zum qo'shnisining ortidan qarab turdi, u ko'chani kesib o'tishini kutib turdi, keyin yo'liga ravona bo'ldi.

Ular shu tariqa uyga kelishdi: ko'chaning bir tarafida Makar Petrovichning etiklari qirsillaydi, boshqa tomonida esa Pavel Yefimichning kigiz etigi shitirlaydi. Etiklar baland, jaranglagan ovozda qirsillaydi, tovushi uy devoriga xuddi xo'jayindek qattiq uriladi. Kigiz etiklar esa xuddi shivirlagandek ohista shitirlaydi.

– Qirs-qirs! – yangraydi bir tarafdan.

– Shitir-shitir! – eshitiladi ikkinchi tomondan.

Ilgari bu tovushlarga qarab, qo'shnilar tunda ham bir-birini yarim chaqirimdan tanib olgan va bir-birining qarshisiga shoshilgan bo'lishardi. Endi esa ularning munosabatlari qanday bo'ladi, kim bilsin!

Aslida esa hamma balo sigirdan boshlandi...





TIKJAR YONIDA

Tong otdi. Dala jim-jit, tiq etgan tovush eshitilmaydi. Atrofda tirik jon ko'rinmaydi. Senya Troshin arpa maysalari yonida cho'nqayib o'tirar va kattakon shabnam tomchisiga tikilardi. Uning jingalak, oqimtir-mallarang sochli boshida qalpoq yo'q. Senya boshini goh bir yoqqa, goh boshqa yoqqa o'giradi, egiladi va ko'zlarini qisadi. Goh-gohida jilmayib qo'yadi. Qo'lidagi mahkam siqimlab olgan qalpog'i ichida nimadir g'imirlaydi. Senya qalpog'ini sal ochib, mayin, silliq mo'ynali mitti quyonchani silab qo'ydi.

– Jim o'tir, tentakvoy! Senga yomonlik qilmayman.

Quyuncha burun parraklarini qimirlatdi, quloqlarini boshiga jipsroq yopishtirib oldi-da, ishonch bilan Senyaning iliqqina yengi ichiga kirib oldi.

– Mayli, yengim ichida o'tiraver. O'tiraver, u yerda kurortdagidek mazza qilasan... Yangi tug'ilgan quyonchalar judayam ajoyib-da, hech narsani tushunmaydi – qo'lingga olasan-u, ketaverasan...

Senya yana nigohini o'sha shudring tomchisiga qaratdi. Tomchiga chap tomondan qaralsa, uning sirtida aks etayotgan pushti-qizil tusli osmonni ko'rish mumkin. Agar o'ng tarafdin qaralsa, unda yashil dalalar va oppoq bulutlar namoyon bo'ladi. Haqiqiy, mitti-gina bulutchalar! Butun dunyo bitta tomchida aks etadi! Senya esa ushbu mitti, sokin, tinch olamning tonggi sof aksini ko'radi. Agar bir ko'zni yopib, faqat ikkinchisi bilan qaralsa, manzara yanada aniqroq, tiniqroq ko'rinadi.

U tizzalab o'tirdi-da, atrofga qaradi. Barglardagi shudringlar titrab-titrab raqs tushar va turfa ranglarda tovlanardi. Har bir bargda – tomchi, har tomchida – mitti olam. Senya dalada juda ko'p ajoyibotlarga guvoh bo'ldi, biroq bunaqasini yigirma to'rt yillik hayotida birinchi marta ko'rishi edi.

U oʻrnidan turdi. Quyunchani qalpogʻiga solib, qoʻyniga tiqib qoʻydi. Ozgina turdi. Bir yelkasiga bedana tutadigan toʻrni, ikkinchi yelkasiga esa bogʻlangan boshmoqlarini osdi. Yerdagi turgan xaltasini oldi. Xalta ichida bedanalar tipirlardi. Yana bir marta dalaga sohib tashlangan shudring donalariga qaradi va ekinlar oralab toʻgʻri yurib ketdi. Senyaning shimi allaqachon tizzasigacha shilta suv boʻlib ketgan, ularni yanada hoʻl qilishdan qoʻrqmasdi. Ochigʻi, shudring shunaqangi yoqimli, soflantiruvchi, tetiklantiruvchi edi-ki! Erta tongda dalalar judayam yoqimli boʻladi!

Toʻsatdan u toʻxtab qoldi. Oldindagi tepalikda xuddi tun va kun chegarasida paydo boʻlgan haykaldek ulkan urgʻochi boʻri qotib turrardi. Senya joyidan qimirlamay unga uzoq tikildi, keyin asta shivirladi:

– Salom, tanish!

Urgʻochi boʻri butun badanini oʻgirib, u tomonga qaradi va shoshmaygina tepalik ortiga oʻtib ketdi.

Senya yoʻlga chiqib olgach, qishloq tomonga emas, balki qarama-qarshi tarafa yurdi. U ovdan toʻgʻri ishga ketayotgan edi. Qishloqqacha yana olti kilometrcha yoʻl bosish kerak, uning kunduzi ishlaydigan joyi – kungaboqar dalasigacha esa yarim chaqirimcha yoʻl qoldi. Shunaqangi vaziyatga moslab, hatto nonushtasini ham yonida olib keldi.

U tez orada brigada binosiga yetib keldi-da, oʻrmon yoqasida egnidagi paxtaligini yechdi. Odamlar ishga soat yettidan oldin kelishmaydi, demak Senya uch-toʻrt soat bemalol uxlab olishi mumkin. Bino ichi xuddi atrofdagidek tinchgina edi. Qorovul, urush nogironi Grigoriy Fomich yogʻoch oyogʻini choʻzib, boshini koʻksiga osiltirgancha oʻtirgan joyida qotib uxlardi. Ertalabki uyqu juda kuchli boʻladi.

– Mayli, uxlayversin, – deb shivirladi Senya. – Hozir oʻgʻiraydigan narsaning oʻzi yoʻq. Bugʻdoy pishganida esa boshqa gap. Oʻshanda uxlab qolsa, albatta, uygʻotaman.

Keyin u quyunchani olib, kaftiga qoʻydi. Uning kattaligi gʻoz tuxumicha keladi.

– Yaxshisi seni shu yerga, oʻrmon chekkasiga qoʻyib yubora qolay, maylimi? Bu yerdan seni kalxat topolmaydi, – dedi u quyonchaga.

Senya quyonchani buta ostiga qoʻyish uchun asta choʻkkaladi. Biroq shu payt uzoqdan xuddi qamchi tarsillashiga oʻxshagan bir maromdagi shovqin eshitildi. U quloq solib: «Konstantin kelyap-ti. Quyonchani qoʻyib yubormay turay, unga koʻrsataman», – deb oʻyladi. Keyin quyonning ustini ikkinchi qoʻli bilan yopdi.

Uzoqdan eshitlayotgan tarsillash muntazam qaytarilar va tobo-ra yaqinlashib kelardi. Oradan bir necha daqiqa oʻtgach, oʻrmon soʻqmogʻidan kelayotgan odam koʻzga tashlandi. U boshini ba-land koʻtarib, faqat oldinga qarar va qoʻlidagi tayoqchani etigi qoʻnjiga urib, mingʻirlagancha qandaydir qoʻshiqni xirgoyi qilardi. U bashang kiyingandi: yupqa movutdan tikilgan shimi yangigina etigiga qistirilgan, jigarrang satin koʻylak kiygan, yelkasiga yengil yozgi kostum tashlab olgan. U Senyaning oldiga uch-toʻrt qadam yetmay toʻxtadi, boshini hamon baland koʻtargancha tayoqchasi bi-lan etigining qoʻnjiga urdi.

– Kimsan? – deb soʻradi u.

– Men.

– Senya... Ov qalay boʻldi?

– Oltita tutdim.

– Yaxshi.

– Yarim tunda shudring tushibdi, boʻlmasa yanada koʻproq tut-gan boʻlardim. Bedanalar shudring tushganida toʻr tagiga kirish-maydi. Xuddi esini yegandek rosa sayrashadi-yu, lekin joyidan qi-mirlashmaydi.

– Buni qara-ya! Hoʻl boʻlishdan qoʻrqisharkan-da!.. Semiz-ginami?

– Yomonmas... Konstantin bu yoqqa oʻtirgin, bir narsa koʻrsataman.

– Nima ekan u?

Konstantin ehtiyotkorlik bilan odimlagancha, Senyaga yaqin-lashdi. Bu yigit koʻr edi. Koʻzlari ochiq boʻlsa-da, lekin qimirla-masdi. Koʻrinishidan u Senyaning tengdoshiga oʻxshardi. U ingich-

ka, yumshoq barmoqlarining uchini Senyaga tegizdi, keyin uning qo'lini qattiq siqdi.

– Kostya, bunaqangi barvaqt qayerga va nima uchun bording?

– E, senga hali erta, men uchun esa baribir... Jo'xorilarni ko'rgani bordim, hammasini aylanib chiqdim. Endi bu yil jo'xori qayerga ekilganini va u yoqqa qanday borishni bilaman.

– Ha-a, topibsan-da? Qanday qilib dalalarda erkin yurasan-a? Adashib qolishdan qo'rqmaysanmi?

– Mana bunga qara, – Kostya tayoqchani ko'tarib, unga chertib qo'ydi. – Shu tayoqning yordamida yuraman. Aytaylik, oldinda simyog'och bo'lsa, tayoqni etigimga uranimda u menga qarshimda simyog'och borligini aytadi. Mana, brigada binosigacha yetib keldim va binoni darrov ko'rdim. Mana, sen o'tiribsan, men yoningdan o'tib ketyapman. Ovozingni chiqarmasang ham seni ko'raman. Har bir modda o'ziga xos ovoz chiqaradi. Ekinlar ham. Kungaboqar o'zining aksini beradi, javdari esa o'zinikini. Men hammasini ko'raman. Har bir buyumdan chiqadigan yupqa to'lqin yuzimga yetib keladi... Tushunmayapsan-a? – to'satdan so'radi u.

– Yo'q, nega endi? Tushunyapman. Faqat men o'zim bunday qilolmayman. Ko'zimni yumdimmi, tamom, hech narsani ko'rmayman. Sen esa cho'tkalar va yog'och bo'yinchalar yasaysan, to'r to'qiysan, hamma ishga ustasan. Bularni men faqat ko'zim bilan ko'rsamgina o'rganishim mumkin. Aks holda uddalolmayman.

– Men ham ko'p narsani uddalolmayman. Bolaligimdan «Yorug'lik, yorug'lik» deganini eshitaman, ammo u nimaligini bilmayman. Aytaylik, bahordagi yashil barg va kuzdagi sariq barglarni ko'raman – barmoqlarim yordamida aniqlayman. Yorug'likni esa bilmayman. Mana, ko'rdingni, nimalarni qila olmayman.

– Mayli, – uning gapini bo'ldi Senya suhbat mavzusini chuqurlashtirishni istamay. – Qaragin-a, men nima topib oldim!

U kaftidagi quyonchani Kostyaga yaqinlashtirdi.

– Quyonchaga o'xshaydi... – Kostya quyonchani siladi, ingichka barmoqlarini uning mo'ynasiga, quloqlariga, panjalariga tegizdi. – Ha-a, quyoncha-ku!

– Topding.

– Bunchayam yumshoq... Nega uni onasidan olib ketding? Senya, bu yaxshimas.

– Aksincha, bu yerda – o'rmon yoqasida u xavfsiz bo'ladi, dalada esa kalxat tutib olib ketishi mumkin. Uning onasi emizib boqishiga esa ishonch ham yo'q.

– Qanaqasiga?

– Bu oddiy hol. Ona quyon quyonchalarini dunyoga keltiradi, darrov ovqatlantiradi, ular esa har tomonga emaklab ketishadi va kesaklar ostiga yoki chuqurchalarga kirib olishadi. Tamom, vassalom. Onasining izi ham quriydi.

– Keyin-chi?

– Quyonchani qorni ochsa, u ingichka ovozda «Pi-pi-pi!» deb ingillaydi, shunda o'sha atrofda yurgan, suti bor ona quyon kelib, uni ovqatlantirib ketadi. Ba'zan ikkitasi baravar kelib qolib, to'ygunicha ovqatlantiradi.

– Buni qara-ya! Judayam g'aroyib-ku!

– Buni men o'z ko'zim bilan ko'rganman. «Pi-pi-pi!» Ona quyon pildirab yugurib kelyapti. Shudringda shoshib yugurib kelgunicha xuddi daryoda kir yuvayotgan ayoldek shilta ho'l bo'lib ketgan. Yana bittasi yugurib keldi. To'g'ri, bunisi sal kechikdi. Birinchi ona quyon mittivoyni ovqatlantiryapti, ikkinchisi yonida xuddi enagadek boshini qimirlatib o'tiribdi. Xudo haqi, shunaqa bo'ldi!

– Enaga, deysanmi? – kulib yubordi Konstantin. – Ovda xo'p ajoyibotlarni ko'rasan-da!

– Baribir hammasini ko'ra olmayman.

Konstantin ajablanib, boshini u tomon o'girdi, lablarini cho'chchaytirib, qoshlarini chimirdi.

– Nega ajablanasan? Mana, hozir ham tomchida osmonni ko'rdim. Umrimda birinchi marta ko'rdim! – xitob qildi Senya zavqqa to'lib. – Tushunyapsanmi, bulutlar, tong – bari bitta tomchida...

Konstantin bosiqqina jilmaydi-da, ishonch bilan dedi:

– Tushunmayman.

– Ha, faqat sen emas. Xotinim Masha tushunadi. Men ham uning hamma gapini tushunaman.

– Mening Nastyam ham, garchi ko'zi ochiq bo'lsa-da, meni tushunadi.

– Odamlar bir-birini tushunishgani judayam yaxshi. O‘ylashimcha, jamoa xo‘jaligimizning raisi Aleksey Stepanovich mening ovsiz yashay olmasligimni tushunadi, shuning uchun bunga to‘sqinlik qilmaydi. Brigada boshlog‘i esa ovga chiqishimni taqiqlagani-taqiqlagan. Nima, men boshqalarga nisbatan kamroq ishlayapmanmi? Ko‘proq ishlasam ishlayapmanki, aslo kam ishlamayapman.

– Men esa Aleksey Stepanichni tushunmayman. Men unga jo‘xori popugidan cho‘pdasta to‘qish mumkin deyman, uni shaharda kiyimlarni tozalash uchun ishlatishadi. Bunday cho‘pdastaning bit-tasi bir so‘m turadi, men kuniga o‘n besh-yigirma dona to‘qib tashlayman. Hatto undan-da ko‘proq qilishim mumkin. «Eplolmaysan, shusiz ham ishing ko‘p», – deydi. Qara, meni ish bilan qo‘rqityapti! O‘zining foydasini ko‘rmaydi. Mayli, kuzda buni isbotlab beraman. Jo‘xori pishganidan so‘ng o‘ntasini o‘rib, to‘g‘ri idoraga olib boraman, o‘zi ko‘rib ishonsin!

Ikkovi jim bo‘lib qolishdi. Konstantin qopqoqli, biroq oynasi yo‘q cho‘ntak soatini chiqarib, soat milining bo‘rtiq nuqtalarini bar-moqlari bilan siladi-da, dedi:

– Soat to‘rt yarim bo‘libdi. Men boray.

– Men ozgina uxlayman. Tushda ham bir soatcha mizg‘ib olarman.

– Mayli, uxla, uxla...

Konstantin yo‘lga chiqib, tayog‘ini goh oldinga siltab, goh yo‘lga, goh qo‘njiga urganicha jamoa xo‘jaligi tomon ketdi.

Yana uzoq vaqtgacha Senyaning qulog‘i ostida Konstantin-ning tayog‘ini tiqillatishi yangrab turdi: tiq, tiq... Tiq-tiq... Tiq-tiq... «Konstantin yaxshi odam, – deb o‘yladi Senya quyonchani qo‘yib yuborarkan. – Ba‘zan ko‘zi ochiqlar ham undek bo‘lolmaydi».

Quyosh chiqa boshladi. Yumronqoziq xuddi birinchi bo‘lib uyg‘onganidan darak berayotgandek, hushtak chalib qo‘ydi. Ko‘rsichqon yangi qazilgan tuproqni uyasidan itarib chiqara boshladi. Dala sassiqko‘zani yugurib o‘tdi. Yana yumronqoziqning hushtagi yangradi. Ekinlar orasidan to‘rg‘ay otilib chiqdi-yu, dar-rov pastga tushdi: sayrashga hali erta! Toza, tiniq tong havosida bir

kilometr narida traktoriga kunduzgi ish uchun yonilg'i to'ldirayotgan traktorchilarning gaplashayotganlari eshitalardi. Senya paxtaligiga yotdi-da, qotib uxlab qoldi.

Qorovul Grigoriy Fomich uyg'onib, oyoq-qo'llarini keng ochib uxlayotgan Senyani ko'rdi.

«Buni qara-ya! – deb o'yladi u. – Meni uyg'otmabdi ham. Qattiq mudrab qolibman, chog'i. Mayli, ovchi, sen ham uxlay qol... Uxla».

Soat yettilarda yo'lda jamoa xo'jaligi raisining «Moskvich» rusumli avtomobili ko'rindi. Grigoriy Fomich jonlanib qoldi, biroq Senyani uyg'otmadi. Mashinadan xo'jalik raisi Aleksey Stepanovich Zernov va brigadir Korney Petrovich Uxov tushishdi.

– Xayrli tong, Fomich! – salomlashishdi ikkovi baravar.

– Sizlarga ham xayrli tong!

– E-ha, Senya shu yerda ekan-ku! – qattiq ovozda dedi Aleksey Stepanovich.

– Jim! – shivirladi Grigoriy Fomich. – Mayli, ozgina uxlasin. U ovdan keldi. Odamlar kelishganida, uyg'onadi. U hech qachon ishga kech qolmaydi.

Biroq ularning gaplashayotganlarini eshitgan Senya allaqachon o'rnidan turgandi. U ko'zlarini ishqaladi, bochkadagi suvdan olib yuzini yuvdi-da, kelganlarga galma-galdan qo'l uzatdi.

– Salom! Demak, kelibsizlar-da! Namuncha bugun vaqtli kel-dingiz?

– Pichan o'rimiga o'tib ketyapmiz, – dedi Aleksey Stepanovich. – U yoqqa ko'proq odam tashlashga to'g'ri keladi-yov: pichanlar o'rib qo'yilgan, barometrning ko'rsatkichi esa tushib ketyapti. Yomg'ir yog'adimi, deb xavfsirayapmiz.

– Bugun yomg'ir yog'maydi, – ishonch bilan dedi Senya.

– Ha, sen hamma narsani bilasan! – kesatdi brigadir.

– Tunda qalin shudring tushdi, – javob qaytardi Senya. – Shudring tushgan kuni esa yomg'ir yog'maydi. – U biroz o'ylab turgach, qo'shib qo'ydi. – Bedanalar tongda rosa basma-basiga sayrashdi. Yomg'ir oldidan ular miq etmay o'tirishadi.

– Demak, barometrga ishonmas ekansan-da? – so‘radi brigadir.

– Bosim tushishi mumkin, lekin yomg‘ir yog‘maydi. Qalin shudring tushganida hech qachon yomg‘ir yog‘maydi, – yana qaytardi Senya.

– Bu ilm-fanga to‘g‘ri keladi, – tasdiqladi Aleksey Stepanovich. – To‘g‘ri. Pichanni shoshilmay g‘aramlayverish kerak, – u brigadirga o‘girildi. – U yoqqa o‘ntacha odam tashlasang yetarli.

– Mening oyog‘im ham og‘rimayapti, – gapga aralashdi Grigoriy Fomich. – Yomg‘ir yog‘ishi oldidan oyog‘im doim darak beradi.

Brigadir raisga qarshi gapirmadi-yu, lekin basharasidan uchala suhbatdoshidan ham jahli chiqayotgani sezilib turardi. Nazarida, bu odamlar asosiy narsani – to‘kechgacha pichan bilan ovora bo‘lmay, uni tushgacha yig‘ishtirib olish kerakligini tushunishmasdi. Aleksey Stepanovichning, esa, aksincha, «mahalliy bashorat»dan ko‘ngli to‘lgandi. U ishdagi marom buzilishi xavfli ekanligini, odamlarni ishdan qoldirib, qayergadir olib borish, keyin kunning o‘rtasida yana o‘z joylariga tashish kerak bo‘lishini bilardi.

– Korney Petrovich, – kutilmaganda brigada boshlig‘iga murojaat qildi Senya. – Kungaboqar jo‘yaklarini chopiqdan chiqarganimizdan keyin menga ikki kunga javob bering.

– Ana! Aleksey Stepanich, ko‘rdingmi? – darrov qaynab ketdi brigadir. – Yana ishdan javob so‘rayapti. Tunlari yoshgina xotinini uyda qoldirib, dalalarda sandiroqlab yuradi, yana ishdan javob so‘raydi.

– Mening mehnat kunlarim hammanikidan ko‘proq, – e‘tiroz bildirdi Senya. – Iltimos, javob bering. Qoldirgan kunlarimning o‘rnini to‘ldiraman. Yakshanba kunlari ishlab beraman.

– Hozir javob berolmayman. Dalada ish qizg‘in, sen esa «javob ber» deysan. Nega shunchalik tushunchang past-a! – xitob qildi brigadir.

– Biron joyga bormoqchimiding? – deb so‘radi Aleksey Stepanovich.

– Buni oldindan aytgim kelmayapti. Balki o‘ylagan ishim o‘xshamay qolar...

– Sababini aytsang, ehtimol javob berarmiz.

Senya brigada boshlig'iga ishonqiramay tikildi-da, keyin raisga qarab javob berdi:

– Tikjardagi tikanli butalar orasida ona bo'rini bolalari bilan ko'rdim... Agar bolalari katta bo'lsa, yarim suruv qo'yning boshiga yetadi.

– Xo'sh, ularni nima qilmoqchisan? O'ldirasanmi? – sabrsizlik bilan so'radi brigadir tobora tepaga ko'tarilayotgan quyoshga boqib.

– Balki o'ldiraman ham.

– Shunga ikki kun ketadimi?

– Bilmadim, ehtimol ko'proq ketishi ham mumkin. Bo'rilar ni izlab topish ham kerak-ku...

Senya gapini tugatmay qo'l siltadi-da, nari ketdi.

Rais va brigada boshlig'i o'zaro nimalarnidir gaplashishdi, biroq Senya ularning gapini eshitmadi. Brigadir o'zini tushunmagani unga judayam alam qilgan edi. U endi nima qilishi haqida o'ylar, ona bo'ri necha kundan beri uni bezovta qilayotgan edi.

Aleksey Stepanovich Senyaga yaqinlashib, so'radi:

– Bo'ri seni miltiq bilan o'ziga yaqinlashtirarmikan? Bo'rilar juda makkor bo'ladi.

– Birinchi martasida miltiqsiz borishim kerak-da... Kuzatish, tushunish, keyin esa... Bu ona bo'rini yaxshi taniyman. Bilaman, birdaniga miltiq bilan borib bo'lmaydi. Unda bo'ri oldinroq qochib ketadi yoki inidan chiqmay o'tiradi, yoxud bo'richalarini boshqa joydagi iniga tashib ketadi... Bo'ri uyasini qazib bo'lmaydi-ku? – deb o'z-o'zidan so'radi u.

Aleksey Stepanovich Senyaga qarab, nimalarnidir o'ylardi. Senya ham qarshisidagi dalaga qarab, o'yg'a tolgandi.

– Bugun nima ish qilasan? Qanday topshiriq olgansan? – deb so'radi Aleksey Stepanovich bir ozdan keyin.

– Bugun ot qo'shilgan yer chopuvchi moslamada kungaboqarlarning tagini yumshatib chiqishimiz kerak. Bugun tugatamiz.

Aleksey Stepanovich boshqa hech narsa demadi-da, brigada boshlig'ining yoniga ketdi. U bosh ko'tarmay nimalarnidir yozish bilan ovora edi. Biroq Senya ularning ovozlari eshitdi.

– Aleksey Stepanich! – jahl bilan dedi brigada boshlig'i. – O'zingiz ishda tartib bo'lishini talab qilasiz-u, yana bo'lsa ishchini ishdan ozod qilishni so'raysiz! Sizgayam tushunmadim-da!

Keyin ular past ovozda gaplasha boshlashdi va tezda jo'nab ketishdi.

Senya kun bo'yi jo'yaklar orasini yumshatish bilan ovora bo'ldi. Bugun u kamgap edi. Savollarga istar-istamas javob qaytarar, hazil-mazahlarga quloq ham solmasdi. Tushki tanaffus paytida u odatdagidek uxlagani yotdi, biroq ko'ziga uyqu inmadi: ona bo'ri sira xayolidan ketmasdi. Uning nazarida, hech kim bu xavfli jonivor haqida o'ylamayotgandek edi.

O'tgan yili yigirmatacha qo'yni bo'rilar bo'g'izlab ketgandi. Nahotki bu yil ham shunday holga yo'l qo'yilsa? Idorada baqirish va cho'ponlarni koyishdan osoni yo'q...

Ona bo'ri haqida faqatgina Senya o'ylamayotgandi. Ertalab, brigada binosidan jo'nab ketayotib, Aleksey Stepanovich brigadirga dedi:

– Senyaga javob berish kerak. Ona bo'ridan katta zarar yetishi mumkin. Balki u bir o'zi emasdir ham.

– Bo'ri Senyani o'ldiradi, – e'tiroz bildirdi Korney Petrovich. – Nahotki bir milli miltig'i bo'lgan yolg'iz ovchi bo'riga bas kelolsa? Yo'q. Bir oy yursa ham, bo'rini o'ldirolmaydi. Senkaning ishi – bedana, o'rdak, quyon ovlash... Ovga boraverishi bilan shusiz ham jonimga tegdi. Bahorda o'rdak oviga ruxsat so'raydi, qishda esa ovga ketadi-yu, bo'ronda qoladi, keyin uni o'ylab, ich-etimni yeb o'tiraveraman. Bu ishni bas qilish kerak. Bundan tashqari, u hali yosh, tajribasiz, yolg'iz o'zi urg'ochi bo'riga qarshi chiqishi aqlga to'g'ri kelmaydi.

– Mayli, Korney Petrovich, unga javob beraqol, – deb majburladi xuddi janubda yashovchilardek oftobda toblangan rais tabasumini qop-qora mo'ylovining ortiga yashirib. U avtomobilini o'zi haydar va to'g'ri yo'lga tikilar, shabada oq tusha boshlagan sochlari silkitardi. – Ruxsat beraqol. Bu muhim ish.

Korney Petrovich tushkun holda xo'rsindi-da, yon tomonga o'girildi.

Kechqurun brigada binosida brigadir Senyani chaqirib, qisqagina dedi:

- Mayli, bora qol. Ikki kunga ruxsat beraman.
- Aleksey Stepanich ruxsat berdimi?
- Sen boraver. Ruxsat oldingmi, demak ketaver. Tamom.
- Xo‘p, – dedi Senya.

Yuk mashinasi keldi. Ular jamoa xo‘jaligining boshqa ishchilari bilan birga kuzovga chiqib o‘tirishdi va qaytib gaplashishmadi. Faqat garaj oldiga yetganda, Korney Petrovich mashinadan tushayotib, Senyaga qaradi:

– Senya, esingda bo‘lsin, bolalari bor urg‘ochi bo‘riga qarshi yolg‘iz borish osonmas... Ehtiyot bo‘lgin.

– Men boraman-u, uni hiqildog‘idan shartta bo‘g‘aman, u bo‘lsa «hiq» deydi-yu, tamom bo‘ladi, deb o‘ylovdim, – dedi Senya aslo kulmay, mutlaqo jiddiy ohangda.

Biroq Korney Petrovich uning istehzosini tushunib, qo‘l siltadi.

– G‘alati odamsan-da, Senka! – dedi xayrlashish o‘rnida.

Uyga kelgach, Senya zarang ostidagi o‘tlar ustiga dasturxon yozib, xotini bilan birga ovqatlandi. Qovurilgan bedana judayam xushta‘m, qaymoq surtilgan quymoq esa judayam mazali chiqqan edi. U oxirgi quymoq bilan likopchasini artib olib, uni og‘ziga tiqiddi:

– Rahmat, Mashenka! Mazza qildim... Qani, bu yoqqa o‘tir-chi, bir narsani aytib beraman, – dedi.

U qaznoqdagi nemis miltig‘ining nayzasini qirqib yasalgan xanjarni olib chiqdi va uni ushlab, tosh yoniga o‘tirdi. Masha uning yonidagi supachaga o‘tirdi. Yosh, baquvvat, do‘mboqqina Mashaning sho‘x kulrang ko‘zlari quyuq qop-qora qoshlari ostidan chaqnab turardi. Qishloqdagilar shunaqangi sohibjamol qiz qanday qilib «yuvoshgina Senka»ga turmushga chiqqanidan ajablanishardi. To‘g‘ri, Senya nozikkina yigitlardan emas, biroq bir qarashda ko‘zga tashlanmas, garchi mushaklari yaxshilab damlangan avtomobil g‘ildiragidek tarang bo‘lib tursa-da, bu unga husn bermasdi. Bo‘yi ham o‘rtachagina edi. Xullas, shunaqangi oddiy yigit bo‘lgan Senyani qishloqning oldi sohibjamoli sevib qolgandi.

Masha qo'llarini peshbandi ostiga yashirib, hazillashgansimon mayin ohangda so'radi:

– Nimani aytib bermoqchisan? Kakliklar haqidami?

– Yo'q, sen gapni eshit, – Senya xanjarni charxlay boshladi va ishdan to'xtamagani holda so'radi. – Sen erta tongda tomchini ko'rganmisan?

– Tomchinimi?

– Ha.

– Kim bilsin, deysan...

Masha uning yumshoqqina sochlaridan tortqilab qo'ydi.

Senya Mashaga ertalab ko'rganlarini batafsil so'zlab berdi.

– Bilasanmi, Masha, u titraydi, quyosh nurlari ostida goh tiniq, goh xira tovlanadi... U shunaqangi mittigina-ki! Bunaqasini kinoda ham ko'rmaysan.

Masha Senyaga tikilib, gaplarini diqqat bilan tinglardi. Hozir uning ko'zlarida g'ayrat aks etmas, lablaridan ham brigadadagi ba'zi birovlarining o'takasini yoradigan o'tkir so'zlar tashqariga otilib chiqadigandek tuyulmasdi.

– Sen yaxshisan... – sekingina dedi u.

– Korney Petrovich esa meni «g'alatisan» deydi.

– Mayli, qo'yaver, gapirsa gapirar.

Xanjar asta-sekin toshni yalardi. Qosh qoraydi, daraxtlar qopqora tusga kirdi.

– Masha, men ertaga ketaman. Ikki kunga, – dedi Senya tosh yonidan turayotib.

– Uzoqqami?

– Ona bo'rini kuzatgani.

– Men qo'rqyapman, Senya. Axir uning bo'richalari bor-ku... Odamlarning aytishicha, ikkita ulkan bo'ri birga yasharmish.

– Shunga nima bo'libdi? Men ularga darrov hujum qilmayman. Izlaridan poylayman. O'ylab ko'raman. Bunga nima deysan?

– Nima desam ham, baribir ketasan-ku!

– Ketaman.

– Unda boraver. Mayli, – Masha uning pinjiga kirib yuzini yonog'iga bosib, ozgina o'tirdi. – Yuraqol, Senya.

Oradan ko'p o'tmay, Senya boshini Mashenkaning qo'liga qo'yganicha qotib uxlab yotardi. U esa qo'lini tortib olsa, Senya uyg'onib ketishidan xavfsirab, asta mudrardi.

Senya erta tongda uydan chiqib ketdi. Yelkasida – yuk xalta, chalg'i ko'tarib olgan, etigining qo'njida – xanjar. Atrofini diqqat bilan ko'zdan kechirganicha tez ketayotgan Senya bir bog' toshcho'p yulib oldi, u bilan xanjarni artgandi, temirning hidi butunlay yo'qoldi. Shundan so'ng u qadamini yanada tezlashtirib, Tikjar tomon ketdi. Oradan bir yarim soat o'tgach, u jarlikning beliga chiqdi. Shu joydan ayni shu yerdan ayirg'ich ikkiga ayirib yuborgan jarlikning to'rttala qirg'og'i ham ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Jarlik keng, tik qirg'oqlari quyuq o'sgan yovvoyi olxo'ri, o'rmon yong'og'i, na'matak butalari bilan qoplangan, u yer-bu yerda esa yovvoyi olcha yoki yirik yovvoyi nok daraxtlari ko'zga tashlanadi. Suv o'yib ketgan tor va chuqur jarlikning tubi oppoq bo'r yotqiziqlaridan iborat bo'lib, undan buloqdan ko'z ochib, o'tib bo'lmas o'rmon ichidagi ayirg'ichga yashiringan irmoqcha jildirab oqardi. Irmog'cha uzoqqa bormas, yarim chaqirimdan keyin bo'r qatlamlari orasiga singib ketardi.

Jarning narigi tarafidan faqat qora tuproqli hududlarda bo'ladigan o'rmon boshlanar, azamat emanlar va o'rmon yong'og'i butalari orasida yovvoyi nok va olmalar ko'zga tashlanadi. O'rmon ufqni berkitib qo'ygan bu yerlar dashtlar va kengliklarning chegarasiga o'xshardi.

O'rmon va jarlikning o'rtasida yakkam-dukkam butalar o'sgan ochiq yalanglik bor. Jarlikning Senya turgan beli tomondan suv ayirg'ichining ikkala tarafi ko'zga yaqqol tashlanar, urg'ochi bo'ri qay tomondan o'tmasin, Senya uni ko'rgan bo'lardi. Biroq bo'ri bu yerdan o'tarmikan? U yuradigan so'qmoq qayerda ekan-a? U kunning qaysi vaqtida kelib-ketadi? Uyasi qayerda joylashgan? Erkak bo'ri shu yerdamikan? Senya bomba portlashidan hosil bo'lgan o'raning burgan bosib ketgan chekkasida o'tirib, o'ziga shunday savollarni berardi.

U biroz dam oldi, keyin atrofidagi burganlarni o'rib tashladi, o'tlar ustiga yuk xaltasini qo'ydi, qayroqtoshini oldi-da, o'rog'ini

charxlay boshladi. Jaranglab ketgan o'roq ovozi jar ichidagi o'simliklar yutib yubordi. Senya hozir urg'ochi bo'ri uning shov-qinlarini eshitayotganini, sergaklanib qolganini, balki bu zax jarlik ichiga qanday odam kelib qoldi ekan degandek o'zini kuzatayotganini ham, bo'rilar temir ovozi yoqtirmasligini ham bilardi. Biroq u ataylab o'rog'ini charxlayverdi. Keyin o'tlar barq urib o'sgan maydonchani tanlab, asta-sekin, shoshilmay, onda-sonda dam olgancha o't o'ra boshladi. U urg'ochi bo'rida «Inson o't o'ryapti, xolos» degan taassurot qolishiga umid qilgandi.

Senya kun bo'yi urg'ochi bo'riining nigohi ostida bo'ldi, ovqatlandi, o'zini uxlayotganga soldi. Biroq biron marta ham bu atrofda hayvonlar borligining belgisini sezmadi.

Oqshom tushib, Senya ayniqsa hushyor va ehtiyotkor bo'lishi kerak bo'lgan bir paytda jarlikning qarama-qarshi tarafida bir odam ko'rindi. U butalarni aylanib o'tib, Senyaning yoniga keldi. Bu Gurka-Chug'urchuq laqabli Gurey Kuzin edi. Jituki qishlog'idagi diniy bayramdan qaytayotgan Gurka oltmish yoshlarga kirib qolgan chol bo'lib, har yili Troitsa⁷ arafasida o'sha yerga borar va bir necha kun yo'q bo'lib ketardi. Butun boshli idora ahli bir bo'lib ham bu cholni bayramga borishdan qaytara olmasdi. U otini topshirib, bidirlardi:

– Men taqvodor odamman. Billsangiz, Jitukida mening nuroniy yoshdagi qaynanam yashaydi, unga hurmat bajo keltirishim shart. Bundan tashqari, u yerdagi cherkovga ham tashrif buyurishim kerak, chunki bizda cherkov yo'q. Gunohlarimiz esa shunaqangi ko'p-ki! Yaratgan egam, o'zing gunohlarimizni avf et!

Bu gaplarni aytayotib, u atrofidagi otboqarlarga zaharxandali nigoh tashlardi. Bu bilan ularning gunohlari o'zinikidan ancha ko'proqligiga, iltimos qilishsa, gunohlari avf etilishini so'rab kelishiga ishontirmoqchi bo'lardi.

Biroq otboqarlar undan hech narsa so'rashmas, faqat birontasi jahl bilan Gureyga tikilib:

– Bor, bor... Sen araq ichib yurasan, o'rningga esa kimdir ishlashi kerak! Sen qilvirsan, Gurey! – deb o'shqirardi.

⁷ Troitsa – xristianlarning diniy bayrami.

Bunaqangi vaziyatlarda jamoa xo'jaligi raisi ham, brigadir ham Gureyni uddalay olishmasdi, chunki chol bu ishi uchun o'ziga yomonlik qilisholmasligini yaxshi bilardi. Hosil yig'ishtirish avjiga chiqqan paytda nishonlanadigan Uspenye⁸ bayramida esa u yanada uzoqroqqa – yetmish kilometr naridagi Olxovatka qishlog'iga ketar va bir haftadan oldin qaytmasdi.

– Bu qanaqasi? – e'tiroz bildirardi chol. – Nahotki Uspenye bayramiga bormasam-a? Unda nega yashab yuribman? Uspenye bayramida amakivachchalarimni ko'rgani borishim shart!

Aslida esa tili achchiq, xasadgo'y va surbet bu kimsa shunchaki bayram bahona tekin araq ichgani borardi.

– Salom, Senya! Teskari o'ryapsanmi? – bidirladi chol siyrak-kina soqolini silab.

– Nimaydi?

– Kamida o'n besh yuztalikka teng maydonni o'rib tashlabsan. Kimdir jamoa xo'jaligi uchun o't o'radi, kimdir esa o'ziga!

– Nimalar deyapsiz, Gurey Mitrich? Bu o'tni o'zimga o'rayotganim yo'q.

– Aldab, jag'ingni charchatma, Senka. O'r, o'raver. Faqat jig'ildoningga urib ketsang ham birona iblis ko'rmaydi. O'raver, sigiringning suti ko'payadi, Mashkang esa yanada semiradi. Hi-hi!

Senyaning g'azabi qaynab ketgan bo'lsa-da, tishini-tishiga qo'yib o'zini zo'rg'a bosdi va dedi:

– O'tiring, Gurey Mitrich, chekib oling. Men o'zim chekmayman-ku, biroq siz chekasiz... va gapimni eshitasiz.

Senyaning oxirgi so'zlarida shunaqangi ohang paydo bo'ldiki, Gurka sal aqlliyoq bo'lganida, bu yerdan tezroq ketishga shoshilgan bo'lardi.

– Mayli, chekib ola qolay. Jin urgur o'tlarni o'raver... Baribir jamoa xo'jaligi o'pqonga o'xshaydi – uni to'ldirolmaysan... Lekigin-chi, Mashkang juda ketvorgan-da! Ha-a!.. Har tomonlama to'kis o'ziyam! Hi-hi-hi!

⁸ Uspenye – Bibi Maryam sharafiga nishonlanadigan bayram.

Senka shilqimlikni ko'tara olmasdi, shu sababli bu surbet cholning jag'i tagiga o'xshatib bir tushirgisi keldi. Lekin Gurkaning bir adabini berib qo'yish uchun sirli ovozda so'radi:

– Gurey Mitrich! Jarlikdan qanday o'tib keldingiz-a?

– Nima-a? – qo'rquvdan Gureyning soqoli titrab ketdi.

– U yerda sakkizta bo'ri bor-ku! O'z ko'zim bilan ko'rdim. O'zim ham bu yerda joyimdan qanday qo'zg'olishni bilolmay, yurak hovuchlab o'tiribman.

– Men esa j-a-r-d-a-n...

– Yeb qo'yishadi!! – xitob qildi Senya, yuzida qo'rquv aks ettirib. – O'zim ko'rdim. Xudo haqi!

Gurka o'tirgan joyida sapchib tushdi, kutilmaganda shartta sakrab turdi-yu, oyoqlari chalishganicha orqasiga qaray-qaray jarlikdan nariga yugurib ketdi.

– Qari shilqim! – deb qichqirdi Senya uning ortidan. – Yanayam joningga rahmim keldi. Qo'rquq ekanligingni bilaman-ku! Men hech qanaqangi bo'rilarni ko'rganim yo'q. Lekin yana bir marta mening oldimda shilqimlik qilsang, yoshinggayam qarab o'tirmayman!

Gurey keskin to'xtadi, Senya tomonga o'girildi va qichqirdi:

– Jamoa xo'jaligining o'tini o'ryapsan! O'g'irayapsan! Taqvodor odamning ustidan kulasan! Hali senga ko'rsatib qo'yaman!.. Seni topaman hali! Itvachcha ekansan lekin... – chol og'ziga kelgan so'kishni qaytarmay, yo'liga ravona bo'ldi.

Jamoa xo'jaligiga yetib kelgan Gurey uyiga ham kirmay, idoraga o'tib ketdi va «Senka jamoa xo'jaligiga qarashli o'tlarni o'rib, uyiga tashiyotgani» haqida sayray boshladi. Hovlida ham tinmay «intizom» buzilganligi, Senyaga o'xshaganlar jamoa xo'jaligini talon-taroj qilayotgani haqida gapiraverdi. Brigadir «Chug'urchuq shuncha gapni qayerdan oldi ekan?» deb o'ylab qoldi. U o'ylab-o'ylab, bu haqda Aleksey Stepanovichga xabar qildi. U esa ishonmay, Gurkani chaqirtirib, batafsil surishtirdi. Hatto shundan keyin ham Aleksey Stepanovich qariyaning gapiga ishonmadi:

– O'zim borib kelaman.

Bu vaqtda Senya o'raning burchagidagi burganlar orasida yotgan cha ko'zini butalardan uzmay, tunni qarshilashga tayyorlanardi.

Janub tomonda, shundoqqina ufq ustidan toshib chiqayotgan bulutlar qop-qora, dahshatli toqqa o'xshab ketardi. Uzoq-uzoqlarda chaqmoq chaqar, momaqaldiraq ovozi xuddi yer ostidan chiqayotgandek bo'g'i q gumburlardi. «Quruq momaqaldiraq» deb o'yladi Senya. Tez orada zim-ziyo zulmat yer yuzasini qop-qora pardadek o'rab oldi-yu, hech narsani ko'rib bo'lmay qoldi. Chaqmoq yorqinroq chaqnay boshladi, biroq momaqaldiraq ovozi hamon yer ostidan kelayotgandek bo'g'i q eshitilardi. Kuchli shamol boshlandi – burganlar shitirladi, o'rmon shovulladi, atrof shovqin-suronga to'ldi. Senya oyoqlarini yig'ib, g'ujanak bo'lib oldi-da, tikilishda davom etdi.

To'satdan... orqasidan tovush eshitildi: xuddi kimdir qurigan burgan shoxini sindirayotgandek edi. Senya sergaklanib, boshini burib qaradi. Uzoq-uzoqlarda chaqnagan chaqmoq bir lahzaga atrofni yoritdi. Urg'ochi bo'ri Senyadan yigirma qadamcha narida xuddi soyadek turardi. U shamolga qarshi tomondan yaqinlashgan va to Senya o'zini payqaguniga qadar uni kuzatgan, hidlagan, o'rgangan. Bo'rilar faqat miltig'i yo'q odamgagina shunchalik yaqin kelishlari mumkinligini Senya bilardi. U bo'rini soniyaning bir ulushi davomida ko'rishga ulgurdi. Keyin yana atrofni yelkadan tog'dek bosuvchi zim-ziyo zulmat qopladi. Senyaning nazarida, urg'ochi bo'ri uning ortida turgandek tuyulardi. Biroq tez orada u yon tarafida asta harakatlanayotgan mitti olovchalarni ko'rdi: «tanishi» xotirjamgina uyasi tomon ketib borardi. Bu esa omad kelgani edi – bo'ri xavfli hech narsa topmagandi. Biroq u qayerdan butalar orasiga kirib ketganini aniqlashning iloji bo'lmadi.

«Quruq momaqaldiraq» to'xtadi. Shamol tindi. Senya yomg'irpo'shiga o'ranib olgancha, uyquga ketdi.

Ertalab uyg'ongach, u boshini ko'tarmay atrofga nazar soldi. Hech narsa o'zgarmagan, erta saharning kulrangtob yorug'ligida jarlik o'likdek ko'rinar, o'rmon esa qattiq tongoldi uyqusida edi.

Senya kutardi. Erta saharda bo'rilar yugurib, ov qilib yurishadi. «Tanishi» ham ovga chiqishi kerak. Ammo qayerdan, buni aniqlash kerak... Senya uni uzoqdan, jarlikdan yarim kilometrcha masofada

ko'rdi. Urg'ochi bo'ri Senyaga sezdirmay chiqqandi. Senyaning ichida titroq turdi: «Ishonmabdi, demak aldayolmabman».

Tong yer uzra osilib turgan kulrang pardani ko'tardi. Sharq tarafdagi osmon ko'z yetmas ulkan gulxanga o'xshab qoldi, biroq quyosh chiqishiga hali bir soatcha bor edi. Chap tarafdagi butalardan uzoqlasharkan, Senya yo'l-yo'lakay uchragan toshcho'p o'simliklarini yulib, poyabzali tagini artди va irmoqchaga tushdi. Qo'lidagi qozonchani suvga to'ldirib, jarlik tubida birpas turdi. Oyoqosti bo'r qatlamidan iborat, suv o'yib ketgan jarlikning tik qirg'oqlari osilib turgan daraxt ildizlari bilan to'lgan. Senya jarlik etagiga qaradi. To'satdan unda bir fikr paydo bo'ldi. U yerga egilib, atrofni ko'zdan kechira boshladi. Bo'r qatlami uzra dog'larni ko'rdi: bu bo'ri tirnoqlarining izi edi. Bo'rilar boshqa hayvonlar singari tirnoqlarini ichkariga tortib olishmaydi. Demak, urg'ochi bo'ri jarlikning tik devorlari panasidan irmoq bo'ylab yurib, uyasidan uzoqlardagi dashtlarga borar ekan. Agar u inidan chiqqan bo'lsa, demak qaytishi ham kerak. Senya shunday xayol bilan tepaga ko'tarilishga shoshildi, chalg'isini olib, yana irmoq tomonga qaray-qaray o't o'ra boshladi.

Quyosh chiqishi oldidan u orqa tarafida ketayotgan «tanishi»ni ilg'ab qoldi. Urg'ochi bo'ri yugurmas, balki jarlik yoqalab sekingina butazor tomon yurib borar va chalg'i ovozi eshitmayotgandek tuyulardi. «Odam o't o'ryapti, tamom-vassalom, – fikran unga uqtirdi Senya. – Tushunyapsanmi, o't o'ryapti».

Oradan bir soatcha o'tar-o'tmas erkak bo'ri paydo bo'ldi. U ehtiyotkorlikni ham unutib, katta-katta qadam tashlab yugurganicha yonbag'irni kesib o'tdi va o'qdek uchib butazor ichiga kirib ketdi. «Demak, bo'ri uyasi buloqning yaqinida ekan», degan xulosaga keldi Senya.

U kun bo'yi a'lo kayfiyatda yurdi. O't o'rdi, ovqat pishirdi, yangi o'rigan o't ustiga yotib uxladi. Keyin chalg'ini dastasidan chiqarib qo'ydi-da, yog'och dasta va quruq qo'llari yordamida kecha o'rgan o'tlarini g'aram qilib to'pladi. Kun o'rtasida bo'rilar ikkovlashib dalalar tomon ketishdi va kechqurun, qosh qorayganidan so'nggina qaytishdi. Urg'ochi bo'ri oldinda, sherigi esa uning ortidan o'zan

bo'ylab yurib kelishardi. Quyosh charaqlagan kunlarda bo'rilar kamdan kam hollarda uyasida bo'lishadi, bo'richalar o'zlari uyasida yotaverishadi. Birona ham jonivor bolalarini urg'ochi bo'ridek o'z vaqtida ovqatlantirmaydi. U faqat ov qilish uchungina uyasini tashlab ketadi yoki bolalaridan sal uzoqroqda dam olib yotadi. Bu vaqtda bo'rilarining ikkovi ham begona joylarda sandiroqlab yurishmaydi, chunki ular oila bo'lib, «uyi»da yashashadi, uyasidan besh-yetti kilometrdan nari uzoqlashmaydi.

– Demak, uyga kelibmiz-da, – dedi Senya ovoz chiqarib va g'aram ustiga o'tirdi.

Tushunarli, endi kunduzi «tanishi»ning uyiga kirishi mumkin. U narsalarini yig'ishtirib, uyiga jo'nadi.

Tez orada bu yerga daraxt ildizlari va o'nqir-cho'nqirliklar uzra sakray-sakray «Moskvich» avtomashinasi keldi. «Moskvich»dan oldin Aleksey Stepanovich, uning ortidan Gurka-Chug'urchuq sakrab tushdi. Shundan keyingina tekshiruv komissiyasining a'zolari – soqoldor Agap Yegorovich va brigada boshlig'i Korney Petrovich ko'rindi. Chug'urchuq yerga tushgani hamon bidirlab ketdi:

– Men bayramdan qaytib kelayotgandim. Tinchgina kelayotgandim, Senya bo'lsa menga «chekib ol» dedi. Tushunyapsanmi, men chekyapman-u, hamma yoqqa razm soldim va ichimda «Jamo'a xo'jaligining mulkini o'maryapti...» deb o'yladim. Mayli, tun o'tsin raisning oldiga boraman, dedim... Ketayotsam, ular qarshimdan kelyapti-i! Sakkizta bo'ri! Sakkizta-ya! Oh! Yo'q, ulardan qo'rqmayman, dedim! Baribir ortimga qaytmayman, raisning oldiga yetib boraman, dedim. Men hech narsadan qo'rqmayman. Tushunyapsanmi, haqiqatni aniqlash uchun men hamma narsaga tayyorman.

– Obbo, judayam quloqni qoqib qo'lga berding-da! – betakalluflik bilan cholning gapini bo'ldi Aleksey Stepanovich. – Bu gaplaringni yuz marta aytding! Men esa pichan qayerdan olinganini ko'rmayapman. Umuman olganda, qurimagan o'tlarning yarmi bugun o'rilgan.

U qorong'i tushib qolganiga qaramay, egilib, o't o'rilgan maydonni boshdan oyoq tekshirib chiqdi.

– Demak, boshqa qayerdandir o‘rgan bo‘lsa kerak. O‘sha yoqdan uyiga tashigan. Tashiyotganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Xudo haqi, tashiyapti.

– Stepanich, har ehtimolga qarshi dalolatnoma tuzsakmikan-a? – do‘rilladi Agap Yegorovich. – Masalani keyin hal qilaveramiz. Ha-a... Semyon esini yeb qo‘ydimikan-a?... Bunaqaga o‘xshamaydi. Biroq o‘t o‘rilgani aniq! – u ham o‘t o‘rilgan maydonchada yurar, yerga egilib, pichanni paypaslar va derdi. – Bunisi – kecha, bulari esa yaqindagina o‘rilgan... Muhimi, o‘rilgan.

Korney Petrovich miq etmas, chuqur o‘yga botgandi.

– Hech qanaqangi dalolatnoma tuzmaymiz, – xulosa qildi Aleksey Stepanich.

Bu vaqtda hech narsadan xabari yo‘q Senya uxlagani yotar va Mashaga sekingina uqtirardi:

– Kunduzi ularnikiga «mehmon»ga kiraman. «Tanishim» judayam gavdali, xuddi buzoqdek keladi, o‘ziyam!.. U juda ayyor, lekin uni aldashni uddaladim. Endi bo‘rilar uyasidan qachon ketishlari va qaytishlarini, qaysi so‘qmoqdan yurishlarini bilaman.

U qotib uxlab qoldi. Uning tinch uyqusini yarim tunda taqilagan deraza tovushi buzdi.

– Kim u? – so‘radi Senya.

– Men Konstantinman.

– Uyqung kelmayaptimi?

– Eshikni och, muhim gap bor.

Senya ko‘chaga chiqdi.

– Og‘ayni, yaxshi ishlar bo‘lmayapti-da! – dedi Konstantin uni ko‘rishi bilan.

– Nima gap?

– Tushunyapsanmi, yaxshi ish emas... Men idoraga borgandim. Sening ustingdan dalolatnoma tuzishmoqchi... Gurka-Chug‘urchuq «Semyon Troshinning ustidan dalolatnoma tuzish kerak» deb shovqin solyapti..

– Dalolatnoma? Nima uchun? Brigadirning o‘zi... Aleksey Stepanich nima deyapti?

– U faqat: «Men o‘z fikrimni aytdim», deyapti.

– Nima haqidagi «fikri»ni?
– Kim bilsin, – mavhum javob qaytardi Konstantin. – Sen o't o'rganmiding?

– O'rgandim.
– Uyingga olib keldingmi?
– Qanday qilib jamoa xo'jaligining pichanini uyimga olib kelaman?

– Yaxshi... Demak, Gurka-Chug'urchuq to'qib chiqaribdi-da... Hali pichan o'rish boshlanmasidan turib, nega ruxsat berilmagan joyda o't o'rib yuribsan?

Senya nima uchun o't o'rishga majbur bo'lgani haqida batafsil so'zlab berdi.

– Nahotki o'tni o'ziga o'rgan, deb o'ylashgan bo'lsa? Men jamoa xo'jaligining bitta cho'pini ham olmayman! O'ldirsang ham olmayman! Nega bu ilgariroq xayolimga kelmadi-ya? Yaxshisi yer chopganim ma'qulroq edi... – bir zum o'ylanib turgach, u qo'shib qo'ydi. – Yo'q, yer chopsam bo'lmasdi. U yerda hech kim hech qachon yer chopmagan.

Konstantin xayolga botib, tayoqchasiga chertdi-da, keyin dedi:

– Mayli, endi uxlab, damingni ol. Tunda o'yla, ertalab turib so'yla, deyishadi...

Mashani xavotirga solmaslik uchun Senya unga hech nima demadi-da, sekingina joyiga yotdi.

...Tungi soat birlarda Aleksey Stepanovich o'zining uyida ko'ylakchan holda o'tirardi. Ertalab soat oltida ishga ketgan rais hozirgina uyiga qaytib, sut ichayotgandi. Oila a'zolari uxlab yotishibdi. U bir qo'lida gazetani ushlab, uni tezgina ko'zdan kechirar, ikkinchi qo'lga sutli idishni ushlab olgandi. To'satdan u ochiq deraza orqali kimdir hovlini o'rab turgan taxta to'siqqa urilganini, keyin ehtiyotkorlik bilan asta odimlaganicha bog' eshik tomon yurganini eshitdi. Eshikcha sekingina g'iyqilladi. Kelgan odam allaqachon boqqa kirib, uy devori yoqalab asta yurib kelardi. Bunaqasi sirayam bo'lmagandi, shuning uchun ham Aleksey Stepanovichning xayoliga yomon fikrlar keldi va chiroqni o'chirib, derazalar orasidagi devor yonida turganicha, tashqariga quloq soldi. Uy ichi jimjit

edi. Bog' ichi ham jimjit. Shu tariqa bir necha daqiqa o'tdi. Keyin Aleksey Stepanovich kelgan odam asta qadam tashlagancha yana bog' eshik tomon ketayotganini eshitdi.

«Kimdir shunchaki gap poylayapti, shekilli», deb o'yladi uy egasi va derazadan boshini chiqarib, chaqirdi:

– Kim u?

– Aleksey Stepanich, uxlamayotganmidingiz? Men Konstantinman.

– Kostya, mening uyimga kelibsan-ku... Adashib qoldingmi?

– Yo'q. Men o'zimning qishlog'imda adashmayman. Faqat uxlamayotgan bo'lsangiz taqillataman, aks holda indamay keta qolaman, deb o'ylovdim.

– Unday bo'lsa o'rindiqa o'tira tur. Men hozir chiqaman.

Aleksey Stepanovich uyidan chiqqanida, Kostya so'radi:

– O'qiyotganmidingiz? Uyingiz jimjit.

– Gazeta o'qiyotgandim.

– Senya menga Ostrovskiyning «Po'lat qanday toblandi» degan kitobini keltirib berdi. Eh, Aleksey Stepanich, u judayam zo'r kitob ekan! Qanday odamlar bor-a! – U biroz o'ylab turib, qo'shib qo'ydi. – Ajoyib kitob! Bizdaqalar barmoqlari yordamida o'qishi uchun Brayl alifbosida yozilgan.

«Nega biron marta ham unga kitob olib kelmaganman-a? Albatta, keltirib berishim kerak» deb o'yladi Aleksey Stepanovich.

– Uyqungizni buzdim. Aslida ish yuzasidan keluvdim, – dedi Kostya.

– Garchi tunda kelgan bo'lsang, demak muhim ish ekan.

– Tunda kelganim uchun uzr. Ishim haqiqatan ham muhim. Men Senya haqida gaplashgani keldim.

– Unga nima bo'libdi? – deb so'radi Aleksey Stepanovich o'smoqchilab.

Konstantin Senyadan eshitganlarini Aleksey Stepanovichga ro'yirost aytib berdi.

– Tushunyapsizmi, Aleksey Stepanich, – u o'zi haqida yomon xayolga borishlari mumkinligini tasavvur ham qilmagan. U bo'rilarning izini topibdi. Axir u yerda Senya bo'rilar doim ko'radigan

qanday ish bilan shug'ullanishi mumkin edi? Yer chopib bo'lmaydi – u yerda hech kim hech qachon yer chopmagan. O't o'rsa bo'ladi, chunki o'tloqdagi o'tlar o'rib bo'lingan. Gurka-Chug'urchuqqa ishonavermang. Chug'urchuq tug'ilganidan beri yolg'on gapiradigan, burnidan narini ko'rmaydigan odam. Baxtiqaro Chug'urchuqning ko'zi ochiq bo'lsa ham, aslida ko'zi ko'r, har kimga hasad qilib o'lib ketadi.

Konstantinning bir maromda, xotirjam so'zlashi sokin tunda ishonarli yangrardi. Kostyaning yonida o'tirgan Aleksey Stepanovich garchi uch yildan beri jamoa xo'jaligini boshqarayotgan bo'lsa-da, aslida hech kimning ko'ngliga nazar tashlamaganini tushundi. Mana, Konstantinning ham ko'ngliga qaramagan, aslida shunday qilishi kerak edi.

– Kostya, xavotirlanma, men Gurkaning gaplariga ishonganim yo'q, – dedi u oz muddat sukut saqlaganidan so'ng, keyin qo'lini Kostyaning yelkasiga qo'yib, dedi. – Kiyim tozalovchi cho'pdastalar haqida esa o'ylab ko'raman. Faqat bularning barini tashkillashtirish lozim. Qishga xomashyo tayyorlab qo'yish kerak bo'ladi. Men albatta o'ylab ko'raman.

– Rahmat, Stepanich! – hayajonlanib dedi Konstantin. – Rostini aytsam, sizni zavoddan kelgan, o'n besh yildan beri qishloq hayotidan uzilib qolgan ishchi odam deb o'ylardim. Mexanikani bilasiz, agrotexnikani o'rgangansiz. Lekin... jamoa xo'jaligidagi ishchilarni tushunasizmi? Qarang-a, qanchalar kalta o'ylagan ekanman. Har holda, adashganim yaxshiroq bo'libdi.

– Men ko'nikyapman, Konstantin. Tushunishga oz-ozdan ko'nikyapman, – dedi Aleksey Stepanovich qo'lini hamsuhbatining yelkasidan uzmay. – Senyani ham tushuna boshlayapman. Kimdir bog'ni yoqtiradi, boshqasi – asalarilarni, Senyaga esa ov, dalalar, tabiat yoqadi. Bundan tashqari, u yaxshi ishchi ham.

Tinchlangan Konstantin uyiga ketdi, lekin to uxlagunicha yelkasida rais qo'lining taftini his qilib turdi.

Ertalab Senyaning uyiga xabarchi kelib, uni idoraga chaqirishayotganini yetkazdi. Senya xo'mrayib idoraga kirib keldi. Uning ichida alam qaynardi.

– O‘tir, Semyon Stepanovich! – taklif qildi rais. – Biz otamizning ismi bo‘yicha adashmiz.

Senya o‘tirib, raisning yuziga qarab qo‘ydi. U Senyaning qovog‘i osilganini ko‘rib, buning sababini tushundi. Yigitning nigohida shu paytgacha sezilmagan yangi sifat – matonat va himoyalanishga tayyorlik ifodasi paydo bo‘lgandi.

– Xo‘sh, bo‘rilarning izini topdingmi? – so‘radi Aleksey Stepanovich.

– Topdim.

– Endi nima qilmoqchisan?

Senya qalpog‘ini ko‘ksiga bosdi-da, afsuslangan ohangda dedi:

– Men pichanni uyimga olib ketganim yo‘q! Uni o‘zim uchun o‘rmadim ham...

U gapini tugatmay, deraza tomonga o‘girilib oldi.

Aleksey Stepanovich stol yonidan turdi. Hech kim kirib qolmasligi uchun eshik ilmog‘ini ildi va indamay, bir necha marta xonada u yoqdan bu yoqqa yurdi.

– Bilasanmi, nima, Semyon Stepanovich? – nihoyat gap boshladi u. – Bugun ham bo‘rilarning yoniga boraqol... Ularning izini topdingmi, demak, ishni oxiriga yetkazish kerak. Buning uchun necha kun kerak bo‘ladi?

Senya katta-katta ochilgan hayrat to‘la ko‘zlarini ko‘tarib raisga qaradi-da, ikkilanibroq dedi:

– Pichan nima bo‘ladi?

– Pichanni qo‘yaver. Men tushunaman, Semyon Stepanovich. Sen bo‘rilarni o‘ldirsang, bas.

– Bilmadim. Balki o‘ldirarman ham.

– Biron marta bo‘ri o‘ldirganmisan?

– Yo‘q. Jitukida yashovchi keksa ovchilardan eshitishimcha, ularni...

– O‘ldir.

– Bugun borish mumkin emas: tayyorlanishim, sochma o‘q yasashim kerak. Buning ustiga kun ochiq, quyoshli. Bunaqangi vaqtlarda ular uyasidan ketib qolishadi.

Senya past, sokin ovozda soʻzlar, bironta ham ortiqcha soʻz ishlatmasdi. Aleksey Stepanovich esa boʻrilar uyasida boʻlmagan paytda, yigit ularni qanday oʻldirishi mumkinligini tasavvur qilolmasdi. Ehtimol, rais uchun buning ahamiyati yoʻqdir. Muhimi, u insonni tushundi.

– Chekmaysanmi? – soʻradi u tamaki uzatib.

– Yoʻq.

– Toʻgʻri qilasan. Shunisi maʼqul. Endi esa Tikjarda ekanligingda Gurey Kuzin oldingga kelgani haqida soʻzlab ber.

Senya bor gapni yashirmay aytib berdi. Aleksey Stepanovich maʼqullagansimon jilmaydi. Senyaning koʻngli koʻtarilib ketdi.

Kimdir eshikni taqillatdi.

– Boʻlmasa, Semyon Stepanovich, harakatingni qil, – dedi Aleksey Stepanovich. – Boʻrilarni oʻldirish jamoa xoʻjaligi uchun ulkan foyda keltiradi. Bor umidim sendan... Ha-ya, balki senga hurkitib beruvchilar kerakdir?

– U joylar odam oʻtib boʻlmas yerlar, hurkituvchilar qiynali-shadi.

– Unda, mayli. Bilganingni qilaver.

Yana eshik taqilladi. Aleksey Stepanovich ilmoqni tushirdi va Senya ostona yonida Chugʻurchuq bilan yuzma-yuz keldi. Cholning qisilgan koʻzlarida zaxarhanda aks etar, mayda ajinlar goʻyo uning betartib va beparvo hayotidan iz qoldirgandek yuzlarini toʻldirgandi. Gurkaning kayfiyati zoʻr ekanligi aniq sezilib turardi. Senya chiqib ketdi.

– Chaqirtirganmidingiz? – baland va mamnun ovozda soʻradi Gurey.

– Chaqirtirgandik, – xoʻmrayib dedi Aleksey Stepanovich.

– Mana, soatdek tez «orqaga» qaytdim.

– «Orqaga» qaytibsan-da? – kesatib qaytardi rais.

– Orqaga, – dedi Gurey ovozini sal pasaytirib.

– Teskari soat, – jahl bilan dedi Aleksey Stepanovich.

Gurey sarosimaga tushib, xuddi tikan ustida turgandek tipirchilab qoldi, keyin qaytardi:

– Soat. Aniq soat.

– Yo‘q, aniq emas. Sen teskari soatsan: millaring boshqa to-monga aylanadi.

Qo‘shni xonadan bosiq kulgi ovozi eshitildi.

Gurey hech narsani tushunmadi. Uning darrov kayfiyati tushdi, turgan joyida oyoqlarini keng yozib, boshini osiltirdi, ko‘zlarini sekinroq pirpiratib, xuddi uyqusi kelgan tovuq ko‘ziga parda tort-gani kabi qovoqlarini yopib oldi.

– Xo‘-o‘sh, anchadan beri aldaysanmi? – shartta so‘radi rais.

Gurey indamadi.

– «Orqaga» unutibsan-da? Eh, seni qara-yu, Gurey! Bunaqangi yolg‘on uchun senga qanday jazo o‘ylab topsam ekan-a?.. Tuh-mat uchun belgilangan modda bo‘yicha jazolay olmayman – foy-dasi yo‘q. Bilasanmi nima: hozir arava olasan-da, Tikjarga borasan va o‘rilgan pichanning barini jamoa xo‘jaligining hovlisiga tashib kelasan. Nizomga ko‘ra, har o‘ninchi g‘aramni Semyon Stepa-novichning uyiga eltib berasan. Bu yolg‘onlaring uchun senga jazo bo‘ladi. Odamlar ham sening kimligingni bilib olishadi, o‘zing ham esingdan chiqarmaysan.

– Qanaqasiga? Tikjarga-ya? B-o‘-r-i-lar yonigami?

– Kimning yoniga borishingni men bilmayman. Pichanni olib kelishing shart, tushundingmi?! O‘n foizini Semyon Stepanovichga eltib berasan, uqdingmi?

– Semyon Stepanovich deganingiz kim bo‘ldi?

– Xotirang «orqaga» ketib qolyaptimi? Senya ovchini aytyap-man! U Senya emas, balki Semyon Stepanovich Troshin.

Gurey tirsagi bilan biqinini qashib qo‘ydi-da, ming‘irladi:

– Men taqvodor odamman. Agar gunoh qilgan bo‘lsam, yaxshisi cherkovga borib, tavba qilganim ma‘qul. Ming marta gunohimni yuvishga tayyorman. Yaxshisi, men pichan tashishga emas, cherkov-ga bora qolay. Pichanni uning o‘zi tashib olaversin.

– Hechqisi yo‘q, oldin pichanni tashiysan-da, keyin tavba qilgani boraverasan. Aytgancha, mening ham gunohimni so‘rab qo‘ygini: bu tuhmating uchun seni jazolashim kerak edi-yu, lekin jazolamay, qo-nunga qarshi ish qilyapman. Xo‘sh, so‘rab qo‘yasanmi?

Gurey xo'rsindi-da, oyog'ini sudrab bosganicha xonadan chiqib ketdi.

Senya kun bo'yi qora terga botib ishladi, kechqurun o'lardek charchagan, biroq mamnun holda uyga qaytdi. Uyda Masha yo'q – kartoshka chopig'iga ketgandi. Senya boshmoqlarini tozalab, oyoqlarini yuvdi, keyin ko'ylagini yechib, beligacha yuvindi. U sochiq bilan artinib, ko'ylakchan holda eng yaxshi qo'rg'oshinlarini izlab, g'aladonni kovlayotgan paytda Masha keldi. U darrov o'choqqa olov yoqib, kichkina qozonchada kartoshka qaynatishga qo'ydi, keyin Senyaning yoniga kelib, asta quchdi. Keyin Senyaning ko'ylagidagi mitti teshikchaga ko'zi tushdi-da, chiroyli qilib tikib qo'ydi. Bugun u o'zgacha latofatli, biroq negadir o'ta yuvosh edi. Senya buni Masha sochlarini qanday silashi, tabassumi, ehtiyotkorlik bilan zimdan nazar tashlab qo'yayotganidan payqadi. U qo'rg'oshin taxtachalarni qirqib, sochma o'q tayyorlarkan, oxiri chidolmay, dedi:

– Sen bugun judayam boshqachasan...

– «Boshqacha» deganing qanaqa?

– Qanaqa ekanligingni o'zim ham aytib berolmayman.

Masha kutilmaganda Senyaning yoniga – o'rindiqqa o'tirdi-da, yuzini uning yalang'och yelkasiga tirab dedi:

– Balki bo'ri ovlashga bormassan-a?.. Senya, men qo'rqyapman. Axir bir o'zingsan-ku!

– Nega endi bormas ekanman? – ajablandi Senya. – Aleksey Stepanichning o'zi bo'rilarni yo'q qilishga buyruq berdi-ku!

Va yana Masha taslim bo'ldi.

Senya kechqurun qirqqan qo'rg'oshin bo'laklarini yirik-yirik qilib dumaloqlab oldi. Ajoyib sochma o'q hosil bo'ldi. Sochma o'qlarga kartoshka uni sepib, ajralib ketmasligi uchun tepasidan mum quydi, keyin Tikjar tomon ketdi. U boshmoqlari o'rniga birinchi safardagi kabi etigini kiydi va qo'njiga xanjarni tiqib qo'ydi. Yuk xaltasida bitta bo'lka non, yelkasida yengil paxtalik bor edi. Miltiq va belkurakdan boshqa narsa olmagan Senya o'zini ortiqcha yuk bilan qiynamay, yengil yurib borardi.

Endi uning miltig'i bor – bo'rilar uni uzoqdan payqashlari mumkin. Shuning uchun ham manziliga yetishidan ancha oldinroq jarliklarni aylanib o'tib, shamolga qarshi yurdi. Shunday qilish kerakki, shamol biron marta ham miltiq hidini bo'ri uyasiga olib bormasin. Bundan tashqari, bo'rilar Senyani ko'rishlari ham juda muhim edi. Aks holda ov barbod bo'ladi.

Shuncha ehtiyotkorlik choralariga qaramay, o'sha kuni u bo'rilarni uchratmadi.

Qosh qorayganida, u ehtiyotkorlik bilan – endi shamol yo'nalishida, – yarim kilometrcha ortga qaytdi va o'tgan yilgi g'aramdan sochilgan somon qoldiqlari ustida tunadi. Olov yoqish mumkin emasdi. Senya mo'l-ko'l tuz sepilgan nondan yedi va pichan ustiga cho'zildi. Uning uyqusi kelmas, faqat urg'ochi bo'ri haqida o'ylardi. Urg'ochi bo'ri Senyani ko'rdimi yoki yo'qmi, lekin sergak tortib qolgani aniq. Senya «tanishi» o'zini yuzidan bilishiga, yurishidan yoki yo'talidan tanishiga, agar uning yonida miltiq borligini payqab qolsa, darhol bo'richalarini boshqa yoqqa olib ketib qolishiga shubha qilmasdi. Bo'ri insonga ishonishi mumkin emas. Senya urg'ochi bo'rini yaralasa-ku, lekin o'ldira olmasa, u bolalarini himoya qilish uchun yigitni xuddi qo'zichoqdek bo'g'izlab tashlashini yaxshi bilardi. Uyasi oldida yaralangan urg'ochi bo'ri hatto mohir bo'ri ovlovchilar uchun ham dahshatli bo'ladi. Senya ko'zi uyquga ketayotganida shular haqida o'ylardi. «Ikki kishi bo'lganimizda edi», deb o'yladi u. Biroq qishloqda undan boshqa ovchi yo'q edi.

Ikkinchi kuni ertalab u Tikjardan bir kilometrcha narida ketayotgan bo'rilarni ko'rdi. Demak, bo'rilar kunduz kuni ketishgan ekan-da... Senya ularning ketishganini payqamaganmi, demak ular irmoq yoqalab yurishgan. Shunda Senya ish boshlashga qaror qildi. Quyosh chiqishi oldidan u suv o'yib ketgan joydagi burganlar panasidan emaklab jarlik tubiga tushdi va irmoq devorlari yonidagi quyug butazorlar orasida pistirmada o'tirdi.

Qorong'i tushdi. Tun kirdi. Jarlik ichi sovuq, xira tuman pardasiga to'ldi. Qorong'ida tumanning o'zi ko'rinmas, xilvat jarlik

ichidagi odamning yelkasidan og'ir namlik pastga bosayotgandek tuyulardi.

Miltiq sopi nam tortib, silliq bo'lib qoldi. Senya hatto arzimashitirlash ham xalaqit bermasligi uchun ortiqcha harakat qilmas va miltig'ini artishga urinmasdi. Lekin bu judayam qiyin edi: tez orada suyaklari qotib, qo'ndiqni tinimsiz bosib o'tiraverganidan barmoqlari uvushib, o'ziga bo'ysunmay qolardi. U barmoqlarini tez-tez qimirlatishga harakat qilardi-yu, lekin shu arzimagan harakat ham xavfli edi: bo'rilar judayam sezgir bo'lishadi! Qisqa iyun tuni bu safar uzoq, og'ir, nam bo'lib tuyuldi! Yarim tun kirib qoldi, Senya esa hamon hech narsani ko'rmas va eshitmasdi. Atrofda tiq etgan tovush, arzimagan shovqin ham eshitilmasdi.

Biroq to'satdan... U titrab ketdi! Suyak qirsilladi. Buni Senya aniq-tiniq eshitdi. Yigitning orqa tarafida suyak qirsilladi. Keyin u xuddi ayb qilib qo'rganida jazolanishini kutib, oyoqchalarini tepaga ko'tarib olgan kuchukcha yoki ovqatlanayotganida bir-birini tishlaganlarida onasi adabini bergan bo'richalarning ingillashiga o'xshab ketadigan eshitilar-eshitilmas tovushni eshitdi. Tushunarli, bo'rilar Senyaning orqa tarafida – buloq bo'yidagi butazorlarning ichida yashaydi. Ular Senya o'tirgan irmoqdan emas, balki boshqa so'qmoqdan kirishgandi. «Bu ingillash ovozlari ona bo'ri bo'richalarni boshqa joyga tashiyotganidan darak emasmikan?» deb o'yladi Senya.

Shu zahoti nazarida o'zi judayam ahmoqona vaziyatda qolgandek tuyuldi. Mana, u o'tiribdi, bo'rilar esa uning o'tirganini bilishadi. Biroq nima qilsa ekan-a? U o'tirganida, shamol bo'rilar uyasidan unga qarab esayotgandi, keyin esa bo'rilarning sezgilarini to'mtoqlashtiradigan tuman tushdi. So'ngra Senya miltiq bilan birga shilta ho'l bo'lib ketdi, bu ham uning uchun foyda, chunki hidlarni judayam pasaytirib yuboradi. Biroq urg'ochi bo'ri Senyaning oldiga kelgan, u esa tuman orasida payqamagan bo'lishi ham mumkin. Yo'q. Bunday bo'lishi aslo mumkin emas: jarlikning bo'r qoplagan tubi oppoq, unda hatto tuman paytida ham o'n besh-yigirma qadam naridagi bo'rini payqash mumkin. U atrofda butalarga tikilib qaradi-da, ichida «Yo'q, bunday bo'lmagan» deb qo'ydi. Shunga

qaramay, hamma narsa xuddi jarlikni to'ldirgan tuman kabi mavhum edi.

Tonggi namlikdan tanasi uvushib qolgan yigit shunaqangi xayollar qurshovida o'tirganida, to'satdan shovqinni eshitdi. Butalar orasidan bo'rilar o'tib borishardi. Aftidan, bo'rilarning o'z so'qmog'i bor edi va ular tikanli butalar orasidan o'tmay, o'z yo'lidan yurishar, onda-sonda biqinlari tegib ketgan shox-shabbalar yengil shitirlardi. Keyin atrof jimib qoldi.

Senya ehtiyotkorlik bilan yuzini butalar tomon o'girdi. Endi u tepaga – jarlikning chekkasiga tikilar, nazarida o'sha yerdan bo'rilar o'tishi kerakdek tuyulardi. Bu yerda kengligi yarim metrcha keladigan, suv o'yib ketganidan hosil bo'lgan jarlik tik tepaga o'rlab ketgandi. Aftidan, bu jarlik tubida o'simliklar o'smas, butalar esa chirmashib ketgan shox-shabbalari bilan uning ustini yopib tushardi.

Senya adashmadi: o'sha yerdan ikkita bo'ri chiqib keldi. Ular turli tomonlarga o'girilib, atrofni kuzatgancha birpas o'tirishdi, keyin sekin, xotirjam yo'lga tushishdi. Urg'ochi bo'ri oldinda, erkagi esa orqada borardi. Ular Senyadan ikki yuz metrcha narida edilar. U agar bo'rilar kechqurun yoki tunda butalar orasiga kirishgan bo'lsa, miltiqning hidini sezmagani bo'lishlari kerak, degan qarorga keldi. U o'zini yupatish uchun boshqa narsa o'ylab topolmadi, biroq bu safar ham umidini uzmad.

Senya turgan joyida sakrab, karaxt bo'lib qolgan oyoqlarining chigilini bir amallab yozarkan, tirsaklari bilan biqinlarini tez-tez ishqaladi. Keyin jarlik tepasidagi portlashdan qolgan o'ra va pichan g'arami yoniga chiqdi. Kutilmagan holatdan Senya qotib qoldi: bu yerda mutlaqo tuman yo'q, uzoq-uzoqlargacha bo'lgan joylar ko'zga aniq ko'rinib turardi.

– Qanchalar ahmoqman! – Senya qalpog'ini yerga otdi. – Ona bo'ri tumanli jar ichidan yurmasligiga nega aqlim yetmadi-ya!

To'g'ri, biron narsa sezgisiga xalaqit bergan paytda bo'ri faqat o'tkir ko'zlariga ishonadi. O'sha tunda ham shunday bo'lgan, bo'rilar boshqa so'qmoqdan tepaga chiqib-tushishgandi. Senya yana past ovozda o'zini koyiy boshladi:

– Eh, Senka, Senka! Aqling kirishi uchun yana qancha yashashing kerak-a? Bu ketishda sendan qanday ovchi chiqadi?

Biroq qanchalik alam qilmasin, endi Senya urg'ochi bo'rining o'zidan ko'ra ayyorroq, ehtiyotkorrok, tajribaliroq ekanligini tan oldi va unga hurmati oshdi.

– Eh, tanish, tan berdim senga! – dedi u sal tinchlanganidan so'ng past ovozda.

Quyosh chiqdi. To'rg'aylar chuldirab qolishdi. Kechikkan quyon kunduzi uxlab olish uchun sakrab-sakrab pana joyga shoshildi. U kun bo'yi pana joyda yotadi, lekin uxlayotganida ham atrofini ko'rib turish uchun ko'zini yummaydi, qulog'ini boshiga shunaqangi qisib oladiki, quloq teshiklari ship etgan tovushni eshitishga tayyor turadi.

«Eh, g'ilayvoy, bunchayam dono quyon ekansan-a! – deb o'yladi Senya. – Bo'ri uyasining oldida tirik qolibsən. To'g'ri, qishgacha yeta olmaysan, ko'p o'tmay ular seni yeb qo'yishadi. Axir bo'rilar yashaydigan joyda quyonlar bo'lmasligini bilmaysanmi? Sen esa hamon tiriksan. Demak, sen mendan-da ayyorroqsan».

Senya xo'rsindi-da, g'aram ustiga o'tirdi. Uzoqdan, o'rmonning chap tomonidan ketayotgan bo'rilar ko'zi tushdi. Ular yaqin orada ishlayotgan traktor borligiga ham, uning tarillashiga ham e'tibor bermay lo'killagancha chopib ketishardi.

Tez orada Senyani uyqu elitdi. U g'aram ustiga cho'zildi-da, o'qi bo'shatilgan miltig'ini ko'ksiga bosgancha qotib uxlab qoldi.

U uzoq uxlamadi. Toza havoda odam tez dam oladi. Senya taxminan nonushta vaqtiga yaqin uyqudan uyg'ondi. O'rnidan turdi, ovqatlandi, miltig'ini artди va ayni paytda bo'ri uyasi joylashgan deb taxmin qilayotgan joyga tikildi.

Uning yuziga shamol urildi. Bu yaxshi. Endi nima qilsa ekan-a? Bo'rilar oilasini tinch yashashda qoldirib, jamoa xo'jaligida sharmanda bo'lib yursinmi? Yo'q, u jarlikdan keta olmaydi. Keyin-chi? Bu yerda yana qancha kutadi: bir kunmi, ikki yoki uch kunmi? «Tanishi uni sezib qolmasligiga ishonchi komil emasdi. Uyani kovlasinmi? Unda faqat bo'richalarni tutish mumkin, xolos. Biroq keyin urg'ochi bo'ri atrofdagi hammadan shafqatsiz qasos olishga tu-

shadi. Bolalari uchun o'ch olgan urg'ochi bo'ri bir tunda o'ttitztacha qo'yni bo'g'izlab ketgan holatlar ham uchragan. Yo'q, bunday qilish mumkin emas. Senya o'zi bilan o'zi maslahatlashgancha, o'tgan kunlar davomidagi kuzatuvlarini taroziga solardi.

Bir qarorga kelgan zahoti, u darrov o'rnidan turdi, yuk xaltasini g'aram ustida qoldirib, o'qlarini tekshirdi va jarlikning boshqa tomoniga – suv o'yib ketgan yashirin jarlik tomonga qarab ketdi. Tez orada u yerga yetib bordi. Tezgina sinchiklab tekshirgach, bu yerda so'qmoq borligini aniqladi.

Senya paxtaligining hamma tugmalarini taqib oldi. Garchi isib ketayotgan bo'lsa-da, u paxtaligini g'aram ustida qoldirolmasdi, chunki u ko'zlagan ishini amalga oshirishi uchun kerak edi. Bo'rilar so'qmog'idan yurish juda qiyin bo'lib, tikanli butalarning novdalari va shox-shabbalar shunaqangi chirmashib ketgandiki, bu yerdan yo'lni faqat bolta yordamida ochib o'tish mumkin edi. Senya suv o'yib ketgan tor jarlikdan to'rt oyoqlab emaklab ketdi. Ba'zi joylardan sudralib o'tardi. Yovvoyi olxo'ri va na'matak tikanlari yuzlari va qo'llarini tirnab tashladi, shunga qaramay u tepaga chiqishda davom etdi. Tez orada Senya buloqning sho'x jildirashini eshitdi. U dam olish uchun to'xtadi. Atrofga quloq soldi. To'satdan paxtaligining yengidagi semiz go'sht pashshani ko'rdi. Uning eti jimirlashib, ayni paytda quvonib ham ketdi, chunki pashshaning borligi go'sht, ya'ni bo'ri uyasi yaqinligidan darak berardi. Burniga turli hidlar urildi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas buzoqning kalla suyagini uchratdi. Senya o'rnidan turdi.

Undan besh qadamcha naridan tik jarlik boshlanardi. Jarlik yoqasida o'sgan ulkan yovvoyi nok daraxtining ildizlari havoda muallaq osilib turadi. Ildizlar orasida teshik qorayib ko'rinadi. Bu tabiiy o'ra ichida joylashgan uya edi. Uya og'zida joylashgan uch-to'rt kvadrat metrcha keladigan ixcham maydoncha top-toza, o'simliklardan holi edi. Bu maydonchada yoshi taxminan bir yarim oylik keladigan ikkita bo'richa o'tirishardi. Ular oldin Senyaga ajablanib qarashdi, keyin esa bir-birining ortidan yugurgilagancha uyaga qochib ketishdi. Uyada paydo bo'lgan ikki oyoqli g'alati mehmondan uzoqroq bo'lish kerak, degan qarorga kelishdi, shekilli.

Senya xanjari bilan o'rmon yong'og'ining shoxini kesib oldi. Keyin miltig'ini shay tutib turgan holda shoxni bo'ri uyasiga tiqdi. Uya unchalik chuqur emas, bir metrcha kelar, biroq ichkariga qarab kengayib ketgandi. Tayoqdan hurkigan bo'richalar past ovozdag'ingshishar, biroq boshqa ovoz chiqarishmasdi (bo'rilar vovullay olishmaydi).

Urg'ochi bo'ri yo'q edi. Senya ensiz kamarini yechib, cho'ntagiga soldi va belkurak bilan uya og'zini tozalay boshladi. U vaqti-vaqti bilan ishdan to'xtar va atrofga quloq solardi. Ba'zan nazarida qandaydir shovqinlar eshitilgandek bo'lar, shunda u tayyor turgan miltig'ini qo'lga olar va xavotirda kutib o'tirardi. Baxtiga shitirlashlar bo'rilarga tegishli emas edi. Faqat bir safargina uning yuragi qinidan chiqib ketayozdi – kutilmaganda shundoqqina qulog'i ustida zag'izg'on shaqillab qoldi-ku! Bu qush o'zining shaqillashi bilan bo'ringa e'tiborini tortishi mumkin. Uning juda rasvo odati bor: inson o'tsa – shaqillaydi, bo'ri chopib o'tsa – shaqillaydi, quyonni ko'rsa ham shaqillaydi! Ba'zan Senyaning nazarida, miltig'i kerak paytda shartta qo'lga olishi uchun noqulayroq turgandek tuyuladi. Shunda u miltiqning tepkisini ko'tarib, uni tizzasi yoniga qo'yadida ishida davom etadi. Bu yerda «tanishi» bilan uchrashib qolishi yaxshilik bilan tugamaydi, urg'ochi bo'ri esa istalgan paytda butazordan otilib chiqib kelishi mumkin. Shu sababli Senya butun mushaklari sirqirab og'rishiga qaramay, tinmay ishlayverdi. Uning nazarida uya og'zi sekin ochilayotgandek tuyulardi. Biroq yigitning nazarida shunday tuyulardi, zero yarim soatchadan so'ng u gavdasining yarmigacha uyaga kira oladigan bo'ldi.

Mana, u paxtaligini yechdi. Atrofiga quloq tutdi. Peshanasidagi terni yengi bilan artirdi. Yana bir marta miltig'iga qaradi va... uyaga kirdi. Bo'rilarning o'ziga xos o'tkir hidi dimog'iga urildi.

U qo'lini uzatib, uya tubini paypasladi. Yer toza, hech qanday to'shama yo'q edi. U kafti bilan uya tubining o'ng tarafini timirskiladi va barmoqlari yumshoq narsaga tekkanini sezib, bo'richani mahkam changalladi. Jonivorcha bo'yni Senyaning qo'li ostiga to'g'ri kelib qolgan, mana endi u yigitning kuchli barmoqlaridan bo'g'ilib, nafas ololmay qolgandi.

Senya uyadan tashqariga chiqdi. Barmoqlarini ochdi. Bo'richa bir necha marta nafas oldi-yu, darrov o'ziga kelib, uyaga qarab qochishga urindi. Broq Senya ikkala qo'li bilan uni mahkam qisib oldi va bo'richaning tipirlashiga, ingillashiga e'tibor bermay, qornidan kamarini o'tkazib, bog'lab oldi. To'q kulrang tusli bo'richa ilgari insonni mutlaqo ko'rmaganiga qaramay, darrov uni yomon ko'rib qoldi. Mittivoy kamarni g'ajishga urinar, yerni chaynar, biroq hech narsa qila olmasdi.

Senya bo'richani paxtaligiga o'radi-da, eski iz bo'ylab jar tepasiga ko'tarila boshladi. Bo'richani ko'tarib olganidan keyin jarlik bo'ylab tepaga emaklash ancha qiyinlashgandi. Biroq shoshilish kerak edi, aks holda u «tanish»ini shu yerda – bo'rilar so'qmog'ida uchratib qolishi mumkin... Obbo, la'nati zag'izg'on-ey! Senya qushga e'tibor bermay, kuchi boricha olg'a intildi.

U tepaga chiqqanida, ko'ylagi uvadaga aylanib ketgan, badani shilinib-tilinib ketgandi. Bu qo'rqinchli emas, bitib ketadi, eng muhimi – Senya tepaga chiqdi.

U yana yog'och kesib oldi-da, uning uchiga bo'richaning belidan o'tkazilgan kamarni bog'ladi va uni tortib ketdi. Bo'richa to'rt oyog'ini yerga tirab qarshilik ko'rsatar, ba'zan yoniga dumalab ketardi, ba'zan esa tishlari bilan kamarga yopishib olishni uddalar va g'ujanak bo'lganicha sudralib kelardi.

Senya tez yurib borardi. Lekin bo'richa yana umbaloq osha boshlaganida, to'xtadi-da, uning ozgina nafas olishiga imkon berdi, keyin yana sudrab ketdi. U shamol faqat orqasidan urib turadigan qilib yurardi. Shu tariqa bo'richani dastlabki kunlari bo'rilar ni kuzatgan joyidagi o'raga olib keldi. Bu yerda madori qurigan va qiynalib ketganidan tishlashga urinmay ham qo'ygan, faqat qaltiraganicha og'ir-og'ir nafas olayotgan bo'richani yechdi. Keyin Senya tezgina chuqurligi yarim metr keladigan o'racha kavlati. Bo'richani paxtalikka o'rab, bu tugunchani chuqurga joyladi-da, kamarni qoziq bilan yerga qoqib qo'ydi.

Endi Senya qo'lida miltiq tutganicha yuzini bo'richani olib kelgan tomondan esayotgan shamolga tutib o'tirardi. U uyasiga kelgan urg'ochi bo'ri zudlik bilan bo'richaning izidan otilishiga umid

qilardi. Agar shamol o'sha tomondan essa, bo'ri miltiqning hidini ololmaydi, Senyani esa bir necha qadam naridan ko'rishi mumkin. Uning o'zi «tanishi» bilan qisqa va dahshatli uchrashuvga oshiqardi.

Oradan qancha vaqt o'tdi, buni Senya bila olmadi. U hatto shom yaqinlashayotganini ham, havo sovib ketganini ham sezmedi, biroq shamol pasayganidan oqshom tushganini bildi. Shamol tindi.

Bu judayam, judayam yomon edi. Biroq yigit shunday deb o'ylashi bilan kutilmaganda... «tanishi» boshini yerga osiltirganicha bolasining izidan chopib kelayotganini ko'rdi. Senya miltig'ini qo'lida mahkam siqib, yerga qapishib oldi. Urg'ochi bo'ri hech narsani o'ylamay, shoshilganicha to'ppa-to'g'ri Senya tomon yugurib kelardi. U hamma narsaga tayyor edi. Mana, ikki yuz metr qoldi... Yuz... U boshini o'girdi va to'xtamasdan yon tarafiga qaradi. Shunda Senya bo'ringa keng peshanasini, yerga osilib tushgan dumini va yelkasidagi bukrisini ko'rdi.

«Uni yarador qilmaslik kerak, – deb o'yladi u. – Uni yaralamasligim kerak. Uni o'ldirishim yoki butunlay tegizmasligim lozim». Soniyaning qandaydir bir ulushi davomida u Mashani esladi, biroq bu tez o'tib ketdi... «Tanishi» xuddi nimagadir urilgandek Senyadan o'n qadamcha narida taqqa to'xtadi. U payqagandi. Uning yelkasidagi junlari tikraydi, tishlarini salgina irjaytirgancha asta yura boshladi. Senya urg'ochi bo'ringa och-qizil tusli milkini ko'rdi. Ha, u endi bolasini kim olib ketganini aniq bilardi. Bilardi!

Senya urg'ochi bo'ringa ko'ksiga qarata o'q uzdi. Tutun bir soniyaga urg'ochi bo'rini uning ko'zidan yashirdi. Bir milli miltig'ini qayta o'qlashga ulgurolmasligini bilgan Senya etigi qo'njidan xanjarni sug'urib, cho'kkalab o'tirdi. Shunda «tanishi» cho'k tushganini, burni esa yerga taqalib qolganini ko'rdi. Mana, butunlay yerga qulashni istamagan urg'ochi bo'ri orqa oyoqlarini ko'tarib, qaddini rostlashga urindi. U yana oyoqqa turishni va so'nggi marta hujumga o'tishni va dushmanining bo'g'ziga tishlarini botirib, ularni ochmasdan o'lishni xohlardi. Mana, u to'rttala oyog'ida turib oldi-yu... yerga quladi.

Hammasi tamom bo'ldi. «Tanishi» Senyaning qarshisida yotar-di. Kiyimlari uvada bo'lib ketgan, shiliniy-tilingan yuz-ko'zlaridan

oqqan qon qotib qolgan, ko'rinishi dahshatli tusga kirgan yigit yana bir daqiqacha qo'lida xanjarini tayyor tutib, ancha vaqt cho'kkalab o'tirdi.

...Erkak bo'rini urg'ochisidan keyin o'ldirdi. Senya urg'ochi bo'rining jasadini yuz metrcha masofaga sudrab borib, yana pistirmasiga joylashib oldi. Pistirma borligini xayoliga ham keltirmay, shaxt bilan yugurib kelayotgan bo'ri u bilan to'qnashdi. Senyani ko'rgan bo'ri boshini keskin yon tomonga burdi-yu, qochishga tushdi, biroq biqiniga sochma o'q qadaldi.

– Qo'rqq! – nafratlanib dedi Senya allaqachon jon taslim qilgan erkak bo'rining yoniga yaqinlasharkan.

Bo'ri uyasida yana uchta bo'richa bor ekan. Ularni Senya ertasi kuni ertalab o'ldirdi. U katta bo'rilar va uchta bo'richaning jasadini o'raga tortib olib keldi-da, paxtaligi ichidagi tirik qolgan bo'richani qo'ltig'iga qistirib, asta uyiga jo'nadi. U kamarini bo'richaning boshidan yechib oldi. Paxtalikning ichi issiq va qulay bo'lgani uchunmi, yoxud judayam qiynalib ketgani uchunmi, bo'richa o'ziga boshpana berishganidan xursand edi. U tishlashga urinmas, irillamas, lekin Senyaga qaramas, tumshuqchasini chetga o'girib, boshini yerga osiltirib ketardi.

Uyigacha bo'lgan oxirgi qadamlar shunaqangi og'ir bo'ldiki, to-morqalar oralab o'tib ketayotgan Senya kartoshkalar orasida yiqilib qolmaslikka urindi.

Masha uyda yo'q ekan. Senya bo'richani o'choq ostiga joylashtirib, ko'ylagi va shimining uvadalarini yechdi, hovlidagi quduq yoniga borib, ustidan bir chelak sovuq suv quydi, hech narsani o'ylamay ozgina o'tirdi, shundan keyingina yuvina boshladi.

U idoraga odatdagidek asta kirib bordi va Aleksey Stepanovichning eshigini taqillatdi.

– Kiring! – dedi rais.

Senya kirganida Aleksey Stepanovich uning qo'lini qattiq qisdi.

– Aleksey Stepanich! – dedi Senya. – Bo'rilarni olib kelishga arava jo'natish kerak edi.

– O'ldirdingmi?

– O'ldirdim.

Bo'rilarni olib kelishgach, to'plangan odamlar ularni tomosha qilib, tahsin o'qiy boshlashganidan so'nggina, Aleksey Stepanovich Senyaning qilgan ishini tushunib yetdi. Bu yigitning ishini bajarishga kamida uchta ovchi birlashibgina jur'at qilishi mumkin edi. Senya esa o'ziga qaratilgan maqtovlarga e'tibor ham bermay bo'rilarning yonida o'yga botib turarkan, «tanishi»ga qarab asta dedi:

– Mana, tamom... Mana, tamom...

Urg'ochi bo'ri bilan ajralishga uning sirayam ko'zi qiymasdi. Gurey buni o'zicha tushunib, dedi:

– Bilsang, Semyon Stepanich, seni xudoning o'zi asradi.

– Gurey Mitrich, garchi kekxa bo'lsangiz-da, lekin tentak odamsiz! – e'tiroz bildirdi Senya.

Eng qizig'i shundaki, Chug'urchuq uning gapidan xafa bo'lmadi, aksincha unga javoban bidirladi:

– Semyon Stepanich, har bir odamga xudo tomonidan o'ziga yarasha aql beriladi, – u bir zum jim turgach, ochiqdan ochiq hasad ohangida dedi. – Demak, har bir bo'ri boshiga uch yuz so'mdan berilsa, bir yarim ming bo'ladi, mo'ynasi ham kamida olti yuz so'mga tortadi. Qoyil! Ikki mingdan osharkan!

Gurka-Chug'urchuq ensasini qashladi, hasaddan tomoq qirib qo'ydi va bir qo'li bilan shimining old tugmasini, ikkinchi qo'li bilan bel qismini ushlab, tortib qo'ydi. U hozir bo'rilarni o'zi o'ldirmaganidan judayam afsuslanar, nazarida bu ishni qoyillatadigandek tuyulardi. Shunga qaramay, u yana qaytardi:

– Ha-a... Ikki mingdan oshadi.

– Gurey Mitrich, bu hali hammasi emas. Jamoa xo'jaligi mukofot sifatida har bir o'ldirilgan katta bo'ri uchun bittadan qo'y beradi, – gapga aralashdi Aleksey Stepanovich.

Biroq Senya Gurkaning gaplarini eshitmasdi ham. U hamon «tanishi»dan ko'z uzmay tikilardi. Keyin u past ovozda dedi:

– Mana, hammasi tamom bo'ldi...

Uyiga kelgach, Senya bo'richani o'choq ostidan chiqardi-da, o'ychan holda unga tikilib uzoq o'tirdi. Uning yonida quvonchi ichiga sig'mayotgan Masha o'tirardi.

Bu voqea ikki yil muqaddam sodir bo'lgan. Bo'richa allaqachon ulg'ayib, kattakon bo'riga aylandi. U Kostyadan boshqa hech kimning o'ziga qo'l tegizishiga yo'l qo'ymaydi. Aleksey Stepanovich esa hamon jamoa xo'jaligini boshqaradi va Senyaning uyiga ko'p kirib turadi. Shunda bo'ri raisga xotirjam, viqor bilan qarab turadi.

Xullas, agar qo'lga o'rgatilgan bo'rini ko'rishni istasangiz, to'g'ri «Yorug' yo'l» jamoa xo'jaligida yashovchi Semyon Stepanovich Troshinning uyiga keling. Faqat kunduzi uni uydan topolmasligingizni unutmang, chunki u ishda bo'ladi. Agar ovga ketgan bo'lsa, uni kamida ikki kun kutishga to'g'ri keladi. U hamon o'zgarmagan – bizning haqiqiy, ba'zan tomchilarda aks etadigan hayotimizni judayam yaxshi ko'radi.





MUNDARIJA

OQ BIM QORAQULOQ

Birinchi bob

Bir xonada ikkovlon..... 4

Ikkinchi bob

Bahorgi o'rmon..... 19

Uchinchi bob

Bimning birinchi dushmani..... 25

To'rtinchi bob

Sariq barg..... 37

Beshinchi bob

Bo'rijardagi ov..... 44

Oltinchi bob

Do'st bilan vidolashuv 51

Yettinchi bob

Qidiruv davom etadi..... 69

Sakkizinchi bob

Temiryo'ldagi hodisa..... 79

To'qqizinchi bob

Bimning ustidan shikoyat..... 91

<i>O'ninchi bob</i>	
Bim pulga sotib yuborildi	101
<i>O'n birinchi bob</i>	
Qoraquloq qishloqda.....	111
<i>O'n ikkinchi bob</i>	
G'ayrioddiy ov.....	124
<i>O'n uchinchi bob</i>	
O'rmon shifoxonasi.....	145
<i>O'n to'rtinchi bob</i>	
Yana qadrdon eshik tomon.....	164
<i>O'n beshinchi bob</i>	
Temir furgonning siri.....	173
<i>O'n oltinchi bob</i>	
Qidiruvdagi uchrashuvlar	181
<i>O'n yettinchi bob</i>	
O'rmon xo'rsindi (Xotima o'rnida)	197

HIKOYALAR

Qo'shnilar.....	202
Tikjar yonida.....	238

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

Gavriil Nikolayevich TROYEPOLSKIY

OQ BIM QORAQULOQ

Qissa va hikoyalar

Rus tilidan **Muhabbat Yoʻldosheva** tarjimasi

Nashr uchun masʼul **A. Boboniyozov**

Toʻplab, nashrga tayyorlovchi **Sh. Beknazarova**

Muharrir **Sh. Beknazarova**

Rassom-dizayner **B. Zufarov**

Texnik muharrir **L. Xijova**

Kichik muharrir **M. Salimova**

Kompyuterda tayyorlovchi **K. Xamidullayeva**

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 23-sentabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 17,50.
Nashr tabog'i 16,92. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-368.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz

23408,25

Troyepolskiy, Gavriil Nikolayevich.

T 78 **Oq Bim qoraquloq** [Matn]: qissa va hikoyalar. /
G.N.Troyepolskiy. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU,
2021. – 280 b.

ISBN 978-9943-7334-7-3

UO‘K 821.161.1-32
KBK 84(2Ros-Rus)





G.N. Troypolskiy

«O‘ZBEKISTON»

